




Hind xalq eposi

Kalila va dimna



QUTUBXONA
SACRIFIKAT



Hind xalq eposi

Kalila va dimna



YANGI ASR AVLODI
TOSHKENT
2014

UO'K: 821.21-3
KBK: 82.3(5Hin)
K19

Kalila va Dimna / Tarjimon: Suyima G'aniyeva. -T.:
Yangi asr avlodi, 2014. - 304 b.

ISBN 978-9943-27-188-3

Bu asar, necha asrlarki, hikmat va masallar bobida munosib o'rin egallab kelmoqda. Xalq hayoti, dardi, ahli donishlar ulug'vorligi, hozirjavoblik, donolik aks etgani uchun ham "Kalila va Dimna" ta'rif va tavsifga ega. Undagi masallar, hikmatlar mag'zi insoniylik, olijanoblikni ulug'laydi. Tarbiyaviy ahamiyati jihatidan ham ushbu bebaho asar bugun-da o'z qiymatini yo'qotmagan. O'qing, uqing, donolar olamida bo'ling.

UO'K: 821.21-3
KBK 82.3(5Hin)

Tarjimon:
Suyima G'ANIYEVA



ISBN 978-9943-27-188-3

© «Kalila va Dimna». «Yangi asr avlodi», 2014-yil.



ABADIYATGA DAXLDOR YODGORLIK

«Kalila va Dimna», rivoyatlarga ko'ra, aslida qadim zamonlarda hind faylasuf olimlari tomonidan yozilgan. U hind folklori asosida yaratilgan bo'lib, «Panchatantra», «Xitopadeshe» va boshqa asarlar bilan ildizi birdir.

«Kalila va Dimna» Eron shohi Anushiravon (531–579) davrida Hindistondan saroy fuzalolaridan bo'lgan Barzuya hakim tomonidan yashirincha Eronga keltirilib, pahlaviy tiliga tarjima qilingan. Bu tarjima yo'qolib ketgan, lekin pahlaviy tilidan suriya tiliga qilingan tarjima (taxminan 570-yillar, mutarjim Bud nomli shaxs) adabiyotga nodir yodgorlik sifatida qo'shildi. «Kalila va Dimna»ning Abbosiylar xalifaligi davrida o'sha zamonning eng donishmand olimlaridan bo'lmish kotib Abdulla ibn-al Muqaffa (721–757) tomonidan arab tiliga qilingan tarjimasi uning butun dunyo bo'ylab tarqalishiga sabab bo'ldi.

Eski sharq an'anasiga ko'ra, Ibn-al Muqaffa «Kalila va Dimna»ni tarjima etish asnosida faqat muqaddima yozibgina qolmay, asarning asosiy matniga ham birmuncha o'zgarishlar kiritgan. Masalan, u «Dimna ishining tekshirilishi» faslini o'zidan qo'shgan.

X–XI asrlarda «Kalila va Dimna» Ibn-al Muqaffa tarjimasi asosida yana suriya tiliga, XI asrning oxirlarida yunon tiliga, XII asrda yunonchadan slavyan tiliga, XIII asr o'rtalarida yahudiy tiliga, bir necha o'n yillardan keyin esa lotin tiliga tarjima qilingan. Ana shu oxirgi tarjima fransuz, italyan, nemis va boshqa g'arb tillariga qilingan tarjimalarga asos bo'lib xizmat qilgan.

1889-yilda mashhur rus sharqshunoslari M.Attaye va M.Ryabinin «Kalila va Dimna»ni rus tiliga tarjima qildilar. Rus olimi I.Yu.Krachkovskiy o'zining yosh iste'dodli

shogirdi I.P.Kuzminga «Kalila va Dimna»ni arabchadan rus tiliga tarjima qilishni topshiradi.

T.P. Kuzmin mashhur arabshunos L.Shayxo tomondan 1905-yil Bayrutda nashr qilingan, 1923-yilda esa qaytadan tahrir qilinib tuzatilgan variantini asos qilib oladi. T.P.Kuzminning bevaqt vafoti tarjimaning tugallanmay qolishiga sabab bo'ladi. I.Yu.Krachkovskiy uni tugatib, L.Shayxoning matniga moslashtirib qayta ishlab chiqadi. Bu tarjima Ye.E. Bertels so'z boshisi bilan 1957-yilda Moskvada ikkinchi dafa nashr etiladi.

Arab va suriya tillariga qilingan tarjimalardan keyin tojik adabiyotining otasi, mashhur shoir Rudakiy (940–941 yilda vafot etdi) «Kalila va Dimna»ni fors-tojik tiliga nazm bilan, 1143–1144 yilda esa Nizomiddin Abul Maoliy Nasrulloh nasr bilan tarjima qiladilar.

XVI asrga kelib «Kalila va Dimna»ni Husayn Boyqaro farmoni bilan hirotlik shoir Husayn Voiz Koshifiy fors tiliga qaytadan tarjima qiladi, asarga «Anvori Suhayliy» deb nom beradi va uni Sulton Husayn Boyqaroga bag'ishlaydi.

Nihoyat, Hindistonda boburiylar davrida Akbarshohning (1556–1605) vaziri Abul Fazl bin Muborakshoh «Anvori Suhayliy»ni qaytadan ishlaydi, uning tili, uslubini birmuncha soddalashtiradi va uni «Iyyori donish» deb ataydi. XVI asrda bu noyob yodgorlikning fors tilidan turkiy tilga «Humoyunnoma» nomi ostida qilingan tarjimasi keng shuhrat qozonadi.

XIX asr oxirlarida Qozonda Gabdalgallam Fayzxon o'g'li bu asarni arabcha asliyatdan tatarchaga tarjima qilib topografiya usulida bosmadan chiqartirdi.

Bu yerda quyidagilarni aytib o'tmoq lozim.

G'arbda tarjima qilishda asl matnni mumkin qadar o'z holicha saqlab qolishga intilish, sharqda esa aksari asl matnni erkin tarjima qilish an'anasi kuchlidir, sharqda tarjimon asl matnni qisman bo'lsa-da, o'z dunyoqarashi va davri talablariga ko'ra talqin etish va shu bilan birga, hatto o'zidan qo'shishga harakat qiladi, bu an'ana tusiga kirgan. Sharq xalqlari tillariga qilingan tarjimalarga

yondashishda shuni ko'zda tutmoq lozim. Arab, fors va boshqa sharq tillariga qilingan tarjimalar shundan dalolat beradi. Bu narsa «Kalila va Dimna»ning o'zbek tiliga qilingan tarjimalariga ham oiddir.

Uning o'zbekchaga qilingan birinchi tarjimasi taxminan XIII asrga to'g'ri keladi. Bu tarjimaning yagona nusxasi Londonda «Indiya offis» kutubxonasida saqlanmoqda. Mutarjimi Iftixoriddin Muhammad Bakriy. Ingliz sharqshunosi Ete o'z katalogida mazkur nusxasiga qisqacha sharh beradi.

1131 (1718–1719)-yillarda «Kalila va Dimna» Qashqarda Mulla Temur tomonidan «Anvori Suhayliy» asosida tarjima qilinadi va unga «Osori Imomiya» deb nom beriladi.

1253 (1837–1838)-yillarda «Kalila va Dimna» Xivada Xorazm xonlaridan Olloqulixon hukmronligi davrida Mulla Muhammad Niyoz tomonidan forschadan o'zbek tiliga tarjima qilinadi. Mutarjimning tarjimaga yozgan muqaddimasida asarning O'rta Osiyoda keng tarqalganligi, sevilib o'qilganligi, avval ham bir necha bor tarjima qilinganligi aytiladi.

«Kalila va Dimna»ning o'zbek tilidagi tarjimalari orasida xalq ichida eng mashhuri 1898-yilda Toshkentda litografiya usulida nashr etilgan Qori Fazlulloh (taxallusi Almaiy) tomonidan bajarilgan tarjimadir. Boshqa sharq tarjimonlari kabi Almaiy ham asliyatni juda erkin tarjima qiladi, ma'lum darajada asarga o'z hissasini ham qo'shadi. Bu masalaning bir muhim tomonidir. Masalaning ikkinchi tomoni shuki, uning (Almaiyning) o'ziga xos tarjima tili va uslubi bor.

Almaiy tarjimasi qisqa muddat — 1901–1913-yillar ichida uch marta toshbosmada nashr etiladi.

O'zRFA Aburayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalari fondida «Kalila va Dimna»ning 1131 (1718–1719)-yillarda Mulla Temur tomonidan Qashqarda bajarilgan uchta qo'lyozma nusxasi (inv. 7451, 5807, 1321-sonli), Almaiy tarjimasining 1318 (1900)-yilda ko'chirilgan nusxasi ham saqlanadi.

Bulardan tashqari, shu fondda bu nodir asarning bir necha forsiy qo'lyozma nusxalari va talaygina toshbosma nashrlari ham mavjud.

Shuni qayd etmoq lozimki, Almaiy tarjima qilishda, yuqorida aytganimizdek, asl matnga juda erkin munosabatda bo'lgan. Buning ustiga, uning tili og'ir, forsiy-arabiy iboralar bilan to'lgan, keng o'quvchilar ommasi aksar ularni tushuna olmaydi.

1960-yilda «Kalila va Dimna»ning R. Sultonov tomonidan ozarbayjonchaga qilingan tarjimasi nashr etildi. U o'z davrining mashhur olimi, adibi Abulmaoliy matnini asos qilib olgan. 1962-yilda mazkur tarjimaning mukammallashtirilgan ikkinchi nashri chiqdi. Bu hozirga qadar turkiy tillarda bo'lgan va chop etilganlar orasida eng e'tiborlisidir. Kitobxonlarga taqdim etilayotgan bu asarni tarjima qilishda biz Eronda 1938-yili Abdulazim G'arib tomonidan nashr etilgan matn va ozarbayjon tarjimasini asos qilib oldik.

Asarni tarjima etish va nashrga tayyorlashda quyidagi jihatlarga e'tibor qilingan:

1. Mumkin qadar mukammalroq matnni o'quvchilarga taqdim etish. Shu maqsadda, yuqorida aytilganidek, asosan oxirgi ozarbayjon nashrini olib, unga Almaiydan ba'zi hikoyatlar qo'shilgan.

2. Asos qilib olgan matnda keraksiz qaytariqlar, haddan ortiq tafsilotlar qisqartirilgan. Shu bilan birga, asliyatdagi tarbiyaga, odobga xilof, g'oyat behayo parcha yo jumlar ham qisqartirildi. Buni amalga oshirishda ham asarning umumiy xususiyatiga putur yetkazmaslik ko'zda tutildi.

3. Asarning ayrim parchalari erkin tarjima qilinib, ularning muxtasar bayoni berildi, shuning uchun bu kitobga «Kalila va Dimna»ning akademik nashri emas, ommabop nashri deb qarash kerak.

4. Ma'lumki, «Kalila va Dimna»ning tili va uslubi folklor tili va uslubiga monanddir. Shuning uchun ham tarixiy haqiqatga va asliyatga zid ish ko'rmaslik maqsadida shu narsaga rioya qilingan. Shu bilan birga, jonli xalq tilining

xususiyatlari va boyliklaridan foydalanishga harakat bo'lgan.

5. Asardagi ba'zi personajlar nomi turli nashrlarda har xildir. Bunda Almaiy nusxasida berilgan nomlar olingan.

«Kalila va Dimna» uzoq vaqtlardan beri o'zbek xalqiga ma'lum, uning ko'p hikmatli so'zlari, ajoyib hikoyalari har xil yo'llar bilan xalq orasiga keng yoyilib, og'izdan-og'izga o'tib kelmoqda. Asarning o'zbek xalq ijodi va yozma adabiyotiga ham ta'siri katta. Buning izlarini mashhur adabiy yodgorliklarimizda yaqqol ko'rish mumkin. Asarning XIX asrda o'zbek tilida, toshbosmada uch dafa nashr etilishi adabiy-ma'naviy hayotimizda g'oyat muhim hodisa bo'ldi. Natijada, bu shoh asar o'zbek xalqining ham mulkiga aylanib qoldi.

Suyima G'ANIYEVA



IBN-ASH-SHOH AL-FORSIY NOMI BILAN MASHHUR BO'LGAN BEHNUD IBN SAHVONING MUQADDIMASI

Hamdu sanodan so'ng biz bu muqaddimada brahmanlarning piri murshidi, hind faylasufi Beydabo nima sababdan hind podshohi Dobshalimga «Kalila va Dimna» kitobini yozib taqdim qilganini bayon etamiz. Bu kitobning mazmun va maqsadini johil kimsalardin pinhon tutish uchun undagi rivoyatlar hayvonlar va qushlar tilidan naql etiladi.

Beaql odamlar uchun u yuzaki ko'rinar, ammo farosatli odamlar unda g'oyat chuqur, ibratli ma'no javohirlarini topadilar, manbalari juda boy va go'zal ekanligini ko'radilar. Bu kitob faylasuf uchun — keng bir fazo, aql uchun — buyuk mashq maydoni, kitob muxlislari uchun — unutilmas xotira, ma'nosiga tushunadiganlar uchun — ajoyib bir ibrat xazinasidir.


Biz Eron shahanshohi Xusrav Anushirvonning nima uchun hakimlar boshlig'i Barzuyani hind mamlakatiga «Kalila va Dimna» kitobini olib kelish uchun yuborganini hikoya etamiz. Barzuya Hindistonga kelganidan so'ng hind shohining xazinasiga yashirincha kirib, «Kalila va Dimna»ni ko'chirishga rozilik bergan kotibni topish uchun qanday hiylalar ishlatganini, hind olimlarining boshqa kitoblarini, har tomoni o'n xonali bo'lgan shaxmatni va bu kitobni qanday qilib Eronga keltirganini tasvir etamiz.

Biz bu yerda nima uchun Buzurjmehr Ibn-al Buxteqoning bu kitobga muqaddima yozganligini aytib, ayni zamonda kitobning fazilatlarini ham ko'rsatib o'tamiz. Biz bu kitobni qo'lga olgan har bir odamni uni o'rganishga, unga qayta-qayta murojaat qilishga, uning foydali va ibratli tomonlariga diqqat etishga da'vat etamiz. Yolg'iz shu vaqtdagina o'quvchi bu kitob inson orzu

qiladigan har narsadan afzal ekanligini ko'radi. Buning uchun kitobdagi ma'juziy so'zlarning mag'zini chaqmoq lozimdir. Aks holda, o'quvchi kitob oldiga qo'yilgan maqsadni tushuna olmaydi. Biz bu yerda Barzuyaning qaytishi va kitobni o'qish usulini kashf etganini, Huzurjmehr nima uchun «Barzuya hakim» nomi bilan maxsus bir bob yozganini, bu bobda Barzuyaning tug'ilganidan boshlab qanday o'qiganini, ilohiyotga berilgani va turli oqimlar bilan tanish bo'lganligini, bu bobni «Sher va ho'kiz» bobidan oldin keltirilganining sababini ham ko'rsatib o'tamiz.

Ali ibn ash-Shoh Forsiyning naql qilishicha, faylasuf Beydabo quyidagi sabablarga ko'ra hind podshohi Dobshalim uchun «Kalila va Dimna» kitobini yozgan: rumlik Iskandar Zulqarnayn g'arb shohlarini mag'lub qilgandan keyin sharq podshohlari Eroniylar va boshqalarga qarshi hujum boshladi. U o'z dushmanini mag'lubiyatga uchratmaguncha yoki o'ziga tobe etmaguncha qattiq kurash olib borar, urushni istaganlar bilan urushar, sulh istaganlar bilan sulh tuzar edi. Eron shohlari uning yo'liga to'g'anoq bo'lgan birinchi dushmanlari edi. Eroniylar birinchi urushdayoq tuntaraqay bo'lib, har yoqqa to'zg'ib ketdi. Bundan so'ng Iskandar Zulqarnayn Xitoy tomon qo'shin surdi. Eng avval hind mamlakatini zabt etish zarur edi. Iskandar hind podshohini o'ziga bo'ysundirmoqchi, o'z dini va hukmronligini unga qabul ettirmoqchi bo'ldi. Bu vaqtda Hindistonda Forek nomli kuchli botir, yengilmas va tadbirli kishi hukmdorlik qilardi.

U Iskandar Zulqarnaynning bostirib kelayotganidan xabar topgach, urushga tayyorgarlik ko'ra boshladi. Urush uchun lozim bo'lgan butun tadbirlarni ko'rdi. Pahlavonlarni chaqirib, jangga hozirlik ko'rishni amr etdi. Qisqa muddat ichida jangovar fil to'dalari, maxsus hujumga o'rgatilgan yirtqich hayvonlar, tamg'a bostirilgan otlar, uzun nayzalar, o'tkir qilichlar, yarqiroq qalqonlar hozirladilar.



Yunonlar Forek turgan joyga yaqinlashganida hindlarning shu mahalgacha misli ko'rimagan lak-lak otliq askarlar hozirlab qo'rganlari haqida Iskandarga xabar yetkazdilar. Buni eshitib Iskandar jangning mag'lubiyat bilan tugashi mumkinligidan cho'chidi. Iskandar hiylakor va shafqatsiz bo'lishi bilan birga, sezgir va tadbirli odam ham edi. U askarlar qarorgohi atrofida xandaq qazdirib, shu yerda ma'lum vaqtga qadar sabr qilib turish, hind shohiga qarshi qanday jang qilish haqida kengash qurib, kerakli tadbir-choralarni ko'rishga qaror qildi. U munajjmlarni chaqirtirib, hind podshohiga hujum qilish, uni yengish uchun qaysi kun yaxshi ekanligini aniqlashni amr etdi. Munajjimlar shohning buyrug'ini bajo keltirib, xayrli kun va soatni belgilab berdilar. Iskandarning shunday bir odati bor edi: u qaysi shaharni zabt etsa, u yerdagi turli sohada shuhrat qozongan mohir ustalarni o'zi bilan olib ketar edi. U o'sha ustalarga misdan ichi bo'sh bo'lgan ot va suvorilar yasanglar, bu otlar g'ildiraklar ustiga o'rnatilgan va itarganda tez sur'at bilan harakat etadigan bo'lsin, deb buyruq berdi. Iskandar topshiriq bajarilgandan keyin otlarning ichini neft bilan to'ldirib, suvorilarga jang kiyimlarini kiygizishni va ularning hammasini qo'shinning markaz qismiga joylashtirishni, ikki tomonning qo'shinlari to'qnashishganda, otlarga o't yoqib, qo'yib yuborishni amr etdi. Toki dushmanning fillari qizib ketgan suvorilarga hujum qilganda xartumlari kuyib qochishga majbur bo'lsinlar.

U ustalarga bu ishlarni tezlik bilan bajarishni buyurdi. Ustalar jadallik bilan ish boshladilar. Munajjimlar belgilagan kun tobora yaqinlashib kelardi. Zulqarnayn o'z elchilarini hind podshohining yoniga yuborib, taslim bo'lmoqni unga taklif etdi. Lekin bunga javoban Forek: «Zulqarnayn azal dushmanimdir, unga qarshi qat'iy qarshilik ko'rsataman», deb javob qaytardi.

Zulqarnayn Forekning bu qarorini eshitgandan so'ng suvorilar bilan hujum boshladi. Forek ularga qarshi

fillarni jang maydoniga chiqartirdi. Iskandarning markardalari mis suvorilarni olg'a surdilar. Fillar hamlaga o'tib o'z xartumlari bilan mis suvorilarga yopishdilar. Xartumlari kuygandan keyin ustlaridagi askarlarni itqitib, oyoqlari bilan toptab, hech narsaga qaramay qocha boshladilar. Bu holni ko'rib Forek orqasiga qaramay qochdi, uning qo'shini har tomonga to'zib ketdi. Iskandarning askarlari esa quvlab borib ularni qidira boshladi. Shu vaqt Iskandar qichqirdi:

— Ey hind podshohi, kel, men bilan olish, o'z qo'shiningga, odamlaringga rahm qil. Ularni o'lim girdobiga tashlama. Falokat ro'y berganda qo'shinni tashlab qochmoqlik shohlarga yarashmaydi... Shoh o'zining butun kuch va quvvatini ishga solib, ularni mudofaa etmog'i, ularning najoti uchun o'z jonidan kechmog'i lozim. Shoh o'zining mol-dunyosi va hayotini ularga fido qilmog'i kerak. Qo'shinni qo'yib, mening qashimga, ma'rakai maydonga chiq, kim kimni o'ldirsa, o'aha xushbaxt bo'ladi.

Forek Zulqarnaynning bu so'zlarini eshitgach, baxtini tinamoq va g'olib kelmoq orzusi bilan unga ro'baro' bo'ldi. Har ikkala hukmdor bir necha soat ot ustida qilich o'ynatdilar. Lekin hech biri ustun kela olmadi. Iskandar toliqib, boshqa najot yo'li yo'qligini bilgandan keyin, shunday bir na'ra tortdiki, buning sadosidan yeru ko'klarzaga keldi. Forek askarlarim boshiga biror falokat tushdi shekilli, nega bu na'ra tortyapti, deb orqasiga qayrilib qaradi. Iskandar shu paytda bir zarba bilan uni yerga qulatdi. O'z shohlarining boshiga tushgan bu falokatni ko'rgan hindlar hujumga o'tdilar, o'z shohlari bilan birga o'lishni sharaf hisoblab, qizg'in jang boshladilar. Iskandar esa bong urib, agar taslim bo'lsalar ularga muruvvat qilishni aytdi va shundan keyin ular ustidan g'alaba qozonishga muvaffaq bo'ldi. Iskandar hindlar mamlakatini qo'lga kiritib, ishonchli odamlaridan birini ularga shoh qilib tayinladi. O'zi esa lozim bo'lgan tadbir va choralarni ko'rib, o'z hokimiyatini yaxshilab

o'rnatgunga qadar Hindistonda qoldi. So'ngra o'zining boshqa maqsadlarini amalga oshirish uchun safarga jo'nadi. U o'z qo'shinlari bilan Hindistondan uzoqlashgach, hindlar Iskandar qo'yib ketgan shohga bo'ysunishdan bosh tortdilar, ular:

— Hindiston kabi ulkan bir davlatga g'ayri jins bir odam podshohlik qilsa yarashmaydi. Bunday yot odam bizga iltifotsiz bo'ladi, hamisha bizlarni tahqir etadi, — dedilar va hind shahzodalaridan birini — Dobshalimni shoh qilib ko'tardilar. Iskandar qo'yib ketgan odamni esa taxtdan tushirdilar. Ammo Dobshalimning mavqei mustahkamlangandan keyin g'ururga berildi va atrofidagi shohlarni bezovta qila boshladi. U hamisha jangda g'olib kelar, shuning uchun ham atrofida bo'lgan shohlar vahimaga tushardilar, aholi esa undan yurak oldirib qo'ydi. O'z qudrati, hokimiyatining mustahkamligidan mag'rurlangan Dobshalim raiyatning qayg'usini chekmas, uni xo'rlar va ranjitar edi. U borgan sari haddidan oshardi.

Dobshalim zamonida o'z bilimi va ma'rifati bilan shuhrat qozongan, brahmanlardan bo'lgan donishmand bir faylasuf bor edi, hamma maslahat so'rab unga murojaat etar edi. Uning oti faylasuf Beydabo edi. Shohning raiyatga qarshi bunday adolatsizligini ko'rgan Beydabo uni adolat va to'g'rilik yo'liga qaytarish uchun chora izlay boshladi. U o'z shogirdlarini to'plab so'radi:

— Bilasizmi, men sizlar bilan nima haqida maslahatlashmoq istayman?

— Yo'q, bilmaymiz,— deb javob berdi ular.

— Men Dobshalim podshohning haddan oshgan adolatsizligi, uning qilayotgan son-sanoqsiz jinoyatlari va xalqqa zulm qilayotganini ko'rib o'ylab qoldim va uzoq mulohazadan so'ng shunday qarorga keldim. Biz shohning fe'li ayniganini payqaganimizda, uni yaxshilik qilishga, adolatli bo'lishga targ'ib etishimiz kerak. Agar uni o'z holiga qo'yib bersak, bu biz uchun kechirilmas gunoh bo'ladi, sonsiz-sanoqsiz falokatlar yuz beradi, biz qo'rzoqlar va bizlarni o'zlaridan aqlsiz hisoblaydigan, bizni

mensimaydigan ahmoq odamlar vaziyatiga tushib qolamiz. Men tugʻilib oʻsgan vatanimni tark etish fikrida emasman. Podshohning qabih ishlar qilishiga, xalqqa jabru zulm etishiga aql va idrokimiz yoʻl qoʻya olmaydi. U bilan kurashmoq uchun bizning aqldan boʻlak hech bir qurolimiz yoʻq. Madad izlab boshqa mamlakatlarga borish ham foyda bermaydi. Podshohning kirdikorlarini maʼqul koʻrmaganligimizni va undan noroziligimizni podsho sezsa, u bizni albatta halok etadi.

Siz bilasizki, goʻzal manzarali, noz-neʼmat koʻp boʻlgan yerda itning sher bilan, ilonning hoʻkiz bilan birga turishi tahlikalidir. Koʻngilsiz hodisalar va falokatlardan oʻzini himoya qila bilmoq, xavfning oldini olib, doʻstlar orttirmoq faylasufning burchidir. Aytishlaricha, bir faylasuf oʻz shogirdlariga shunday deb yozgan ekan: «Yomonga qoʻshni boʻlgan odam, dengiz sayyohiga oʻxshaydi: u gʻarq boʻlishdan qutulsa ham, qoʻrquvdan qutula olmaydi. Agar bunday odam tahlikali va dahshatli bir yerga borsa, uni fahmsiz va idroksiz bir hayvon deb hisoblamoq lozimdir, zotan, foydali va zararli narsalarni, hatto vahshiy hayvonlar ham farq eta biladilar.

Axir, suv ichmoq uchun hayvonlar ham oʻz toʻdalarini xavfli yerlarga hech olib bormaydilar, tasodifan shunday joyga kelib qolsalar, savqi tabiiy u yerdan qochishga majbur etadi, ular oʻz jonlarini saqlab qoladilar».

Men sizlarni mana shu masala yuzasidan bu yerga yigʻdim. Sizlar mening eng yaqin odamlarim va birdoshlarimsiz, mening tayanchim va takiyagohimsiz. Maʼlumdirki, yolgʻiz qolgan odam qayerda boʻlmasin halok boʻladi, oʻziga koʻmakchi topa olmaydi. Bu borada shunday bir rivoyat ham bordir:

Bir toʻrgʻay bir filning yoʻli ustida oʻziga uya qurib, tuxum bosdi. Fil shu soʻqmoqdan suv ichishga borar ekan. Fil suv ichishga ketayotganida uyani toptab, tuxumni ezib oʻtib ketdi. Toʻrgʻay bu badbaxtlikni koʻrib darhol bu filning ishi ekanligini angladi. Uchib borib filning boshiga qoʻndi va dedi:

— Shohim! Sen nima uchun tuxumlarimni pachoqlab, bolalarimni halok etding? O'zingga nisbatan meni zaif, kuchsiz va notavon deb sanaganing uchun shunday qildingmi?

— Ha, yolg'iz shuning uchun, — dedi fil.

To'rg'ay buni eshitgach, uchib qushlar yoniga bordi va boshiga tushgan falokatni aytib berdi.

Qushlar: «Biz filni nima ham qila olardik? Biz kuchsiz parrandalarmiz», dedilar.

To'rg'ay ularga dedi: «Iltimos qilaman, siz men bilan borib filning ko'zini cho'qib ko'r qiling. Uning boshiga men ham sho'r ish solishni bilaman». Ular rozi bo'ldilar. To'rg'aylar bilan uchib borib, filning ko'zini o'yib-o'yib tashladilar. Shundan keyin fil na suv ichish, na bir ovqat topib yeyishning ilojini qila oldi. Turgan joyida nima topsa, shu bilan kifoyalaniib kun kechiradigan bo'ldi. To'rg'ay buni ko'rgach, alamiga chidolmay, hovuz yoqasiga kelib qurbaqalarga fil ustidan shikoyat qildi. Ular: «Biz kuchli filga qarshi nima ham qila olardik?» dedilar. To'rg'ay aytdi: «Siz fil turgan joyga yaqin bo'lgan bir chuqurning chetiga borib, o'sha yerda baland ovoz bilan vaqir-vuqur qilsangiz, fil sizning ovozingizni eshitib, u yerda suv bor ekan, deb yoningizga boradi-da, chuqurga qulab ketadi». Qurbaqalar bunga rozi bo'ldilar. Chuqur chetiga borib vaqiray boshladilar. Suvsizlikdan qiynalgan fil qurbaqalarning ovozini eshitib, ular tomon yo'l oldi va chuqurga yiqilib halok bo'ldi. To'rg'ay esa uchib borib uning boshiga qo'ndi va qanot qoqib dedi: «Ey, o'z kuchiga ishonib, menga haqorat ko'zi bilan boqqan zulmkor! Jussam kichkina bo'lsa-da, zo'r aql egasi ekanligimni ko'rsatdim, sening bo'ying daroz bo'lsa-da, aqling qisqa ekan, xo'sh, endi nima deysan?!»

Beydabo o'z yonida o'tirganlarga: «Sizlardan eshitaylik, fikrlaringizni bayon qiling», dedi. Ular aytdilar:

— Ey aqlli, adolatli va donishmand faylasuf, bizning oramizda eng bilimdon odam sendursan. Bizning mulohaza va fikrimizning sening zakovating oldida nima

ahomiyati bor. Biz bilamiz, suvda timsoh bilan birga suzmoq tahlikalidir. Lekin bu yerda gunoh timsohda emas, uning yashaydigan yeriga borgan odamdadir. Agar kimda-kim o'zi ilonning og'zidan zaharini olib ichsa, ilon aybdor emas. Kim sherning g'origa kirmoqchi bo'lsa-yu, sher hujumidan emin bo'laman desa bekor aytibdi. Bu solim podshohga falokat va baxtsizlik ta'sir qilmaydi. Shohga kayfi chog' vaqtida uchrashilmasa, sen ham, bizlar ham uning g'azabidan qutula olmaymiz. Beydabo dedi:

— Rost aytdingiz, savolimga go'zal javob berdingiz. Lekin ma'rifatli odamlar ham o'zlaridan past va yuqori vazifadagi odamlar bilan maslahatlashmog'i kerak. Xususiy masalalarni hal etishda bir aql ozlik qilganidek, umumiy masalalarni yechishda ham kifoya qilmaydi. Mening Dobshalim shoh bilan ko'rishmoqqa ahd qilganim rostdir. Sizlarning so'zlaringizni tinglab, menga samimiy do'at ekanligingiz, mening ham, o'zingizning ham hayotingiz uchun tashvish tortayotganligingiz ayon bo'ldi. Lekin men shunday reja tuzib, tadbir o'ylab qo'ydimki, buning natijasini sizlar men podsho bilan uchrashgandan va u bilan suhbatlashgandan keyin bilasiz. Sizlar podsho huzuridan chiqqanligimni eshitishingiz bilanoq to'planishib, albatta, mening qoshimga kelinglar.

Beydabo do'stlari bilan xayrlashib, ketishga ijozat berdi. Ular o'rinlaridan turib duoi fотиha o'qib tarqaldilar. Beydabo brahmanlarning maxsus kiyimini kiyib podsho saroyiga yo'l oldi. Shohning darvozaboniga salom berib, sayrli bir ish yuzasidan shohni ko'rishim kerak edi, dedi. Darvozabon kirib shohdan ijozat so'radi. O'sha kun shohning bo'sh fursati bor edi, kirishga ijozat berdi. Beydabo ichkari kirib, shohga bosh egib ta'zim qildi-da, qaddini rostlab, biror og'iz ham so'z aytmay jim turaverdi. Dobshalim uning indamay turganligini ko'rib: «Bu faylasuf yolg'iz ikki maqsad bilan mening huzurimga kelishi mumkin: yo mendan biror in'om istab kelgan yoki boshiga falokat tushganu, panoh istab mendan o'z

dushmaniga eng og'ir va oliy jazo berishni so'ragani kelgan», deb o'yladi.

Keyin bu fikridan qaytdi: yo'q, faylasuflar bu xil ish bilan kelmaydilar. Shohlar o'z nufuzi jihatidan faylasuflardan ustun bo'lsalar ham, faylasuflar o'z bilimlari bilan shohlardan afzaldirlar. Zotan, donishmandlarning shohlarga ehtiyojlari yo'q, shohlar esa qanchalik boy bo'lmasinlar, donishmandlarga muhtojdirlar, ularsiz yashay olmaydilar. Men aql bilan hayoni eng yaqin va ajralmas do'st deb bilaman, biri yo'qolsa, ikkinchisini ham topib bo'lmaydi. Insonlar va hayvonlar orasida bo'ladigan do'stlik ham xuddi shundaydir. O'z yo'ldoshini yo'qotgan kimsa butun umr shu do'stini eslab qayg'uradi, azob chekadi. Kimki olimlardan hayo qilmasa, ularni hurmat etmasa, ularning afzalliklarini e'tirof etmasa, ularni haqoratlardan qutqarmasa, unday odamning aqli zoye ketadi va hayoti barbod bo'ladi. Olimlarga qarshi adolatsizlik qilganligi uchun unday odamni ahmoqlar qatoriga qo'shib qo'yadilar.

So'ng u Beydaboga qarab dedi:

— Men indamay turishingdan boshingga biror falokat tushgan bo'lsa kerak, deb o'ylayman. Sening uzoq jim qolganingdan shuni angladim va o'z-o'zimga dedim: «Beydabo bu yerga bizni tomosha qilishga kelmagandir. Uni bu yerga kelishga majbur qilgan bir sabab bo'lish kerak. Axir, u zamonamizning eng zakovatli odami-kul! Uning bu yerga kelishining sababini so'ramoqqa ehtiyoj bormi? Agar u yuz bergan adolatsizlikning oldini olish uchun bizdan ko'mak istagudek bo'lsa yordam qo'limizni cho'zib, orzulariga yetkazmoq lozimdir. Agar uning maqsadi bu dunyoning ne'matlari bo'lsa, amr etayin, uni istaganicha ta'min qilsinlar. Agarda u yolg'iz shohlarga xos bo'lgan boshqalarning daxli bo'lmagan masalalar bilan kelgan bo'lsa, garchi unday ishlarga bevosita aralashuv fikrida bo'lmasa ham, men unga qanday jazo berish kerakligi haqida o'ylab ko'rishim kerak. Mening diqqatimni

niyat ishlariga jalb etish uchun kelgan bo'lsa, ularni takshirtirib ko'raman. Axir aqlli odamlar yaxshi xabar keltiradilar, ahmoqlar esa, aksincha, yomon xabar bilan keladilar». Shunday qilib, so'zlash uchun senga ijozat bo'raman, ayt, nima istaysan?

Beydabo shohning so'zlarini eshitgach, biroz tinchlandi, yuragini bosgan qo'rquv tarqalgandek bo'ldi. Hosh egib ta'zim qilgandan so'ng dedi:

— Har narsadan avval Ollohdan tilagim shuki, shohning umri uzun, taxt va toji abadiy bo'lsin. Shoh menga yuksak hurmat ko'rsatdi, bu mendan keyingi olimlarning obro'yini orttiradi va dunyo turguncha donishmand odamlarning xotiridan chiqmaydi, chunki shoh o'z yuzini men tomon o'girdi, o'z marhamatini mendan ayamadi. Meni bu yerga kelishga majbur etgan narsa yolg'iz shohning o'ziga xayrli maslahat berishdir. Men shohdan olimlarga, ularning sha'niga munosib muomala qilishni talab etaman. U, fikrimni aytmoqqa ijozat berib, meni erkin qo'ysa bas, shundan keyin nima qilsa uning ishidir. Shoh mening aytgan so'zlarimga bovar qilmagan taqdirda ham men o'z burchimni ado etgan bo'laman. Xalq bu haqda mendan minnatdor bo'ladi.

Shoh dedi:

— Ey Beydabo, so'zla, men sening aytganlaringga diqqat bilan quloq osaman, yuragingda nimaiki bo'lsa, hammasini ayt, men senga shunga loyiq hadya berayin.

Beydabo dedi:

— Shohim, mening fikrimcha, insonni butun hayvonlardan yuqori qo'ygan, uni dunyoning butun sirlaridan xafif etgan to'rt narsa bordir: hikmat, aql, qanoat va adolat. Ilm tahsil etmoq, savod chiqarmoq va har narsani atroflicha tushuna bilmoq — hikmatga; tadbir, sabr, nazokat, marhamat — aqlga; hayo, olijanoblik, o'zini qo'lga olmoq va o'zining haq-huquqini bilmoq — qanoatga; to'g'rilik, vafodaga vafo, ezgu ishlar qilmoq va yaxshi xosiyatli bo'lmoq — adolatga tegishlidir. Bu sifatlarning barisi bir odamda mujassam bo'lsa, dunyodagi eng buyuk saodat

ham uni gangitib qo'ymaydi, eng katta baxtsizlik ham uni sarosimaga sola bilmaydi. Bunday odam uni xursand qilmaydigan narsalarning borligidan g'am yemaydi, o'zida mavjud narsalardan taqdir mahrum etgudek bo'lsa, xafalanmaydi, boshiga falokat kelsa, o'zini yo'qotib qo'ymaydi. Hikmat — bitmas va tunganmas xazinadir, xarjlaganing bilan u kamaymaydi, asraganing bilan unga nuqson yetmaydi. Hikmat shunday liboski, kiyganing bilan eskirmaydi. U nihoyasi yo'q rohatdir. Mening shoh qarshisida so'zlashga jur'at eta olmay turganimning sababi qo'rquv va shohga bo'lgan hurmatim edi. Shohlardan qo'rqmoq, xususan, o'zidan avval o'tgan shohlarga nisbatan sha'n va shavkati ortiq bo'lgan shohdan qo'rqmoq lozimdir. Otalar debdurlarki, tilingni saqla, boshing salomat bo'ladi, o'rinsiz so'zlamoning natijasi pushaymonlikdir.

Naql qilurlarkim, bir podsho maslahat uchun yoniga to'rt olimni chaqirib debdi: «Har biringiz shunday bir hikmatli so'z aytingki, u tarbiyaning asosi bo'lsin». Birinchisi aytibdi: «Donishmand odamlarga yarashadigan narsa so'zlamaslikdir!» Ikkinchisi: «Dunyoda eng foydali narsa shuki, inson o'z aqli bilan maslahatlashmasdan so'z boshlamasin», debdi. Uchinchisi aytibdi: «Inson uchun eng xayrli narsa o'ylamasdan so'zlamaslikdir». To'rtinchisi debdi: «Inson uchun eng tinchi shuki, u o'zini tole ixtiyoriga topshirsin».

Deydilarki, bir kun Xitoy, Hind, Eron va Rum podshohlari bir yerga yig'ilib: «Har birimiz shunday bir so'z aytaylikki, dunyo turguncha tursin», deb shartlashibdi. Xitoy shohi debdi: «Men aytgan so'zimni qaytarib olishdan ko'ra, aytmagan so'zni og'izdan chiqarmaslikka harakat qilaman». Hind shohi debdi: «Men o'z foydasini ko'zlab aytgan so'zi zarar bergan va o'zini halok qilgan odamga hayron qolaman». Eron shohi debdi: «Og'zimdan chiqmagan so'zim — qulimdir, aytganim esa hojam». Rum shohi debdi: «Men aytmagan so'zimdanda hech vaqt pushaymon bo'lmaganman, aytganimdan esa juda

tez-tez pushaymon bo'laman. Shohlarning indamasligi foydasiz va bema'ni suhbatlardan ko'ra yaxshidir. Inson har narsadan ko'proq o'z tili tufayli baloga yo'liqadi».

Oллоh shohning umrini uzun qilsin, u menga erkin so'zlashga ruxsat berdi. Men esa maqsadga o'tmasdan oldin shuni aytib o'tishlikni istaymanki, aytmoqchi bo'lgan so'zlarimning mevasini men emas, shoh teradi. Mening so'zlarimdan keladigan foyda ham yolg'iz shohga nasib bo'ladi: shoh ham naf ko'radi, ham shuhrat qozonadi, men esa faqat o'z burchimni ado etgan bo'laman, xolos. Shohim! Aytmoqchi bo'lgan so'zim shuki, sen o'zingdan oldin o'tgan, shaharlar bino etgan, ro'yi zaminni bo'ysundirgan o'z ota-bobolaringning taxtida o'tiribsan. Ular qal'alar qurganlar, lashkarlarga sarkardalik qilganlar, mol-dunyo to'plaganlar va uzoq umr ko'rganlar. Ularning otlari behisob, aslahalari ko'p bo'lgan. Ular o'z umrlarini shod-sacramlik bilan kechirganlar, bu ularning foydali ishlar qilishlariga mone bo'lmagan, ularni muruvvatli bo'lish salolatidan mahrum etmagan. Ular o'z davlatlarining buyuk qudratiga, o'zlarining sha'n va shavkatlariga qaramay, zimmalariga olgan vazifalarini uddalaganlar.

Ey, baxt yulduzi hamma yulduzlardan ham porloq bo'lgan shoh, endi sen ularning yerlariga, shaharlariga, davlatlariga voris bo'lding, Oллоh senga saltanat berdi. Senga davlat va lashkar meros qoldi, lekin zimmangga tashgan vazifani uddasidan chiqmayapsan, hokimiyatni o'zga olgan shohlardan talab etilgan qonun-qoidaga rioya qilmayapsan. Yo'q, sen haddingdan oshding, zulm qilmoqdasan, mag'rurlanding, raiyatga haqorat ko'zi bilan qarab, unga yomonlikni ravo ko'rasan, jabr-zulmingning son-sanog'i yo'qdir. Holbuki, senga munosib bo'lgan sharafli vazifa — o'z ajdodlaring yo'lidan, sendan avval o'tgan shohlarning yo'lidan bormoq, senga meros qolgan savob ishlarni davom ettirmoq, nomingni bulg'aydigan ishlardan qo'l tortmoq edi. Sen o'z raiyating dodiga quloq berishing lozim, ular uchun shunday qonunlar joriy qilmog'ing kerak ediki, bu qonunlar xotiralarda ilalabad

yashasin, zamon o'tgan sari sening shuhratingni orttirsini; bu qonunlar abadiy sulh va adolat ramzi bo'lib qolsin. Shuhratparastlik va mansabparastlikka berilib ish ko'rgan odam aqlli hisoblanmaydi. Mamlakatni adolat bilan idora etadigan odam aqlli va tadbirkor hisoblanadi. Shohim, sen yaxshilab o'ylab ko'r, aytganlarim senga og'ir botmasin. Axir, bu so'zlarni aytishdan maqsad sening in'oming yoki marhamatingdan umidvor bo'lmoq emas. Yo'q, men sening huzuringga vijdon azobini chekayotgan samimiy bir do'st sifatida keldim.

Beydabo aytadiganlarini aytib, nasihatini tugatgach, shohning yuragi urib ketdi, u nafrat bilan Beydaboga dedi:

— Sen menga juda og'ir so'zlar aytding. Mening mamlakatimda shunday so'zlarni yuzimga aytishga jur'at qila oladigan yana boshqa bir odam topilishiga inonmayman. Yoshi kichik, kuchsiz, qo'lidan foydali ish kelmaydigan sendek odam bunga qanday qilib jur'at etding? Sen jur'at qilib menga shunday so'zlar aytdingki, ularni tilga olishga hech kimning haqqi yo'qdir. Haddan tashqari tiling uzunligiga hayron qoldim. Men boshqalarning tilini qisqa qilmoq uchun seni og'ir jazoga mahkum etishim kerak. Bu, shoh bilan uchrashish sharafiga muyassar bo'ladigan, sen talab qilgan narsalarni orzu etadigan barcha boshqa odamlarga ibrat bo'lsin.

Shu so'zlarni aytib, shoh Beydaboni qatl qilishga farmon berdi. Farmonni bajarish uchun Beydaboni olib chiqqanlarida shoh fikridan qaytib, uni o'ldirmay, zindonga tashlashni buyurdi. Beydaboni oyoqlariga kishan solib, zindonga tashladilar. So'ngra podsho uning shogirdlarini, unikiga kelib-ketuvchilarni tutib kelish uchun odam yubordi. Beydaboning shogirdlari boshqa mamlakatlarga qochdilar, dengizlardagi orollarga yashirindilar. Beydabo uzoq vaqt zindonda yotdi, shoh u qayoqda deb so'ramadi va uni esga olmadi. Hech kim uni shohning yodiga solishga jur'at eta olmas edi.

Bir kecha shohning uyqusi kelmadi, u ko'zlarini osmonga tikib, falakning aylanishi va yulduzlar harakati haqida xayol surib ketdi. Shunda o'nga tolib, osmon haqidagi bir masalani hal etmoqchi bo'ldi. Birdan Beydabo yodiga tushdi, uning so'zlarini eslab, o'zining qilgan talahidan pushaymon bo'ldi. U o'z-o'ziga dedi: «Men bu donishmandning haqli talablariga e'tiborsizlik bilan qarab, yaxshi ish qilmadim. Shu ishni jahl ustida qildim, talahlar esa shohlar g'azab vaqtida o'zlarini tutib olishlari kerak, deganlar. Chunki g'azab har narsadan ko'ra ko'proq nafratga loyiqdir. Shuning uchun ham serjahl odamlardan hamisha nafrat qiladilar, xasislik ham yaxshi sifat emas, mo'lchilik mavjud yerda uni kechirib bo'lmaydi, yulg'on gapirmoq, qo'pollik bilan tavoze qo'shni bo'lolmaydi. Men sodiq, pok va samimiy bir odamga duch kelib edim, lekin uni munosib ravishda qarshi olmadim, uning hurmatini joyiga keltira bilmadim. Yo'q, uning jasori bunday bo'lishi kerak emas edi. Men uning artganlariga quloq osishim, maslahatiga kirishim lozim edi...»

Shoh o'sha soat Beydaboni olib kelishlarini buyurdi. Beydabo eshikda ko'rinishi bilan shoh dedi:

— Ey, Beydabo! Sen o'z aytgan so'zlaring bilan meni yuldan ozdirishni istamagan bo'lsang kerak?

Beydabo dedi:

— Ey saodatli shohim! Men faqat sening foydangni, raiyat foydasini ko'zlab so'zladim, saltanating abadiy bo'lsin deb aytdim.

Shoh unga dedi:

— Ilgari aytgan so'zlaringni oqizmay-tomizmay yana bir takrorla. Beydabo so'zlar, shoh uning so'zlarini diqqat bilan tinglab turib qo'lida ushlab turgan narsani yerga tashladi. So'ngra u boshini ko'tarib Beydaboga o'tirishni buyurdi. Beydabo o'tirdi. Shoh unga dedi:

— Ey, Beydabo! Sening aytganlaring menga yoqdi, yuragimdan joy oldi. Men sening maslahatlaringni o'ylab chiqib, ularga amal qilaman.

So'ngra Beydaboning oyoqlarini kishandan bo'shatdilar va unga shohona libos kiydirdilar. Shu zamon Beydabo dedi:

— Shohim! Men nimaiki so'zlagan bo'lsam, hammasi sening foydangdir.

Shoh dedi:

— To'g'ri aytyapsan, ey donishmand! Endi men shu kengashda butun davlatni senga topshiray!

Beydabo dedi:

— Shohim! Meni bu ishdan ozod qil. Men sensiz bu ishning uddasidan chiqa olmasman.

Shoh uning gapini ma'qul topdi va ketishga ijozat berdi. Lekin u chiqib ketgach, shoh noto'g'ri ish qilib qo'rganini tushundi va uni qaytarib kelish uchun odam yubordi. Beydabo qaytib kirdi. Shoh unga dedi: «Men seni bu ishdan ozod qilish fikridan voz kechdim. Shunday qat'iy qarorga keldimki, yolg'iz sengina bu ishni bajara olasan, sendan bo'lak hech kim uni hal eta olmaydi. Mening so'zimga quloq os, rozilik ber». Beydabo rozi bo'ldi.

U zamondagi shohlarning shunday bir odati bor edi: kimniki vazir qilmoqchi bo'lsalar, uning boshiga toj kiydirib, otga mindirar va saroy a'yonlari qurshovida shahar aylantirar edilar. Shoh Beydaboga toj kiydirib, otga mindirib shaharni kezdirishga farmon berdi. Bu amr bajo keltirilgandan so'ng Beydabo adolat va haqqoniyat masnadiga o'tirdi. U zo'raonlarga qarshi kurashib, zaiflar yonini oldi, zulmkorlarga jazo berdi, adolatli qonunlar joriy qildi. Beydaboning shogirdlari bu xabarni eshitgach, har tarafdin kela boshladilar va shohning unga baxsh etgan bu hokimiyatidan, in'om va ehsonidan behad shod bo'ldilar. Ular Ollahning irodasi bilan Beydabo shoh Dobshalimni yaramas ishlardan tiya olganligi uchun shukur qildilar.

Ular o'sha kunni bayram deb e'lon etdilar va bu kun qiyomatgacha ularning mamlakatida bayram qilinadigan bo'ldi.

Beydabo Dobshalimdan xotirjam bo'lgach, mamlakatni idora etishdan bo'shagan vaqtlarida foydali fikrlar ifoda qilingan ko'p nafis kitoblar yozdi.

Shoh esa Beydaboning maslahatiga kirib, raiyatiga mehribonlik ko'rsatib, adolat bilan podshohlik qila boshladi. Buni ko'rgan butun aholi va saroy ahllari shohdan rozi va mamnun bo'ldilar. Beydabo o'z ahogirdlarini to'plab, ularga ajoyib pand-nasihatlar qildi.

— Bilaman, men shoh oldiga ketganimda, sizlar o'zingizcha, adolatsiz, g'addor hukmdor huzuriga borishga qaror qildi, demak, u aqldan ozib qolibdi dedingizlar. Endi esa mening rejalarim va fikrimning to'g'riligini ko'rib turibsiz va men shohning yoniga uning xususiyatlarini o'rganmay, ko'r-ko'rona kelmaganligimni angladingiz. Men shunday bir gap eshitganman: «Shohlar ham yoshlarga o'xshab jo'shqin va qiziqqon bo'ladilar. Bu xarmastlikning oldini esa yolg'iz donishmandlar va olim odamlargina ola biladilar. Ular o'z so'zlari bilan podshohlarni tarbiyalashlari, maslahatlari oydin va ishonarli dalillar bilan ularni adolatsizlik va qabih ishlardan saqlab qolishlari lozimdir».

Men olimlarning shohlar haqida aytgan bu so'zlarini donishmandlarga topshirilgan vazifa deb qabul etdim, chunki hakimlar muolaja bilan badanni xastalikdan qutqarib, uni sog'aytirganlaridek, aqlli odamlar ham o'z nasihatlari bilan podshohlarni bunday mastlik uyqusidan uyg'otmoqlari lozim. Men bu ishni o'z holicha qoldirishni istamaydim. Shuningdek, men o'lgandan so'ngra yer yuzida yashagan insonlar mening va sizning haqingizda g'iybat qilib: «Dobshalim shohning davrida Beydabo nomli bir faylasuf yashagan edi, lekin u shohni jinoiy ishlardan qaytarib qolmagan edi», deb gapirib yurishlarini ham istamayman. Agar birortasi: «U o'z jonini saqlab qolish uchun gapirolmagan edi», desa, boshqalari unga javoban: «U shohdan va uning saroyidan uzoqlarga ketsa ham bo'lar edi», deydi. Lekin vatanni tark etish juda og'irdir. Men hayotimni qurbon qilishga qaror qildim. Mendan

keyin yashaydigan olimlar meni haqli deb hisoblaydilar. Men, orzularim yo barbod bo'ladi yoki g'alaba qozonadi, deb o'zimni o'tga tashladim, endi esa siz buning oqibatini ko'rib turibsiz.

Qandaydir bir masalda shunday deyilgan: «Quyidagi uchta narsa bo'lmasa, hech vaqt ulug' mavqega musharraf bo'lish mumkin emas: biri mashaqqat chekish, ikkinchisi mol-davlat sarf etish, uchinchisi e'timodga ega bo'lish». Tahlikali ishga kirishishga jasorat etmagan odam orzusiga yeta olmaydi.

Shoh raiyat bilan yaxshi munosabatda bo'lar, Beydabo esa hamma ishlarni idora etar edi. Shunday qilib, Dobshalimning hukmronligi mustahkamlandi. U raiyat ishi bilan bevosita shug'ullanish, dushmanlarning harakatini kuzatish va ularga qarshi kurash olib borish ishlaridan ozod bo'lgani uchun (bu ishlarning hammasini Beydaboning o'zi olib borar edi), hind faylasuflari tomonidan ota-bobolariga bag'ishlab yozilgan kitoblarni o'qish bilan mashg'ul bo'ldi. U xazinada o'ziga ham bag'ishlangan bir kitob bo'lishini istadi. Bunday kitobni faqat Beydabogina yozishi mumkinligini u yaxshi bilar edi. Shoh Beydaboni yoniga chaqirib, xilvatda unga dedi:

— Ey, Beydabo! Sen hind faylasufisan, hind olimisan. Men o'zimdanda avval o'tgan shohlarning hikmat xazinalari bilan tanishib, ko'p narsa tushundim. Men nomiga kitob bag'ishlanmagan va o'sha kitobda uning olib borgan janglari, hayoti, o'zining va saroy ahllarining fazilatlarini haqida biror narsa yozilmagan hech bir podsho topmadim. Ularning ba'zilarini o'z donishmandliklarini ko'rsatmoq uchun shohlarning o'zlari yozganlar, ba'zilar esa faylasuflar tomonidan yozilgan. Ularning boshiga tushgan savdo, ya'ni o'lim mening ham boshimga tushadi, deb qo'rqaman. O'limga chora yo'qdir. Shunda mening xazinamda shohlar uni o'qib, mening kim ekanligimni va qanday ishlar qilganligimni bilib oladigan biron kitob topilmasa yaxshi bo'lmaydi. Istagim shuki, sen butun ilmu hunaringni ishlatib, mening haqimda bir ajoyib kitob

yuzsang va unda xalqni qanday qilib idora etish va tarbiyalash lozimligini ko'rsatsang, shohlarning axloqi qanday bo'lishini, raiyat bilan qanday munosabatda bo'lishi, raiyatning shohga qanday xizmat qilishi zarurligini bayon etsang, balki shunda men uchun davlat tahtlarini boshqarish oson, raiyat uchun ham yengil bo'lardi. Bu kitob kelajak asrlar uchun mendan yodgor bo'lib qolishini istar edim.

Beydabo buni eshitgandan so'ng tiz cho'kib shohga ta'zim qildi va boshini ko'tarib dedi:

— Ey, tolei baland shoh! Baxt yulduzing porlasin. Umring uzoq bo'lsin! Haqiqatan ham shohning yuksak fazilati, qudratli aql-idroki uni hidoyat yo'liga olib chiqdi, hozirgina eshitgan so'zlarim menda sen buyurgan buyuk ishni bajarishga ishtiyoq uyg'otdi. Qodir Olloh shohning baxt-saodatini abadiy etsin, uni o'z niyatiga yetkazsin, meni esa uning orzusini bajarish sharafiga muyassar qilain. Shoh nimaiki istasa, amr etsin, men butun aql-kakovatimni ishga solib, uning amrini bajo keltirishga tayyorman.

Shoh dedi:

— Ey, Beydabo! Sen hamisha yuksak aqling, yuksak fazilating tufayli shohning amr-farmonlarini bajo keltirib nom chiqazgansan. Men seni yaxshi bilaman. Sen butun imkoniyat va qobiliyatingni ishga solib shunday bir kitob yozki, unda ham jiddiy va hazil-mutoyiba so'zlar, ham hikmat va falsafaga oid fikrlar mujassamlashgan bo'lsin, aqlli odamlar undan ham hikmat darsi olsinlar, ham kulgidan o'zlarini to'xtatolmasinlar.

Beydabo bosh egib dedi: «Men shohning amrini maqbul ko'rdim, ammo buning uchun ma'lum vaqt berilishini istayman». Shoh dedi: «Qancha vaqt kerak?» Beydabo dedi: «Bir yil».

Shoh dedi: «Ey Beydabo! Mayli, bir yil vaqt beraman».

So'ngra shoh Beydaboga kitobni tamom qilganiga qadar yaxshi tirikchilik kechirishi uchun shohona in'omlar berilishini amr etdi.

Beydabo bir necha kun kitobni nimadan boshlash, qay shaklda yozish, boblarga nima deb nom qo'yish ustida bosh qotirdi. So'ngra u o'z shogirdlarini to'plab dedi:

— Shoh menga shunday bir vazifa yukladiki, mening ham, sizning ham, butun mamlakatimizning ham shuhrati shu vazifaning bajarilishiga bog'liqdir. Mana shu ish yuzasidan men sizlarni chaqirtirdim. Dobshalim shoh o'zining nomiga atab bir kitob yozishni topshirdi. U hikmat xazinasi bo'lishi kerak. Endi har biringiz bu sohaga oid biror narsa yozib menga bering, unda yuksak aql hamda qobiliyatingiz darajasi o'z aksini topgan bo'lsin.

Ular shunday javob berdilar:

— Ey, hurmatga loyiq faylasuf va nozikta'b ustoz! Seni donishmand, aql-farosatli, benuqson qilib yaratgan Olohga qasamyod qilib aytamizki, hech vaqt bunday narsa bizning aqlimizga kelmagan edi. Sen bizning rahnamoimizsan, oramizda sendan salohiyatli kishi yo'qdir. Sen bizning sha'n va shuhratimizsan, biz o'zimiz sening ko'magingga muhtojdirmiz. Lekin shunga qaramay, amringni bajo keltirishga harakat qilamiz.

So'ngra Beydabo shohning maqsadini, kitobning qay tartibda yozilishi haqida aytgan gaplarini ularga gapirib berdi.

Ammo ular shoh yozishni buyurgan bu kitob haqida biror fikr ayta olmadilar.

Shogirdlarning o'zligini ko'rgan Beydabo, bu ishni faqat ko'p o'ylab, chuqur mulohazalar yurgizib amalga oshirish mumkinligiga amin bo'ldi. U dedi: «Men o'ylab qaragam, kema uni idora qiluvchi dengizchilarning kuchi bilangina harakat etishi mumkin ekan. Lekin shuni ham aytib o'tayki, kema butun mas'uliyatni o'z ustiga olgan kema darg'asining buyrug'i bilangina to'lqinlarni yorib dengizlar osha oladilar. Kemada dengizchilar ko'p bo'lib, unga haddan ortiq ko'p yo'lovchi tushgan bo'lsa uni botib ketishdan saqlab qolish mumkin emas».

U kitobni yozish haqida uzoq o'yladi, bu narsa uning xayolidan nari ketmadi. Nihoyat, xilvatga chekinib kitobni

uning bir iste'dodli shogirdi bilan birgalikda yozishga kirishdi. U bir talay qog'oz, o'zi va shogirdiga yetadigan bir yillik ozuqa to'plagan edi... Ular bir xonaga kirib, eshikni berkitib oldilar. Beydabo shogirdiga aytib turar, shogirdi esa yozib borar va yozganini o'qib eshittirardi. Mazmun hamda shakl jihatidan yaxshi va go'zal kitob yozilguniga qadar ular shu zaylda ishladilar. Beydabo kitobni o'n to'rt bobga bo'ldi, ularning har biri o'zicha mustaqil edi. Har bobni o'qigan kishi o'zi uchun foydali ma'lumot olsin deb har qaysi bobda savol va javob bor edi. Beydabo bu kitobga «Kalila va Dimna» deb nom qo'ydi. Kitobda barcha gaplar vahshiy hayvonlar, darranda va parrandalar tilidan beriladi. Toinki, kitob shakl jihatidan sodda odamlarga ermak, mazmuni aqlli odamlarga ibrat bo'lsin. Bu dunyoda ham, u dunyoda ham insonga nima lozim bo'lsa, hammasini ular bu kitobda topa olsinlar, shohga tobe bo'lish va yoki zararli narsalardan qochib qutula olish uchun qanday tadbirlar foydali ekanligini bundan o'rgansinlar. Beydabo bu kitobni ham tashqi ko'rinish, ham ichki jihatdan boshqa hikmatli kitoblar shaklida yozdi. Shunday qilib, undagi hayvonlar ermak, ularning so'zlari esa hikmat va nasihat bo'ldi.

Beydabo bu ishni boshlar ekan, kitobning avvaliga ikki do'stini, ularning qanday qilib do'stlashganlari va bu mustahkam do'stlikni bir xoin qanday qilib buzganligini ta'vir etdi.

U shogirdiga nima aytsa, shunigina yozishni, o'zidan bir narsa qo'shmaslikni buyurdi, chunki ehtiyotsiz biror so'z aralashib qolsa, uning ma'nosiga putur yetkazardi.

Beydabo kitobning jiddiy yerlarini qayd etib o'tar edi. Shunday qilib, hayvonlar tilidan aytilgan hikmatli so'zlarga to'la bo'lgan bir kitob maydonga keldi. Beydabo va uning shogirdi kitobning tashqi ko'rinishi qanday bo'lishi masalasini bir chetga qo'yib, uning mazmunini tashkil etgan hikmatli nasihatlar va ibratli o'gitlar bilan muhug'ul bo'ldilar.

Johil odamlar o'zlari haqida yozilgan bu kitobning ma'nosini tushunmaslar, hayvonlarning so'zlashlariga hayron qolib, uni hazil deb o'ylarlar — kimki bu kitobni yaxshi o'zlashtirmasa, undagi so'zlarning ma'nosi uning uchun qorong'i qoladi. Bunday odamlar ushbu asarning maqsadini tushunmaydilar, holbuki, faylasufning birinchi bobda olg'a surgan maqsadi akademiklarning inoqlashuvlarini, ularning do'stligini qaysi vositalar bilan mustahkamlashni tasvir etishdan va shaxsiy manfaati uchun ikki do'st orasiga dushmanchilik soladigan razil odamlardan ehtiyot bo'lishga chaqirishdan iboratdir.

Kitob yozilib, belgilangan muhlat tamom bo'lgach, Dobshalim shoh Beydaboga odam yuborib, muddat tugadi, sen nima ish bajarding, deb aytishni buyurdi. Beydabo shohga, men bergan va'damni bajardim. U o'z a'yonu ashroflarini to'plab, menga amr etsin, o'shalarning huzurida kitobimni o'qib berayin, deb xabar yubordi.

Dobshalimning yuborgan odami unga bu xabarni yetkazganida u nihoyatda sevinib ketdi. Mamlakat fuqarosining to'planishi uchun kun belgiladi. So'ngra Hindistonning eng uzoq yerlarigacha jarchilar yuborib, kitobni eshitishga taklif etdi. Belgilangan kun xalq yig'ildi. Podsho o'zi hamda Beydabo uchun ikkita taxt yasatdi. Hamma hozir bo'lgach, Beydabo shohning qabul marosimlarida donishmandlar kiyadigan va qora jundan to'qilgan libosini kiyib shoh qarshisiga keldi, yerga qadar egilib ta'zim qildi va boshini ko'tarmay turdi.

Shoh unga dedi: «Ey Beydabo, boshingni ko'tar! Bu kun motam kuni emas, shod-xurramlik kunidir».

Kitob o'qilar ekan, shoh undan har bobning ma'nosini, uning ko'zlagan maqsadini so'rar, u esa har bobning maqsad va ma'nosini izohlab berar edi. Shoh bundan yanada sevinar va faylasufning iste'dodiga tahsin qilar edi.

Shoh dedi: «Ey, Beydabo! Sen orzu qilgan narsamni ro'yobga chiqarding, mening istagim shu edi. Endi tila, tilagingni berayin».

Beydabo shohga baxt-saodat tilab, dedi: «Shohim, menga davlat kerak emas, boshqa liboslardan o'z ustimdagi kiyimimni afzal ko'raman. Lekin, ruxsat berilganligi uchun o'z iltimosimni shohga bildirib o'tsam».

Shoh dedi: «Xo'sh, qanday iltimosing bor? Sen nima ko'rasang biz bajo keltiramiz».

Beydabo dedi: «Shohdan so'raydigan narsam shuki, mening kitobimni oqqa ko'chirtirib, ota-bobolarning asarlari kabi uni ham ehtiyot saqlasalar. Men bu kitob hind diyorida chiqib ketmasin, uning borligidan sabardor bo'lgan Eronliklar uni qo'lga kiritib, yo'q qilib yubormasinlar deb qo'rqaman. Xullas, bu kitob «Hikmat uyi», ya'ni kitobxonadan tashqariga chiqmasin».

Shundan so'ng shoh Beydaboning shogirdlarini chuqirib, ularga qimmatli liboslar va boshqa in'omlar berdi.

Bu kitob haqidagi xabar shoh Xusrav Anushiravonga yetib bordi. Anushiravon esa ilmni va ibratli kitoblarni juda sevar edi.

Shuning uchun u, Barzuya hakimni Hindistonga yubordi. Barzuya ham butun hiyla va nayranglarni ishga solib, kitobni qo'lga tushirib keldi va Eron xazinasiga topshirdi. Shundan keyingina Anushiravonning ko'ngli joylga tushdi.

IBN MUQAFFA TARTIB ETGAN KITOBDAGI MUQADDIMA

Abdulhasan Abdulla ibn Muqaffa shunday naql etadi: Xudo o'z qudrati bilan olamni yaratdi, insonlarni aql-idrokda boshqa hayvonlardan afzal qilib yaratdi. Chunki aql saxovat eshiklari va saodat xazinalarining kalitidir. Bu dunyoning nozu ne'matlariga ega bo'lish, u dunyoning azobu uqubatlaridan xalos bo'lish aql va idrokka bog'liqdir. Iste'dod, aql-idrok esa ikki xildir: biri — tabiiy, ya'ni onadan tug'ma bo'lib, ikkinchisi — kasbiy, ya'ni unga tajriba vositasi bilan erishiladi. Insonlarda bo'lgan tabiiy iste'dod yog'ochdagi yonish xususiyatiga o'xshaydi: yog'ochga o't qo'yilmasa yonmaydi, shunga o'xshash tabiiy iste'dod, aql va kamol ham tajriba bo'lmasa, o'zini ko'rsata olmaydi. Olimlar, tajriba inson aql-idrokini kamolga yetkazadi, deganlar.

Har kim tabiiy aql-idrokka ega bo'lib, ilmu hunar kasb etishga intilsa, bu dunyoda ham o'z orzusiga yetadi, u dunyoda ham rohat ko'radi... Bilmoq lozimdirki, har ishning o'z sababi, har sababning o'z sababchisi va har sababchining o'z makon va zamoni bordir. Umrning uzunligi va davlatning borligi shularga bog'liqdir. Bu kitobning Hindistondan Fors mamlakatiga keltirilishining sababi shuki, Oллоh taolo qudratli, saodatli Anushiravon Kusro ibn Qubodni aql nuridan va adolat xazinasidan bahramand etgan, ishbilarmon, favqulodda g'ayratli qilib yaratgan. U o'zining bu xislatlari soyasida ilm o'rganib, turli sohada shunday kamolot darajasiga yetganki, undan avvalgi shohlarning hech biri bunga erisholmagan.

Kunlardan bir kun uning qulog'iga quyidagi xabar yetib keldi: hind xazinasida parranda, darrandalar, vahshiy hayvonlar tilidan yozilgan bir kitob bor emish; bu kitob saxovat manbai, ilm-hikmat kaliti emish; u shohlarga naf keltirganidek, xalqqa ham foydali emish; bu kitobning nomi «Kalila va Dimna» emish.

Anushiravon odil bu kitobni qo'lg'a kiritish niyatiga ekanini aytib berdi. U iste'dodli olim, fozil, fors hamda hind tillarini yaxshi biladigan bir odam topishni va bu muhim ishni unga topshirishni amr etdi.

Ancha axtarishlardan so'ng yuqorida aytilgan xususiyatlarga ega bo'lgan va tib ilmida shuhrat qozongan Barzuya otli yosh yigitni topdilar.

Anushiravon uni yoniga chaqirib dedi:

— Ko'p mulohazalardan so'ng senga juda mas'uliyatli va muhim bir ish topshirish qarorig'a keldik. Sening aql-zakovat, buyuk iste'dod egasi ekanliging, shbilarmonliging, g'ayratli va irodali ekanliging bizga ma'lumdir. Hindistonda bir bebaho kitob bor, deb aytadilar. Biz o'sha kitobni keltirib, mamlakatimizdagi boshqa hind kitoblari qatoriga qo'yilishini istar edik. Safar tayyorgarligini ko'rib, Hindistonga azimat qil va nima qilib bo'lsa ham o'sha kitobni olib kel. Senga yetarli darajada pul va mol-davlat beramiz. Ularni lozim bo'lgan yerda keragicha xarjlaysan. U yerda ko'proq qolishga to'g'ri kelma, senga yana pul kerak bo'lib qolsa, yoz, yuboramiz.

So'ngra u munajjmlarga yo'lga chiqish uchun yaxshi kun va soat belgilab berishni buyurdi. Barzuya belgilangan kuni ellik xurjun dinor olib safarga chiqdi. Butun qo'shin, sarkardalar va davlat arboblari uni kuzatib qoldilar. Barzuya o'z ustiga yuklatilgan vazifani bajarish ishtiyoqida yo'l bosar edi. U Hindistonga yetib borgandan so'ng podshohning poytaxtiga keldi va o'sha yerda istiqomat qila boshladi. U olimlar yig'ilishiga, a'yon va akobirlar majlisiga, faqir-fuqaro to'planadigan yerlarga borar, har joyni ko'rar, shohning yaqin odamlari, shaharning mo'tabar kishilari, olim va faylasuflari haqida surishtirib, ma'lumot to'plar edi. U qayerga bormasin, hamma yerda odamlarga aralashib yurar, hamma bilan do'atlashib ketar edi. U hammaga, men bu yerga ilm o'rganmoq va tahsil olmoq uchun kelganman, der edi. Chuqur ilmi borligiga qaramay, o'zini sodda tutar va o'zini avom odamlardan deb tanittirar edi. Nihoyat, u

axtarganini, istagan odamini topdi. Bu odam o'z aqli, iste'dodi va hushyorligi bilan boshqalardan ajralib turar edi. Barzuya u bilan do'stlashdi, unga shu qadar yaxshiliklar qildiki, oxiri aka-ukaday bo'lib qoldilar. Oz vaqt ichida Barzuya uning xulq-atvorini o'rganib, sadoqatini sinovdan o'tkazdi. So'ngra o'z-o'ziga dedi: «Agar sirim kalitini unga berib, ko'nglim eshigini ochsam, nonko'rlik qilmas, do'stlik va o'rtoqlik hissiga xiyonat qilmas».

Vaqt o'tib, ularning orasidagi samimiylik ancha mustahkamlangach, Barzuya uning omonatga xiyonat qilmasligiga, sirni hech kimga ochmasligiga ishondi. Bir kun unga shunday dedi: «Birodar, mening bir sirim bor, uni hozirga qadar sendan yashirar edim, lekin bilishimcha sen buni sezar eding, chunki donoga bir ishora kifoyadir».

Hind dedi: «To'g'ri aytasan, sen o'z maqsadingni yashirishga qanchalik urinsang ham, lekin men ba'zi bir alomatlardan uni payqab yurar edim. Endi sen o'zing so'z ochib qolding, men aytib bera qolay. Sen bizning viloyatning nafis va qimmatli boyligini olib borib o'z shohining hikmat xazinasiga qo'ymoq uchun kelibsan, buni esa makr va hiyla bilan amalga oshirmoqchisan. Lekin men sening sabru irodangga qoyil qoldim. Suhbat vaqtlarida biror so'z bilan siringni fosh qilib qo'yarsan, deb poylab yurdim. Lekin bunday bo'lmadi, matonating, ehtiyotkorliging senga bo'lgan e'tiqodimni oshirdi, do'stlik va birodarlik hislarini kuchaytirdi. Chunki hech bir zot bu qadar iroda va o'zini tuta bilish qobiliyatiga ega bo'lmaydi, begona viloyatda, axloq va odatlarini bilmagan bir xalq orasida hech kim o'zini sen kabi tuta olmaydi.

Insonning aqli sakkiz narsada namoyon bo'ladi: birinchi — nazokatli va muloyim muomalada; ikkinchi — o'zi kim ekanligini bilib shunga rioya qilishda; uchinchi — odil shohlarga itoat etib, ularning orzu-istaklarini amalga oshirishda; to'rtinchi — o'z sirlarini do'stga bildirish-bildirmaslikni bilishda; beshinchi — o'zining va boshqalarning sirini saqlashda; oltinchi — shohlar

saroyida ehtiyot bo'lib, shirin til bilan saroy odamlarini qo'lga ola bilishda; yettinchi — tilini tiyib, ortiqcha so'zlamaslikda; sakkizinchi — majlislarda jim o'tirishni odat qilib, so'ralmagan narsalarni aytmaslik va pushaymonlik keltiradigan so'zlarni tilga olishdan saqlanishda.

Kimda bu sakkiz xususiyatning hammasi bor bo'lsa, u do'stlaridan istagan narsalarni ola biladi va orzusiga yeta oladi. Bu xususiyatlarning hammasi senda bordir. Mening men bilan do'stlashishdan maqsading nima ekanligi ham ma'lum bo'ldi. Bunday fazilatlarga ega bo'lgan odamning orzu va istaklarini ro'yobga chiqarmoq muruvvatli odamlar nazdida xato hisoblanmasa-da, lekin mening xohishing meni dahshatga keltirdi. Bu juda buyuk va tahlikali bir ishdir».

Barzuya qarasa, hind uning makr va hiylasini tushundi. Uning so'zlariga e'tiroz bildirmasdan, juda yumshoq va muloyimlik bilan dedi:

— Men bu sirni ma'lum qilish uchun juda ko'p hozirliklar ko'rdim, aytadiganlarimni qismlarga bo'lib, unga sarlavhalar qo'ydim, muqaddimasi va xotimasini belgiladim, undan butoq va shoxchalar o'stirdim. Shoyad shu yo'l bilan saodat sahosida maqsadimning jamolini qoplagan qo'rquv pardasini otib tashlab, sening hurmat va yordaming soyasida vatanga oq yuz bilan qaytsam. Lekin sen birgina ishora bilan mening butun fikrimni tushundiring va meni uzundan-uzoq, zeriktiruvchi tushuntirishdan xalos etding. Haqiqatan ham men sen bilan mana shu maqsadimga yetishish umidida do'stlashgan edim...

Hind dedi:

— Aqlli odamlar uchun do'stlikdan aziz hech narsa yo'qdir. Do'stlik beg'araz bo'lmog'i kerak. Lekin butun tilimlarning kaliti sirni saqlay bilishdadir. Uchinchi odam bilmagan sir yoyilmas, chunki uchinchi odam eshitgan sir og'izdan-og'izga o'tadi va buning oldini olish mumkin bo'lmaydi. Men sening do'stligingdan shu qadar

xursandmanki, uni hech bir narsaga almashtira olmayman. Lekin agar bir odam bu ishdan xabar topsa, bizning birodarligimiz shunday buziladiki, uni hech qanday mol va davlat bilan tiklab bo'lmaydi.

Bizning shoh juda hushyor va qahrlidir, arzimas narsa uchun ham og'ir jazo beradi. Buni bilib qolsa nima bo'ladi-a?

Barzuya dedi:

— Do'stlikning eng ulug' sharti sir saqlamoqdir. Mening esa bu ishda sendan boshqa sirdoshim yo'qdir. Men sening olijanobligingga, aql va zakovatingga ishonaman. Bu ishning tahlikali ekanini tushunaman, lekin oramizdagi do'stlik haqqi, sen meni o'z orzuimga yetishdan mahrum qilmassan, deb umid qilaman. Bilginki, bu sirni men hech kimga fosh qilmayman. Lekin sen o'z yaqin odamlaringdan, yoru oshnolaringdan kimdir bilib qolib shohga aytib qo'yadi, deb qo'rqasan. Men ketaman, sen bu yerda qolasan, bizdan boshqa hech kim bu sirdan voqif bo'lmagach, sen rohat-farog'atda hayot kechirasan.

Hind biroz o'ylab, keyin, lozim bo'lgan kitoblarni Barzuyaga bera boshladi. Barzuya zo'r qo'rquv ichida, ehtiyotlik bilan ishga kirishib, kechayu kunduz ko'chirib yozib olish bilan mashg'ul bo'ldi. Xullas, u kitobdan va yana bo'lak kitoblardan nusxa ko'chirdi. So'ngra ishlari qanday ekanligi haqida Anushiravonga maktub yozib yubordi.

Anushiravon maktubni o'qib behad sevindi. Falakning gardishi shodlikni g'amga aylantirmasidan oldin Barzuyaga maktub yozib, tezda yetib kelishni amr qildi. Xatda hushyor bo'lish, hech narsadan qo'rqmaslik, kitobni yaxshi saqlash, to'plagan narsalarini olib qaytishda ehtiyot bo'lish zarurligini uqtirib o'tdi. So'ngra maktubga muhr bosib qosidga — choparga berdilar. Maktubning dushman qo'lga tushmasligi uchun qosidga, yashirin yo'llar bilan bor, hech kimning ko'ziga ko'rinma, deb tayinladilar.

Maktub Barzuya qo'lga tekkach, u darhol yo'lga tushib, Anushiravon saroyiga yetib keldi. Uning kelganini

shohga xabar qildilar. Anushiravon o'sha zamonAQ Barzuyani o'z huzuriga taklif etdi. Barzuya ichkari kirib bosh egib ta'zim qildi. Shoh uning chehrasidan borganligini, tashvish tortganligini, hamon hayajondan qutulmaganligini uqib, achingan holda dedi:

— O'zingni qo'lgA ol, ey baxtiyor inson! Sen ulug' ish qilding, bizning cheksiz minnatdorchiligimiz va benihoya hurmatimizga sazovor bo'lding. Bor, bir hafta dam ol. Keyin kelasan, nima kerak bo'lsa, hammasini bajo keltirishni amr etaman.

Yetti kun o'tgach, Anushiravon a'yon-ashrofini chaqirtirdi. Saroy ahllari to'plangandan so'ng Barzuyani chaqirtirib, kitobni o'qishni buyurdi. Barzuya o'qigan sari o'tirganlarning taajjubi ortar, kitobning go'zalligiga hayron qolar edilar. O'qish tugagandan keyin ular Barzuyani olqishlab, bu ishda muvaffaqiyat qozongani uchun tanriga shukur etdilar.

Anushiravon xazinalar eshigini ochishni amr etdi. U xazinalardagi pul va javohirlardan Barzuya tortinmay tataganicha olishi mumkinligini aytdi. Barzuya podshohga ta'zim qilib dedi:

— Podshohning marhamati va muhabbati men uchun hamma narsadan qimmatlidir. Qanday mol-davlat, qanday boylik shahanshohning menga ko'rsatgan navozishiga arziydi? Menga shohning salomatligidan boshqa hech narsa kerak emas. Lekin zoti oliyning taklifi yerda qolmasin deb, shahanshoh huzuriga kelganda kylladigan va Xuziston kimxobidan tikilgan shohona marosim libosidan olayin. — Barzuya so'zini davom ettirib dedi: — Menga topshirilgan vazifani bajarishda duch kelgan qiyinchiliklar, xavf-xatar va iztiroblar kutilgandan ko'z bo'ldi. Bandalarda sadoqat bilan xizmat qilmoqdan boshqa orzu yo'qdir. Vazifaning yaxshi bajarilishi, muvaffaqiyatlar yolg'iz shohning baxt-saodati va tolei boyasida sodir bo'ladi. Bu yerda bo'lmagan paytimda mening oilamga ko'rsatgan mehribonligingga nisbatan qilgan xizmatim hechdir. Lekin men o'zim uchun shohning

lutfi karami oldida kichkina sanalgan bir narsani istardim. Agar shoh shu istagimni bajarsa, meni ham bu dunyo, ham u dunyoda rozi qilgan bo'lardi va baxtiyor shohning nomi hamisha yaxshilik bilan yodlanadigan bo'lardi.

Anushiravon dedi:

— Sen mening shohligimga sherik bo'lmoqni istagan taqdiringda ham tilaging qabul bo'lur. Nimaiki xohlasang, ochiq ayt!

Barzuya dedi:

— Shoh agar maslahat ko'rsa, Buzurjmehr bu kitobga mening haqimda maxsus bir fasl ilova etsin va unda mening kim ekanligim, nasl-nasabim, san'atim, qaysi din va mazhabdaligimni yozsin. Shoh bu haqda amr bersa, menga qilgan yaxshiliklari kishilar xotirasida abadiy saqlanib qolar, mening shohga qilgan xizmatim unutilmagan bo'lardi.

Bu so'zlarni eshitib Anushiravon va uning atrofida gilar hayron qoldilar. Barzuyaning o'tkir aql va iste'dod egasi ekanligini e'tirof etib, hammalari uning bunday xohish bildirishiga haqqi bor, degan qarorga keldilar.

Anushiravonning amri bilan Buzurjmehrni chaqirdilar. U yetib kelgach, Anushiravon shunday dedi:

— Sen Barzuyaning qanchalik sodiq va fidokor ekanligini, bizning amrimizni bajo keltirish uchun o'z boshini naqadar katta tahlika ostiga qo'yganini, qanday iztiroblar chekkanligini bilasan. Biz Barzuya xizmatlari evaziga istaganicha mol-dunyo olishini taklif etgan edik. Lekin u buni rad etib, xazinadan hech narsa olmadi. Sening bu kitobga Barzuya haqida maxsus bob ilova qilib, uning tarjimai holini yozishingni iltimos qildi. Biz ham shunga rozi bo'ldik. Endi senga shunday bir bob yozishni va u tamom bo'lgach, jamoatni yig'ib o'qib berishingni topshiraman. Lekin shunday qilib yozginki, sening nimalarga qodir ekanligingni mamlakatning barcha katta-kichigi bilsin.

Barzuya shohning buyrug'ini eshitgach, ta'zim etib tashakkur bildirdi. Buzurjmehr ushbu bobni yozib, uni

qo'zal ibora va hikmatli so'zlar bilan bezadi va shoh tayin qilgan kuni Barzuya va mamlakat aholisi oldida o'qib berdi. Podsho va yig'ilganlarning hammasi Buzurjmehring uslubi va mahoratiga qoyil qoldilar. Podsho xizmat haqqi evaziga Buzurjmehrga oltin, kumush, qimmatbaho javohirlar va zarvaraq to'n taklif qildi, lekin Buzurjmehr to'ndan boshqa hech narsa olmadi. So'ngra Barzuya Anushiravonning qo'lini o'pib dedi:

— Olloh shohimning umrini uzun, baxtini porloq qilsin, bu dunyoda ham, u dunyoda ham farog'at ko'rsin. Podshohning bu iltifoti uning naqadar marhamatli ekanligini yana bir karra butun dunyoga namoyish qildi, uning shuhratini oshirdi va men bandasini behad mamnun etdi. Kitobxonlar bu bobni o'qir ekanlar, uning nima uchun yozilganini tushunib, eng fazilatli ish odil shohlarga xizmat etish ekanligini, insonlarning eng sharafli davr podshohi tomonidan taqdirlanib, o'ziga yarasha mavqega erishgan kimsalar ekanligini anglab uladilar...

BUZURJMEHR BUXTEQONING «KALILA VA DIMNA» KITOBIGA YOZGAN MUQADDIMASI

Nasihat, hikmat va masallar majmuasidan iborat bo'lgan bu «Kalila va Dimna» kitobi hind brahmanlari va olimlari tomonidan yozilgandir. Har bir xalqning olim va faylasuflari qanday vositalar bilan bo'lmasin, o'z orzu va istaklarini amalga oshirmoq, mavjud tartibni intizomga solmoq uchun hamisha fikr yuritganlar, har xil tadbirlar ila ish ko'rmoqchi bo'lganlar, bu haqda har xil asarlar yozmoqqa intilganlar. Shulardan biri qushlarning va yovvoyi, yirtqich hayvonlarning tilidan yozilgan, g'oyat chuqur ma'noli, nafis ramz va muammolarga to'la ushbu kitobdir. Olimlar bu yo'lni tanlab zo'r imtiyozga ega bo'lganlar: avvalo, bu bilan ular xohlagan so'zlarini aytib, har bir bobni orzu qilganlari darajada bezash imkoniyatiga ega bo'ldilar. Buning ustiga, ular shu yo'l bilan nasihat, hikmat, latifa va hazil-mutoyiba javohirlarini bir-biriga qo'shganlar, toki dono odamlar bu kitobni mutolaa qilib, foydalansinlar, nodon odamlar esa, uni afsona deb o'qisinlar.

Yosh shogirdlar esa savodli bo'lmoq, ilm orttirmoq, naql aytmoq maqsadida bu kitobda yozilganlarni osonlik bilan yodlarida saqlab qolgusidurlar. Katta bo'lib, aql va tajriba egasi bo'lganlarida, yodlab olgan va esda saqlab qolgan naqlar ustida fikr yuritib, ularni tushunganlarida dillari naqadar foydali hikmatlar bilan to'lganligini ko'radilar va o'zlari kutmagan ulkan boylikka, bitmas-tuganmas xazinaga ega bo'lganlarini biladilar. Yoshlarning xursandligi katta bo'lganda otasidan meros bo'lib qolgan xazinani topgan va shu tufayli umrining oxiriga qadar qiyinchilik ko'rmasdan yashay olishni bilgan odamning sevinchiga o'xshaydi.

Bu kitobni o'qiganda uning nima uchun yozilganligi va qanday maqsadlarni ko'zda tutganligini tushunish kerak. Aks holda, odam bu kitobdan foyda ololmaydi, uning boyliklaridan bebahra qoladi. Bu kitobni

tushunishning birinchi sharti shuki, uni to'g'ri va diqqat bilan o'qiy bilishdir. Zotan, bir narsani diqqat bilan o'qimasdan turib uning ma'nosini tushunmoq mumkin bo'ladimi axir? O'qishni yaxshi biladigan odam bu kitobni o'ylab o'qishi va uning ma'nosiga yetishga shoshilmasligi lozim, chunki uning ma'nosiga odam chuqur o'ylab qiynchilik bilan erishadi.

Naql qilibdurlarkim, bir kishi sahroda xazina topib olibdi va o'z-o'ziga: «Agar bu xazinani bir o'zim tashisam, ko'p vaqtim bekor ketadi, o'zim qiynalib, qaytaga xafa bo'laman. Yaxshisi, bir necha xizmatkor topib, bir necha ulovni kira qilib, biroz muddat ichida xazinaning hammasini uyga tashib olay», debdi.

U xuddi shunday qiladi. O'zi xazinaning tepasida qolib tal va javohirlar yuklangan ulovlarni uyiga yuboradi. Lekin yukni olib ketayotgan hiylakor odamlar boyliklarni u kishining uyiga emas, o'z uylariga olib borishni maqsadga muvofiqroq deb biladilar.

U nodon kishi esa o'z manziliga kelganida pushaymonlikdan boshqa hech narsa topmaydi.

Yana shunday haqiqatni bilish lozimki, foyda kitobni yodlashda emas, uni tushuna bilishdadir. Kimki bilmagan ishga yopishsa, uning ahvoli so'zni yodlab olgan, lekin ma'nosini tushunmagan odamning ahvoriga o'xshaydi.

Hikoyat

Hikoya qilibdurlarkim, bir odam arabcha o'rganishni havas qilib, savodli do'stlarining biridan qizil lavha ustiga bir necha arabcha so'zni yozib berishni iltimos qilibdi. Do'sti ham iltimosini bajaribdi. U odam arab so'zlari yozilgan qizil lavhani uyiga olib boradi va unga har zamon-har zamonda qarab qo'yib, nihoyat, endi u arab tilini juda yaxshi bilib oldim, degan fikrga keladi. Bir kun majlisda arabcha so'zlamochi bo'ladi-da, misi chiqadi. Majlisda bo'lganlardan biri uning xatosini yuziga solib kuladi.

U odam bundan g'azablanib: «Mendan xato topa olmaysan — qizil lavhada shunday yozilgan», deb javob beradi...

Insonlar ilmni egallab olishlari, uning ma'nosiga chuqur tushinishlari kerak, chunki ilm narigi dunyoga olib boriladigan eng katta sovg'adir, bu dunyoda esa bilimli bo'lmasdan yashash qiyindir. Quyoshning jamoli yer yuzini yoritganligi va hayotga abadiy umr bag'ishlagani kabi, ilm ham qalblarni nur bilan yoritadi. Tajribaning shifobaxsh dori-darmonlari odamlarni og'ir jaholat kasalligidan xalos etadi. Yaxshi ishlar ilmga yarashadigan bezakdir. Bilim daraxtining mevasi odamlarga xayrixohlik va boshqalarni ranjitmaslikdir. Imli bo'lib, unga amal qilmaganlar, bila turib tahlikali yo'ldan qaytmagan va yo'lda qaroqchilarga uchrab boryo'g'idan ajralgan odamlarga o'xshaydilar; o'ziga yoqmaydigan ovqatning zararli ekanligini bila turib, undan bosh tortmaydigan, natijada, halok bo'ladigan kasal odamlarga o'xshaydilar. Xullas, ishining yomon ekanligini bila turib nafsini tiyolmagan odam azob-uqubat oloviga yo'liqadi. Masalan: biri ko'r, biri sog' ikki odam o'raga yiqilib yaralansa, farosatli odamlar ko'zi sog' odamni ayblaydilar, ko'zi ojiz kishining ishini uzrli deb biladilar.

Bilimli bo'lish har narsadan oldin insonga o'z hurmatini oshirmoq va izzatini saqlamoq uchun kerakdir. Ilm, boshqalarga o'rgatish uchungina qo'lga kiritilsa, odam undan biron foyda ko'rmasa, u suvidan hamma foydalanadigan, lekin bundan o'zi bebahra bo'lgan buloqqa o'xshaydi.

Ikki narsadan, ya'ni ilm va mol-dunyodan odam avval o'zi foydalanib, so'ngra boshqalarga ulashib berishi kerak. Yaxshi natija bergan tajribalarni odam avval o'ziga, so'ngra boshqalarga tatbiq etishi lozim, ya'ni odam avval o'zini, shundan keyin boshqalarni davolashi kerak.

Kimki bu so'zlarning ma'nosiga yetmasa va ularni bekorchi deb hisoblasa, beaql ko'rga o'xshaydi. Aqlli odam qiladigan ishining oxiri nima bilan va qanday tugashini oldindan ko'z o'ngiga keltirishi kerak, qayerga borishini

yo'lga chiqishdan oldin bilishi kerak. Aks holda, u yo'lning yarmida sarson bo'lib qoladi, falokatdan boshqa narsaga yo'liqmaydi. Ajdodlarining hayotidan ibrat darsi olib, ularning tajribasidan foydalangan odam aqlli hisoblanadi — o'zbiharmon odam hamisha mashaqqat ichida yashaydi. Ziyonli har narsada bir foyda bor deb aytadilar, eng yaxshisi, boshqalarning ko'rgan ziyonlarini nazarda tutib, ularning foydali tajribalaridan istifoda etishdir. Bu yo'ldan bormagan odamlar kundan-kunga muvaffaqiyatsizlikka uchraydilar va nihoyat, tajribadan saboq olib to'g'ri yo'lga tushib olganlariga qadar o'lim vaqti kelib qoladi. Kimki fursatni qo'ldan bersa, harakat qilib bir ishni amalga oshirish o'rniga tanballik qilsa, to'g'riligi shubhali yo'lg'on xabarlarini to'g'ri deb hisoblab, ularni boshqalarga gapirib yursa, yolg'onchining tilyog'lamaligiga ishonsa, o'z tarafdorlarini fitnachi odamlarning so'zlariga inonib ranjitsa, mas'ul vazifalarni aqlli odamlarga topshirmasa, unday kishining yashashga haqqi yo'qdir.

Aqlli odamlar tuban va yaramas muhitga tushib qolsalar, tezda undan qutulishga harakat qilishlari kerak. Kimki ko'r-ko'rona noma'lum yo'lga chiqsa, xalqning ketayotgan to'g'ri yo'lidan uzoqlashadi va qancha ko'p yursa, shuncha ko'p adashadi. Agar bir odamning ko'ziga tikan kirsam va u bu tikanni chiqarib olmasdan, uni ahamiyatsiz bir narsa hisoblab ko'zini ishqay boshlasa, mutlaq ko'r bo'ladi. Aqlli odam ko'pning ra'yi bilan hisoblashib, unga ishonishi kerak, lekin shu bilan birga aql va tajribaning so'zlariga ham quloq osishi kerak. Xullas, oddadillik va xatolarga yo'l bermaslik kerak. Aqlli odam o'ziga ravo ko'rmaganni o'zgaga ham ravo ko'rmasligi kerak. Chunki har bir ishning o'z mukofoti bor, muddat yetganda albatta oqibati ma'lum bo'ladi.

Bu kitobni o'qigan odamlar har narsadan oldin uning mag'zini chaqib, unga oroyish bergan istioralarni, ramzli va muammoli so'zlarni tushunib olishlari kerak.

Ibn Muqaffo bu muqaddimaga ilova qilib aytadiki, men bu kitobning hind tilidan qilingan tarjimasini ko'rdim va

Iroq, Shom, Hijoz ahli ham undan foydalansinlar, deb uni ona tillari bo'lgan arabchaga tarjima qilishni xohladim. Men bu kitobni mumkin qadar asliga to'g'ri va oydin tarjima qilishga harakat qildim, toki kitobxonlar va talabalar undan osonlik bilan foydalana olsinlar.

BARZUYA HAKIM HAQIDAGI BOB

Fors hakimlarining buzrugi Barzuya shunday naql qiladi: «Mening otam qo'shin boshliqlaridan, onam esa Zardo'sht pirimug'onlari oilasidan edi. Ollohning menga baxsh etgan ilk ne'mati ota-onamning muhabbati bo'ldi. Ular mening haqimda qayg'urar, boshqa farzandlaridan ko'proq sevar, mening tarbiyam bilan maxsus shug'ullanar, yeyish-ichishimga alohida e'tibor berar edilar. Yetti yoshga yetganimda tib ilmimi o'rganish uchun meni maktabga berdilar. Bu ilmning foydali ekanligini anglab uni zo'r ehtiros bilan o'rgana boshladim. Keyin bu hunarda shuhrat qozonib, kasallarni davolay boshladim. Shu bilan birga hamma odamlar singari men ham to'rt narsani orzu qila boshladim: mol to'plamoq, kayf surmoq, boshqalarning hurmatiga sazovor bo'lmoq va abadiy shuhrat qozonmoq. Shuni aytish kerakki, tib ilmining butun dunyoda zo'r hurmati bordir. Tib kitoblarida: «Tabiblarning eng fozili bemorlarni pulsiz muolaja etuvchilardir, bu yo'l bilan ular ham bu dunyoning, ham narigi dunyoning ne'matlaridan bahramand bo'ladilar», deb yozilgan. Dehqonning urug' sepihdan maqsadi yerdan g'alla undirib o'z rizq-ro'zini topishdir. Hayvonlarning yem-xashagi bo'lgan o't o'z-o'zidan o'saveradi.

Xullas, qayerda sog'ayishiga umidi bo'lgan kasal odamni eshitsam, borib uni muolaja eta boshladim. Birozdan keyin tengqurlarimning mol va davlati menikidan ziyod ekanliklarini ko'rdim. Nafsim ustun chiqib, mol-dunyo to'plamoq havasiga tushdim. To'g'ri yo'ldan o'qshimga sal qoldi. O'z-o'zimga dedim: «Ey nafs, sen foyda bilan zarar orasidagi farqni ko'rmayapsan. Aqlli odam a'ziyati ko'p, foydasi kam bo'lgan narsani orzu qiladimi? Agar sen yaxshi ot qoldirib ketish fikrida bo'lsang, bu foniyl dunyoda ochko'z va xasis bo'lma. Noto'g'ri fikrlardan qayt, savob orttirishga harakat qil. Odamning hayoti bir-biriga qad bo'lgan to'rt unurning qorishmasidan iborat, xuddi

yigirilgan ipga o'xshaydi, uning uzoq vaqt uzilmasdan tura olishiga ishonch yo'q.

Odam badanining a'zolari bir mix bilan qoqilgan oltin butga o'xshaydi. Mix sug'urib olinsa, but bo'laklarga bo'linib ketganidek, odamning badani ham yashash qobiliyatini yo'qotib, parchalanib ketadi. Qarindosh-urug'laring, do'st-oshnolaring bilan ko'pda mag'rurlanma va ular bilan birga bo'lishni ortiqcha havas qilma. Hamisha ularning sevinchлари qayg'ularidan oz, g'amlari esa shodliklaridan ko'p bo'ladi. Bu g'am va g'ussa ustiga yana hijron dardi va ayriliq alami ham insonga hamrohdir. Ba'zan shunday ham bo'ladiki, biri o'z oilasini boqish, xotini va bolalarini ta'min qilish uchun molyig'ib, boyluk to'plashga majbur bo'ladi va bu yo'lda o'zini qurbon qiladi. Bunday odam olovga tashlangan xushbo'y ud yog'ochiga o'xshaydi, uning hididan boshqalar foydalanadi, o'zi esa yonib kul bo'ladi».

Yana o'z-o'zimga dedim: «Sen bemorlarni muolaja qilishdan qolma, jamoat hakimning qadrini bilmaydi, degan gaplarga quloq solma. Agar biror odamni o'lim changalidan qutqarib olishga muvaffaq bo'la olsang, buning savobi har narsadan ko'p ekanligini nazarga ol.

Uzoq davom etgan og'ir kasallik tufayli bola-chaqasi bilan osh-nonga muhtoj bo'lib qolgan bir odamni muolaja etish va uning salomatligini qaytarib berish qanchalik savob ish ekanligini kim e'tirof etmaydi?»

O'z nafsim bilan olishib, o'zimni yana to'g'ri yo'lga sola bildim. Hech narsa olmasdan sidqidil bilan bemorlarni davolay boshladim, uzoq muddat shu ish bilan mashg'ul bo'ldim. Bu xizmatim evaziga rizqi ro'z darvozalari qarshimda ochila berdi. Shohlar menga birin-ketin sarupolar in'om qila boshladilar, xazina darvozasini ochib qo'ydilar. Hindiston safaridan avval ham, keyin ham kam bo'lmadim. Boylikda, shonu shavkatda o'z tengdoshlarimdan o'zib ham ketdim.

Kunlardan bir kun men tib ilmining muvaffaqiyatlari va natijalari haqida, beradigan foyda va samaralari borasida fikr yurita boshladim. Natijada, tib ilmi sog'liqni

abadiy saqlay olmaydi, hech bo'lmasa biror kasallikni tamomila yo'qotib, uni qaytib kelmaydigan qila olmaydi, degan xulosaga keldim. Bas, shunday ekan, aqlli odam tib ilmini shifobaxsh etuvchi ilm deb hisoblay oladimi? Shunday savob ishlar qilib oxiratni o'ylash menga zururroq ko'rina boshladi. Aytishlariga ko'ra, oxiratni o'ylash har qanday kasallikni bir yo'la yo'qotadi, yo'qotganda ham qaytib kelmaydigan qilib yo'qotadi.

Men mana shularning hammasini o'ylab chiqqandan so'ng tib ilmidan qo'l tortib, ilohiyot bilan mashg'ul bo'la boshladim. To'g'risi, men endi avvaliyu oxiri ko'rinmaydigan bir yo'lga tushdim. Yo'l qorong'i va xatarli edi. Na bir yo'l biluvchi odam bor edi, na bir yo'l yorituvchi mush'al. Tib kitoblarida ham bu haqda bir narsa deyilmagan ediki, o'shanga suyanib shak va shubhadan, hayrat va taradduddan qutulsam. Turli xalqlarning dini orasida ham katta farq va ziddiyat bor edi. Ularning orasida xoliq va maxluq, yaratuvchi va yaratiluvchining kelib chiqishi, dunyoning oxiri haqida katta-katta tortishuvlar bo'lardi, ularning har birisi o'zi aytgan so'zlarni to'g'ri, muxolifning aytganini noto'g'ri deb bilardi.

Shunday o'ylar bilan shak va shubha sahosida goh oldinga ketar, goh orqaga chekinardim, tepalar oshib, vodiylarni bosib o'tardim, lekin na maqsadga olib boradigan va na haqiqatga erishtiradigan to'g'ri bir yo'l topa bilardim. Nihoyat, butun din olimlari bilan ko'rishib, ularning e'tiqodlarini o'rganib, yuragimga mos to'g'ri bir tariqat topishga ahd qildim. Butun din-mazhablar bilan chuqur tanishib chiqdim, qaragam, har toifa o'z dinining quntunligidan lof uradi, boshqalarnikini esa yomonlaydi. Men ulardan birontasiga ham ergashmadim, o'z dardimga darmon topolmadim. Ularning hammasi bema'ni-beburd ekanligi menga oydin bo'ldi. Aqlli odam ularning so'zlaridan hech birisini qabul eta olmas edi.

O'z-o'zimga dedim: «Agar men bunday mulohazalardan so'ng bu dinlardan birini qabul etsam, quyidagi hikoyatda bayon etilgan nodon o'g'ri ahvoliga tushib qolaman».

O'g'ri hikoyasi

Deydilarki, bir o'g'ri o'z hamrohlari bilan bir boy odamning uyiga o'g'rilikka tushadi. Uy egasi oyoq tovushidan uyg'onib ketadi va tomda o'g'ri borligini sezadi. Xotinini asta uyg'otib, unga ahvolni tushuntiradi va deydi: «Men o'zimni uxlaganga solib yotaman, sen baland tovush bilan mendan bunchalik mol-dunyoni qanday qilib topganligimni so'ragin. Men javob berishni istamasam, sen qattiq turib javob berishni talab qil». Xotini eri aytganidek savol berdi. Eri dedi: «Ey xotin, meni tinch qo'y, bunaqa savollar beraverib boshimni qotirma. To'g'risini aytadigan bo'lsam, odamlar eshitib qoladilar, deb qo'rqaman, biz beobro' bo'lamiz, jamoat bizdan yuz o'giradi».

Xotin uni qo'yarda-qo'ymay, aytib berishni so'rayverdi.

Eri dedi: «Sening so'rashingning sababi nima? Erning yashirin siri bilan xotinning nima ishi bor?»

Xotini dedi: «Bilgim kelyapti».

Eri dedi: «Bu mol-dunyo o'g'rilik bilan topilgan. Men bir vaqtlar abjir o'g'ri edim. Oydin kechalarda davlatmand odamlarning devorlari tagiga kelib afsun o'qirdim-da, oy nuri tushib turgan uyning tomiga chiqib, yetti marta «Sholem, sholem» deb, oy shu'lasiga ustiga o'tirib, uyning o'rtasiga hech qiynalmasdan sakrab tushardim. U yerda ham yetti marta «Sholem, sholem» deyishim bilan uydagi bor pul va qimmatbaho buyumlarning hammasi oldimda yig'ilib qolardi. Kuchim yetganicha ko'tarib, yana yetti martaba «Sholem, sholem» deya oy shu'lasiga suvora bo'lib darchadan chiqib ketardim. Mana shu afsun tufayli hech kim meni ko'rmas va mendan badgumon ham bo'lmas edi. Sekin-asta mana shu boyliklarni qo'lga kiritdim. Bu so'zni hech kimga o'rgata ko'rma».

O'g'rilar buni eshitib, afsun o'rganib olganliklari uchun juda quvondilar. Biroz payt poylab yotdilar-da, uy egalarining uxlaganliklariga ishonch hosil qilgach, o'g'riboshi yetti marta «Sholem, sholem» dedi, lekin oyog'ini darchaga qo'yishi bilan yerga qulab tushdi.

Uy egasi darhol o'rnidan turib to'qmoq bilan o'g'ring boshiga tushirdi. Keyin u: «Men aziz umrimni sarf qilib topgan davlatimni osonlikcha olib ketaman deb o'yladingmi? Sen kimsan? Aytmasang, hozir o'ldiraman», dedi.

O'g'ri dedi: «Men sendak tilyog'lama odamning so'ziga aldanib to'rga ilingan laqma va nodon odamman».

Xullas, laqma bo'lganim uchun haqiqatni topa olmadim va o'z-o'zimga dedim: «Avlod-ajdodimning dinida qolib, to'r-ko'rona unga rioya etsam, men faqat ajdodi jodugar bo'lgani uchun o'zini haqli hisoblagan jodugarga o'xshab qolaman. Agar yangidan din axtarishga boshlay desam, umr yetmaydi deb qo'rqaman, chunki o'limim yaqinlashib qolgan. Taraddud ichida yashaydigan bo'lsam, fursatni qo'ldan berib, hech bir savob ish qila olmay, bu dunyodan o'tib ketaman. Shuning uchun men barcha dinlardan voz kechib, har narsadan ustun hisoblangan xayrli ishlar bilan mashg'ul bo'lishga, aqlga sig'adigan ishlar bilan shug'ullanishga ahd qildim.

Shundan beri men jonivorlarni urish, o'ldirishdan, odamlarni ranjitish, tahqir etishdan, ularga xiyonat qilishdan voz kechdim, yolg'on so'zlash, bo'hton, g'iybatdan tilimni tiydim; xalqqa ozor berish va dunyo moliga hirs qo'yishdan, nayrangbozlik va jodugarlik kabi noloyiq ishlardan chekindim. Yomonlardan qochdim, yaxshilarga qo'shildim. To'g'rilik va tozalikka do'st bo'ldim. Chunki dunyoda to'g'rilikdan yaxshi do'st bo'lmaydi. To'g'rilik bilan har narsaga erishsa bo'ladi. Bu shunday davlatki, ulashganing bilan ozaymaydi, xarjlaganing bilan kamaymaydi. To'g'ri odam podshohdan ham qo'rqmaydi, o't, suv, vahshiy hayvonlar va boshqa zararli narsalar ham unga ziyon yetkaza olmaydi. Kimki to'g'ri yo'ldan chetga chiqib, davlat orttirish bilan shug'ullansa, o'z umrini yomon ishlarga sarf etsa, u odamning boshiga quyidagi hikoyada zikr etilgan savdogarning boshiga tushgan ish tushadi».

Savdogar hikoyasi

Deydilarki, bir savdogarning qimmatbaho toshlari (javohirlari) ko'p ekan. Ularni teshish uchun savdogar kuniga yuz dinor haq to'layman deb bir odamni boshlab keladi. U odam uyga kelib ish boshlamoqchi bo'lib turganda, burchakdagi ajoyib bir changni ko'rib qoladi. U diqqat bilan changga qarab turganida savdogar undan, chalishni bilasanmi, deb so'raydi. Xizmatkor: «Bilganda qanday», deb javob beradi. Xizmatkor chang chalishni g'oyat yaxshi bilar edi. Savdogar: «Chal!» deb buyuradi. Xizmatkor changni olib hazin va dilrabo bir kuyni chala boshlaydi, shirali bir ovoz bilan ashula aytadi. Savdogar uni zo'r zavq bilan tinglab huzur qilib o'tiradi, javohirlar esa teshilmay qoladi. Kech bo'lgach, xizmatkor o'z haqini so'raydi. Savdogar deydi: «Javohirlar qanday bo'lsa, shunday qoldi. Qilinmagan ishga haq berilmaydi». Xizmatkor asabiylashib, savdogarga baqirib: «Men sening buyurgan ishingni qildim. Xizmatimga haq to'lamaslikka haqqing yo'q», dedi.

Savdogar xizmatkorga va'da qilingan haqni berishga majbur bo'ldi.

Mo'min bo'lishni orzu qilib, toat-ibodat bilan shug'ullanishga qaror qildim. Tashqi ko'rinishim bilan ichki dunyom, so'zim bilan ishim bir-biriga mos bo'lishini istadim. Chunki mo'minlik va to'g'rilik gunohni qaytaradigan po'lat libosdir.

To'g'rilik va mo'minlik samaralaridan biri shuki, umrning bebaqoligi, dunyoning foniy ekanligi seni cho'chitmaydi. Taqvodor odam bu o'tkinchi dunyoning ishlariga nazar tashlasa, undagi qabohatni haqiqat ko'zi bilan ko'radi, narigi dunyoga bo'sh qo'l bilan ketmaslik uchun yaxshilik qiladi, shuhratparastlikdan voz kechadi. Ko'ngli tinch bo'lishi uchun o'z toleidan rozi bo'ladi. Dunyoni mashaqqatlaridan qutulish va butun gunohlarini yuvish uchun uzlatga chekinadi, hammaning muhabbatini qozonish uchun hech kim hasad qilmaydi.

Men dunyoning qo'ldan ketishi tashvishidan xalos bo'lish uchun saxiylikni o'ziga kasb qiladi, pushaymon bo'lmaslik uchun aql bilan ish ko'radi, qanoatli bo'lish uchun oxiratni o'zidan chiqarmaydi. Yanglishmaslik uchun ketini o'ylab o'qib qiladi, rohat-farog'atda yashashi uchun odamni tanjitmaydi.

Men xudojo'ylikning mashaqqatlari haqida o'ylaganim sari unga rag'batim ortardi. Lekin bu dunyoning qazatidan voz kechib, naqdni qo'ldan berib, nasiya toqasidan yugurish qiyin bir ish ekanligini bilardim. Bu yo'lda xato qilib qo'ysam, ham bu dunyom, ham oxiratim kayyishidan va natijada, pushaymon bo'lishdan qo'rqardim. Agar shunday bo'lib chiqsa, men og'zidagi suyak aksini suvda ko'rib, uni olish uchun o'zini suvga botgan, natijada, og'zidagi suyakdan ham ayrilgan it shivoliga tushib qolardim.

Kishining dilini siyoh qiladigan bunday tushunchalar meni yo'ldan adashtirib, ikki dunyomdan mahrum etishiga oz qolgan edi. Men qaytadan bu dunyoning ishlari haqida fikr yuritib va uning nozu ne'matlarini ko'z ongimga keltira boshladim. Menga oydin bo'ldiki, bu dunyoning ne'matlari kamalakka o'xshab oz umrli va o'tkinchidir. Buning ustiga, ular sho'r suvga o'xshab, bolganda tashnaligingni orttiradi, ular zahar aralashtirilgan bolga o'xshaydi — u avval shirin ko'rinadi, keyin esa o'ldiradi. Ular, uyg'ongandan keyin achinish hismini uyg'otadigan shirin tushga o'xshaydi. Bu dunyoga berilgan odam ipak-qurtiga o'xshaydi — u qanchalik ko'p ipak o'rasa, o'z qo'l-oyog'ini shunchalik qattiq bog'lagan va najot yo'li shu qadar qiyinlashgan bo'ladi.

Ularning hammasini o'ylab chiqqach, men yana xudojo'ylik yo'liga o'tmoqchi bo'ldim, lekin tag'in o'zimga qarshi chiqib dedim: «Menga bu dunyoning ishlaridan qochib u dunyoni o'ylashim, keyin esa mo'minlik mashaqqatlaridan qo'rqib yana dunyoviy hayotga yuz o'girishim yaxshi emas. Agar men shunday qilgudek bo'lsam, avval bir-biriga dushman ikki da'vogardan

birining so'zini eshitib, uning foydasiga hukm chiqargan, ikkinchisini eshitgach, uning foydasiga qaror chiqargan, riyokor qoziga o'xshab qolaman, bu yo'l bilan muammoni hal etib bo'lmaydi».

Nihoyat, men toat-ibodat bilan shug'ullanishga qaror qildim, chunki bu dunyoning mashaqqatlariga bardosh berish oxirat azobiga qaraganda hechdir, bu dunyoda olinadigan lazzat narigi dunyoda beriladigan azoblarning mingdan biricha ham yo'q. Har qalay oxirida ko'proq lazzat beradigan ozgina mashaqqat ko'proq mashaqqat keltiradigan ozgina lazzatdan afzaldir. Agar bir odamga senga yuz yil umr berib, har kuni go'shtingdan bir parcha kesib olaman, uni yana tikib sog'aytiraman, shu yuz yil o'tgach, sen har qanday azoblardan qutulib rohatda yashaysan, deb shart qo'yilsa, u odam uchun abadi ne'mat ichida yashashga nisbatan bu uqubatli yuz yil bi soatdan ham oz ko'rinishi mumkin.

Ajabo, yashash azob-uqubatdan iborat emasmi? Inson ona qornida paydo bo'lganidan to umrining oxiriga qadar uqubat chekmaydimi? Tibbiy kitoblarda yozilishicha, bola ona qornida go'yo bir tugunga tugilgandek parda ichida o'sadi, qiynalib nafas oladi, tor, qorong'i qorinda tasavvurga sig'maydigan aziyatlar ichida tug'ilguniga qadar yotadi. Oy-kun yaqinlashgach, bola harakat qilish boshlaydi, u yorug' va kenglikka chiqishga intiladi.

Bola tug'ilgach, unga hatto yengil shamol tegsa ya yumshoq qo'l tegib ketsa, terisi shilib olingan odamdek azob chekadi. Shundan keyin bola uchun mashaqqatli va musibatli kunlar boshlanadi. Och qolganda ovqat suvsaganda suv so'ray olmaydi, biror yeri og'risa ayt olmaydi. So'ngra beshik, yo'rgak azoblari... Uxlaganda hamisha osmonga qaratib yotqiziladi, u qanchalik qiynalmasin, oyoq-qo'lini qimirlata olmaydi. Ko'krakdan ajratilgandan keyin uning tarbiyasi bilan mashg'ul bo'lib boshlaydilar: falon narsani yema, piston narsaga qo'l tegizma, falon so'zni aytma, falon narsaga qarama deydilar, kasal bo'lsa, achchiq dorilar ichiradilar... Balog'atga

yetganidan keyin uylanish, uy-ro'zg'or tashvishi, bola-shaqa dardi, mol-davlat to'plash, pul yig'ish hirsini bilan kechiradi. Bundan tashqari, inson vujudida bir-biriga aid to'rt unsur (qon, o't, safro va balg'am) mavjud bo'ladi. Bo'ngra falokatlar, musibatlar, kasalliklar bir-biriga ulanib ketaveradi. Ilondan, chayondan, vahshiy hayvonlardan qo'rqish, issiq va sovuqdan, qor va yomg'irdan o'zini asrash tashvishi... Agar umri vafo etib, qarigudek bo'lsa, qarilik bilan bog'liq bo'lgan turli kasallik, zaiflik, azob-tiqubatlarga bardosh berishi kerak. Buning ustiga dushmanlarning qasdi va yomon niyatlarining hasadi...

Faraz qilaylik, aytilganlarning birortasi ham ro'y bermadi, inson eng yaxshi sharoitda sog' va salomat yashadi. Lekin o'lim vaqti yetishganda nima bo'ladi? O'g'irligiz, qarindosh-urug', oshna-og'ayni bilan vidolashmoq, achchiq o'lim sharbatini ichmoq zarur bo'lgan damda bu dunyoga bo'lgan muhabbat shami insonning qalbidan seonlik bilan o'chadi deysizmi?

Shunday ekan, hech bir aqlli odam, insonlar bora-bora o'zlarining go'zal fazilatlarini yo'qotib, mol-dunyo uchun umrini sarf etishlarini ravo ko'rmaydi. Chunki boqiy dunyoni teniy dunyoga, abadiylikni muvaqqat narsalarga almashtirish, musaffo va pok bir ruhni iflos va tuban bir badanga qurbon berish katta ayb va kechirib bo'lmaydigan xato hisoblanadi.

Men zamonaning xarob bo'layotganini, falokatga qarab to'g'ri ketayotganini ko'rib turibman. Haqiqat go'yo talamlardan qochayotgandek. Foydali ish va yaxshi so'zlar unutilib, to'g'ri yo'llar bekilayotgandek. Adolat yo'qolib, e'lni zulm, vahshat egallagan, ilm eshiklari qulflanib, taholat darvozalari ochilgan, razolat va xiyonat, e'tibor va muruvvatni siqib chiqargan. Do'stlik zaiflashib, dushmanchilik kuchaygan, yaxshi odamlar tahqir etilib, azobu mashaqqat ichida, yomonlar esa hurmat qozonib, hayf-safro va rohatda yashamoqdalar. Hiyla va riyokorlik uyg'oq, vafo va sadoqat esa g'aflat uyqusida. Yolg'on — bo'ldi, rostgo'ylik — mahbus, haq — mag'lub, nohaqlik —

g'olib, zolim — haqli, mazlum — haqsiz, xasislik — hokim qanoat — mahkum, qozi — g'addor, zohid — riyokor...

Men dunyoning bu ishlarini o'ylab ko'rgach, butun mavjudotning sarvari va butun borliqning eng mukammal maxluqi bo'lgan odam o'z umrining qadrini bilmaydi, o'z hayotining najoti uchun kurashmaydi deb o'yladim. Men bu ahvolni kuzatib ko'p taajjublandim, diqqat bilan qarab insonlarning baxtli yashashlariga mone bo'lgan narsa ularning mol to'plash kasaliga muhtalo bo'lib qolish ekanligini ko'rdim, bu mol to'plash insonning totib ko'rish hidlash, sezish kabi ehtiyojlarini qondirish uchun qilayotganini bildim. Lekin bu sezgilarning hech bir maqsadga yetish uchun kifoya qilmaydi. Insonga mol dunyo nasib bo'lsa-da, u bu dunyoda ham, oxiratda ham ziyondan boshqa bir narsa keltirmaydi.

Bu tuyadan qochib qutulmoqchi bo'lgan odamning holiga o'xshaydi. Bir odam quturgan tuyadan xalok bo'lmoq uchun jar ustiga egilgan ikki shoxga osilib, jar yoqasiga oyoq qo'yadi, lekin oyog'i ostidagi indan to'rtta ilon bosh chiqarib turgani ko'ziga chalinadi, jarning ostiga nazar tashlasa, u yerda bir ajdaho og'zini ochib, uning tushishini kutib turganligini ko'radi, yuqoriga qarasa, oq va qora sichqonlar u osilib turgan shoxlarni to'xtovsiz kemirayotganliklarini ko'radi. Bu ahvoldan qutulish yo'lini o'ylab turganida undan nariroqda bir asalari uyasiga ko'z tushadi, barmog'ini bolga botirib yalay ketadi, bolning shirinligi uning boshini shu darajada aylantiradiki, natijada, u o'zining qanday ahvoldaligini unutadi. Oyoqlarini to'rt ilonning boshiga qo'ygani va bu ilonlar har onda chaqib olishlari mumkinligi, sichqonlar shoxlarni albatta kemirib sindirishlari, shoxlar sinsa u ajdaho domiga tushishi muqarrarligi xayolidan ko'tariladi. Jaholat pardasi kuchli aql nurini to'sib qo'yadi, lekin o'z fursat o'tmay, jarga qulab halok bo'ladi.

Men dahshatli, chuqur jar deb bu dunyoni nazardan tutaman. Shoxlarni kemirgan oq va qora sichqonlar — kecha va kunduzdir. Ularning har ikkalasi insonlarning

umrini ozaytirish, halok etish uchun uzluksiz bir-birini almashtirib turadi; to'rt ilon — borliqning mohiyatini tashkil etgan to'rt unsurdir; bulardan birortasi o'z muvozanatini yo'qotsa, inson darhol mahv bo'lib ketadi: bol — azobi ko'p, foydasi kam bo'lgan, odamlarni to'g'ri yo'ldan ozdirib, ularga najot darvozalarini bekitgan foniyl dunyodir; ajdaho — hech kim qochib qutula olmaydigan o'limdir. Ajal sharbatini ichishga to'g'ri kelganida, Azroil tepangga kelib turganida o'limdan qutulib bo'lmaydi, pushaymonlik ham foyda bermaydi, na tavgaga vaqt qoladi, na duo o'qimoqqa majol...

Xullas, eng oxiri, men qanday bo'lsam, ahundayligimcha qolishga, qo'limdan kelgancha yaxshi ishlar qilishga qaror qildim. Umid qilamanki, balki shu yo'l bilan haqiqat yo'lini topib, o'z nafsimga o'zim hokim bo'laman, najot eshigini ochaman. Bir qancha vaqt shu umid bilan yashadim, nihoyat, Hindistonga safar qildim. Men u yerda ham haqiqatning tagiga yetish uchun kuchim boricha harakat qildim, ko'p kitob o'qidim. Hindistondan qaytishda bir talay kitob keltirdim. Ulardan biri — taqdim etayotganimiz «Kalila va Dimna»dir.

SHER VA HO'KIZ BOBI

Hind rojasi¹ brahmanga dedi:

— Menga bir hikoya aytib berginki, unda xoin odamning yolg'onchiligi, bo'htonlari natijasida ikki do'st orasidagi sadoqat adovatga aylanib, bir-birlaridan ajralib ketishgan bo'lsin.

Brahman dedi:

— Agar ikki do'st orasiga bir xoin kirib qolsa, albatta nizo tushadi, ular xuddi sher va ho'kiz kabi bir-birlariga dushman bo'lib qolishadi.

Shoh so'radi:

— Ular qanday qilib dushman bo'lib qolibdilar?

Brahman hikoyati

Naql qilibdurlarki, bir badavlat savdogar bor ekan, uning bolalari katta bo'lganlarida hech qanday ish bilan mashg'ul bo'lishni istamabdilar. Otarining molini sovura boshlabdilar.

Ota ularni yig'ib debdi:

— O'g'illarim! Odam bu dunyoda uch narsaga intiladi, bu uch narsa esa to'rt vosita bilan qo'lga kiritiladi. Bu uch narsaning biri — yaxshi turmush kechirmoq, ikkinchisi odamlar orasida yuksak mavqega ega bo'lmoq, uchinchisi — oxirat savobini topmoq uchun savobli ishlar qilmoqdir. Bu uch narsaga erishmoq uchun vosita bo'lgan to'rt narsa quyidagilardir: halol mehnat bilan davlat to'plamoq; qo'lga kiritilgan davlatni saqlay bilmoq; isrofga yo'l qo'ymasdan davlatini o'zi, oilasi va aka-ukalari uchun xarjlamoq... Nihoyat, mumkin qadar o'zini ziyonli ishlardan tiymoq. Bu to'rt shartdan bittasini ham bajarmagan odam o'z orzusiga yetolmaydi. Chunki odamning davlati bo'lmasa, u o'zi yeb, boshqalarni to'ydira

¹ Roja — hindlarda hukmdor, shoh demakdir (tarj.)

olmaydi; agar davlati bo'lsa-yu, lekin uni rasamadi bilan xarjlamasa, sal o'tmasdan bu davlat yo'q bo'lib ketadi.

Shuning uchun debdurlarki, mol-davlatni qo'lga kiritishdan ko'ra uni xarjlash qiyindir...

Agar odam pul topib turmasa, bor davlatini naqadar oz xarjlasa ham, bu davlati tezda tamom bo'ladi — surma oz-oz ishlatilishiga qaramay, baribir tugaydi...

Shuning uchun debdurlar: «Toma-toma ko'l bo'lur, hech tommasa cho'l bo'lur». Odam davlat yig'ib, uni xayrli va foydali ishlarga xarjlamasa, unday odamni badavlat emas, yo'qsil deb hisoblash kerak. Bunday odamning davlati keraksiz yerlarga o'rinli-o'rinsiz sarf bo'lib ketadi. Bu suv keladigan yo'li boru, chiqadigan yo'li bo'lmagan bir hovuzga o'xshaydi — suvning ortig'i foydali yerlarga sarf bo'lmasdan toshib, atrofni bosib ketadi.

Nihoyat, otaning nasihati o'g'illariga ta'sir qildi, ularning har qaysisi bir kasb-hunar bilan mashg'ul bo'la boshladi. Katta o'g'il savdogarchilik qilish uchun uzoq bir mamlakatga safarga chiqdi. Yo'lda bir katta botqoqlikka duch keldi. Uning yuk tashuvchi ikki ho'kizi bor bo'lib, birining oti Shatraba, ikkinchisining oti Bandaba edi. Shatraba o'sha yerda botqoqqa botib qoldi, savdogar va uning xizmatkorlari ko'p qiyinchiliklar bilan Shatrabani bulchiqdan chiqarib oldilar, lekin u juda holsizlanib yurishga majoli qolmagan edi. Savdogar o'z xizmatkorlaridan birini Shatraba yonida qoldirib, bir necha kun uni parvarish qilishni, kuch-quvvatga kirgach uni yetaklab kelishni buyurdi.

Bir-ikki kun o'tgandan keyin ho'kizning yonida qolgan xizmatkor zerikdi, ho'kizni qoldirib savdogarning yoniga bordi va unga Shatraba o'ldi, dedi. Ho'kiz bo'lsa o'sha joydan ketib, suvi serob, o'ti mo'l bir go'zal joyga yetib bordi va o'sha yerda yashay boshladi.

Ko'p vaqt o'tmay semirib ketdi. U xursand bo'lganidan o'ynoqilab ma'rab yurar edi. Shu yerning yaqinida o'rmon podshohi sher va uning xizmatida jonivorlar: ayiq, qashqir, shag'ol va shunga o'xshash hayvonlar yashardi. Sher

mendan ulugʻi va mendan zoʻri yoʻq, deb oʻylar, hech kimni nazar-pisand qilmas edi. Lekin u hech vaqt hoʻkizni koʻrmagan, uning maʼrashini eshitmagan edi. Shuning uchun u Shatrabaning boʻkirganini eshitib qoʻrquvga tushdi va buni xizmatimdagi hayvonlar sezishmasin deb oʻz joyidan jilmay oʻtiraverdi, ovga ham chiqmay qoʻydi.

Uning yonida boʻlgan hayvonlar orasida ikkita shagʻol bor edi. Ulardan birining oti Kalila, ikkinchisining oti Dimna edi. Ikkovlari ham sezgir va makkor edilar. Lekin Dimna ziyrakroq va yovuzroq edi.

Dimna Kalilaga dedi:

— Birodar, sen sher haqida qanday fikrdasan? U bir necha kun boʻldiki, joyidan jilmaydi, ovga ham chiqmay qoʻydi.

Kalila dedi:

— Senga daxli boʻlmagan narsalarni nega surishtirasan? Bizning ahvolimiz oydin: biz shoh xizmatidamiz va uning davlati soyasida yashaymiz. Biz shohlar majlisida suhbat qilishlik huquqiga ega boʻlgan va shohlar ishiga aralashadiganlardan emasmiz. Ovozingni chiqarma, bilib qoʻyki, aloqasi boʻlmagan ishlar bilan shugʻullanganing boshiga maymunning qismati tushadi.

Dimna dedi:

— Maymunga nima boʻlgan edi?

Kalilaning maymun va duradgor haqidagi hikoyati

Naql qilibdurlarki, bir maymun bir duradgorning yogʻoch ustida oʻtirib pona bilan uni yorayotganini koʻrdi. Duradgor bir ponani qoqqandan keyin ikkinchisini chiqarib olar, uni boshqa yerga qoqar va shunday qilib yogʻochni yorib borardi. Duradgor zarur ish bilan bir yoqqa ketdi. Buni koʻrgan maymun unga daxli boʻlmagan ishga aralashib duradgorning ishini davom ettirmoqchi boʻldi. U orqasini yogʻochning yorigʻiga qilib, yuzini ponaga

qaratib yog'och ustiga minib oldi. Uning dumi yog'ochning yotig'iga tushib turgandi, u ponani sug'ura boshladi. Maymun ponani chiqargan ham ediki, dumini yog'och qilib oldi. Maymun hushidan ketdi, to duradgor yetib kelguncha shu ahvolda yotdi. Duradgor esa kelib maymunni urib o'ldirdi. Shuning uchun debdurlarki: «Duradgorlik maymunning ishi emas».

Dimna dedi:

— Men hikoyangni eshitib, nima demoqchi bo'lganligingni tushundim. Lekin bilib qo'yginki, shohga yaqin bo'lgan har kimsa faqat o'z qornini to'ydirishni ko'zlamaydi, chunki qorinni har qayerda to'ydirsa ham bo'ladi... Yo'q, bunday odam har narsadan avval ulug' martaba va mansabga erishib do'stlarni quvontirishi, dushmanlarni g'azablantirishi kerak, faqat hayvonlargina qornini o'ylaydi. It quruq suyakdan sevingani kabi, bunday odam ham unga berilgan kichik bir in'omdan zavvinadi va shu bilan qanoatlanadi. Olijanob irodali odamlarni esa, kichik narsalar qoniqtira olmaydi. Quyonni ovlashga chiqqan sher tog' echkisini ko'rib qolib, quyonni qo'yib unga otiladi...

Ozgina narsaga qanoat qilmoq ma'naviy yo'qsillik va kasallik alomatidir. Yuksak mavqega erishgan odamning umri gul kabi qisqa bo'lsa ham, aqlli odamlar uni uzoq umr ko'rdi deb hisoblaydilar va aksincha, oz narsaga qanoat qilgan odamning umri qarag'ay daraxtidek uzun bo'lsa-da, himmat ahli oldida uning qadru qimmatini bo'lmaydi.

Kalila dedi:

— Men gaplaringga tushundim, lekin esingni yig'ib ol, bilginki, har odamning o'z yeri va o'z mavqei bo'ladi. Biz ulug' mansab, yuksak darajaga loyiq tabaqadan emasmiz, hami talab ham qila olmaymiz. Biz sog'-salomat kun hechirsak, shuning o'zi kifoyadir...

Dimna dedi:

— Odamlarning mavqei har xil bo'ladi. Iste'dod va qobiliyatli odamlar past martabadan baland martabaga

chiqib oladilar. Irodasi zaif, aqli kam boʻlganlar esa yuksal mavqedan pastga tushib ketadilar. Yuksak darajaga chiqmoq juda qiyin, pastga qulash esa juda oson gap. Chunonchi, ogʻir toshni yerdan uzishga koʻp kuch va mehnat talab qilinadi, uni yerga tashlash uchun esa kuch sarf etilmaydi.

Mard va irodali odamlardan oʻzgarar oliy darajaga koʻtarila olmaydilar. Biz yuksak mansabga loyiqmiz va hozirgi past martabada qolishga rozi boʻlmasligimiz kerak.

Kalila dedi:

— Sen nima qilmoqchisan?

Dimna dedi:

— Men fursatdan foydalanib sherning huzuriga bormoqchiman. U qoʻrquv va hayajon ichidadir. Balki biron maslahat bilan uning koʻnglini ovlarman, shunday qilib unga yaqinlashib, yuksak mansabga erishaman.

Kalila dedi:

— Sen sherning qoʻrquv va hayajon ichida ekanligini qayerdan bilding?

Dimna dedi:

— Men buni aql va idrokim bilan bildim. Aqlli odamlar odamning ichidagini uning tashqi alomatlaridan, qiyofasidan bilib oladilar.

Kalila dedi:

— Shohlar xizmatida boʻlmaganing, shoh majlislarining tartib-qoidalarini bilmaganing holda sen qanday qilib sherni bilan doʻstlashasan-u, undan qanday qilib mansab olgan bilasan?

Dimna dedi:

— Katta va masʼuliyatli ish, ogʻir yuk kuchli va baquvvat odamni charchata olmaydi. Gʻariblik va yolgʻizlikdan aqlli odam qoʻrqmaydi... Farosatli va hushyor odamlar har narsaning yoʻlini tez topa oladilar.

Kalila dedi:

— Shohlar fazilat egalariga emas, balki oʻzlariga yaqin, ota-bobolari unga xizmat qilib kelgan odamlargagina iltifot koʻrsatadilar. Shohlar bu jihatdan tok novdasiga

o'xshaydilar, o'zlariga juda yaqin turgan yog'ochlarga qilmashadilar.

Dimna dedi:

— Sen haqsan, lekin men bilamanki, shohning yaqin odamlari va ulardan oldin o'tganlar hamisha bu mansabga ega bo'lmaganlar. Ular sekin-asta shohga yaqinlashib, bu darajaga ko'tarilganlar. Men ham ulardek mansabga erishishga imkoni boricha harakat qilaman. Deydilarki, shu vaqtga qadar shohning g'azabiga uchramasdan, uning tahqirlariga chidamasdan, o'z jahlini bosib, odamlar bilan yumshoq muomala qilmasdan oliy mansabga erisha olgan biror odam shoh eshigida bo'lgan emas.

Kalila dedi:

— Aytaylik, sen sher bilan do'stlashib olding, lekin qanday hiyla ishlatib undan oliy mansab olasan?

Dimna dedi:

— Agar men unga yaqinlasha olsam, avvalo uning tabiati xususiyatlarini o'rganaman, unga hurmat ko'rsatib butun orzularini yeriga yetkazaman. U, mening fikrimcha, mamlakat foydasiga qaratilgan biror yaxshi ish boshlasa, men uning ishini maqtab, bu tadbir keltiradigan foydalarni og'iz ko'pirtirib gapiraman va shohni xursand qilaman. Mabodo, meningcha, natijasi zararli bo'lishi mumkin biror ishga qo'l urishni istasa, men ehtiyotlik bilan, muloyim tarzda bu ishning zararli tomonlarini tahlil beraman, agar u bu ishdan qaytsa, qanday foydali ish qilganini tushuntirib beraman. Boshqalardan bunday ehtiyot ko'rmagan sher bular evaziga menga yanada ko'proq iltifot ko'rsatadi.

Donishmand odamlar istasalar yolg'onni chinga, chinini esa yolg'onga aylantira oladilar... Mohir rassomlar qalam bilan devorga shunday rasmlar chiza oladilarki, ular devordan chiqib kelayotganga o'xshab ko'rinadi. Sher mendagi bu qobiliyat va iste'dodni ko'rganidan keyin unga yaqin bo'lishimni mendan ham ko'proq istab qoladi.

Kalila dedi:

— Agar shu niyatda bo'lsang ehtiyotlik bilan ish tut. Hukmdorlar xizmatida bo'lish xatarlidir. Donishmandlar aytibdurlarki, faqat nodon odamlargina quyidagi uch ishga kirishadilar: biri — shohlarga yaqin bo'lmoq, ikkinchisi — totib ko'rish maqsadida zahar ichmoq, uchinchisi — xotinga sir aytmoq. Aqlli odamlar podshohning shunday toqqa o'xshatadilarki, u dur va gavhar, shirin mevalar koni bo'lishi bilan birga, palang, sher, zaharli ilon va boshqa yirtqichlar makoni hamdir. Unga chiqmoq mumkin, lekin u yerda yashamoq juda xavflidir.

Dimna dedi:

— Sening aytganlaring to'g'ri, lekin xatardan qo'rqqan maqsadga yeta olmaydi...

Kuchli iroda va zo'r aql egasi bo'lmaganlar quyidagi uch ishning uddasidan chiqa olmaydilar: shohga xizmat qilmoq, dengizda safar qilib, savdogarchilik bilan mashg'ul bo'lmoq va dushmanga qarshi jang olib bormoq. Donishmandlar debdurlarki, bahodir kishilar faqat ikki joyga loyiqdirlar: yo shoh xizmatida bo'lib shuhrat qozonmoq yoki uzlatga chekinib zohidlik qilmoq.

Kalila dedi:

— Xudo niyatingga yetkazsin. Lekin men bu ishingga qarshiman, hech vaqt senga sherik bo'lolmayman.

Dimna sher yoniga kelib salom berdi. Sher mulozimlaridan: «Bu kim?» deb so'radi. Ular dedilar: «Falonchining o'g'li falonchi». «Otasini tanir edim», dedi sher. So'ngra Dimnani yoniga chaqirib so'radi:

— Sen qayerda, nima ishlar qilib yuribsan?

Dimna dedi:

— Men sizdek ulug' podshohga biror foydam tegib qolar degan umidda eshigingizda xizmat qilib yuribman. Agar biror xizmatlari bo'lsa uni bajonidil bajarsam. Podshohning saroyida shunday ishlar ham bo'ladiki, kichik vazifadagilar ham asqatib qoladi. Sizning dargohingizda tovusdan tortib pashshaga qadar hammaga ish topiladi. Mavqe yuzasidan eng quyi, jussa jihatidan eng zaif xizmatchilar ham foydu

yoki ziyon keltira oladilar. Yoʻlda xor boʻlib yotgan bir quruq choʻp ham baʼzan ishga yarab qoladi. U bilan baʼzan quloq koʻvlaydilar, baʼzan tish tozalaydilar. Zararli ish bilan foydali ishning farqiga boradigan maxluqdan esa yana ham oʻrinli istifoda etilsa boʻladi.

Sher Dimnaning bu soʻzlarini eshitib, uning oʻziga xayrixoh va aqlli ekanligini koʻrib, xurram boʻldi. Soʻngra yaqinlariga qarab dedi:

— Isteʼdodli va ishbilarmon odam vazifasi kichik, nufuzi oz boʻlsa ham, xalq orasida shuhrat topadi. Bunday odamlar yonib turgan olovga oʻxshaydi. Eʼtibor berganmisiz, uni puflab oʻchirmoqchi boʻlsalar, baland koʻtarilib, langʻillab yonib ketadi.

Dimna bu soʻzlarni eshitgandan soʻng shohga manzur boʻldim, deb oʻzida yoʻq xursand boʻlib ketdi va dedi:

— Shohning barcha odamlari, yaqinlari oʻz fikrlarini, ilm va tajribalarini undan yashirmasliklari kerak. Chunki shoh oʻz xizmatidagilarni yaxshi bilishi kerak, ularning har birining aql-idroki va ixlosini bilmasa, ulardan yaxshi foydalanish, vazifaga toʻgʻri tayin etishda qiyin boʻladi. Urugʻ yer ostida yotsa, hech kim u bilan qiziqmaydi, u qachon tuproqni yorib, yerni zumrad kabi bezasa, uning nima ekanligi maʼlum boʻladi, soʻngra parvarish qilib uni oʻstiradilar.

Shoh har kimdan oʻz layoqati va aql-idrokiga qarab foydalanishi kerak. Xizmatga tayin qilishda shohlar avvalo shu xususiyatni nazarda tutishlari lozim. Raiyatning podshohlar oldidagi haq-huquqlaridan biri shuki, shoh har kimga qobiliyatiga qarab mansab berishi, yaʼni layoqatsiz odamlarni isteʼdodli va qobiliyatli odamlardan afzal koʻrmasligi kerak. Ikki narsa hech kimga, jumladan, shohlarga yarashmaydi: sallani oyoqqa, paytavani boshga oʻrash. Laʼl va yoqut qoʻrgʻoshin bilan qoplansa ham, bu bilan ularning bahosi tushmaydi, lekin bu ishni qilgan odam shu bilan oʻz ahmoqligini oshkor qilib qoʻyadi.

Ishning muvaffaqiyatli tugashi yordamchilarning koʻpligida emas, ishbilarmonliklaridadir. Baland toqqa

chiqqan bilan odamning nufuzi baland bo'lmay, balki inson o'z boshiga bir dunyo balo orttiradi. Hunar egalari quyi mansabda bo'lsalar-da, aqlli odamlar ularga mensimaslik bilan qaramasliklari kerak. Harom o'lgan hayvon payini olib, undan yoyni bukadigan tanob yasaydilar, shohlar minadigan egarlarni bezaydilar. Davlatmand va dong'i ketgan nasldan bo'lmaganlari uchun hunar egalarini quyi mansablarga tayin etmoq, iste'dodsiz odamlarga esa ulug'larning vorisi bo'lgani uchungina yuksak martaba bermoq shohlarga yarashmaydi. Shoh odamlarni mamlakatga keltirishlari mumkin bo'lgan foydalarga qarab munosib mansabga tayin etishlari kerak. Iste'dodsiz odamlar o'z ajdodlarining xizmatini o'zlarining baxt-saodatlarini vositasiga aylantirsalar ko'p zarar yetkazadilar, hunar egalari halok bo'lib ketadilar. Inson uchun o'z jonidan aziz hech narsa yo'qdir. Lekin badanning biror a'zosi og'rib qolsa, uni uzoq va yot shaharlardan keltirilgan dori-darmonlar bilan muolaja qiladilar.

Sichqon hamma bilan hamxona bo'lsa ham, uning ozori borligi uchun odamlar ularni qirib yo'qotishga tirishadilar. Lochin yirtqich qush bo'lsa ham, undan foydalanish umidida odamlar yaxshilab parvarish qiladilar. Shohlar esa qo'llariga qo'ndiradilar.

Dimna so'zini tugatdi. Shohning Dimnaga bo'lgan ixlosi yanada ortdi, unga iltifot qilib bir necha shirin so'z aytdi. Dimna shoh bilan yolg'iz qolgandan keyin shunday dedi:

— Necha muddat bo'ldiki, shoh bir yerda o'tirib qoldilar, buning sababi nedir?

Sher o'zining qo'rqayotganini Dimnadan yashirmoqchi bo'ldi, lekin shu choqda Shatraba to'satdan shunday ma'rab yubordiki, uning ovozi sherni gangitib qo'ydi. U o'zini bosa olmay sirini Dimnaga ochdi:

— Hech qayerga chiqmasligimning sababi shu sen eshitgan ovozdur, bilmayman, u kim ekan? Lekin uning kuchi va jussasi ovozigacha yarasha bo'lsa kerak, degan gumon qilaman. Agar shunday bo'lsa, bu yerdan ketish kerak.

Dimna dedi:

— Bu ovozdan bo'lak shohni bezovta qiladigan narsa yo'qmi?

— Yo'q, — dedi shoh.

Dimna dedi:

— Faqat shu sababga ko'ra ona yurtni tark etib ketmoq nojoizdir. Donishmandlar aytibdurlarki, ko'p gapirish aqlning ozligidan, yolg'on so'zlash irodaning zaifligidan, ovozning balandligi ichida hech narsa yo'qligidan dalolat beradi. Tulki bilan nog'ora masalidan ma'lumki, har bir ovozi yo'g'on, gavdasi katta pahlavon bo'labermaydi.

Sher so'radi:

— U qanday masal?

Dimnaning shohga aytgan masali

Deydilarki, bir tulki o'rmon oralab ketayotib, bir daraxtning tagida nog'ora yotganini ko'rib qolibdi. Shamol esagan sari daraxt butoqlari nog'oraga tegar va nog'oradan dahshatli ovozlar chiqar edi. Tulki nog'oraning ovozi yo'g'onligi va jussasining kattaligiga qarab nog'oraning yog'i bilan go'shti ham ovozi va jussasiga yarasha ko'p bo'lsa kerak, deb og'zining suvi keldi. Ko'p urinib nog'orani yorishga muvaffaq bo'ldi. Lekin qurigan teridan bo'lak hech narsa topmagach, «Gavdasi yo'g'on va ovozi baland narsaning ichi bo'sh bo'lar ekan», dedi.

Dimna so'zini davom ettirib dedi:

— Men bu masalni shuning uchun keltirdimki, podsho yo'g'on ovozni eshitib bezovta bo'lmasinlar. Agar ijozat bersalar, men o'sha ovoz kelgan joyga borib haqiqatni bilib kelay.

Bu so'zlar sherga manzur bo'ldi. Dimna shohning ruxsati bilan o'rnidan sakrab turdi va yo'lga tushdi. U chiqib ketgandan keyin shoh o'yg'a cho'mdi. Dimnani jo'natganidan pushaymon bo'ldi va o'z-o'ziga dedi: «Dimnaning fikrini ma'qullab to'g'ri ish qilmadim, chunki podshohlar saroyida bekordan-bekorga zulm ko'rgan,

uzoq vaqt yashab mashaqqatli hayot kechirgan yoki davlat va hurmatni qo'ldan bergan, yoki vazifadan tushirilgan, yoki o'zi foydali ishlardan chetlatilgan, o'rtoqlarining afv, o'zining esa mahkum etilganligini ko'rgan, yoki ayni bir gunoh uchun o'z o'rtoqlaridan ko'ra og'ir jazolangan, yoki ayni bir xizmat evaziga o'z o'rtoqlariga qaraganda juda oz mukofot olgan, yoki dushmani bilan kurashib mag'lub bo'lgan, yoki dinida qattiq turmagan, yoki podshohning ziyoniga bo'lgan ishlarda o'zi uchun foyda axtargan, yoki dushman tomoniga o'tib ketishi mumkin bo'lgan bir mulozimni uzoq sinamasdan turib, dushman yoniga yuborish va uni sirdan voqif qilish shoh uchun yaxshi emas, asli shoshmaslik kerak edi.

Dimna ko'p narsani biladigan va uzoqni ko'radiganlardandir. U uzoq muddat mening dargohimda mashaqqat chekdi, lekin evaziga mukofot olmadi. Agar ko'nglida kiri bo'lsa, xiyonat qiladi, fitna qo'zg'atadi. Dushmanni mendan kuchli ko'rsa, unga moyil bo'lib, mening sirlarimni aytib beradi».

Shoh bunday o'ylar ichida hayajonlanar, goh turar, goh o'tirar, goh u yon-bu yonga yurar va ko'zini Dimna ketgan tarafdin uzmas edi.

Nogoh uzoqdan Dimna ko'rindi, sherning ko'ngli taskin topdi va kelib o'z o'rniga o'tirdi. Dimna kelishi bilan sher:

— Nima qilding? — deb so'radi.

Dimna dedi:

— Men o'kirib yurgan bir ho'kizni ko'rdim. Shohni bezovta qilgan ovoz o'shaniki ekan.

Shoh so'radi:

— U juda kuchlimi?

Dimna dedi:

— Men unda kuch-quvvatdan asar ham ko'rmadim. Unga yaqinlashganimda men bilan bir do'st kabi gaplasha boshladi. Menga hech narsa qilmadi. Nazarimda, uning tabiatida kuch-qudrat va tavozekorlikdan ko'ra ko'proq tamagirlik ustun turadi. Qo'rqmaganim uchun uni ortiqcha hurmatlashni lozim ko'rmadim.

Sher dedi:

— Hali bu uning kuchsizligini ko'rsatmaydi, bu bilan qolib qolmaslik kerak, chunki qudratli to'fqinlar katta g'axtlarni qo'porib, mustahkam binolarni yiqitib tashlaydi, lekin kichik va nozik o't-alafni sindirolmaydi. Shohman olijanob va lutf-karam egasi bo'lmasa, hech kimning kuchli va shon-shuhratli ekanligini tan olmaydi, kimning o'z kuchi va mavqeiga qarab muomala qilmoq ko'rsatilmagan...

Dimna dedi:

— Shoh bundan tashvish tortmasalar ham bo'ladi. Agar hayvursangiz, men borib uni olib kelayin, u shohning qullaridan bo'lsin. Sher bu so'zlarni eshitib xursand bo'ldi va uni olib kelishni Dimnaga amr qildi. Dimna Shatrabaning yoniga borib, tap tortmay u bilan so'zlasha boshladi:

— Sher seni o'z huzuriga olib kelish uchun meni yubordi. Agar hayallamay huzuriga borsang, shu paytgacha qilgan gunohlaringdan o'tishga so'z berdi. Oylab ko'r, buyruqqa bo'ysunmay bu yerda qolsang, shoh ondayoq borib bor gapni sherga aytib beraman.

Shatraba dedi:

— Axir, u sher deganing kim o'zi?

Dimna dedi:

— U yirtqich va vahshiy hayvonlar podshohidir.

Shatraba sher va vahshiy hayvonlar nomini eshitib, qo'rquvdan titray boshladi. U Dimnaga dedi:

— Agar mening salomat qolishimga kafil bo'lsang, sen bilan birga boraman.

Dimna ont ichib, sog'-omon qolishga kafil bo'lishini aytdi. Har ikkovi sherning yoniga jo'nadilar. Sher ho'kizni mehribonlik bilan qarshi oldi va uning bu yerlarga qachon va nima uchun kelganligini so'radi. Ho'kiz boshidan o'tganlarini so'zlab berdi. Shatraba shu yerda qolsa, sher uni o'z marhamati va lutf-karamidan bahramand etishini aytdi. Ho'kiz rozilik bildirib, minnatdorchiligini izhor etgandan so'ng sherning xizmatida qoldi.

Sher Shatrabani hurmat qilib, unga haddan tashqari lutf va marhamat ko'rsatdi, uni o'z marhamlari qatoriga kiritdi va sinovdan o'tkazib aql-idroki komil ekanligini ko'rgach, uni o'ziga maslahatchi va sirdosh qilib oldi. Sher Shatrabaning xulq-atvori bilan yaqindan tanishgani sari unga bo'lgan mehri oshib borar, kundan-kunga uning martabasini ko'tarar, borgan sari ko'p in'omlar berar edi. Nihoyat, ish shu darajaga yetdiki, ho'kizning hurmati barcha mahramlarnikidan yuqori bo'lib ketdi.

Dimna sherning ho'kizga ko'rsatayotgan bu yuksak lutf-karamini, uning sherga yaqinligini, boshqalardan mansabi va e'tibori ortib borayotganini ko'rgach, hasadi kelib, ko'ziga dunyo qorong'i bo'lib ketdi. Dimnaning kuni tunga aylandi, uyqusi qochdi. U bir yerda o'tirib orom ololmaydigan bo'lib qoldi. U Kalilaning yoniga kelib, shikoyat qila boshladi:

— Birodar, mening ojizligim va xomligimni qaraki, sherning ishini to'g'rilab, o'z ishimni rasvo qilib qo'ydim. Ho'kizni sherning yoniga boshlab kelganimdan beri uning martabasi ortib bormoqda. Mening esa darajam quyi tushib ketdi.

Kalila dedi:

— Zohidning boshiga tushgan ish sening ham boshingga tushibdi-da!

Dimna dedi:

— Uning boshiga qanday ish tushgan ekan?

Kalilaning hikoyati

Naql qilibdurlarki, bir podsho bir zohidga qimmatbaho libos hadya qilibdi. Buni ko'rgan bir o'g'ri zohidning huzuriga kelib, xizmatini qila boshladi, undan tariqat qonun-qoidalarini o'rganishga kirishdi. Ular do'stlashib bir yerda yashay boshlabdilar.

Bir kechasi o'g'ri fursatni g'animat bilib, podsho hadya qilgan libosni olib ketdi. Ertasiga zohid libosni ham, yangi muridni ham topa olmadi. U libosni murid o'g'irlab

ketganini payqab, uni qidirib topish uchun shaharga ketayotgan ekan, yo'lda ikkita qo'chqorning bir-biri bilan urishib turganlarini ko'rib qoldi. Ikkala qo'chqor ham bir-birlarini yarador qilgan va jarohatlaridan qon tomar edi. Bir tulki kelib tomgan qonlarni yalardi. Ikki qo'chqor ahoxlarini to'g'rilab bir-birlariga tashlanganlarida, tulki o'rtada qolib majaqlanib ketdi.

Zohid kechqurun shaharga yetib keldi, tunashga joy astara boshladi. Nihoyat, buzuq bir xotinning uyiga tushdi. Bu xotin uyida bir necha qiz saqlar edi. Ulardan biri nihoyatda go'zal bo'lib, jamoliga jannatdagi hurlar ham hasad qilishar edi.

Xotinlarni hayajonga soladigan, erkaklarda hasad uyg'otadigan baland bo'yli, xipchabel, shirin so'z bir yigit o' qizga oshiq bo'lib qolgan edi va boshqa erkaklarning unga yaqinlashishiga yo'l qo'ymas edi... Bu esa haligi buzuq xotinning qiz tufayli oladigan foydasini kamaytirib qo'ydi. U axir bir kun qiz yigit bilan qochib ketadi, deb tashvishlanar edi. Shuning uchun yigitni o'ldirishga qaror qildi. Xotin o'z fikrini amalga oshirmoqchi bo'lgan kechasi zohid uning uyiga kelib tushgan edi. Xotin o'sha qiz va yigitni juda ko'p may ichirib qattiq mast qilib qo'ydi. Ularning ikkalasi qattiq uyquga ketganlarida xotin bir qamishning uchiga zahar solib olib keldi. Qamishning bir uchini yigitning burniga to'g'rilab, boshqa uchini esa o'z og'ziga olib zaharni yigitning dimog'iga puflamoqchi bo'ldi. Lekin shu payt yigit to'satdan aksirib yubordi, zahar xotinning og'ziga kirib ketdi va shu zahoti til tortmay o'ldi. Buni ko'rgan zohid erta bilan, quyosh ufqdan bosh ko'targanda bu fisq-fasod o'chog'idan qochish uchun boshqa joy izlay boshladi. Zohidga bir kosibning rahmi kelib uyiga olib keldi va xotiniga zohidni yaxshilab kutib olishni buyurib, o'zi bir o'rtog'inikiga mehmonga ketdi. Kosib xotining o'ynashi bor ekan, bir sartaroshning xotini esa ular orasida vositachi ekan. Kosibning xotini eri ketishi bilanoq sartaroshning xotinini o'ynashinikiga yubordi, erim ziyofatga ketdi, tez yetib kel, deb aytirib

yubordi. Kech kirganda o'ynash kelib eshik oldida poylab turgan edi, kosib mehmondorchilikdan qaytib keldi. Avvallari ham shubhalanib yurgan odamini eshik oldida ko'rgach kosib uyga kirib xotini rosa do'pposladi va ustunga bog'lab qo'ydi. O'zi esa o'rniga kirib yotdi. Yarim kechada, hamma uyquga ketganda sartaroshning xotini kelib dedi:

— Nima uchun o'ynashingni shunchalik muntazil qilasan? Istamasang ayt, ketsin.

Kosibning xotini dedi:

— O'rtoqjon, agar rahming kelayotgan bo'lsa, meni yechib yubor, seni o'z o'rnimga bog'lab qo'yay. Do'stim bilan ko'rishib uzr so'ray va tezlik bilan qaytib kelay. Buning evaziga nima desang beraman.

Sartaroshning xotini uning gapiga ko'ndi. Kosibning xotini uni ustunga bog'lab, o'zi o'ynashi yoniga ketdi. Shu payt kosib xotini chaqirib qoldi, sartaroshning xotini esa, u tanib qoladi, deb damini chiqarmadi. Kosib yana chaqirdi, sartaroshning xotini yana ovoz bermadi. Kosibning g'azabi toshib o'rnidan turdi-da, sartarosh xotinining burnini kesib qo'lga berdi: «Buni o'z oshig'ingizga tuhfa qilib yuboring», dedi.

Birozdan keyin kosibning xotini qaytib kelib, dugonasining burni kesilganini ko'rib, xafa bo'ldi va uzr so'radi. Keyin uni yechib yuborib, ustunga o'zini bog'ladi. Sartaroshning xotini burni qo'lida, uyiga jo'nadi. Zohid butun hodisalarni kuzatar va oradan bo'lib o'tgan so'zlarni eshitib yotar edi. Kosibning xotini bir soat turdi, so'ng qo'lini duoga ko'tarib yolvora boshladi:

— Xudoyo xudovando, agar erim meni begunohdan begunoh burnimni kesgan bo'lsa, burnimni o'rniga qo'y, avvalgiday bo'lib ketay.

Bu so'zlarni eshitgan kosib dedi:

— Ey haromzoda jodugar, nimalar deyapsan?

Kosibning xotini dedi:

— Ey zolim, sen menga jabr-sitam qilgan bo'lsang, xudo menga rahm qildi, tur, uning marhamatini tomosha

qil Men begunoh bo'lganim uchun xudo burnimni sog'aytirdi va xaloyiq o'rtasida meni sharmanda qilmadi.

Kosib chiroqni yoqib, xotining yoniga keldi, qarasa, burni joyida. U darrov gunohiga iqror bo'ldi, xotinidan nar so'radi. Shirin so'zlar bilan bundan buyon unga ozor bermaslikka, yaramas, og'zi shaloq, yolg'onchi odamlar bo'htoniga ishonmaslikka va o'zining nomusli, duosi muatajob xotinini ranjitmaslikka so'z berdi.

Sartaroshning burni kesilgan xotini esa uyiga kelgach, eringa va qo'ni-qo'shnilarimga nima deyman, qanday hiyla ishlatsam ekan, degan o'y bilan qayg'uga botdi. Shu payt sartarosh uyg'onib dedi:

— Asboblarimni tayyorla, bir mo'tabar odamning uyiga soch olgani borishim kerak.

Xotin imirsilab, oxiri bitta ustarani ochib, erining qo'liga berdi. Sartarosh g'azab bilan qorong'ida ustarani xotini tomonga otdi. O'sha zahoti xotini o'zini yerga tashlab, «voy burnim, voy burnim!» deb faryod ko'tardi. Sartarosh nima qiladini bilmay qoldi. Xotining qarindoshlari yig'ilib uni malomat qila boshladilar. Sartarosh bechora iqror bo'lishni ham, inkor etishni ham bilmas edi. Har qalay tang otdi, xotinning qarindoshlari sartaroshni qoziga olib bordilar. Ittifoqo, zohid kosibning uyidan chiqib qozining mahkamasiga kelgan edi. U qozi bilan qadrdon oshna edi.

Qozi sartaroshni so'roq qildi:

— Ey usta, begunoh xotinni nega bu ahvolga olding? Sartarosh javob berishdan ojiz edi. Qozi uning ustidan hukm chiqarmoqchi bo'lganida zohid o'rnidan turib dedi:

— Ey qozi, shoshma. Bir sababi bo'lmaganda o'g'ri to'nni olmasdi, qo'chqorlar tulkini o'ldirmasdi, buzuq xotin zaharlanib o'lmadi va sartaroshning xotinini burni kesilmasdi. Mana shu balolarni biz o'zboshimizga o'zimiz ettirdik.

Qozi sartaroshni qo'yib, zohidga o'girildi va nimalar bo'lganini so'radi. Zohid hamma ko'rgan narsalarini boshdan-oyoq gapirib berdi va dedi:

— Agar menda muridlarimni, menga tobe odamlarni ko'paytirish umidi bo'lmaganda edi, o'g'riga aldanmagan, libosimni oldirmagan bo'lardim. Agar tulki badnafs va tamagir bo'lmasa edi, qo'chqorlar orasida qolib o'lmas edi. Ko'ngli egri xotin birovning hayotiga qasd qilmasa, o'zi zahar yutib jon bermas edi va sartaroshning xotini harom ishga yordam bermasa, burni kesilib rasvo bo'lmas edi.

Kalila dedi:

— Sen bu baloni o'z boshingga o'zing orttirganingni bilib qo'y, deb bu masalni aytdim. Uning natijasini o'ylab ko'rmading.

Dimna dedi:

— Rost aytasan, bu ishni o'zim qildim. Endi sen qanday maslahat berasan?

Kalila dedi:

— O'zing qanday fikrdasan?

Dimna dedi:

— Men bir hiyla ishlatib, ustalik bilan o'z yo'limdagi g'ovni olib tashlamoqchiman. Agar imillab fursatni qo'ldan berib qo'ysam, aqlli odamlar oldida xor bo'laman. Buning ustiga, men yangi mansab orqasidan quvayotganim yoki biror narsa talab qilayotganim yo'qki, meni ochko'z va tamagir desalar. Bir necha narsalar borki, odamlar ularni qo'lga kiritish uchun hiyla ishlatib, tadbir bilan harakat qilishni lozim deb biladilar. U narsalar quyidagilardir: qo'ldan chiqqan o'ljani yana qayta qo'lga kiritish va zararli narsalarni bartaraf qilish; Erishilgan yutuqni qo'lda saqlagan holda, kelajakda yuz berishi mumkin bo'lgan falokatning oldini olish.

Men avvalgi mavqeimga qaytish va avvalgidek farog'atda yashash niyatida bo'lganim uchun shunday bir hiyla ishlatayki, ho'kiz yer yuzi bilan vidolashib yer ostini o'ziga makon qilsin. Bu bilan yuragim tinchiydi, sherga yaqinroq bo'lib olaman. Sher ho'kizga marhamatini haddan oshirib yubordi, bu bilan o'z mahramlarini norozi qilib qo'ydi.

Kalila dedi:

— Ho'kizning mansabini ko'tarib sher xato qildi, deb o'ylamayman.

Dimna dedi:

— U Shatrabaga behad muruvvat ko'rsatib, boshqa sayrixohlarni nazardan chetda qoldirdi. Shunga ko'ra hamma shohdan ranjigan. Donishmandlar aytibdurlarki,olti narsa podshohlikning dushmanidir. Ular — mahrumlik, fitna, chtiros, ofat, tezlik, tuturiqsizlik. Mahrumlik — sayrixohlarni o'zidan uzoqlashtirish, aql va tajriba egalarini o'z vazifalaridan quvish va shunday qilib, sadoqatli va qat'iyatli odamlardan ajralish demakdir. Fitna — kutilmagan isyon va ichki urushlarning boshlanishi, dushman qilichining o'z g'ilofidan chiqishi demakdir. Chtiros — xotinga, ovg'a, kayfu safoga va ichkilik kabi qurbonlarga haddan ortiq mayl ko'rgazishdan iboratdir. Ofat — xustalik, vabo, toshqin, yong'in kabi narsalardir. Tezlik — jazo va siyosatni haddan oshirmoqdir. Tuturiqsizlik — qat'iyat qilish lozim bo'lgan joyda dushmanlik, yaxshilik qilmida yomonlik qilmoq demakdir.

Kalila dedi:

— Aytganlaringning hammasini tushundim, lekin sen bo'lsizni qanday qilib o'ldirmoqchisan, axir uning kuchi sening kuchingdan ortiq, oshna-og'aynilari esa senikidan ko'pdir.

Dimna dedi:

— Sen bunga ahamiyat berma, chunki ishning muvaffaqiyati jismoniy quvvatdan va ko'makchilarning ko'pligidan bo'lmaydi. Otalar maslahat va tadbir bilan qilingan ishni qo'l kuchi bilan qilib bo'lmaydi, deganlar. U qarg'aning hiyla ishlatib ilondan qasos olganini eshitmaganmisan?

Kalila dedi:

— U qanday qasos olgan ekan?

Dimnaning qarg'a haqidagi hikoyati

Bir qarg'a tog'dagi daraxtda o'ziga in qurgan ekan. Uning yaqinida bir ilon uyasi bor ekan. Qarg'a bola ochishi bilan ilon uning bolalarini yeb qo'yaverar ekan. Bir kuni

qarg'a nasihat qilmoqchi bo'lib ilonning yoniga keldi va dedi:

— Yodingda saqla, shunday masal bor: «Zulm qilich ishlatgan xuddi shu qilichdan o'zi halok bo'ladi!»

Biroq qarg'aning bu nasihati ilonga, albatta, ta'alaqqi qilmadi. Shundan keyin qarg'a o'z do'sti shag'olning yoniga keldi va dedi:

— Bu zolimning zulmidan bir iloj qilib qutulmoqchiyman.

Shag'ol so'radi:

— Qanday qilib qutulmoqchisan?

Qarg'a dedi:

— Ilon uxlagan vaqtda tumshug'im bilan uning ko'zlarini o'yib olaman, zora shundan keyin jondan azim bolalarim uning balosidan xalos bo'lsalar.

Shag'ol dedi:

— Bu to'g'ri tadbir emas, dushmanga qarshi shunday bir tadbir ko'rki, o'zingga zarar yetmasin. Sen bu fikringdan voz kech. Qisqichbaqani o'ldirmoqchi bo'lgan baliqchi qush kabi o'z aziz joningni halok qilib qo'yma.

Qarg'a so'radi:

— U o'zini qanday halok etibdi?

Qarg'aning hikoyati

Bir baliqchi qush ko'l qirg'og'ida o'ziga uya qilgan ekan. Istaganicha baliq tutib yer va rohat-farog'atda yasharkan. U qarib quvvatdan qolgandan keyin ovga yaramay qolibdi. «Afsus, umrim tez o'tib ketdi va qarigan choqda tajribadan boshqa hech narsam qolmadi. Endi quvvatim ketganida biror yo'l topib, qolgan kunlarimni kechirishim kerak», deb qayg'uga botgan holda ko'l yoqasiga kelib qo'ndi. Shunda uzoqdan qisqichbaqa uni ko'rib yoniga keldi va so'radi:

— Nima bo'ldi, nega g'amgin ko'rinasan?

Qush javob berdi:

— Nega g'amgin bo'lmayin, o'zing bilasan, mening tirikchilгим har kun bir-ikki baliq bilan o'tardi. Men

shunga qanoat qilib, undan ortig'ini talab qilmas edim. Bugun ikki ovchi bu yerdan o'ta turib, birisi dedi: — Bu yerdan baliq ko'p ekan, ov qilaylik. Ikkinchisi falon suvda baliq bundan ko'pdir, avval uni ovlab, so'ngra bu yerga kelamiz, — dedi.

Agar ular qaytib kelishsa, bu yerdagi barcha baliqlarni olib ketishadi. Menga o'limdan bo'lak iloj qolmaydi. Qisqichbaqa bu so'zni eshitgach, darhol borib hamma gapni baliqlarga aytib berdi. Baliqlar hayajonga tushib baliqchi qushning yoniga keldilar va dedilar:

— Biz sendan maslahat so'ragani keldik. Agar dushmanning ham oldiga kelib, maslahat so'rasalar, u bundan bosh tortmasligi kerak (ayniqsa, bu maslahat uning o'ziga ham foydali bo'lsa). Sening tirikchiliging biz bilan edi, biz omon bo'lsak sening foydang-ku. Endi biror maslahat ber, nima qilaylik?..

Baliqchi qush dedi:

— Ovchilar bilan urishib bo'lmaydi, lekin yaqin joyda bu ko'l borligini bilaman, uning suvi oshiqqlarning ko'z oshidek musaffo, qirg'og'i qamish bilan qoplangan... Agar o'sha yerga ko'chsangiz, salomat qolib, nozu ne'mat ichida qashaysiz.

Baliqlar dedilar:

— Juda yaxshi maslahat, lekin sen yordam bermasang, biz u yerga qanday ko'cha olamiz?

Baliqchi qush dedi:

— Bu ish qanchalik ko'p vaqt talab etmasin, men sizga yordam berishdan bosh tortmayman. Tezroq harakat qilish kerak, ovchilar hademay kelib qolishlari mumkin.

Baliqlar ko'p yalinib-yolvorishganidan keyin baliqchi qush har kuni ulardan bir nechtasini olib borib o'sha atrofdagi bir tepalik ustida yeb qornini to'yg'azar edi. Qolgan baliqlar bir-birlariga hasad qilishar, qachon bizga gal kelarkin, deb shoshilar edilar. Baliqchi qush esa ularning laqmaligiga hayron bo'lib, o'z-o'ziga der edi:

— Dushmanning tilyog'lamaligiga uchib, unga ishingonlarning jazosi shunaqa bo'ladi.

Bir necha vaqt o'tgandan keyin qisqichbaqa ham ko'chmoqchi bo'ldi. Baliqchi qush uni orqasiga olib baliqlar mozori bo'lgan haligi tepaga qarab parvoz qildi. Qisqichbaqa uzoqdan juda ko'p baliq suyagini ko'rib voqeani angladi va o'z-o'ziga dedi:

— Tahlika vaqtida dushmanga qarshi chora ko'rmaslik o'z joningga qasd qilish bilan barobar. Kishi dushmandan g'olib kelsa — shuhrat qozonadi, halok bo'lsa nomi qoladi.

Shunday deb qisqichbaqa baliqchi qushning bo'yniga qisqichlarini cho'zib, bo'g'zidan oldi va shunday qattiq siqdiki, u behush bo'lib qulab tushdi va til tortmay jon berdi.

Qisqichbaqa undan qutulib, baliqlar yoniga sudralib keldi va bo'lgan voqealarni so'zlab berdi.

Bu masalni shuning uchun aytdimki, sen bilgin: ko'p kishilar o'z makru hiylasi tufayli halok bo'ladilar. Men senga bir ish o'rgatay, shu yo'lni tutsang, o'zing salomat qolasan, dushmaning ilon esa halok bo'ladi.

Qarg'a dedi:

— Oqil do'stlar maslahatiga kirmaslik ahmoqlikdir.

Shag'ol dedi:

— Sen havoga parvoz qilib, uy va ko'chalarga nazar sol. Agar ko'zing biror qimmatbaho narsaga tushsa, uni olib parvoz qil. Lekin shunday uchginki, odamlar seni ko'rib tursinlar va qimmatbaho narsani qaytarib olish uchun orqangdan ergashsinlar. Sen ilon uyasiga haligi narsani tashla. Shunda odamlar ilonni o'ldirib, narsani olib ketadilar va sening joning omon qoladi.

Qarg'a uchib borib bir hovliga qo'ndi. Bir xotin marvaridni yerga qo'yib, yuz-qo'lini yuvar edi. Qarg'a marvaridni olib qochdi va shag'ol aytganidek, uni uyasi oldida yotgan ilonning yoniga tashladi. Qarg'aga ergashib kelgan kishilar ilonni o'ldirdilar va marvaridni olib ketdilar...

Dimna dedi:

— Bu masalni shuning uchun keltirdimki, kuch bilan erishilmagan narsaga hiyla bilan erishsa bo'ladi.

Kalila dedi:

— Ho‘kiz qanchalik quvvatli bo‘lsa, uning aqli ham shu qadar kamol topgan. Sen uni qanday qilib alday olasan?

Dimna dedi:

— To‘g‘ri aytasan, lekin ho‘kiz menga ishonadi, uning mendan ko‘ngli to‘q. Shu sababdan uni alday olaman, sher quyon hiylasiga ishonib halok bo‘lgani kabi, ho‘kiz ham mening qo‘limda halok bo‘ladi.

Kalila so‘radi:

— U qanday halok bo‘lgan edi?

Dimnaning hikoyati

Deydilarki, go‘zal bir o‘rmon bor edi. Suvi mo‘l, o‘ti serob bo‘lgan bu manzil yovvoyi hayvonlar uchun bir jannati mo‘vo edi, lekin o‘sha yaqinda yashovchi bir sher ularning tinchligini buzdi, yeganlarini ularga harom qildi. Bir kun hayvonlar ittifoq bo‘lishib, sher qoshiga bordilar va dedilar:

— Biz hammamiz sening fuqarolarimiz, sen esa har kuni qiynalib, bittamizni arang tutib yeysan. Sen hamisha tilni qidirib rohatini buzasan, biz esa qo‘rquv ichida yashaymiz. Bugun maslahatlashib, seni ham zahmatdan qutqarish, o‘zimizning ham rohatimizni ta‘min etish maqsadida shunday xulosaga keldik: agar sen hujum qilib bizni qo‘rqitmasang, o‘zimiz har kuni o‘z ichimizdan ovqat vaqtida senga bir jonivor keltirib beramiz.

Sher rozi bo‘ldi. Bir necha muddat ahvol shu yo‘sinda davom etdi.

Bir kun navbat quyonga yetdi. U yoronlariga dedi: «Agar meni shoshirmasangiz, sizlarning hammangizni bu qonxo‘r, g‘addor zulmkorning dastidan qutqaraman».

Hayvonlar dedilar: «Qarshiligimiz yo‘q». Quyon ahoshmasdan sher oldiga ravona bo‘ldi, sherning ovqatlanadigan vaqtida yetib bormadi. Sher ochiqib qoldi, uning ko‘zlari qonga to‘lib, tishlarini g‘ijirlatib turar edi.

Quyanni ko‘rgach, na‘ra tortib dedi:

— Qayerdan kelding, hayvonlar nima qilmoqdalar?
Quyvon javob berdi:

— Podsho omon bo'lsinlar, hayvonlar menga qo'shib yana bir quyonni yuborgan edilar. Yo'lda nogoh bir sher uchrab, sherigimni olib qoldi. «Bu podsho hazratlariga atalgan tortiq, qo'yib yuboring», desam: «Bu yer mening joyimdir, men kuchda ham, shonu shavkatda ham u sherdan ortiqman, shuning uchun bu yerdagi ovlar avval menga tegishli», deb lof urdi. Men sizga xabar qilish uchun qochib qoshingizga keldim.

Sher g'azab bilan o'rnidan sakrab turdi va: «Uni menga ko'rsat!» dedi.

Quyvon oldinga o'tib yo'lga tushdi, sher esa uning ketidan borardi. Quyvon uni chuqur quduq labiga keltirdi. Quduqning suvi nihoyatda tiniq edi, kimki unga qarasa, o'z aksini aniq ko'rar edi.

Quyvon dedi:

— O'sha sher shu quduqda, lekin men undan qo'rqaman, agar siz meni o'z bag'ringizga olsangiz, ko'rsataman. Sher quyonni o'z quchog'iga olib quduqqa qaradi. Quduqda o'ziga o'xshash bir sherni va uning quchog'idagi quyonni ko'rdi. Shunda quyonni yerga qo'yib o'zini quduqqa otdi va yuqoriga chiqolmay halok bo'ldi. Quyvon sihat va salomat hayvonlar yoniga qaytib keldi. Ular hol-ahvol so'radilar.

Quyvon sherning suvga g'arq bo'lib o'lganini gapirib berdi.

Kalila dedi:

— Agar sherga ziyon yetkazmay ho'kizni o'ldira olsang, uning yo'rig'i boshqa, chunki hech bir aqlli zot o'z manfaati uchun boshlig'iga zarar yetkazmaydi.

Shuning bilan ularning suhbatı tugadi. Dimna bir necha kun sherning huzuriga bormadi. Bir kun sherni yolg'iz topib huzuriga kirdi.

Sher dedi:

— Dom-daraging yo'q, bir necha kundan beri seni ko'rmayman. Nima, biror hodisa ro'y berdimi?

Dimna dedi:

— Shunday, lekin xilvat joyda aytaman.

Sher dedi:

— Hozir ayni vaqtidir. Tezroq ayt, chunki kechiktirib bo'lmaydigan boshqa muhim ishlarim bor.

Dimna dedi:

— Hukmdorning ko'ngliga yoqmaydigan so'zlar hammoqqa va nasihat qilmoqqa har kim ham jur'at eta bormaydi. Lekin hukmdorning aqli raso bo'lsa, ayniqsa, agar aytilgan so'zlar uning foydasiga xizmat qilsa va aytuvchining o'z burchini bajarib yaxshilik qilishdan boshqa hech qanday maqsadi bo'lmasa, u bu so'zni aytinog'i va hukmdor unga quloq osmog'i lozim. Agar so'z aytilib bo'lgandan keyin so'zlovchining joni salomat qolsa, bu uning uchun eng yuksak mukofot bo'ladi. Bu so'zlarni shuning uchun ham aytsa bo'ladiki, podshohning aqli raso, u kamolotda boshqalardan nihoyatda ustundir. Bunga ko'ra, u aytiladigan so'zlarni shohlarga xos bo'lgan vazminlik bilan eshita oladi. Mening aytadigan so'zlarim muhabbat va sadoqat mevasi bo'lib, ularda yolg'on va riyokorlik yo'qligi oydindir. Mutun vahshiy hayvonlarning tirikchiligi sizning hayotingizga bog'liq ekanligi ma'lumdir. Aqlli va olijanob odamlar aytilishi lozim bo'lgan gaplarini shohga aytmasalar, kasalliklarini tabibdan yashirsalar, xavf-sutar yaqinlashayotganidan do'stlarni ogoh qilmasalar, h'ulariga xiyonat etgan bo'ladilar.

Sher dedi:

— Sening samimiy va sadoqatli ekanliging menga ma'lum. Qilayotgan ishlaring bundan dalolat beradi. Agar yangi biror narsa sezgan, bilgan bo'lsang, ayt, samimiyating va sadoqatingni yana bir marotaba ko'rsat.

Dimna dedi:

— Shatraba, arkoni davlat va lashkarboshilar bilan yuzhirincha kengashib, debdiki: «Sherni sinadim, kuch va quvvatining darajasini, fahm va farosatining saviyasini o'rgandim. Ularning har birida katta bir nuqson ko'rdim».

Shundan men uning ko'rnamak va xiyonatchilik ekanligini payqadim. Siz esa, shohim, bu nonko'r va vijdotsizga haddan ortiq marhamat ko'rsatdingiz, hurmat va nufuzda uni o'zingiz bilan barobar darajaga ko'tardingiz. Jiddiy masalalarni hal etib hukm chiqarishda unga shunchalik katta huquq berdingizki, endi fitna devoni uning diliga tuxum qo'ydi va shohlik havasi uni vasvasaga solib boshladi. Donishmandlar aytibdurlarki, agar podshoh o'z mulozimlaridan birortasining sha'n-shavkat, mol-dunyo va nufuzda o'ziga barobar bo'lib qolganligini sezsa, shu ondayoq uni yo'qotishi kerak, o'zi halok bo'ladi. Bu ishda qanday yo'l tutish lozimligini shohning o'z hammadan yaxshi biladi. Lekin mening fikrimcha, ho'kizning masalasini kechiktirib, fursatni qo'ldan berib bo'lmaydi. Chunki ish shu darajaga yetishi mumkinki, vaqt hech qanday tadbir foyda bermay qoladi. Donishmandlar, inson ikki nav: hushyor va tadbirsiz bo'ladi, deydilar. Hushyor odamlar ham ikki xil bo'ladi: ular biri xavf yuz berishidan ilgari uning oldini oladilar, ikkinchisi hodisa sodir bo'lgandan keyin o'zlarini yo'qotib qo'ymay, darhol chorasini ko'rib, baloni daf qiladilar.

Aqlli odamlar hamisha hushyor bo'ladi, hodisalarni jilovini o'z qo'llarida saqlab, xavfli girdobga tushmasdan sohilga yetib oladilar...

Tadbirsiz odamlarga kelsak, ular ikkilanadigan, jasoratsiz, tez-tez fikrlaridan qaytadigan bo'ladi, bu hodisa ro'y berganida ular o'zlarini yo'qotib qo'yadilar. O'z baxtlarini saqlab qolish qobiliyatidan mahrum bo'lganlaridan oh-voh qila-qila, o'zlarini har yoqqa uradilar. Uch baliq hikoyasidagi kun ularning boshiga keladi.

Sher so'radi:

— Qanday bo'lgan edi?

Dimnaning baliqlar haqidagi hikoyati

Naql qilibdurlarki, yo'ldan uzoq, o'tkinchilardan xoli yerda ko'l bor edi. Unda uch baliq yashar edi. Bulardan ikkisi tadbirchan va ehtiyotkor, biri esa xom va tajribasiz edi. Kunlarning birida tasodifan ikki ovchi ko'l yonidan o'tib qoldi, ko'zlari uchta baliqqa tushdi. Ular ertaga kelib shahala baliqni tutishga va'dalashib jo'nab ketdilar. Baliqlar ularning so'zini eshitgan edilar. Ularning biri juda tadbirli bo'lib, zolim zamonaning zulmi va g'addor talakning vafosizligini ko'rgan, aql va tajribani orttirgan edi. U darhol ehtiyot chorasini ko'rib, suv kelar tarafdin chiqib, boshqa ko'lga borib oldi. Ko'p vaqt o'tmay baliqchilar kelib, suvning kirar va chiqar tomonini mahkam tekkitdilar.

Birinchi baliqqa nisbatan tajribasizroq, lekin aql va tarovatdan mahrum bo'lmagan ikkinchi baliq vaziyatni ko'rib shunday dedi:

— Fursatni qo'ldan berdim, g'ofillar ishining oxiri shunday bo'ladi. Endi tadbir va hiylani ishga solish payti keldi. Tipirchilab u yoq-bu yoqqa qochgan bilan foyda yo'q. Umidsizlikka tushmay najot yo'lini axtarmoq kerak.

Shunday deb baliq suv yuziga qalqib chiqdi va o'zini o'lganga solib yotdi. Bir baliqchi uni olib, o'lgan gumon qildi va suv chiqib ketadigan ariq bo'yiga tashladi. Baliq sudrula-sudrula oqar suvga tushib oldi, hiyla ishlatib o'z jonini qutqardi.

Xom va tadbirsiz baliq esa o'zini yo'qotib, u yoqdan-bu yoqqa qochib yurar, goho suv ostiga sho'ng'ir, goho suvga chiqar edi, oqibat baliqchilar to'riga ilindi.

Sher aytdi:

— Masala ravshandir, lekin Shatraba mendan shuncha marhamat ko'rgandan keyin xiyonat qilish fikriga tushadi deb o'ylamayman. Axir shu vaqtga qadar unga yaxshilikdan o'zga narsa qilinmagan edi-ku!

Dimna dedi:

— Shundaydir, podshohning qilgan katta yaxshiliklari uni shu fikrga olib keldi... Sharmsiz odamlar orzu etgan

vazifalariga yetishguncha samimiy va sadoqatli bo'ladilar, bu vazifaga erishishlari bilan o'zlari loyiq bo'lmagan yana yuksak martabani egallash xayoliga tushadilar va bu yo'lda hiyla hamda xiyonat ko'chasiga kiradilar. Razil odamlar qo'rqanlaridan xizmat qiladilar va o'z muhabbatlarini izhor etadilar.

Sher dedi:

— Mening fikrimcha, Shatrabaning ko'ngil oynasi changdan xoli va ko'ngli bu xayoldan pokizadir. Men hamisha unga inoyatlar qilar edim, nahot, u yomonlikni o'ylasa!

Dimna dedi:

— Podshohga ma'lumdirki, fikri buzuc odam hech qachon rostgo'y bo'lmaydi. Yo'ldan ozganni jazo va mukofot bilan hammavaqt ham to'g'ri yo'lga solib bo'lavermaydi. Quloqlariga toshbaqa bilan chayon qissasi chalinmagan edimi?

Sher dedi:

— Qani, so'ylab ber.

Dimnaning navbatdagi hikoyati

Bir toshbaqa bilan bir chayon do'st edilar. Ular bir kun safarga otlandilar. Nogoh yo'lda bir anhorga duch keldilar. Chayon o'ta olmasligini sezib, hayron bo'lib to'xtadi.

Toshbaqa dedi:

— Ey aziz do'stim, senga nima bo'ldi, g'amgin bo'lib turibsan?

Chayon dedi:

— Birodar, men bu suvdan qanday o'taman deb hayronman.

Toshbaqa dedi:

— G'am yema, orqamga mindirib, seni bexatar o'tkazib qo'yaman.

Toshbaqa chayonni orqasiga mindirib suvga tushdi, suzib borayotganida uning qulog'iga bir narsaning tiqirlagani eshitildi va chayonning harakatidan shubhalanib so'radi:

— Eshitayotganim qanday ovoz, sen nima qilyapsan? Chayon javob berdi:

— Nishimning nayzasini sening qalqoningga urib sinab ko'ringdaman.

Toshbaqa dedi:

— Ey bemuruvvat, men o'zimni girdobga tashlab, seni suvdan bexatar o'tkazmoqchi bo'lsamu, sen orqamga nish ursang. Bilasanki, nayzang mening qalqonimga zarar yetkazolmaydi.

Chayon dedi:

— Mening tabiatim, xoh do'st orqasiga bo'lsin, xoh dushman siynasiga bo'lsin, nish urmoqni taqozo etadur.

Toshbaqa dedi:

— Donishmandlar zoti yomonni tarbiyalasang, obro'yingdan mahrum bo'lasan, deb bekorga aytmaganlar.

Shuni deb toshbaqa suvga sho'ng'idi, chayon esa tushib halok bo'ldi.

Bu masalni shuning uchun keltirdimki, Shatrabaning noti yomon, o'zi nopok.

Shunday qilib, Dimna hiyla angiz so'zlar bilan o'z maqsadiga erishdi, suvni loyqalantirib, sherning g'azabini qo'zg'ata oldi.

Aytibdurlarki, podsho o'z mulozimlariga haddan ortiq murhamat va lutf-karam ko'rsatmasligi kerak, toki ular boshqa kattaroq narsa umidida dushman tarafiga o'tib ketmasinlar; shunday qilish kerakki, ular xavf va ehtiyoj, qo'rquv va umid orasida yashasinlar: na umidsizlikka tushsinlar va na quturib ketsinlar... Egri odamdan to'g'rilik kelmasligini podsho bilmog'i kerak. Yo'ldan ozgan odamni jazo berish bilan to'g'ri yo'lga qaytarish har gal mumkin bo'laveradigan ish emas. Itning qayrilma dumini qanchalik mahkam bog'lab qo'ymang, u baribir to'g'ri bo'lmaydi, bog'ni yechgan zamonoq avvalgi holiga qaytadi. Kimki achchiq bo'lsa ham, o'z do'stlari nasihatiga quloq solmas ekan, ishining oqibati pushaymonlik bo'ladi. Bu — hakim buyurgan dorilarni ishlatmay, parhez qilmay,

o'zining ko'ngli tilagan taomlarni yegan, istagan ichimliklarni ichgan bemorning har daqiqa dardi og'irlashib ketgani kabidir... Shohning mulozimlari ularga qilingan yaxshiliklar evaziga o'z bilganlarini shohlarga aytib turishga majburdirlar. Shohlar ham buni talab qilishga haqlari bor. Shohdan hech bir narsani yashirmaganlar mulozimlarning eng sodiqlaridir. Oxir xayrli bo'lgan ish eng yaxshi ish sanaladi. Eng yaxshi odamlarning maqtovi eng oliy mukofotdir. Ehtiyoj sezilmaganda ham har bir ishda yaqindan yordam beruvchi do'st — do'stlarning eng yaxshisidir. Muloyimlik va sofdillik eng yaxshi xislatlardandir. Ochko'z va xasi bo'lmagan — odamlarning eng badavlatidir. Davlatdan mag'rurlanmagan, kambag'allikdan ruhiy tushkunlikka tushmagan — insonlarning eng komilidir...

To'shagi tikandan, yostig'i ilondan bo'lgan odamning uyqusi shirin bo'la olmaydi. Inson idrokining rasoligi, aqli komilligining alomati shuki, do'stlardan biri dushmanlik qilsa va yo mulozimlardan biri g'ururlanib ketsa, bunga qarshi darhol chora ko'radi, fursat topib, ziyon yetkazmasdan burun uni bir yoqlik qiladi. Chunki dushmanga muhlat berilsa, uning qudrati ortadi, vaqt berilsa, kuch yig'adi...

Ishning avvaliyu oxirini tushunmagan, katta hodisalar yuz berganda yaxshi tadbir ko'ra olmagan, fursat qo'ldan ketgandan va dushman g'olib kelgandan keyin o'z yaqinlarini koyib har biriga bir jazo bergan shoh podshohlarning eng ojizidir... Mamlakatni idora etish shartlaridan biri hamlaga tayyorlangan dushmani darhol bartaraf etishdir.

Sher dedi:

— Sening so'zlaring juda dahshatli va qahru g'azab bilan sug'orilgan. Lekin xayrixoh odamning so'zlariga quloq osmaslik to'g'ri emas. Shatraba dushmanlik fikriga tushsa, uning yetkaza oladigan zararlari meni qo'rqit olmaydi. Chunki u mening taomimdir. Uning yemishi o't-alaf, meniki esa go'shtdir. Buning ustiga, u bilan mening oramizda salom-alik, ishonch, hurmat bor.

Debdurlarki, aqli odamlar ishonchga xiyonat etmaydilar. Endi men nimaga asoslanib Shatrabaga xiyonat qila olaman. Majlislarda takror-takror uni maqtab, undan rozi ekanligimni, uning aqli va farosatidan mamnunligimni, unga sodiqligimni hamisha aytib kelganman. Endi bu aytganlarimning aksini qilsam, men so'zimning ustidan chiqmaydigan va tez-tez fikridan qaytadigan odamdek bo'lib qolaman. Bundan keyin hech kim men bergan va'dalarga yurakdan ishonmay qo'yadi.

Dimna dedi:

— «Shatraba mening taomimdir», deb shoh aldanib qolmasinlar. Shatraba o'zi bir narsa qila olmasa ham, atrofiga do'stlarini to'plab, hiyla va riyokorlik bilan maqsadiga yetishi mumkin. Butun yirtqich hayvonlar uning tarafiga o'tib ketadilar deb qo'rqaman. Chunki Shatraba ularning qalbida senga adovat, o'ziga rag'bat hissinini uyg'otgan. Bularning ustiga, agar Shatraba toshqalarni senga gijgijlatolmagan taqdirda ham, uning hijroni visolidan yaxshiroqdir.

Sher Dimnadan so'radi:

— Xo'sh, endi nima qilay?

Dimna dedi:

— Chirigan tishni sug'urib tashlamaguningcha og'rig'i qolmaydi... Hazm bo'lmagan taomni qayt qilib tashlamaguncha, ko'ngil behuzurligi bosilmaydi. Yaxshilikni bilmagan, do'stlik o'rniga dushmanlik xayoliga tushgan yaramas raqibni halok qilmaguncha, uning dastidan qutulib bo'lmaydi.

Sher dedi:

— Sening so'zlaringdan keyin Shatrabaning diydorini ko'rishni ham istamayman. Birortani yuboray, borib unga qayerga xohlasa ketaverishi mumkinligini aytib kelsin, aalo ko'zimga ko'rinmasin.

Dimna bu so'zlar Shatraba qulog'iga yetib borsa, u darhol o'zini oqlash uchun dalillar keltirishini, Dimnaning yulg'on gapirib, hiyla ishlatganini fosh etishini yaxshi bilar edi. Shuning uchun tezda sherga dedi:

— Ehtiyotkorlik jasurlikning fazilatidir. Bunday qilishga maslahat bermayman, chunki aytilmagan soʻzlarni har qachon aytsa boʻlaveradi, lekin aytilgan soʻz erkin harakat etmoqqa xalal yetkazishi mumkin.

Aytilgan soʻz — otilgan oʻq, uni qaytarib boʻlmaydi. Mabodo Shatraba bu xabarni eshitsa, oʻzining fosh etilishini bilib qoʻshin toʻplashi, shaylangan holda urushgani kelishi mumkin.

Aql va tajriba egalari oshkora gunoh uchun yashirin jazo va aksincha, yashirin gunoh uchun oshkora jazo berishni maslahat koʻrmaydilar.

Sher dedi:

— Hech qanday dalil boʻlmasdan, faqat gumonga asoslanib yaqinlarni uzoqlashtirish, ularni halok etishga intilish — oʻz ildiziga oʻzi bolta urish demakdir. Podshohlar butun ishlarda, xususan, mukofot va jazo berishda atroflicha mulohaza yuritmoqlari darkor.

Dimna dedi:

— Shohning aytganlari toʻgʻri. Lekin bu hiylagan kelguncha fursatni qoʻldan bermay, yaxshi hozirlik koʻrmoq kerak. Shatrabaga diqqat bilan qaralsa, uning qanday fikrda ekanligini jirkanch basharasidan ham bilsa boʻladi. Chunki doʻst bilan dushman orasidagi farq, ularning qarashlari, yurish-turishlarida koʻzga tashlanib turadi. Xiyonat yoʻliga kirgan boʻlsa, uning tashqi belgilari quyidagicha boʻladi: kayfiyati buziladi, koʻzi olazarak boʻladi, oʻng va soʻlga alanglayveradi, shohni suzib olishga tayyorlanib turganday boʻladi.

Sher dedi:

— Bu boshqa masala. Agar haqiqatan ham men bu belgilardan birortasini unda koʻrsam, oʻsha zamonAQ shubhalarim tasdiqlanadi.

Dimna sherning bu soʻzlarini eshitgach, oʻz hiylasi taʼsir etganini angladi va hoʻkizni ham yoʻldan urish uchun uning yoniga joʻnashlikka qaror qildi. Lekin sherda shubha uygʻotmaslik uchun avval undan ijozat olishni lozim koʻrdi.

— Ijizat bersangiz, Shatrabaning yoniga boray, uning qanday fikrda ekanligini bilib, sizga xabar qilay.

Sher ijizat berdi.

Dimna boshini quyi solib g'amgin holda Shatrabaning yoniga keldi. Shatraba uni mehribonlik bilan qarshi olib dedi: «Bir necha kundan beri seni ko'rmayman, kayfiyating qalay?»

Dimna javob berdi:

— Ixtiyori o'z qo'lida bo'lmagan, boshqalar amriga mute bo'lgan, hamisha qo'rquv va iztirob ichida yashagan, bir daqiqa bo'lsa-da, erkin nafas olib, yurakdagi so'zlarini aytolmaydigan kimsaning kayfiyati nechuk bo'lur edi!

Ho'kiz dedi:

— Nima bo'ldi o'zi?

Dimna dedi:

— Nima bo'lardi, hech narsa. Insonning manglayiga nima yozilgan bo'lsa, o'sha bo'ladi... Hech toleidan qochib qutulgan odamni uchratdingmi? Kimni ko'rdingki, notinlar suhbatida birortasiga maftun bo'lmagan bo'lsin? Yuramas odamlarga ishi tushib, xor bo'lmasin? Fitnachi odamlar bilan ulfatchilik qilsin-da, oxirida o'zi pushaymon bo'lmasin? Podshohlar mulozimati bo'lsin-da, yana buning ustiga joni ham salomat qolsin?

Shatraba dedi:

— So'zlaringdan ko'rinadiki, sherdan senga bir ozor yetgan va uning qahridan qo'rqasan.

Dimna dedi:

— To'g'ri. Lekin o'zim uchun qo'rqmayman, balki do'stlar uchun tahlikaga tushib qolganman. Senga do'st ekanligim, oramizdagi do'stlik aloqalari, birinchi dafa sher meni sening oldingga yuborganida senga halol xizmat qilganim o'zingga ma'lum. Shuning uchun ham men biron yaxshi yo yomon, xayrli yo zararli hodisani sezsam, uni sendan yashirolmayman.

Shatraba dedi:

— Ey ahdiga vafodor, aziz do'stim! So'zla va tezroq meni bo'lgan hodisalardan xabardor qil!

Dimna dedi:

— Bir e'tiborli odam sher og'zidan shu gaplarni eshitibdi: «Shatraba juda yaxshi semiribdi, ko'rganda og'zingning suvi keladi. Uning bu yerda tirik qolishining ma'nosi yo'qdir... Jonivorlarni uning shirin go'shti bilan mehmon qilsam». Bu gapni eshitgach, sherning naqadar qonxo'r va yirtqich ekanini payqadim, seni xabardor qilib, qardoshlik burchimni bajo keltiray, deb tezda sening yoningga keldim. Bu bilan do'stlik, vijdon va ahdu paymon shartlarini ado etdim.

Endi birgina yo'l bor — tezda bir chora ko'rib, hiyla bilan joningni saqlab qolishing kerak.

Shatraba Dimnaning aytganlariga diqqat bilan quloq soldi. Sherning bergan va'dalari, ichgan ontlarini eslab, dedi:

— Sherning mendan g'azablanishiga asos yo'q, chunki unga shu vaqtgacha mendan hech bir xiyonat sodir bo'lmadi. Mening haqimda sherga yolg'on so'zlar so'zlab, uni yo'ldan chiqarganlar, sher ham shunday mulozimlarning bo'hton va iftirolariga ishonib, mendan achchiqlangan. Sherning xizmatida xoin mulozimlar ko'p. Fitnachilar bilan do'st bo'lgan kimsa, eng yaxshi odamlar haqida ham yomon fikrda bo'ladi, vaqt o'tgandan so'ng ko'zlari moshdek ochilib, pushaymon yeydi. Bu xuddi o'rdakning xatosiga o'xshaydi!

Dimna so'radi:

— U qanday xato qilgan ekan?

Shatrabaning hikoyati

Bir o'rdak tiniq suvda oyni ko'rib, uni baliq deb o'yladi va suvga sho'ng'idi, lekin hech narsa topmadi. Bir necha martaba sho'ng'ib charchagandan keyin o'rdak bu ishning bahridan kechdi. Bir necha kundan keyin ko'lga rosmana baliqlar suzib keldilar, lekin o'rdak har gal baliq ko'rganda uni oynning aksi gumon qilib, ularni tutib yeyishga harakat qilmadi. Shunday qilib, yanglish tajriba natijasida u hamisha ochlik birla kun kechirdi.

Agar sherga mening haqimda yomon g'araz bilan gap aytgan bo'lsalar, sher ham boshqa xiyonatchilar shohidi bo'lganligi uchun bunga ishongan... Agar sher sababsiz mendan nafrat qilayotgan bo'lsa, bu nihoyatda afsuslanarli va taajjublanarli hodisadir. Agar g'azab va noroziligining biror sababi bo'lsa, uzr so'rash va xatoni tuzatish yo'li bilan uni rozi qilish mumkin. Lekin fitnachilar qurgan hiyla tuzog'ini buzmoq va haqiqatni ochmoq g'oyat mushkuldir. Chunki yolg'on va fitnaning haddi-hududi bo'lmas, u bora-bora ortar, lekin ozaymas. Sher bilan mening munosabatimni buzadigan hech bir voqeani eslay olmayman. Yolg'iz ayrim vaqtlarda men yaxshi niyat bilan uning ba'zi fikrlariga qo'shilmagan edim, nahotki ahularni beodoblik va behurmatlik hisoblagan bo'lsa?! Lekin men aytgan so'zlarning hammasi xayrli va foydali edi.

Ularni ham hech vaqt odamlar oldida aytmas edim, aytganda hamisha ta'zim bajo keltirib, ehtiyotlik bilan, qattiq botmaydigan qilib aytar edim.

Nasihatning xiyonatchiga, xizmatning adovatga sabab bo'lishi hech aqlga sig'maydigan narsadir...

Har kimki maslahat vaqtida maslahatchining so'ziga, muolaja chog'ida tabibning, shariat masalalarida shohning so'ziga kirmasa, yaxshi ish foydasidan, muolaja shifosidan va ibodat savobidan mahrum bo'ladi. Balki sherning g'azabiga saltanat istig'nosi va podshohlik qaramastligi sababdir. Podshohlikdan mast bo'lgan shohlarning ko'ziga xoinlar sodiq odamlar siymosida, sodiq odamlar esa xoinlar qiyofasida ko'rinadilar. Shuning uchun olimlar debdurlarki, «Nahang birla daryoda o'ynashmoq xavflidir, lekin shohlarga yaqinlik qilmoq bundan ham qo'rqinchlidir». Shoh xizmatining ozori ko'p va zarari benihoyadir. Hikmat ahli shohlarni olovga o'xshatibdurlar. Uzoqdan o'tning nurini ko'rganlar, uning quydirishini xayollariga keltirmaydilar, gumon qiladilarki, «Sultonga yaqin bo'lishda manfaat ko'pdir, haqiqatda esa bunday emas. Sultonning yuz yillik inoyati uning bir

soatlik siyosati bilan ham barobar emas. Bu, lochin bilan tovuq munozarasiga o'xshaydi.

Dimna so'radi:

— Ular qanday munozara qilibdilar?

Shatrabaning yana bir hikoyati

Bir kun lochin tovuqqa debdi:

— Ey tovuq, sen bevafo va ahdingda turmaydigan badfe'l parrandasan.

Tovuq so'radi:

— Mendan qanday bevafoqlik sodir bo'ldi?

Lochin dedi:

— Bevafoqlikning alomati shuki, odamlar senga ko'p yaxshiliklar qiladilar. Uylarida dunyoga kelibsan, suv va donlarini yeb katta bo'libsan, yana seni it va qushlardan asraydilar. Lekin qachonki seni tutmoqchi bo'lsalar, tomdan tomga qochasan va nola qilasan, tuzlarining haqini oqlamaysan, valine'matingdan qo'rqasan. Men esa vahshiy jonivorman. Lekin agar bir-ikki kun ular bilan ulfat bo'lsam, qo'llaridan taom yesam, tuzlarini oqlayman. Ularga ov qilib beraman. Uzoqqa ketgan bo'lsam, chaqirsalar uchib kelaman.

Tovuq dedi:

— Gaping rost. Sening uchib kelishing va mening qochishimning boisi bor, sen hech qachon lochinning sixga tortilganini ko'rganmisan? Men esa ancha tovuqlarning sixda biryon bo'lganlarini ko'rdim. Agar sen ko'rgan bo'lsayding, ularning yoniga sira yo'lamas eding, men tomma-tom qochsam, sen tog'ma-tog' qocharding.

Bu masalni shuning uchun keltirdimki, bilib ol: shohlarning siyosatlarini ko'rganlar tinchlarini yo'qotadilar.

Shatraba so'zida davom etib dedi:

— Balki menda bo'lgan iste'dod shohning g'azabiga sabab bo'lgandir. Chunki yaxshi otni kuchli va chopqir bo'lganligi uchun jilovlab minadilar. Mevali daraxtning

shoxini mevasi borligi uchun sindiradilar, tovuş esa go'zalligi uchun hamisha pati yuluq va qanoti qirqilgan bo'ladi...

Hunar egalarini hamisha iste'dodsiz va baxil odamlar yoq osti qiladilar, ular olchoq va razil odamlarning nafrat va g'azabiga sabab bo'ladilar. Iste'dodsiz, baxil, olchoq va razil odamlar iste'dodli va olijanob odamlardan ko'pdir, shuning uchun g'iybat va bo'hton bilan yaxshilarni halok etadilar. Xasis saxiyni ko'rsa, johil olim bilan bir majlisga tushsa, ahmoq oqil bilan suhbat qursa yuraklari siqilib, qonlari qaynab ketadi. Iste'dodsiz odamlar hunar egalarini yerga urib, ularni gunohkor qilib ko'rsatishga harakat etadilar. Diyonatni jinoyat qilib ko'rsatadilar, baxt-saodat va'itasi bo'lgan hunar va iste'dodni baxtsizlik vasilasiga aylantiradilar.

Agar taqdir taqozo qilgan bo'lsa, fe'li aynigan podshohga qarshi turish quturgan sherni zanjirlashdan, zaharli ilonni tutishdan qiyin.

Dimna dedi:

— Sherning bu qarorining sababi yovuzlarning tuhmati emas. Ochig'ini aytganda, u kuchli zolim, g'addor, hiylakor va xoindir. Bunaqalarning do'stligining avvali hayot kabi shirin, so'nggi esa o'lim kabi achchiq bo'ladi.

Shatrabadi dedi:

— To'g'ri aytasan, men sherning xizmatiga kirib xatoga yo'l qo'ydim... Ajal haydab meni bu yerga olib kelgan ekan. Yo'qsa, men qayda-yu, sher bilan do'stlik qayda?! U go'sht yeydi, men esa o't. Men uning taomi, u esa mening dushmanim! Toileim shu ekan! Meni girdobga tashlagan narsa ochko'ziik, boylik va dabdaba, sha'n va shavkat hirsini bo'ldi... Asalari nilufar gulining rangini ko'rib, darhol unga qo'nadi, shirasini so'rib, hididan zavqlana boshlaydi. U bu ishga shunday berilib ketadiki, uchib ketish kerakligini unutib qo'yadi. Nilufar sekin-asta o'z yoproqlarini yumadi va asalari ular ichida qolib halok bo'ladi. O'z qismatiga rozi bo'lmay, ortiqcha narsalar talab qilgan odam, go'zal chamanliklarda rang-barang

chechaklarning xushbo'y hidiga va yashil yaproqlar daraxtlarning mevalariga qanoat qilmay, filning qulog'iga kirgan va qulog'ining bir harakati bilan halok bo'lgan pashshaga o'xshaydi. Qadr-qimmatni bilmagan odamga xizmat qilmoq — sho'r yerga urug' sepmoq, o'lik bilan kengashmoq, kar qulog'iga hikmat darsi o'qimoq, oq suv yuziga g'azal yozishga urinmoq bilan barobar...

Dimna dedi:

— Bu so'zlarni qo'y, o'zingni qutqarish uchun biron chora ko'r.

Shatraba dedi:

— Men nima ham qila olar edim? Sher men to'g'rimda yomon fikrda bo'lmasa ham uning yaqinlari meni o'ldirmoqqa sa'y qilmoqdalar. Agar shunday bo'lsa, biron chora ko'rmoq mushkuldir. Chunki zolimlar bir-birlariga qo'shib birovni mahv etishga qasd qilsalar, birgalashib sherdan g'olib chiqqan bo'ri, zog' va shag'ol kabi o'z maqsadlariga erishadilar.

Dimna so'radi:

— U qanday bo'lgan edi?

Shatrabaning hikoyati

Naql qilurlarki, bir zog', bo'ri va shag'ol bir sherning xizmatida edilar. Ularning maskani yo'l ustida edi. Bir kun bir savdogarning tuyasi karvondan ayrilib o'rmonga kelib qoldi. Sherni ko'rgach, unga bosh egib salom berdi. Sher ham muloyimlik bilan bu yerga qanday kelib qolganligini surishtirdi. Tuya ahvolni gapirib bergach, sher:

— Endi qayerda turmoqchisan? — deb so'radi.

Tuya dedi:

— Shohimning ixtiyori nima bo'lsa shu.

Sher dedi:

— Mayling bo'lsa, mening yonimda qolib rohat farog'atda yashashing mumkin.

Tuya buni eshitib shodu xurram bo'ldi, o'sha o'rmonda o'tlab semirib yuraverdi. Kunlardan bir kun sher ovga

layotganda bir mast filga duch keldi. O'rtalarida shiddatli urush boshlandi. Sher og'ir yarador bo'lib ingray-ingray o'rmonga qaytdi va bir burchakda ingrab qoldi. Bir necha kun ovga chiqa olmadi. Sherning oviga sherik bo'lib yurgan bo'ri, zog' va shag'ol och qoldilar. Huni sezgan sher ularga dedi:

— Och qolib qiynalayotganga o'xshaysizlar, bu yaqinda biror ov ko'rsangiz xabar beringlar, men uni oshlab parchalay. Sizning ham qorningiz to'yadi, mening ham.

Ular tashqari chiqib maslahat qildilar: — Tuya bizning oramizda ortiqcha. Uning sherga nima nafi boru, bizga nima foydasi. Hech birimizga o'rtoq bo'la olmaydi. Hozir sherni majbur qilamiz, uni yesin, qoldig'i bizga tegadi.

Shag'ol dedi:

— Bu gapni sherga aytib bo'lmaydi, chunki sher unga amonlik berib o'z xizmatida olib qolgan. Kimki podshohni slyonatga yo'llab, ahd-paymonni buzishga da'vat etsa, do'at-oshnolarini balo tuzog'iga tashlagan bo'ladi, bartaizlik o'qini o'ziga qaratgan bo'ladi.

Zog' dedi:

— Bu borada shunday hiyla ishlatish kerakki, podshohning o'zi o'z ahdini buzishga majbur bo'lsin. Bizlar shu joyda tek turinglar, men hozir kelaman. Zog' ochib sher qarshisiga bordi va ta'zim qilib turdi.

Sher so'radi:

— Biror narsa topdingizmi?

Zog' dedi:

— Ochlikdan ko'zlarimiz hech narsani ko'rolmaydi. Agur podsho rozilik bersa, hammaga yetadigan bir ne'mat bor.

Sher dedi:

— U nima deganing?

Zog' dedi:

— Ana u tuya bizlarning oramizda begonadir. Uning bu yerda yurishidan shohga hech foyda yo'q.

Sher g'azab bilan dedi:

— Bu gaping insof va muruvvatdan emas, buni vijdon qabul qilmaydi. Men tuyaga bergan va'damni qanday qilib buza olaman?

Zog' dedi:

— Men buni ham o'ylab qo'ydim. Donishmandlar aytibdurlarki, falokat yuz berganda bir kishini bir oila uchun, bir oilani bir qabila uchun, bir qabilani bir shahar uchun, shahar aholisini esa podshoh uchun fido qilish bo'ladi. Ahdni buzmaslik uchun ham bir vaj va iloj topiladi. Shunda ahd ham buzilmagan bo'ladi, podshoh ham ochlik tahlikasidan qutulgan bo'ladi.

Sher buni eshitgach, boshini quyi solib o'tirdi.

Zog' o'z yoronlari qoshiga kelib dedi:

— Sher boshda g'azablanib gapimga quloq solgisi kelmadi, oxirida indamay qoldi. Endi maslahat shuki, hammamiz tuyaning oldiga borib sherning ochlikdan azob chekayotganini gapirib beraylik va aytaylik: sherning davlati soyasida to'q va shod-xurram kun kechirdik. Agar endi uning boshiga og'ir kun kelganda shoh uchun jonimizni fido qilmasak, nonko'r bo'lamiz...

Keyin sherning yoniga boramiz-da, uning bizga katta iltifotlar ko'rsatganini e'tirof etib, jonimizni unga qurbon qilishga tayyorligimizni aytamiz, har birimiz navbat bilan «Shoh bugun meni yesinlar», deymiz. Boshqalarimiz: «Yo'q meni yeng», deb turib olamiz. Shunday qilib, biz ham sherga bo'lgan minnatdorchiligimizni izhor etgan bo'lamiz, ham salomat qolamiz.

Ular aldab-suldab tuyani o'z so'zlariga ko'ndirdilar, tuya sherning huzuriga borishga rozi bo'ldi. Hammalari sherning qoshida bosh egib ta'zim qildilar.

So'zni zog' boshladi:

— Shohning umri uzun, davlati abadiy bo'lsin. Bizning tirikligimiz shohning sog'lig'iga bog'liqdir. Shohning boshiga musibat tushgandan keyin bizning yashashimizning nima ma'nosi bor? Bo'yim kichkina va vujudim zaif bo'lishiga qaramay men o'zimni shoh hazratlariga fido qilishga qaror qildim... Agar shoh

mening go'shtimni yemoqchi bo'lsalar, marhamat tayyorman.

Boshqalari dedilar:

— Sening go'shting bilan kim to'yadi?

Shag'ol so'z boshladi, u ham zog'ga o'xshab o'zining fidokorligidan lof ura boshladi. Sheriklari unga:

— Sening go'shting sassiq va zararli, shohga loyiq emas, — dedilar.

Undan keyin bo'ri gap boshlab, o'z go'shti yaxshiroq ekanini aytdi. Sheriklari bo'riga ham e'tiroz bildirib: "Sening go'shting qattiq, tomoqqa tiqilib qoladi va osharlaydi. Seni ham yeb bo'lmaydi", dedilar.

Navbat bechora tuyaga yetdi. U makkor sheriklarining «mumimiy»ligiga ishonib, o'z go'shtining toza va lazzatlilikini maqtay ketdi. Hammalari bir ovozdan uning so'zini quvvatladilar:

— Juda to'g'ri va chin yurakdan gapiryapsan, o'zing chiroyli, go'shting mazali, podsho hazratlarining mijozlariga juda mos keladi, hammamizga ham yetadi, — deb hammalari tuya ustiga yopirilib, bechorani pora-pora qildilar. Shu yo'sinda tuya ularning hiyla tuzoqlariga ilinib halok bo'ldi.

Bu masalni shuning uchun keltirdimki, agar dushmanlar yig'ilib so'zni bir yerga qo'ysalar, ularning nityasi bekor ketmaydi.

Dimna dedi:

— Xo'sh, sen qanday fikrdasan?

Shatraba dedi:

— Urishib qarshilik ko'rsatmoqdan o'zga ilojim yo'q. Agar bir odam umr bo'yi ibodat qilib, mol-mulkini faqir-fuqaroga ulashsa, baribir uning savobi o'z mol-mulkini, o'z nomusini saqlash uchun bir soat kurashgan odamning savobidan kam bo'ladi. Chunki kurashib halok bo'lgan kimsa ham shuhrat topib, hurmatga sazovor bo'ladi, chunki bunday o'lim sharaflil hisoblanadi. Pichoq suyakka yetganda, jon bo'g'izga kelganda mol-jon, imon va maslak uchun olib boriladigan kurashning savobi juda katta.

Dimna dedi:

— Aqlli odam olishuvga oshiqmaydi, tayyorgarlik ko'rmadan katta va tahlikali ishni boshlamaydi. Dushman bilan mumkin qadar yumshoq muomala qilib nizoni tinchlik va do'stlik yo'li bilan hal etishga tirishadi. Donishmand kimsalar o'zlarining zaif dushmanlariga ham mensimaslik bilan qaramaydilar, chunki dushman kuchsiz bo'lsa, har xil hiyla va nayrangga murojaat qiladi, shu yo'l bilan u g'alaba qozonishi mumkin. Holbuki, sherning qo'rqmas, jasur, kuchli va qudratli ekanligi hammaga ma'lum. Kimki dushmanni mensimasa va urushning nima bilan tamom bo'lishini oldindan ko'rmasa, tatavani pisand qilmagan daryo tangrisi kabi pushaymon bo'ladi.

Shatraba so'radi:

— Tatava nima qilibdiki u pushaymon bo'lgan?

Dimnaning hikoyati

Aytibdurlarki, dengiz qirg'og'ida, tatava degan bir juft qush yashar edi. Bir kun tatavaning modasi:

— Tuxum qo'ymoq uchun yaxshi joy topish lozim, — dedi.

Nar javob berdi:

— Tuxum qo'yishga shu yer yaxshi, boshqa joyga ko'chishga ehtiyoj yo'q.

Moda dedi:

— O'ylab ko'rish kerak. Agar dengiz toshib, mavj ursa, to'lqin bolalarimizni olib ketadi, mehnatimiz zoye ketadi.

Nar dedi:

— Dengiz tangrisining yurak yutib biz tomonga kelishi gumon. Agar bu yerga kelib bolalarimizni halok qilsa, undan qasos olish oson.

Moda dedi:

— Odam o'z kuchini bilsa, haddidan oshmasa yaxshi bo'ladi. Sen qaysi kuch va qudratingga ishonib dengiz tangrisiga tahdid solasan va qasos olaman, deb

qoʻrqitmoqchi boʻlasan. Bu fikringdan qayt, xavfsiz bir joy topishga urin. Xayrixoh doʻstlar soʻziga kirmagan kimsa toshbaqaning holiga tushadi.

Nar soʻradi:

— Toshbaqaga nima boʻpti?

Tatavaning toshbaqa haqidagi hikoyati

Aytibdurlarki, bir koʻlda ikki oʻrdak va bir toshbaqa yashardilar. Qoʻshni boʻlganlari uchun ular bir-birlari bilan doʻst va ittifoq edilar. Birdan gʻaddor falak ularning tinchgina turmushini buzdi. Ularning hayot manbai boʻlgan suv kamaya boshladi. Buni koʻrgan oʻrdaklar toshbaqa yoniga kelib dedilar:

— Vidolashmoqqa keldik, ey aziz doʻstimiz, salomat qoll!

Toshbaqa bu gapni eshitib, nola qildi va koʻz yoshlarini oqizib dedi:

— Ey, mening aziz doʻst va mehribon birodarlarim! Quvning ozayishi men uchun yana ham dahshatlidir, men xavfsiz yashay olmayman. Endi muruvvat vaqti keldi, meni ham xalos etmoq uchun bir tadbir koʻringlar.

Oʻrdaklar dedilar:

— Sendan ayrilish va hijron dardini chekish biz uchun yanada ogʻir. Sendan ajralib qayerga ketmaylik va qanday nozu neʼmat ichida yashamaylik, bizga tatimaydi. Lekin sen oʻz doʻstlaring nasihatlariga quloq solmaysan, oʻz foydangni tushunmaysan. Seni ham birga olib ketishimizni xohlasang, bir shartimiz bor: osmonga koʻtarilgandan keyin bizni kim koʻrmasin va nima demasin, indamaysan, ogʻizni mahkam yumib ketaverasan.

Toshbaqa dedi:

— Roziman. Aytganingizni qilaman: tishimni tishimga qoʻyib, hech nafasimni chiqarmayman.

Oʻrdaklar bir novda topib keltirdilar. Toshbaqa uning ortasidan tishladi, oʻrdaklar ikki boshidan tishlab osmonga koʻtarildilar. Odamlar ularni koʻrib taajjub bilan

o'ng va so'ldan: «O'h-hu, anavini qaranglar, o'rdaklar toshbaqani uchirib olib ketyapti», deb qichqira boshladilar. Toshbaqa bir muddat indamay bordi, keyin o'zini tuta olmay, «ko'rolmaganlarning ko'zi chiqsin» demoqchi bo'lib og'iz ochgan edi hamki, yerga tushib chilparchin bo'ldi.

O'rdaklar bu voqea hammaga ibrat bo'lsin deb uni har yerda gapirib yurdilar.

Nar dedi:

— Nima demoqchi bo'lganingni tushundim. Lekin bunga qaramay qo'rqmasdan tuxumlaringni shu yerga qo'yaver.

Moda uning aytganini qildi. Narning balandparvoz so'zlaridan g'azablanib dengiz tangrisi qattiq to'lqin ko'tardi. To'lqin qushning endigina tuxumdan chiqqan bolalarini olib ketdi.

Bu holni ko'rgan moda iztirobga kelib narga dedi:

— Suv bilan hazillashib bo'lmasligini bilardim. Sen esa o'z manmanliging bilan bolalarimizni halok etding. Endi o'z boshimizga bir falokat kelmasaydi.

Nar dedi:

— Ko'p kuyinma. Kishi tupurgan tupugini qaytib og'ziga olmaydi. Men aytgan so'zimda turib dengiz tangrisidan albatta qasos olaman.

Erkak tatava darhol boshqa qushlarning yoniga bordi. Ularning boshliqlarini yig'ib o'z boshiga tushgan falokatni ularga aytib berib dedi:

— Agar hammamiz bir bosh, bir qanot bo'lib bu baloning oldini olmasak, dengiz tangrisi haddidan oshib quturaveradi, butun qushlar naslini yo'q qilib yuboradi.

Qushlar yig'ilib Semurg'ning yoniga keldilar va ahvolni unga batafsil so'zlab berdilar:

— Agar dengiz tangrisidan o'ch olib bera olmasang, bugundan boshlab seni qushlarning podshohi deb tanimaymiz.

Semurg' buni eshitgach, qanot qoqib osmonga ko'tarildi. Bundan dadillangan boshqa qushlar ham dengiz tangrisidan intiqom olish uchun Semurg'ning

ketidan parvoz qildilar. Dengiz tangrisi Semurg'ning qudratini va bahamjihat bo'lgan boshqa qushlarning kuch va matonatini yaxshi bilardi. Shuning uchun tatavanning bolalarini qaytarib berishga majbur bo'ldi.

Dimna dedi:

— Men bu masalni shuning uchun keltirdimki, hech vaqt dushmani mensimaslik kerak emas, birinchi bo'lib urush boshlash oqil kishining ishi emas.

Shatraba dedi:

— Xo'p, men birinchi bo'lib urush boshlamayman, lekin sher menga qasd qilsa, o'zimni mudofaa qilishga majbur bo'laman.

Dimna dedi:

— Albatta shunday qilish kerak, endi hujumga tayyorgan sherning alomatlarini aytib beray: agar sher qomatini bukib, tuklarini xurpaytirib, dumlarini yerga urganini ko'rsang, bilginki, u hujumga tayyorlanayotir.

Shatraba dedi:

— Yaxshi, men bu alomatlarni ko'rsam, butun shahubhalarim tasdiqlangan bo'ladi va sherning menga hamla qilmoqchi bo'lganiga ishonch hosil qilaman.

Dimna shodu hurram bo'lib Kalilaning yoniga keldi.

Kalila so'radi:

— Ishlaring qanday boryapti?

Dimna javob berdi:

— Ko'ngildagidek, hamma ish o'z joyida...

So'ngra ikkalasi sher yoniga keldilar. Shu payt Shatraba ham kelib qoldi. Sherning nazari Shatrabaga tushishi bilanoq qaddini bukib, dumini yerga ura boshladi.

Shatraba sher hujum qiladi, deb o'ylab, o'z-o'ziga dedi:

— Shoh xizmatida bo'lmoq ilon bilan bir yerda yotmoq yoki sher bilan bir g'orda yashamoq kabi qo'rqinchli va tahlikalidir. Ilon uxlagan va sher uyquga ketgan bo'lsa ham, oxirida biri zahrini soladi, ikkinchisi esa hamla qilish uchun og'zini ochadi. Shatraba bularni xayoldan kechirgach, u yoq-bu yoqqa qarab jangga hozirlandi. Buni

ko'rgan sher hujumga o'tdi. Ikkovlari uzoq olishdi, har ikki tomondan ham ko'p qon to'kildi.

Kalila bu holni ko'rib Dimnaga dedi:

— *Ming hiylaga ming bir fitna
qo'shding sen,
Orzuingga osonlikcha yetding sen,
Yog'sa hamki yomg'ir tinmay uch yuz yil,
Yuva olmas sen ko'targan changni, bil.*

Ey, nodon! Endi o'z makr-hiylangning qabih oqibatini tomosha qil!

Dimna so'radi:

— Qaysi qabih oqibatni?

Kalila dedi:

— Valine'mating bo'lmish sherning sharmandali ishi, ho'kizning o'ldirilishi va qonining bekorga oqizilishi, sipol orasidagi parokandalik, sening qo'pol makkorliging oqibatidir. Agar sen nodon bo'lmasayding, bu sherni bunday qabih jinoyat qilishga qadar olib kelmagan bo'larding. Odamlarning eng nodoni o'z do'stini keragi yo'q urushga tortadi. Aqlli odamlar qudratli, kuchli, yengilmas bo'lganlari holda ham urushdan o'zlarini opqochganlar, fitnani bostirish urush tahlikasini yo'qotishni zarur deb bilganlar. Musohaba yo'li bilan hal etilishi mumkin bo'lgan masalalarda o'z shohini urushga chorlagan vazir eng ahmoq va eng noloyiq vazirdir. U xiyonat qilib ishga zarur yetkazishdan boshqaga yaramaydi, chunki mansab egalarining aqli qilichidan o'tkir bo'lmog'i lozim. Qilich bilan erishiladigan narsaga aql va tadbir vositasi bilan ham erishish mumkin. Maslahat bilan bitishi mumkin ishlar dudama xanjar bilan ham bartaraf qilib bo'lmaydi...

Men sening xudbinligingni, shirin xayol va yoqimli tushga o'xshagan bu aldamchi dunyoning boyliklariga xarisligingni yaxshi bilardim. Lekin bularni yuzingga aytishga andisha qilar edim. G'aflat uyqusidan uyg'onib o'zi tushunib qolar deb yurar edim. Lekin sen tobora

haddingdan oshyapsan. Endi sening ba'zi nuqsonlaringni ko'rsatish, naqadar johil va nodon ekanligingni, naqadar yaramas ishlar qilganligingni ochiq aytish vaqti keldi. Lekin mening aytadiganlarim «daryodan bir qatra» qabilida bo'ladi. Aytibdurlarki, podsho uchun so'zi tahidan ustun bo'lgan vazirdan ko'ra xavfli narsa bo'lmaydi. So'z berib bajarmagan odam bilan aytmasdan tahni bajargan odamning farqi katta. Senda shu xususiyat bor: tilingni hunaringdan, so'zing ishingdan ustundir. Nihoyat sening aytganlaringga ishonib bechora ho'kizni halok qildi. Debdurlarki, so'z tajribaga asoslanmagan bo'lsa, shakl mazmunsiz, davlat adolatsiz, do'stlik sadoqatsiz, boylik saxovatsiz, ilm hikmatsiz, hayot noyishtaliksiz bo'lsa, ular befoydadir. Saxovatli va adolatli shohning vaziri yomon niyatli, raiyatga zulmkor bo'lsa, fuqaro shoh adolatidan mahrum etiladi, marhamat mahliklari ular yuziga berkitiladi. Bu esa ichida nahang yashaydigan toza va shirin suvli hovuzga o'xshaydiki, har qanday tashna odam unga na qo'l suqa oladi va na oyoq.

Sodiq va ishbilarmon xizmatchilarning ko'pligi yaxshidir, ular podshohlikning ziynatidir. Sen esa sherning yonida mendan boshqa hech kim bo'lmasin, uning eng yaqin va ishonchli mahrami faqat o'zingina bo'lay deysan. Lekin o'zgalarni baxtsiz qilib baxtga aylatgan, sodiq va samimiy do'stlarga xiyonat qilib, ularni halok etish yo'li bilan hurmat qozonmoqchi va mansabga aylatmoqchi bo'lgan odamday ahmoq va razil zotning bo'lishi mumkin emas. Riyokorlik bilan ibodat qilib savob topish, yomon niyat va zo'rlik bilan ayollar muhabbatiga erishib bo'lish, zahmat chekmasdan ilmga yetish mumkin emas. Lekin bu so'zlarimdan foyda yo'qdir, chunki biluman, ular senga ta'sir etmaydi. Mening senga nasihatim bir qushning maymunlarga bergan nasihatiga o'xshaydi.

Dimna so'radi:

— U qanday nasihat?

Kalilaning maymun haqidagi hikoyati

Bir to‘da maymunlar bir tog‘da yashar edilar. Bir kun quyosh botib, dunyo yuzini zulmat pardasi qoplaganda jilovsiz izg‘irin har tomonga yugura va maymunlarga hujum qila boshladi. Bechora maymunlar sovuqdan titrar va isinish uchun biron chora axtarar edilar. Nogoh bir joyda yaltiroq qurti ko‘rib qoldilar. Uni cho‘g‘ deb o‘ylab, talay o‘tin yig‘ib atrofiga qaladilar va hadeb puflay boshladilar. Ularning qarshilaridagi daraxt ustida bir qush: «Bu olov emas, kechalari yaltirab ko‘rinadigan yaltiroq qurt», deb qichqirib, faryod qilar edi. Maymunlar esa uning gapiga e‘tibor bermas edilar. Shu asnodda o‘tkinchi bir odam kelib ahvolni ko‘rdi va qushga: «O‘zingni ko‘p koyitma, ular sening so‘zingga quloq soladigan, foydasiz ishdan voz kechadiganlardan emas, ularga nasihat qilish — qilichni toshga urish va shakarni suv ostiga bekitish bilan barobardir», dedi.

Qush odamning so‘zlariga e‘tibor bermay, maymunlarning xatosini tushuntirish uchun daraxtdan tushib ular yoniga keldi. Maymunlar uni o‘rab olib boshini uzib tashladilar.

Sening ishing ham maymun ishiga o‘xshaydi. Xayrixohlarning nasihatiga quloq osmayсан. Ammo bir kun keladiki, sen bu hiylakorliging va yengiltakligingdan pushaymon bo‘lasan, o‘shanda yuz-ko‘zingni tirnab qanchalik yig‘lamagin va boshingni urib, ko‘kragingni qanchalik pora-pora qilmagin, baribir foyda bermaydi. Otalar aytibdurlarki, so‘nggi pushaymonning foydasi yo‘qdir — u hiylagar odamga buyurmagan tilla kabi senga ham foyda bermaydi.

Dimna so‘radi:

— Hiylagarga nima bo‘pti?

Kalilaning yana bir hikoyati

Ikki o'rtoq bor edi. Biri sodda va ikkinchisi hiylagar edi. Ular bir kuni savdogarchilik qilish uchun bir yoqqa ketisharkan, yo'ldan bir xalta tilla topdilar, soddadil hiylagarga dedi:

— Omadimiz o'ngidan keldi, endi bularni bo'lib olib orqaga qayta qolaylik.

Hiylagar dedi:

— Taqsim qilib o'tiramizmi? Hozir kimga qancha kerak bo'lsa bo'lib olib, qolganini ehtiyot qilib bekitib ketaylik. Zarur bo'lganda esa kelib olarmiz.

Soddadil uning so'ziga ko'nib «xo'p» dedi. Oltindan kerugicha olib, qolganini bir daraxt ostiga ko'mdilar. Shaharga kelib, har biri o'z uyiga ketdi. O'zini aqlli deb hisoblagan hiylagar ertasi kun borib, ko'milgan tillaning hammasini olib ketdi. Soddadil o'z qo'lidagini xarjlab bo'lgach, hiylagar qoshiga kelib dedi:

— Yur, oltindan picha olib kelaylik, juda muhtoj bo'lib qoldim.

Hiylagar u bilan birga tilla ko'milgan joyga keldi, lekin hech narsa topmadilar. Hiylagar soddadilning yoqasidan ushlab:

— Tillalarni sen olgansan, chunki sendan bo'lak hech kimning bundan xabari yo'q edi, — dedi.

Soddadil bechora, olmadim deb har qancha ont ichsa ham foydasi bo'lmadi. Hiylagar uni qoziga olib borib, bo'lgan gapni aytib berdi va tillalarni da'vo qildi. Qozi ko'radi:

— Guvoh va dalil bormi?

Hiylagar dedi:

— Ostiga tilla ko'milgan daraxt guvohlik berib, tillani bu noinsof olib ketgan, dedi.

Qozi bu so'zni eshitib, hayron bo'ldi. Ancha gapu so'zdan keyin ertasiga guvohlik bergani daraxt yoniga borishga qaror qilindi. Hiylagar sevinib uyiga keldi va otasiga dedi:

— Bu tilla hangomasini o'z foydamizga hal etish sizga bog'liq bo'lib qoldi. Sizga ishonib daraxt guvohlik beradi, dedim. Endi mening gapimga ko'nsangiz, olib kelgan tillalarim o'zimizga qoladi va yana shuncha tillaga ega bo'lamiz.

Otasi so'radi:

— Men nima qilishim kerak?

Hiylagar dedi:

— U daraxtning ichi kovak bo'lib, unga o'n odam bemalol yashirinsa bo'ladi. Kechasi borib u yerga joylashib olishingiz kerak, ertaga qozi daraxt tagiga kelganda, daraxt nomidan guvohlik bersangiz bo'ldi.

Otasi dedi:

— Ey o'g'il, makr-hiyla ko'pincha hiylagarning o'ziga zarar yetkazadi. Tag'in sening makring ham qurbaqa makriga o'xshab qolmasin.

O'g'li so'radi:

— Qurbaqa qanday makr ishlatibdi?

Otaning hikoyati

Bir qurbaqa ilonga qo'shni edi. Qurbaqa har bolalaganida ilon uning bolalarini yeb ketardi. Qurbaqaning bir qisqichbaqa do'sti bor edi. Bir kuni qurbaqa uning yoniga borib dedi:

— Ey birodar, menga bir chora ko'rsat. Keyingi paytlarda bir zo'r va shafqatsiz dushman paydo bo'lib qoldi, u bilan olishib yenga olmayman. O'zim bu yerga o'rganib qolganim uchun hech qayoqqa keta olmayman. Manzilim go'zal, ob-havosi musaffo, yeri zumraddek yam-yashil.

Qisqichbaqa dedi:

— G'am yema. O'zingdan kuchli dushmanni yolg'iz hiyla bilangina yengib bo'ladi.

Falon joyda larcha degan bir hayvon yashaydi. Sen bir qancha baliq tutib, ularni o'sha hayvonning uyasidan to ilonning inigacha to'kib bor. U hayvon hid bilib uyasidan

chiqadi, baliqlarni yeb-eb ilonning uyasigacha keladi va men ilondan xalos bo'lasan.

Qurbaqa bu hiyla bilan ilonni o'ldirtirdi. Bir necha kundan so'ng haligi hayvon ovqat izlab boyagi baliq yegan yo'lidan keldi, lekin baliqni topmay, qurbaqani va uning bolalarini yeb ketdi.

Bu masalni men, har kim birovga choh qazisa o'zi yiqilib tushishini ko'rsatish uchun so'zlab berdim.

Hiylagar o'g'il dedi:

— Ota, qo'ying, gapni qisqa qiling. Bu ish andak mehnat talab qilsa hamki, foydasi ko'p.

Chol bechorani mol-dunyo hirsu va otalik muhabbati yo'ldan urdi, u o'g'lining gapiga kirdi.

Ertasi kun qozi shahardan chiqib daraxt ostiga keldi. Tomosha qilish uchun anchagina boshqa odamlar ham unga ergashib kelgan edi. Qozi yuzini daraxtga o'girib, tillalarning nima bo'lganini so'radi. Daraxtdan tillalarni soddadil olib ketgan, degan sado chiqdi. Taajjublangan qozi daraxt atrofida aylanib yurib, unga diqqat bilan razm soldi. Daraxtning katta kovagi borligini ko'rdi-da, mamalani tushundi. O'z-o'ziga: «Xiyonatga marhamat yo'q», deb daraxt atrofiga shox qalatdi va o't qo'ydi. Chol bir soatga chidab jim turdi, lekin halok bo'lishini bilib talvora boshladi. Qozining buyrug'i bilan uni daraxt ichidan chiqardilar. Qozi savol-javob qilib haqiqatni bildi, soddadilning to'g'riligi, hiylagarning makri ma'lum bo'ldi. Chol chekkan azoblariga va nomusiga chiday olmay shu yerning o'zidayoq jon berdi. Hiylagarni jazolab, adabini berdilar va otasining o'ligini yelkasiga qo'yib shaharga yetkazdilar. Soddadil esa to'g'riligi tufayli hamma tillalarni olib o'z uyiga ravona bo'ldi.

Hiylaning natijasi yomon, xiyonatning oqibati xatarli ekanligini bilgin deb masalni keltirdim... Ey Dimna, sen shaxsiyatparastlik, qalloblikda shu darajaga yetibsanki, HI uni tasvirlashdan ojiz, aql uni tasavvur qilishga kuchsizdir. Sening makru hiylalaringni do'stlarga qanday aytda yetkazishini o'z ko'zing bilan ko'rib turibsanki, lekin

senga uning ziyoni tegmaydi, deb o'ylaysanmi?.. Sen ilon kabi ikki tillisan, lekin ilondan battarsan, sening har ikkala tilingdan zahar tomadi. Ariq va soy suvi dengizga quyilganga qadar shirin bo'ladi, oilaning ishi yomon odamlar aralashguncha, qardoshlik va do'stlik muhabbati razil odamlar oraga tushguncha mustahkam bo'ladi. Men hamisha senga yaqin bo'lishdan qo'rqar edim. Donishmandlar debdurlarki, fisqu fasod, razil va olchoq odamlar, garchi senga qarindosh bo'lsalar ham, ulardan qochmoq lozim. Razil va xoin odamlarning do'stligi ilonni tarbiyat qilishdek bir narsa. Ilon egasi unga qanchalik yaxshi parvarish etsa ham, payt kelganda bir kun o'z egasining yorug' kunini qorong'i kechaga aylantiradi, o'z vafosizligini namoyon qiladi. Fe'l-atvorlari uncha yaxshi bo'lmasa-da, aslida aqlli odamlar bilan do'stlash, ularning aql va kamolidan, bilim va tajribasidan bahra ol. Ularning yomon xulqlarini o'rganma. Lekin ahmoq va johil odamlardan qochmoq zarur. Chunki ulardan yomonlikdan bo'lak narsa chiqmaydi. Ular bilan do'stlashgan pushaymon bo'ladi. Sen ham shular toifasidansan. Sendan hech bir yaxshilik chiqmaydi, chunki seni izzat-hurmat qilgan, seni martabangni ko'targan shohning boshiga ne kulfatlar solmading!

Sening ishing «Sichqon yuz botmon temirni yegan bir shaharda o'n botmon keladigan bolani bir qiyg'ir olib qocha olmaydimi?» degan savdogarning gapiga o'xshaydi.

Dimna so'radi:

- Unga nima bo'lgan ekan?

Kalilaning savdogar haqidagi hikoyati

Unchalik boy bo'lmagan savdogar bir kun safarga chiqmoqchi bo'ldi. Uning yuz botmon temiri bor edi. Shu temirni bir oshnasining uyiga qo'yib ketdi. Savdogar safardan qaytib temirni so'raganida oshnasi dedi:

— Men omonatingni uyning burchagiga qo'yib xotirjam yuraveribman, o'sha burchak yonida sichqonning uyasi

to'rtkan, la'natilar fursatni g'animat topib, butun temirni keltirib qo'yishibdi.

Savdogar dedi:

— Gaping to'g'ridir. Men ham sichqon juda temirga o'ch to'rladi, deb eshitgan edim.

Uy egasi suyunib, savdogar so'zimga ishondi va temiridan voz kechdi, deb mulozamat qila boshladi, so'ng dedi:

— Uzoq safardan kelibsan, mening uyimda qol. Mehmon qilaman.

Savdogar dedi:

— Bugun zarur ishlarim bor, ertaga kelarman.

Savdogar ko'chaga chiqib oshnasining o'ynab yurgan o'g'lini olib ketib, o'z uyiga yashirib qo'ydi. Ertasi kun savdogar oshnasining uyiga kelganda u yig'lab o'tirar edi.

Savdogardan:

— O'g'limni ko'rmadingmi? — deb so'radi.

Savdogar dedi:

— Kecha senikidan ketayotganimda bir qiyg'ir bir qo'ldakni changaliga olib uchib ketayotganini ko'rib qoldim. O'sha sening o'g'ling bo'lmasin?

Oshnasi jahl bilan dedi:

— Sen axir to'g'ri kelmaydigan yolg'onni nega gapirasan?! Esingni yedingmi, axir kichkina qiyg'ir bir bolani ko'tarib olib keta olarmidi?

Savdogar istehzoli kulib dedi:

— Unchayam ajablanma. Axir yuz botmon temirni sichqon yeb qo'yadigan bu shaharda o'n botmon boladigan bolani qiyg'ir ko'tarib ucholmaydimi?

Oshnasi gapni qayerga burayotganini fahmlab uy egasi dedi:

— Sichqon temirni yemagan, bolamni keltirib, temiringni olib ket.

Bu masalni shuning uchun keltirdimki, bilib qo'y: shohning boshiga shuncha kulfatlər solgan kimsa toshqalarga undan ham ko'p zarar yetkazishi mumkin. Shunday bo'lgandan keyin hech kimning senga ishonchi

qolmaydi. Do'stga vafo qilmagan, xayrixohlikni bilmagan odam bilan do'st bo'lish hech qanday yaxshi natija bermaydi. Tushunmaganga, qadriga yetmaganga yaxshilik qilishdan, quloq solmaganga nasihat qilishdan va og'zi bo'shga sir aytishdan katta xato bo'lishi mumkin emas. Ming nasihat qilganim bilan sening tabiatini o'zgar olmaydi. Sendek kasofat bilan do'st bo'lish falokat keltiradi. Sahar shabadasi ham do'stlikka o'xshaydi, u agar gulzordan essa, xushbo'y bo'ladi, najosat bor yerda esa, badbo'y bo'ladi. Bilib turibman, bu so'zlarim senga og'ir botyapti, chunki to'g'ri so'z achchiq bo'ladi, nodon va beaql odamlarga aslo yoqmaydi.

Kalilaning so'zi shu yerga yetganda Shatraba o'z qonini belanib sher changalida jon bergan edi. Sher buni ko'rib jahldan tushdi, so'ngra fikrga cho'mib, o'z-o'ziga dedi:

— Bechora Shatraba, naqadar aqlli, farosatli va shijoatli eding. Bilmadim, to'g'ri ish qildimmi yo xato qildimmi? Sening haqingdagi gaplar rostmi yoki qasddan uydirilgan fitnami? Har holda, bu men uchun qattiq musibat bo'ldi. Endigi afsus va pushaymondan foyda yo'q.

Dimna uzoqdan sherning tashvish tortayotganini ko'rib, pushaymon bo'layotganini darhol angladi va Kalilaning so'zini bo'lib sherning yoniga keldi:

— Ey shohi jahon, sizni buncha o'ylatib qo'ygan narsa nima? Bu kundan ham muborak kun bo'ladimi? Axir shoh g'olib kelib, nusrat topdilar, dushman mag'lub bo'lib qonga belandi.

Sher dedi:

— Shatrabani o'ylaganim sari uning do'stligi, samimiyligi, odobi, xulq-atvori, bilimi, ishbilarmonligi, jasorat va shijoatliligi yodinga tushib qalbm g'am va alamga to'lmoqda. U davlatimning pushtipanohi va lashkarimning takyagohi edi, u raqiblarim ko'ziga botadigan tikan, do'stlarim yuziga yarashadigan bir xol edi...

Dimna dedi:

— Bu tuznamak dushman uchun hasrat chekmang. Qo'lga kiritgan zafardan shodlanmoq lozim, uni sizga

qabrilgan katta bir baxt deb bilmoq kerak... Xavfli odamlarning gunohini kechirmoq aqlli odamlarga yoqmas. Shohning dushmanlari uchun eng ishonchli odon — qabr va eng ta'sirli qamchi — qilichdir.

Aqlli shohlar ko'pincha o'zlariga yoqmasa ham, mahoratli odamlarni yonlariga chaqirib olib, ularni mangabdor qiladilar, aksincha, yoqimli odamlarni talbirsizligi uchun o'zlaridan uzoqlashtiradilar, qalaydilar. Achchiq bo'lsa ham odam foydali dorini shadi. Ish qilishga, qilich tutishga yaraydigan qo'ning qarmog'ini agar ilon chaqsa, butun badan salomatligi uchun uni qirqib tashlaydilar.

Hu so'zlarni eshitgach, sher biroz taskin topdi. Lekin qadon birmuncha vaqt o'tgach, ho'kizning ishi yuzasidan tahqirish o'tkazdilar. Dimnaning qabih ishlari, ho'kizga tuhmat qilgani oshkor bo'ldi. Ho'kiz qasosi uchun uni sher qill qildi.

«Nima eksang shuni o'rasan». Hiyla va xiyonat taraxtining mevasi musibat va falokat bo'ladi...

Bir iflosning tuhmati bilan ikki do'stning bir-biridan ayrilgani haqidagi rivoyat shundan iboratdir.

DIMNA ISHINING TEKSHIRILISHI

Roja brahmanga dedi:

— Men sening xoin va tuhmatchi dushman haqida aytib bergan dostoningni eshitdim. U qaysi yoʻl bilan haqiqat nohaq qilgani, sherni yoʻldan chiqargani, doʻstlikni dushmanlik bilan, ahillikni adovat bilan almashtirganini bildim. Endi agar mayling boʻlsa, marhamat qilib, sher Dimnaning ishini qanday fosh etganini, Dimna oʻzini oqlash uchun qanday bahonalar keltirganini soʻzlab bersang.

Brahman dedi:

— Nohaq qon hech vaqt yerda qolmaydi. Sher hoʻkizni oʻldirgach, biroz hovuridan tushdi. Keyinchalik bu ishni shoshilinch qilib qoʻyganligidan pushaymon boʻldi. Shatraba bergan vaʼdalari va uning bilan qurgan ajoyib suhbatlari yodiga tushib vijdon azobida qiynala boshladi. Shatraba uning yaqinlari orasida eng moʻtabari edi. U doimo hayvonlardan Shatraba haqida hikoya qilib berishini iltimos qiladigan boʻldi. Bir kecha qoplon bilan soʻzlashib oʻtirib tunni yarim qildi. Qoplon ijozat olib oʻt uyiga ketdi. Yoʻli Kalila va Dimna uylari yonidan oʻtar edi. Ularning uylari yonidan oʻtib ketayotganida Kalila bilan Dimnaning gaplashayotganlarini eshitib qoldi. Qoplon sekin-asta borib quloq soldi. Kalila der edi:

— Dimna, sen zoʻr tahlikali ish qilding. Hiyla ishlatib sherning Shatrabaga bergan ahdini buzishga muvaffiq boʻlding, bu bilan sherga zoʻr xiyonat qilding. Bu jinoyating har vaqt ochilishi mumkin. Unda nima qilasan? Hech kim seni kechirmaydi, vahshiy hayvonlarning hech biri mudofaa qilmaydi, balki hammalari ittifoq boʻlib, seni qatl etishni talab etarlar. Men ham bundan keyin sen bilan qoʻshni boʻlishni istamayman, sen bilan doʻstlikdan kechaman, endi men bilan koʻrishmay qoʻyaqol. Sening qiliqlaringdan nafratlanaman. Visoling hijroningdan koʻra dahshatliroq. Olimlar debdurlarki: «Ahmoqdan qanchalik uzoq boʻlsang, boshing shunchalik salomat boʻladi...»

Dimna dedi:

— Ey azizim, o'tgan ishga salovat! Bo'lar ish bo'ldi, na'leb meni ta'na qilaverishdan foyda yo'q. Kel, eski so'zlarni qo'y, xursandchilik qilaylik, dushman yo'q bo'ldi. Maqsadga erishish uchun yo'l ochildi, orzu g'unchalarining gullash payti keldi. Men xiyonat va jinoyat rasmi emasligini o'zim ham bilaman. Lekin hasad va molu mansab ishtiyoqi, shuhratparastlik meni bu ishga majbur qildi.

Qoplon bu so'zlarni eshitib, sherning onasi yoniga bordi va dedi:

— Malika, bir sir bor, agar uni saqlashga so'z bersangiz, o'lga aytib beraman.

Sherning onasi so'z berdi. Qoplon butun eshitganlarini, Malika xijolat chekayotganini, Dimna o'z jinoyatlariga iqrorlikligini so'zlab berdi.

Ertasi kuni ertalab sherning onasi o'g'lining huzuriga keldi. Sherning juda g'amgin ekanini ko'rib so'radi:

— Ey o'g'lim, nega xayol surib o'tiribsan?

Sher javob berdi:

— Qilgan ishimdan juda xafaman. Shatrabaning menga qilgan xizmatini, ko'rsatgan sadoqatini eslaganim sari yuragim o'rtanib ketadi. U menga xayrixoh maslahatchi va samimiy bir do'st edi. Ming urinsam ham Shatrabani yodimdan chiqara olmayman, u ko'z o'ngimdan nari ketmaydi.

Sherning onasi dedi:

— Shohning yuragi Shatrabaning gunohsiz o'ldirilganligidan darak berib turganga o'xshaydi. Aftidan, bu ish ehuqur tekshirilmasdan hamda asosli dalillarga tayanmasdan amalga oshirilgan. Do'stlar orasini buzgan bir xoin o'zini do'st qilib ko'rgaza bilibdi.

Shatraba haqida uydirma afsonalar to'qib, shohni yo'ldan ozdirishga muvaffaq bo'libdi. Endi shohning aql va idroki g'azab o'tini so'ndirganga o'xshaydi. Shakshubhalar zulmati ichida aql nuridan ko'ra e'tiborli bir rahnamo bo'lmaydi. Sen aql nuri bilan haqiqatni ko'rganga o'xshaysan.

Dimna o'lgudek shuhratparast, uchiga chiqqan fitnachidir. Bu uning yurish-turishidan, gap va harakatlaridan ham ochiq ko'rinib turadi. Men uning hamisha yolg'onchi ekanligini bilardim, lekin shoh mulozamatida bo'lganligi uchun, badnom bo'lmasin, deb indamasdim.

Ayniqsa, bu keyingi hodisa to'g'risida qiziq narsalarni gapiradilar.

Shoh dedi:

— Men Shatrabani o'ldirganligim uchun o'zimni oqlashga, boshqalar oldida o'zimni haqli ko'rgazishga urindim, lekin bunga vaj topa bilmadim. O'ylaganim sari Shatrabaning gunohsiz ekanligiga qanoat hosil qila boshladim. U bechora hasad qilib, menga hujum etishgacha yetib borish darajasida aqlsiz emas edi. Men ham norozilikka, adovatga va nafratga sabab bo'ladigan bironta ish qilganim yo'q unga. Bularning hammasini o'ylaganimdan keyin shunday bir qarorga keldim: bu ishni tekshirish zarur, albatta, garchi, uni tekshirishning Shatraba uchun foydasi bo'lmasa-da, lekin haqiqat ayon bo'lsin, fitnachi jazosini tortsin va mening xalq oldida yuzim qora bo'lmasin... Rostni yolg'ondan ajratish, kim do'st, kim dushman ekanligini bilib olish juda foydalidir. Agar bu haqda biron narsa bilsang yo eshitgan bo'lsang, aytib ber.

Sherning onasi dedi:

— Eshitganman, lekin ayta olmayman. Chunki senga yaqin kimsalardan biri sirni oshkor etmaslik uchun menga ont ichirgan. Ontni buzish va sirni ma'lum qilish nomardlikdir. Olimlar ham aytibdurlarki: «Sirni birovga aytib bo'lmaydi, aytilsa, u sir bo'lmaydi».

Sher dedi:

— Odamlarning bu bobda so'zlari har xildir... Agar sir saqlash foydali bo'lsa, uning yo'li boshqa. Ammo bu sirni saqlamoq odamlar uchun zararli bo'lsa, uni fosh etmoq kerak. Xiyonatchining sirini saqlamoq unga sherk bo'lmoqdir. Balki o'sha sirni senga yetkazgan odam

ma'uliyatdan qochib, gunohini bo'ynidan soqit qilmoqchi, seni bu ishga aralashtirmoqchi bo'lgandir. Mening bu aytganlarimni nazarda tutib, agar lozim topsang, meni bu sirdan voqif qil.

Sherning onasi dedi:

— Aytganlaring to'g'ri va aqlga muvofiqdir. Lekin sirni aytdim, ikki yomon narsaga yo'l qo'ygandir bo'laman. Birinchidan, ishonib sirni aytgan zot menga dushman bo'lib qoladi, ikkinchidan, bundan keyin hech kim menga ishonmay qo'yadi.

Bher dedi:

— So'zlaringning samimiy va mantiqiylikini rad etib olmaydi. Chunki omonatga xiyonat qilish gunohdir... Doha kimsaning nomini aytmasang ham bo'ladi, hech bo'lmasa umumiy tarzda gapirib ber.

Sherning onasi dedi:

— Afv etishning fazilati, saxovatning xislati haqida olimlar nimalar degani hammaga ma'lum. Olimlar insonga afvni yetkazmaydigan va fitna-fasod qo'zg'atmaydigan afvchilar yuzasidan qilingan afvni ma'qullaganlar. Xalqqa afvni, shohga zarar yetkazadigan jinoyatchi va fitnachilarni, dushmanlarning bosh ko'tarishlariga yordam beradigan xoinlarni afv etish to'g'ri emas. Bunday hollarda qasom va qasos joizdir... Seni bu baloga duchor qilgan dimna yolg'onchi, fitnachi va xoinidir.

Bher dedi:

— Ona, meni yolg'iz qo'y, bu haqda o'ylab olay.

Sherning onasi uyiga ketdi. Sher o'ylab cho'ndi. Biroz vaqt o'tgach, askarboshilarni, sarkardalarni va onasini chaqirtirdi. Dimnani keltirishlarini buyurdi. Dimna ichkari bo'lganda sher qovog'ini solib, yuzini teskari qilib o'tirib oldi. Dimna darhol baloning eshigi ochilganini, chora yo'li ochilganini tushundi. So'ngra o'z do'stlarining biridan shivirlab so'radi:

— Nima bo'ldi? Shoh nega g'amgin ko'rinadi? Sizlarni bu yerga to'plashining boisi nimadir?

Sherning onasi dedi:

— Sening qilgan ishlaring sherni o'yg'a solib qo'ydi. Xiyonating ochildi. Sherning sadoqatli maslahatchisi ustidan qilgan tuhmat va bo'htonlaring oshkor bo'ldi.

Dimna dedi:

— Dunyo hodisalari haqida ota-bobolarimiz aytgan va bizga ma'lum bo'lmagan hikmatli so'zlar yo'q. Aytibdurlarki, ishi yurishmagan odam qanchalik bo'lmasin, qanchalik chuqur fikr qilib o'zini falokat qutqarmoqqa harakat etmasin, baribir, balo girdobga tushadi. Shohlarga xizmat qilib, salomat qolishni o'rgan qilmoq, niyati buzuq fitnachi odamlar nasihatini saqlash kaliti deb hisoblamoq — suv yuziga xat yozish bilan barobardir. Shoh huzurida to'g'ri so'zlagan odamni qo'rquvi ham ko'p bo'ladi, chunki shohning do'stlari ham dushmanlari ham bunday odamning raqibiga aylanadilar. Shuning uchun haqiqatni bilgan odamlar vafot dunyodan yuz o'girib, uning ayshu ishratidan, kayfiy safosidan qo'l tortadilar, tanholikni odamlar bilan birga bo'lishdan, xoliqqa ibodat qilishni maxluqqa xizmat qilishdan yuqori qo'yadilar, chunki ibodatda adolatsizlik ka yo'l qo'yilmaydi... Insonlarning qiladigan ishlari esa aksinchadir: ular hamma narsani bir-biriga aralashtirib qorishtirib yuboradilar. Ba'zan noloyiq xizmatchilarni samimiy deb ko'klarga ko'taradilar, ba'zan esa sodiq va xayrixoh odamlarni jazolaydilar. Insonlar yanglishadilar, ular savob bilan gunohni farq qilmaydilar. Tadbirlar haqiqatga yaqin bo'lgan, ehtiyot uchun nohaq qo'l to'kmaydigan shoh yaxshi va saodatlidir. O'z xizmatida bo'lgan odamlar bilan to'g'riligi va samimiyligiga qarab muomala qilish shohlarning eng yaxshi xosiyatlaridandir. Shohning o'zi yaxshi biladi va bu yerda o'tirganlar haqini tasdiqlashi mumkinki, men bilan ho'kizning orasida bunday baxtsizlikka sabab bo'ladigan kelishmovchilik va adovat yo'q edi. Shatraba men hasad qiladigan vazifada emasdi, ayni zamonda, u mening nafratimga sabab bo'ladigan biron ish ham qilmadi. Men eshitganlarimni shohga yetkazib uni ogohlantirdim, bu bilan shohning

ini oqlab, o'z burchimni ado etdim. Shoh mening kelgim to'g'riligini, niyatim yaxshi ekanligini sinab ko'rib, o'z aqli va irodasi bilan bu ishni qildi. Endi bir qancha jinachi va xoinlar, shohning dushmanlari mening bu samimiyligimdan tashvish va sarosimaga tushib, jonimga qo'l qilmoqdalar... Har holda, men tirik qolsam, shohning ixtiyari buziladi deb gumon qilmayman va shoh xizmatlarim evaziga meni o'ldirtiradi, deb o'ylamayman.

Dimnaning so'zlarini tinglab sher dedi:

— Ishini tekshirib, haqiqatni barqaror qilish uchun Dimnani qoziga topshirmoq kerak. Chunki, masalani tamomila oydinlashtirmasdan, gunohni isbotlamasdan, ehtimolni haqiqat deb hisoblab hukm chiqarish adolat va insofdan emas.

Dimna dedi:

— Qaysi bir adolatli va vijdonli qozi aql va farosatda, adolatda podshohdan ham yuqori bo'la oladi? Shubhalarni bartaraf etmoq va haqiqatni yuzaga chiqarmoq uchun jiddiy tekshirish o'tkazish eng to'g'ri yo'ldir. Aminmanki, agar tekshirish to'g'ri o'tkazilsa, sodiqligim aniqlanadi, shoh g'azabidan qutulaman... Kohishim shuki, mening ishimni jiddiy tekshirishni amr etsangiz. Chunki astoydil harakat qilinmasa, toshdan o't chiqarib bo'lmaydi. Agar menda biron gunoh bor bo'lsa, ishimni bu darajada jiddiy tekshirishni talab qilmasdim. Ishonchim komilki, natijada, naqadar sodiq ekanligim ayon bo'ladi. Sassiqlik yoki xushbo'y narsaning hidi har tarafga tez tarqaladi. Mening kichkina bir gunohim bo'lsaydi, fursat borida qochib ketardim, shoh xizmatida qolib bu baloni kutib o'tirmasdim. Ishim adolat bilan tekshiriladi, bunda g'arazga yo'l qo'yilmaydi, deb umid qilaman. Tekshirishning ketishi haqida shohga har kuni ma'lumot berib turilishini iltimos qilaman. Shoh gulabalar ko'zgusi, zafarlar oynasi, dunyoning bezagi bo'lgan o'z aqli tarozisida ularni o'lchab ko'rsin. Shunda ho'kizning o'ldirilishida hech bir gunohim yo'qligi oydinlashadi...

Axir men nima uchun shunday bir xiyonat qilishim kerak edi? Men yuksak mavqe va mansab egani emasman, undan ham yuqori mavqe va darajani havas qilсам. Men shoh xizmatida bo'lib, uning adolati va saxovati soyasida hamisha bir parcha nonga qornim to'q edi, nega endi unga qarshi bosh ko'tarayin? Garchi, men shohning quli bo'lsam ham, meni u o'z adolatidan bebahra qiladi, deb o'ylamayman.

O'sha yerdagilardan biri dedi:

— Dimna bu so'zlarni hoqonning ulug'ligini ko'rsatish uchun emas, balki baloni o'zidan daf qilish uchun gapiryapti.

Dimna dedi:

— Mening qalbimni mendan yaxshi kim biladi? O'z foydasini har kim o'zi biladi. Zarur bo'lgan paytda har kim o'z haqqini himoya etmasa, birov uni himoya qilarmidi? Sening bu so'zlaring aqling kamligidan va nodonligingdan dalolat berib turibdi. Shoh sening gaping quruq tuhmat ekanligini tushunmayapti deb o'ylama. Shoh biroz diqqat qilsa, bu so'zlarni nima maqsadda gapirayotganingni tushunib oladi, xayrixohlikni badxohlikdan, yaxshilikni yomonlikdan ajratib oladi. Shohning aql va zakosi bir umrlik ishni bir kechada bajarishga qodir, bir boqish va nazar tashlash bilan oq katta bir qo'shinni o'ziga tobe eta oladi.

Shering onasi dedi:

— Har doim makr va hiyla ishlatib kelgan, jinoyat va xiyonatni o'z hunari deb bilgan xoinning endi pand-nasihat qilayotganiga g'oyat taajjub qilaman. Ey munofiq! Sen hamon makr va hiyla bilan o'zingni qutqarmoqchisan.

Dimna dedi:

— Yaxshini yomondan, foydani zarardan ajratib oladigan odam ko'rib turibdiki, men va'daga vafo qilib o'z burchimni sadoqat bilan ado etdim. Shohning o'zi yaxshi biladiki, hech bir xoin uning oldida biron so'z aytishga jur'at qila olmaydi. Endi shoh menga adolatsizlik qilsa, zarari o'ziga ham tegadi.

Kimki ishni shoshib qilsa, zararli narsa bilan foydali narsaning farqiga bormasa, u o'z do'stini xizmatkoridan ajrata olmay qolgan xotin vaziyatiga tushadi.

Sher so'radi:

— Xotinga nima bo'пти?

Dimnaning hikoyati

Aytibdurlarki, Kashmir viloyatida Jamiz otli bir savdogarning oy yuzli, sunbul sochli bir xotini bor edi. Bu xotin shu qadar go'zal ediki, hali falak ko'zi bunday jamolni ko'rmagan, hatto inson xayoli ham bunaqa go'zalni tasavvur etmagan edi. Ularga mohir bir rassom qo'lni edi. U bilan savdogar xotini oshiq va ma'shuq edilar.

Bir kuni xotin unga dedi:

— Sen hamisha goh ovoz berib, goh tosh otib ketganingni bildirib, odamlarda shubha uyg'otasan. Endi ketganingni bildirish uchun boshqa bir yo'l top.

Rassom dedi:

— Men ikki rangli chodir tiktiraman. Bir tarafining qoraligi oy yog'dusidek, ikkinchi tarafining qoraligi oydinsiz qorong'i kechadek. Sen uni ko'rishing bilan darhol chiqib jonimga kelasan.

Savdogarning xizmatkori bu so'zlarni devor orqasida eshitib turgan edi. Bir necha kundan keyin chodir bitdi. Rassom bir ish bilan ko'chaga chiqib ketganda xizmatkor chodirni rassom kanizidan so'rab olib yopindi-da, otinning yoniga ketdi. Rassomning kanizi uning mahbubi edi. Savdogarning xotini bilmasdan shoshilib oshiqdi, xizmatkor murodini hosil qilib chiqib ketdi va chodirni o'z joyiga qo'ydi. Sal vaqt o'tmay rassom uyiga keldi. Ma'shuqasini sog'inib, chodirni yopinganicha savdogarning uyiga keldi. Xotin yana yugurib chiqdi va dedi:

— Xayrli bo'lsin ey azizim, ketganingga bir soat bo'lmay, yana keldingmi?

Rassom masalani darrov tushundi. Uyiga qaytib kelgan kanizining adabini berdi, chodirga o't qo'ydi.

Men bu masalni shuning uchun keltirdimki, hoga shoshib mening masalamda noto'g'ri hukm chiqarib bersinlar. Men bu so'zlarni azob berishlaridan tashvishlanmay yotganim yoki o'limdan qo'rqqanim uchun aytayotganim yo'q. Chunki o'limdan qutulib bo'lmaydi. Ertami-kechmi baribir u boshingga keladi.

Agar mening bir emas, ming jonim bo'lsa ham ularga shoh uchun qurbon qilishga tayyorman, hammasini kechib ikki dunyoning rohatiga ega bo'lgan bo'laman. Lekin shoh ishning oqibatini o'ylab, ehtiyot bilan harakat qilishi kerak. Chunki u raiyatsiz yashay olmaydi. Tuhung gapga ishonib, layoqatli mulozimlarni halok etishning zarari ko'pdir, do'stlaringni o'ldirsang, yakkalanib qolasan. Layoqatli mansabdorlar va ishbilarmon qullar hamisha topilavermaydi. Sadoqatli, ishbilarmon odamlarni yetishtirish unchalik oson emas... Bir toshning oftob tobi bilan la'lga aylanishi uchun ozmuncha yillar kerakmi?

Sherning onasi qarasa, Dimnaning so'zlari sekin-sekin o'tirganlarga ta'sir qilyapti. U shoh Dimnaning uchi yaltiroq, ichi qaltiroq dalillar va bahonalariga inonib u jazolashdan voz kechib o'tirmasin, deb qo'rqdi. Chunki Dimna so'zlashda mohir, tilyog'lamalikda usta edi. Shuning uchun ham sherga qarab dedi:

— Xomush o'tirishingdan dushmanning gaplariga ishonayotganga o'xshaysan? «Sukut — alomati rizo», deyдилar.

Sherning onasi shuni deb g'azab bilan o'rnidan turib chiqib ketdi. Sher, qozilar ishni tekshirib hukm chiqargunlaricha Dimnani zindonga solishni buyurdi.

Shundan keyin sherning onasi o'g'lini xilvatga chaqirib dedi:

— Men Dimnaning nihoyatda hiylakor ekanligini ilgari juda ko'p eshitgan edim. Lekin uncha ishonmas edim. Endilikda esa uning yolg'onni to'qishga, bahona topishga chechanligini ko'rib shubhalarim tarqaldi.

Agar hoqon gapirishga ozgina fursat bersa, u o'zini shabdan qutqarib olardi. Bu qallobni tezlik bilan yo'q qilish kerak, unga muhlat berib bo'lmaydi.

Ahmed dedi:

Nhohlar saroyiga yaqin odamlarning ishi hamisha qiyinchiliksizdir. Ular bir-birlarini ko'rolmaydilar, bir-biriga hasad qiladilar. Hasad shunday o'tdirki, agar hasadchi, ho'lu quruq barobar yonadi. Hasadning oqibati shundayki, bir-birini ko'rarga ko'zi bo'lmagan uch kishi hasadidagidek, hasadchi o'ziga ham yaxshilikni ravo ko'rmay qo'yadi.

Ahmedning onasi so'radi:

— Uch hasadchi nima qilishibdi?

Ahmed dedi:

— Aytadilarki, uch kishi bir-biriga hamroh bo'lib yulga chiqqan edi. Yoshi ulug'i qolgan ikkisiga dedi:

— Siz nima sababli o'z vatanlaringiz rohatidan kechib, bu qiyinchiliklarini ixtiyor etdingiz?

Uch kishi dedi:

— Men bir joyda yashar edim. Ishi yurishgan odamlarga hasad qilib, ularni hech ko'ra olmas edim. O'ylab-o'ylab ko'rib, oz vaqtga bo'lsa ham vatandan chiqib ketsam, ko'rmay qo'ya qolsam, degan fikrga keldim.

Ikkinchisi dedi:

— Men ham shu sababdan musofirlikni ixtiyor etdim. Yoshi ulug' sayyoh ham shu sababdan dashtga chiqib ketganini aytib berdi.

Uchala hasadchi topishganlaridan xursand bo'lib yulga ravona bo'ldilar. Bir kuni biyobonda yo'ldan bir to'ng'ay oltin topib oldilar. Hamjihatlik bilan oltinni bo'lib yulga qaror qildilar. Lekin har birining hasad olovi yonib, hasadchining oladigan ulushiga ko'z olaytira boshladi. Shunday qilib, bir kecha-yu bir kunduz jazirama biyobonda och, tashna va uyqusiz holda janjal qildilar. Uchinchi kun shu yerning podshohi ovga chiqqan edi, hasadchilari bilan o'sha yerdan o'tib qoldi. Podsho uch

hasadchini ko'rib ahvol so'radi. Ular bor gapni aytilib berdilar:

— Biz uchovimiz ham hasad o'tida kuyib-yonamiz, shu sababdan vatandan judo bo'lib edik. Mana endi topib olgan oltinlarni taqsimlashda o'rtamizda nizo chiqdi. Bu oltinni taqsimlab berishga qodir bir odamga muhtoj bo'lib turganimizda, mana shohning o'zlari g'oyibdan kelib qoldilar.

Podsho dedi:

— Har biringiz o'zlaringizning qay darajada hasadchan ekanligingizni so'zlab bering, hasadingiz darajasiga qarab oltinni taqsimlab beraman.

Biri dedi:

— Mening hasadim shu darajada kuchliki, hech vaqt ehson va shafqat qilishni va biron kishining xushvoh bo'lishini xohlamayman.

Ikkinchisi dedi:

— Senda hasadning o'zi yo'q ekan. Men esa birov birovga o'z molidan ehson qilsa, jonim chiqib ketadi.

Uchinchisi dedi:

— Siz ikkovingiz ham hasaddan va havasdan bebahor ekansiz. Men birovga yaxshilik qilsa, o'zgalarga ham yaxshilik qilar ekan, deb kuyib ketaman.

Podsho bularning ichi qoraligiga hayron qolib dedi:

— So'zlaringizga qaraganda, bu oltin sizlarga harom. Sizlarning har biringizga loyiq azob-uqubat lozimdir. Birovga bir narsa ehson qilishni xohlamaganning jazosi shuki, uni badnom qilib, dunyo ne'matlaridan mahrum etish kerak. Birovga birov ehson qilganini ko'ra olmagan odamni o'ldirib, undan qutulgan yaxshi. O'zgaga ham o'ziga ham hasad qiluvchi odamni dunyodagi barcha azob turlari bilan qiynab o'ldirish kerak.

Shoh buyrug'iga binoan birinchi hasadchining boshini yerga qilib osdilar. Ikkinchisining boshini kesdilar. Uchinchisining esa badaniga zahar surtib oftobga qo'ydilar. Shunday qilib, hasad uch kishini jazoga giriftor qildi. Hasad davosiz darddir. Hasadchi hamisha birovning shodligidan g'amnok, rohatidan alamnok bo'ladi.

Hasad shunday yomon xususiyatki, uning kasridan odam o'ziga ham yaxshilikni ravo ko'ra olmay qoladi. Shohlar saroyiga yaqin odamlarning ishi ig'vo, hasad, adovat, haqiqinchilik va bir-birini yomonlashdan iboratdir. Kechakunduz ular bir-birlarining payiga tushib, bir-birlarini ayibat qiladi. Kim iste'dodli bo'lsa, uning haqida shuncha ko'p mish-mishlar to'qiydilar... Balki Dimnaning mavqei va unga yaqinligi saroydagilarga yoqmas. Bilmadim, hammalarining Dimna haqida til biriktirganday bir xil so'z aytishlari menga xayrixohligidanmi yoki Dimnaga bo'lgan adovat va nafratdanmi? Men haqiqatni yuzaga chiqarmagunimcha uni o'ldirishni o'zimga ravo ko'ra olmayman, chunki hissiyot va nafsoniyatga berilish aql va hamolot oynasiga dog' tushiradi va to'g'ri qaror chiqarishga моне bo'ladi. Agar hunar egalarini va ishbilarmon odamlarni yolg'iz shubha va gumonga asoslanib xoin hisoblab o'ldirsam, balki yuragim taskin topar, lekin menga ham, mamlakatga ham buning zarari katta.

Dimnani zindonga tashlab, oyoqlariga og'ir kishan soldi. Kalilaning eski do'stiga rahmi kelib, kech kirishi bilan Dimna yoniga keldi. Dimnaning ahvolini ko'rib, ko'zlaridan qonli yoshlar oqizdi va dedi:

— Ey birodar! Seni bunday musibat va azobda ko'rib qanday chiday olaman. Sensiz yashashning men uchun ma'nosi yo'qdir, endi men kim bilan birga ulfatchilik qilib, kim bilan o'ynab-kulaman? Shodligim va g'amlarimni kim bilan baham ko'raman?

Endi ish borib shu darajaga yetganda, men senga nima aytaman ham arziydi, chunki men bularning hammasini oldindan ko'rgan, shuning uchun senga nasihat qilib, ko'zingni ochishga harakat qilgan edim. Lekin sen o'zlarimga quloq bermasding. Agar ilgari senga nasihat qilmagan, ogohlantirmagan bo'lsam, bugun sening o'lyonatingga sherik bo'lib o'tirar edim. Lekin sening orttaliging, takabburliging aqlingdan, bilimingdan ustunlik qildi. Men senga olimlar tomonidan aytilgan, «xoin o'z vaqtidan oldin o'ladi», degan masalni eslatib o'tgan edim.

Bu bilan olimlar insonning o'ldirilishini emas, sening tortayotgan azob-uqubatlaringni, hozirgi ahvoldingni nazarda tutganlar, bu — o'limdan ham og'irdir. Har holda bu ahvolda yashashdan ko'ra o'lim afzal. «Tilning saqlasang, boshing omon qoladi», deb juda to'g'ri aytganlar.

*Til bo'lsaydi o'z qalbining sirdoshi,
Kesilmasdi til egasining boshi.*

Dimna dedi:

— Ey birodar, sen hamisha haq so'zni aytar va to'g'ri maslahatlar berar eding. Lekin hasad, mansab orzusi aqlimni oldi, nasihatlaringni ko'z oldimda beqadr qildi. Bu ishning zarari bag'oyat va xatari benihoya ekaniga aqlim yetar edi, lekin nafsini tiya olmay sog'lig'iga zararli taomni yegan kasal kabi o'zimni yenga olmadim. Bilaman, bu bali urug'ini o'zim sepdim. Kim nima eksa, shuni o'radi. Inson o'zi ekan daraxtning zaharli ekanini mevasini o'ziga yedirganlaridan keyin biladi. Ko'rib turibmanki, mening ham qilgan ishlarim hosilini yig'ish va aytgan so'zlarning jazosini tortish vaqti keldi. Lekin do'stim bo'lganing uchun senga ham ozor berishlari mumkinligi meni tashvishga solyapti. Agar eskitdan do'st-sirdosh ekanimizni nazarda tutib, seni guvohlikka chaqirsalar va sen, xudda ko'rsatmasin, rostgo'yliking tufayli barcha bo'lgan gaplarni aytib bersang, u vaqt men ikki hissa og'ir azob chekaman. Unda sen uchun ham, men uchun ham najot yo'li berkilgan bo'ladi, chunki sen mening ishlarimni bilib yurarding. Sen boshqalar to'g'risida shahodat bersang ham hech kimni shak-shubha uyg'onmaydi, shunday samimiy do'st bo'laturib men haqimda aytgan so'zlaring inobatli bo'ladi. Endi mening qay ahvolda ekanligimni o'zing ko'rib turibsan. Muruvvat va marhamat payti, gunohlarni kechirish vaqti yetdi.

Kalila dedi:

— Nima demoqchi bo'lganligingni angladim. Olimlar debdilarki, har kim ham azobga bardosh berolmaydi.

kulfatga tushgan odam jonini azobdan qutqarish uchun yolg'onmi, rostmi, haqmi, nohaqmi, og'ziga kelganini qaytarmaydi. Men senga hozirgi vaziyatda najot yo'lini ko'rsata olmayman. Eng yaxshisi shuki, gunohingni bo'yningga ol va bo'lgan ishni e'tirof qilib uzr so'ra. Bunday qilsang hech bo'lmaganda narigi dunyo azobidan qutulib qolasan. Chunki baribir, seni qilgan ishing uchun o'ldiradilar.

Dimna dedi:

— Men bu haqda o'ylab ko'ray, biror qarorga kelsam, senga aytarman.

Kalila bu suhbatdan yuragi siqilib, parishon holda uyiga qaytdi. Ketma-ket ro'y berishi mumkin bo'lgan musibat va balolarni ko'z o'ngiga keltirdi, g'amdan ko'rpat-to'shak qilib yotib oldi, biroq o'rnida ilon chiqqandek to'lg'ana boshladi. Nihoyat, kechga borib qorni shishib ketdi, tong otmay, nafasi bo'g'ilib jon taslim qildi.

Kalila bilan Dimna zindonda gaplashayotgan paytda bir vahshiy hayvon ular yaqinida biqinib yotib, butun gaplarni eshitib olgan edi... Ertasiga u sherning onasi yoniga kelib hammasini aytib berdi. Sherning onasi dedi:

— Xoin odamlarni kechirish, sodiq odamlarni o'ldirish demakdir. Fitnachi va riyokor odamlarni salomat qoldirish, ularning ishiga sherik bo'lish, demakdir.

Sher qoziga Dimnaning ishini tezlatishni, uni biladiganlarni so'roq qilib, eshitganlarini har kuni shohga xabar qilib turishni buyurdi.

Ertasiga hamma qozilar to'plandilar, jar solib jamoatni ham yig'dilar. Qozining vakili jamoatga yuzlanib baland ovoz bilan dedi:

— Shoh Dimnaning ishi tezlikda tekshirilib haqiqatni aniqlashni, shubhalarni bartaraf qilib, Dimna ustidan hukm chiqarishni amr qildi. Lekin, shoh bu hukm juda odil bo'lishi kerakligini, buning uchun Dimnani taniganlar uning yaxshi-yomon ishlarini chiqib gapirishlari lozimligini uqtirib o'tdi. Toinki, xun nohaq ketmasin!

Qozi vakili so'zini tugatdi. Hamma sukutga ketdi. Hech kim chiqib gapirishga botinmas edi. Chunki o'tirganlar uchun bu masala ancha qorong'i edi. Ular tasmollab hech narsa deyishni va shu tufayli behuda qon to'kilishni xohlamasdilar.

Bu holni ko'rib Dimnaga jon kirdi va jamoatga qarab dedi:

— Agar gunohkor bo'lsaydim, sizning indamasligingizga sevinar edim. Lekin, men begunohman. Gunohkor bo'lmagan odam haqida hech kim yomon so'z aytishi mumkin emas. Har biringiz mening to'g'rimda nimani bilsangiz gapiring. Lekin esingizda tutingki, har bir so'zning bu dunyoda ham, u dunyoda ham o'ziga yarasha mukofoti bor. Og'zingizdan chiqqan har bir so'z bir odamga hayot bag'ishlashga va yoki bir insonni yo'q qilishga yuborishga qodir. Haqiqatni bilmasdan, yolg'iz gumon va taxminga asoslanib guvohlik beradigan va bu bilan mehmonni halok qiladigan odam tabobat ilmini bilmay tabiblik da'vasini qilgan kishi kuniga tushadi.

Qozilar so'radilar:

— U qanday bo'lgan edi?

Dimnaning hikoyati

Rivoyat qilibdurlarki, bir shaharda tajribali, bemorlarga to'g'ri va foydali maslahat beradigan, aqlli, xizrnafas bir tabib yashar edi. Bu hakim xasta bo'lib, insonning eng qimmatli ne'mati bo'lgan ko'zidan ajralib, ko'rib bo'lib qoldi. Shundan foydalanib, bir hayosiz nodon odam o'zini tabib qilib ko'rsatib, nom chiqara boshladi.

Ushbu shahar podshohining bir qizi bor edi. Shoh uni o'z akasining o'g'liga uzatgan edi. U homilador bo'lib tug'ish vaqti yaqinlashganda og'ir kasal bo'lib qoldi. Shoh tajriba va muolajada shuhrat topgan ko'rib bo'lib tabibni chaqirtirib keldi. U ayolning kasalini so'rab-surishtirgach, dardini darhol topdi, unga «zamahron» dorisidan bir misqolini toza mushk va dolchinga qo'shib ichirishni

buyurdi. Unga dorini tayyorlashni taklif qilganlarida, u
—

— Mening ko'zlarim ko'rmaydi, o'zlaringiz tayyorlar-
salar.

— Bu orada nodon «tabib» kelib qolib, gapga aralashdi:

— Bu mening ishim, men tayyorlay olaman, — dedi.

— Hoh uni o'z yoniga chaqirib, turli giyohlar saqlanadi-
gan konaga kirib dorini tayyorlashni buyurdi. U ilmsiz
va nodon odam darrov o'sha xonaga kirib, hech narsa
bilmagani holda ishga kirishdi: zahar solingan bir idishni
oldi, unga dorilarni aralashtirdi va olib chiqib ayolga berdi.
Hohning qizi uni ichishi bilanoq jon berdi. Podsho
qarablanib o'sha doridan qolganini nodon hakimga
oldirdi, uning butun a'zoyi badani ko'm-ko'k bo'lib, shu
yoning o'zida qotib qoldi.

Bu masalni shuning uchun keltirdimki, masaladan
sahardor bo'lmay so'z aytganning, bilmagan ishga
kirishganning anvoli shunday bo'ladi.

O'tirganlardan biri dedi:

— Jinoyatini avom xalqdan so'rab-surishtirib o'tirishga
ehtiyoj bo'lmagan, razilligi va riyokorligi a'yonu ashrafga
aydek ravshan bo'lgan badbaxt Dimna o'limga sazovordir.
Dimnaning lo'ttibozligi, qalbining qoraligi, uning yuzidagi
alamatlaridan ham ko'rinib turibdi.

Qozi dedi:

— Qaysi alomatlardan, ularni aytib ber, xalqqa ham
ma'lum bo'lsin.

U shaxs dedi:

— Olimlar debdurlarki, kimning qoshlari oralig'i uzoq
bo'lsa, o'ng ko'zi chap ko'zidan kichikroq bo'lsa va tez-tez
yumib ochsa, burni chap tomonga biroz qiyshaygan bo'lsa
va uchida uchta tuk bo'lsa, o'zi hamisha yerga qarasa,
unday odamga fisq-fasod hamroh, hiyla va makr
yo'ldoshdir. Bu alomatlarning hammasi Dimnada bordir.

Dimna dedi:

— Ollohning hukmi haqdir, unda sahv-xato bo'lishi
mumkin emas. Agar sen sanab chiqqan alomatlar

haqiqatning mezoni, adolatning o'lchovi bo'lsa va yolg'iz shularga asoslanib to'g'rini yolg'ondan, haqni nohaqdan ajratish mumkin bo'lsa, u vaqtda hech bir kimsani hech qanday mas'uliyatga tortib bo'lmaydi. Na yaxshiligi uchun unga mukofot berib bo'ladi va na yomonligi uchun jazo. Chunki xudo tomonidan yaratilgan bu xususiyatlarni hech kim yo'q qilish qudratiga ega emasdir... Agar menga tuhmat yuzasidan to'ng'algan bu ishni qilgan bo'lsam (xudo saqlasin), demak, meni bunga shu alomatlar majbur etibdi. Bu alomatlarni xudo yaratganligi tufayli men ularni yo'q qilishga qodir emasman, binobarin, jazoga ham sazovor emasman... Gar shunday ekan, qanday qilib sizlar meni bu alomatlarga asoslanib baloga duchor qila olasizlar? (Sizlar bu bilan xudoni gunohkor hisoblagan bo'lasizlar-ku!) Sen bu bema'ni so'zlaring bilan o'z nodonligingni va omiligingni hammaga ayon qilding. Sen o'zing bilmagan ishingga aralashib yuribsan, og'zingdan chiqqan gapning ma'nosiga tushunmaysan.

Dimnaning bu so'zlaridan keyin hamma og'ziga tolqon solgandek jim bo'lib qoldi, hech kim biron narsa deyishga jur'at eta olmadi.

Qozining buyrug'i bilan Dimnani zindonga olib ketdilar.

Dimna zindonga kelgan edi hamki, Kalilaning Ruzbeh otli do'sti Kalilaning o'lganini unga xabar qildi. Dimna buni eshitgach, yuragi g'am-g'ussaga to'ldi, oh chekib, ko'zlaridan seldek yosh to'kdi va marsiya o'rnida shu she'rni o'qidi:

*Hiyla-nayrang ojizdir o'limning qarshisida,
Hech qutqargan bo'lganmi yoqasini ajaldan?!
Agarda o'lmak uchun tug'ilgan bo'lsa inson,
Yana yaxshi bo'lardi, tug'ilmasa azaldan.*

Dimnaning bu so'zlarini eshitib, o'sha yerda hozir bo'lganlar qonli ko'z yoshlarini oqizib, unga tasalli bera boshladilar.

Dimna dedi:

— Alvido, Kalila! Boshimga og‘ir kunlar kelganda, baxtsiz hodisalar ro‘y berganda u mening hamdardim, maslahatdoshim, panohim edi. U do‘stlarning sirlarini soqlovchi xazina edi. Falak ham bu sirlarni aytishga uni majbur etolmasdi. Endi men uchun tiriklikning n i m a lazzati bor?! Ruzbeh, agar boshimga tushgan bu musibatli kunda sen bu yerga kelib do‘stlik qo‘lini menga uzatmaganingda edi, dod-faryod qilib o‘zimni o‘ldirar edim... Endi sen Kalila o‘rniga menga birodarsan. Sendan boshqa hech kimim yo‘q. Qo‘lingni ber, do‘st bo‘laylik.

Ruzbeh juda xursand bo‘lib dedi:

— Sening bu iltifotingdan ko‘p minnatdorman. Do‘stlik qo‘ldirini bilganlar sen bilan hamsuhbat va sirdosh bo‘lishni o‘zlariga sharaf deb hisoblaydilar. Koshki, men biron lahingga yarab, senga yordam ko‘rsatolsam.

Ular bir-birlarining qo‘llarini siqib do‘st bo‘lishga ont oldilar. So‘ngra Dimna dedi:

— Falon joyda xazina yashirib qo‘yganmiz. Kalila bilan ikkimizniki edi, olib kel, sen ham quruq qolmayсан.

Ruzbeh xazinani olib keldi. Dimna o‘z hissasini oldi, Kalilaning hissasini Ruzbehga berdi va hamisha shohning yonida bo‘lib, uning haqida nimaiki desalar, kelib aytib berishni iltimos qildi.

Ruzbeh uning taklifini mamnunlik bilan qabul qildi.

Ertasi kuni bosh qozi yig‘ilishda bo‘lgan voqealarni shohga aytib berdi. Sher unga javob berib yuborgach, onasini o‘z yoniga chaqirtirdi. Onasi bo‘lgan voqealarni sahitgandan keyin juda bezovta bo‘lib qoldi.

— Senga qattiq gapirib, xafa qilib qo‘yamanmi, deb qo‘rqaman. Lekin o‘ylaganlarimni aytmasam, shohga aytonat qilgan, uni o‘z maslahatim va nasihatimdan bebahra etgan bo‘laman.

Sher dedi:

— Maslahat berilishi kerak bo‘lgan vaqtda qo‘rqish yaxshi emas. Sening aytadiganlaring beg‘arazdir. Nima desang, qabul etaman. So‘zlayver.

Sherning onasi dedi:

— Shoh yolg'onni rostdan, foydani zarardan ajrata olmayapti. Dimna o'ziga berilgan fursatdan foydalanib, shunday fitna uyushtirishi mumkinki, shohning aqli uning oldida ojiz qoladi. Har qanday o'tkir qilich ham bu fitna to'rini kesolmay qoladi... — Shu so'zlarni aytdi-da sherning onasi jahl bilan o'rnidan turib ketdi.

Ertasi kun Dimnani keltirdilar, jamoat yig'ildi, qozilar to'plandi va majlis boshlandi. Qozixona vakili Dimna haqidagi aybnomani o'qidi.

O'tirganlar biron so'z aytmaganlaridan keyin bosh qoz Dimnaga qarab dedi:

— Bu yerga yig'ilganlar indamay o'tirgan bo'lsalar-da, ko'ngillarida sening xoinligingga amindurlar. Shu ahvolda jamoa o'rtasida yashamog'ingdan nima foyda bor? Endi sen uchun eng to'g'ri yo'l — gunohingni bo'yingga olib tavba qilish va shu bilan u dunyo azobidan o'zingni saqlab qolishdir. Xiyonatni e'tirof etsang, u dunyoga yorug' yul bilan borgan bo'lasan. Rost, sen so'roq vaqtida o'zingni himoya qilish uchun dalillar keltirishga ustasan, lekin shuni bilginki, rasvo bo'lib yashamoqdan, mardlik bilan o'lmoq yaxshidir.

Dimna dedi:

— Qozi aniq dalillarga ega bo'lmagan holda, o'z ehtimoli va o'zgalar gumoniga ko'ra hukm chiqarmoqchi. Bu katta xatodir. Agar sizlarda shubha bor bo'lsa-yu, meni gunohkor degan qarorga kelgan bo'lsangiz, bu hali men haqiqatan ham gunohkor ekanligimni bildirmaydi. Men o'zimni, nima qilgan, nima qilmaganimni yaxshi bilaman. O'zing bilgan haqiqatni boshqalarning gumoni uchun qurbon qilish aqlsizlikdir, bunga qonun ham, shariat ham yo'l qo'ymaydi. Siz meni tuhmatchi, gunohkor deb gumon qilib, shuncha shovqin ko'taryapsizlar-u hech gunoh ish qilmagan men indamay o'tiraveraymi? Holbuki, mening nazarimda, hech kimning o'zimchalik qadri yo'qdir, insonning o'z jonidan ham aziz narsasi bo'larmi? Mening vijdonim hatto hech qanday qimmatga ega bo'lmagan odamga ham o'limni ravo ko'rmaydi-yu, uni o'zimga ravo

ko'ramanmi?! Ey qozi, bu da'volaringdan kech, agar e'tibor qilmog'chi bo'lsang, uning yo'li boshqa. Avvallari odil eding, to'g'ri so'z eding, endi esa mening baxtim qaroligidanmi yoki shaxsiy g'arazdanmi, bilmadim, bu ahdda yanglish yo'l tutib, masalani bir taraflama hal etmoq, o'zingning shaxsiy gumoningga asoslanib noto'g'ri hukm va nohaq qaror chiqarmoq fikriga tushib qolibsang... Kimki bilmagan ishi yuzasidan guvohlik bersang, qarchig'ayning baxtiga tushgan narsa uning ham boshiga tushadi.

Qozi dedi:

— Uning boshiga nima ish tushibdi?

Dimnaning navbatdagi hikoyati

Aytadilarki, bir mashhur va ma'ruf marzbon¹ bor edi. Uning Bahoriya degan oy yuzli, gul yonoqli, nomusli va iftodalik bir xotini bor edi... Shu kishining bir qarchig'aychisi bor edi. U juda hayosiz va nopok odam edi. Bir kuni bu xotinning ko'zi marzbonning xotiniga tushib qoldi. Unga yetishish orzusida ko'p harakatlar qildi, hech bir ish chiqara olmadi. Umidi uzilgandan keyin, u xotinni bebro'qlash va shu yo'l bilan undan qasos olish fikriga tushdi. Bir ovchidan ikkita to'tiqush oldi va ularning biriga balx tilida: «Men darvozabonning xonim bilan bir uyda yotganini ko'rdim», degan jumalani, ikkinchisiga esa, «Men endi hech narsa aytmayman», degan jumalani o'rgata boshladi. Yetti oy ichida to'tilar bu gaplarni takrorlab aytadigan bo'ldilar. Bir kuni marzbon o'z do'stlari bilan ulfatlashib sharob ichib o'tirganlarida, qarchig'aychisi ikki to'tini olib kelib ularning oldiga qo'ydi. To'tilar o'rganib olgan ikki jumalani takror aytar edilar. Marzbon balx tilini bilmagani uchun to'tilarning gapini tushunmadi, lekin qushlarning ovozi yoqib qoldi — parvarish qilib tur, deb ularni xotiniga topshirdi. Oradan bir necha kun o'tgach, marzbon uyiga Balxdan mehmonlar keldi. Ovqatdan keyin

¹ Marzabon — hokim, chegara qo'riqchisi.

sharob ichib o'tirgan edi, marzbon to'tilar solingan qafasni o'rtaga olib kelib qo'ydi. To'tilar odatlariga ko'ra, o'sha ikki jumlani takror-takror aytar edilar. Mehmonlar to'tilarga gapini eshitgach, bir-birlariga qarab hayron bo'lganlaricha, boshlarini quyi solib uzoq sukut qilib o'tirdilar. Nihoyat, marzbondan so'radilar:

— Sen bu qushlarning nima deyayotganlarini tushunasanmi?

Marzbon dedi:

— Yo'q, so'zlarini tushunmayman, lekin ovozlari juda yoqadi.

Mehmonlardan biri uy egasiga bu so'zlarning ma'nosini aytib berdi va qo'lini dasturxondan tortib, dedi:

— Bizning shaharda xotini yomon uydan taom yemaydilar.

Qarchig'aychi darhol so'zga aralashib dedi:

— Qushlarning so'zi to'g'ri, men ham bir necha dafa ko'rganman, guvohlik berishim mumkin.

Marzbon darg'azab bo'lib xotinini o'ldirmoqchi bo'ldi. Xotini bir odam orqali eriga ayttirdi:

— Meni o'ldirish uchun shoshilmasin. Men uning qo'lidaman, istagan vaqtida o'ldirishi mumkin. Aql va tajriba egalari hukm chiqarish, ayniqsa, qon to'kishga shoshilmasliklari, sabrli bo'lishlari zarur. Mening haqimdagi ishni tekshirish kerak, agar to'g'ri chiqsa, o'ldirishi mumkin. Balxlik mehmonlardan so'rasin, o'sha ikki qush shu ikki jumladan boshqa narsa biladilarmi? Agar bilmasalar, demak, bu so'zlarni to'tilarga hayosiz, nonko'xizmatchi o'rgatgani ma'lum bo'ladi. Chunki u menga so'ylagan, meni o'ynash qilib olmoqchi bo'lgan, lekin o'qitoshga tekkan edi. Shundan keyin u mendan qasos olish niyatida bu hiylani o'ylab chiqargan...

Marzbon xotining aytganiga quloq solib, to'tilarning ikkita o'rgatilgan jumladan boshqa narsa bilmasligiga qanoat hosil qildi, xotining gunohsizligi ma'lum bo'ldi. Marzbon qarchig'aychini chaqirib kelishni buyurdi. Qarchig'aychi maqsadga yetdim, deb suyunib qo'lib to'tiqush bilan kirib keldi. Marzbonning xotini so'radi

— Sen mening yomon ishlar qilganimni ko'rgan
chingmi?

Qarchig'aychi: «Ha, ko'rganman» demoqchi bo'lib
o'zini ochgan ham ediki, qo'lidagi qush uning ikki ko'zini
yiyib oldi.

Xotin dedi:

— Ko'rmagan narsani ko'rdim degan ko'zning jazosi
shu bo'ladi.

Dimna dedi:

— Men bu masalni shuning uchun keltirdimki, bilmagan
narsani bilaman deb birovga choh qazish, qoralash — bu
dunyoda ham, u dunyoda ham og'ir gunohdir.

Dimnaning so'zi tugagach, bo'lgan gaplarning
hammasini yozib shohga yetkazdilar. U tazkirani onasiga
ko'rsatdi.

Onasi dedi:

— Shoh sog' va salomat bo'lsin. Bu hiylakor endi
toshqa usullar qo'llamoqchi. U makr va hiyla ishlatib
shohni mahv etmoq fikriga tushibdi. Bo'hton, tahdid va
qo'rqitish yo'lga o'tibdi. U endi fitna qo'zg'atib, butun
tahlarni ost-ust qilmoqchi, shohning sodiq, jur'atli va
qo'ltiborli vazirining boshiga solgan falokatlarni shohning
boshiga solmoqchi.

Bu so'zlar sherni o'ylatib qo'ydi, bir lahza mulohazadan
so'ng onasiga qarab dedi:

— Ey ona, Kalila va Dimnaning so'zlashib turganini
ehitgan kim edi, hech bo'lmasa shuni aytsang, Dimnani
qoldirishga mening qo'limda bir asos bo'lar edi.

Sherning onasi dedi:

— Ishonib sir aytgan odamning nomini bildirishim
menga juda og'ir. Omonatga xiyonat qilib gunohga
kotishni xohlamayman. Lekin bu sirni menga aytgan
kimsadan ijozat so'rab ko'ray, agar ko'nsa, aytib beraman.

Sherning onasi o'z xonasiga borib qoplanni yoniga
chaqirtirib, dedi:

— Shohning senga qilgan yaxshiliklari, lutf-karami
o'zingga ham, o'zgalarga ham ayon. Buning natijasida

shuhrat qozonding, martabang oshdi. Endi sen shohning tuzini oqlash uchun Dimna haqida menga aytgan so'zlaringni sherning oldiga borib takrorlaysan. Shunday qilsang, zolimning jazolanishiga, nohaq o'ldirilgan ho'kizning oqlanishiga yordam bergan bo'lasan.

Qoplon itoatgo'ylik bilan dedi:

— Agar mening bir emas, mingta jonim bo'lib, hammasini shohga fido qilsam ham, menga qilgan yaxshiliklarini uza olmayman. Men kim edimki, uzr so'ralar sher oldida guvohlik berishdan bo'yin tovasam va shohning yomon gumonlariga sabab bo'lsam. Modomiki, ish shu darajaga yetibdi, men shohning xohishiga amal qilib, nima qilish kerak bo'lsa, shuni bajaraman.

U sher va butun hayvonlar oldida Kalila va Dimna orasida bo'lib o'tgan gaplarni batafsil aytib berdi. Bu so'z og'izdan-og'izga o'tib, har yerga yoyildi. Kalila hamda Dimnaning suhbatini eshitgan hayvonga ham yetib bordi. Shundan keyin bu hayvon, men ham guvohlik bermoqchiman, deb shohga xabar yubordi. Sher uni olib kelishni amr etdi. U kelib zindonda eshitganlarining bari shohga bayon qildi. O'tirganlar undan so'radilar:

— Axir nega o'sha kuni kelib, eshitganlaringni aytil bermading?

U javob berdi:

— Men yolg'iz bo'lganim uchun bir kishining shohidlik hukm chiqarishga yetarli bo'lmaydi, deb o'ylagan edim. Endi esa shohid ikkita bo'ldi, binobarin, Dimna haqida hukm chiqarmoq mumkin.

O'tirganlar ham, qozilar ham, shohid ikkita bo'lganligi uchun endi Dimna haqida hukm chiqarish mumkin, degan qarorga kelishdi. Shoh Dimnaning qo'l va oyog'ini zanjirband qilib zindonga solishlarini buyurdi. Dimna zindonda ochlik va tashnalikdan azob va uqubat chekib o'ldi. Hiylakor va xoin, hasadchi va fitnachilarning oqibat shunday bo'ladi...

CHINKABUTAR, QARG'A, SICHQON, TOSHBAQA VA OHU BOBI

Roja brahmanga dedi:

— Bir fitnachining oraga kirib ikki do'st o'rtasida qanday adovat va dushmanlik paydo bo'lgani, nihoyat, bir begunoh bechoraning qoni to'kilgani haqidagi hikoyani eshitdim. Mayling bo'lsa endi samimiy do'stlar haqida ularning sadoqat va birodarliklari to'g'risida, bu sadoqat va qardoshlikning fazilati borasida so'zlab bersang.

Brahman dedi:

— Aqlli odamlar uchun do'stlikdan qimmatli hech narsa yo'qdir. Chunki yaxshi kunlarda do'stlaring bilan ulfatchilik qilib, xursand bo'lasan, yomon kunlar boshingga tushganda do'stlaring senga hamdard va yordamchi bo'ladilar. Qarg'a, sichqon, kabutar, toshbaqa va ohu masali bunga yaxshi misol bo'la oladi.

Roja dedi:

— U qanday masal?

Masal

Debdurlarki, Kashmir viloyatida bir xushmanzara ajoyib chamanzor bor edi. Ovga serob bo'lganligi uchun u yerga ovchilar tez-tez kelib turishar edi. Shu hamanzorda sershox, barglari quyuq baland daraxt ostida qarg'a uya qurib kun kechirar edi. Bir kun qarg'a o'z inida u yoq-bu yoqqa qarab o'tirganida, bo'ynida to'r, orqasida to'rva, qo'lida tayoq ushlab, shoshilganicha shu daraxt tomon kelayotgan badbashara bir odamga ko'zi tushdi. Qarg'a o'z-o'ziga dedi: «Bu odam bir baloni boshlab kelayotganga o'xshaydi, u kimni to'rga solish qasdidan qilyapti, meni tutmoqchimi yo boshqasini? Yaxshisi, qimir o'tmay o'z joyimda turay, qani nima bo'lar ekan».

Ovchi daraxt ostiga kelib to'rni yoydi-da, don sepib, o'zi berkindi. Bir soat o'tar-o'tmas bir to'da kabutarlar uchib keldilar. Ularning boshlig'ini Chinkabutar der

edilar. Ko'pni ko'rgan, ziyrak va chaqqon edi. Kabutarlar u bilan faxrlanar, har doim unga bo'ysunar, u qayer boshlasa, o'sha yerga uchar va uning sharofati bilan yaxshi kun kechirar edilar.

Kabutarlar to'dasi donni ko'rganlaridan keyin hoddalardan narsadan shubha qilmay pastga tushdilar va to'rt yoniga ilindilar. Ovchi buni ko'rib sevinib ketdi, ularni tutib olish uchun joyidan shoshib turdi. Kabutarlar patillab, har bir to'rt o'z jonini xalos qilish uchun harakat qilar va bir-biri bilan urilar edilar. Buni ko'rgan Chinkabutar dedi:

— Vahimaga tushmanglar. Har biringiz o'zingizning joningizni emas, hammaning xalos bo'lishini o'ylanglar. Endi biringiz chora qoldi: hammamiz kuchimizni to'plab baravarlik uchun parvoz qilishimiz kerak.

Kabutarlar boshliqlar aytgandek qildilar, hammamiz baravariga uchib, to'rt yoniga bilan birga ko'kka ko'tarildilar.

Ovchi ular ketidan yugurdi, u, oxiri bular charchagan biror joyga qo'narlar, deb umid qilardi.

Bo'layotgan voqealarni kuzatib turgan qarg'a o'z-o'ziga dedi:

— Men bularning ketidan borib, ish nima bilan tugashini ko'ray, chunki shunday hodisa mening hamim boshimga tushishi mumkin. O'shanda bular tajribasidan foydalanaman. Boshqalarning boshiga tushgan hodisadan o'zi uchun ibrat olgan odamni hushyor va farosatli deyidilar.

Ovchining chopib kelayotganini ko'rgan Chinkabutar yoronlariga dedi:

— Bu surbet ovchi hamon ketimizdan kelyapti, bizlarning ovozi kechadiganga o'xshamaydi. Agar ko'zidan g'oyib bo'lmasak, bizdan ko'ngil uzmaydi. Ochiq joyga emas, daraxtzorlarga borib qo'naylik, shunda u bizni topolmay, orqasiga qaytib ketar. Mening bu yaqinda bir sichqon do'stim bor, unga aytsak, to'rtimizni qirqadi va bizni ozod qiladi.

Kabutarlar uning so'ziga kirib, u boshlagan tomonga qarab uchdilar. Ovchi ovorai sarson bo'lib orqasiga qaytdi.

Voqeaning nima bilan tamom bo'lishini bilish uchun qo'ng'a ham ular orqasidan to'xtovsiz uchib borardi.

Kabutarlar sichqon maskani yoniga tushdilar.

Sichqonning oti Ziyrak, o'zi juda aqlli va chaqqon edi, hayotning issiq-sovug'ini ko'rgan, achchiq-chuchugini tutgan edi. Biror falokat ro'y bersa, qochib chiqib ketish uchun inidan ancha teshik ochgan, iniga somon solib, tuzoqqa bilan to'ldirgan edi.

Chinkabutar uning uyasiga kelib chaqirdi. U ham kabutarning ovozini eshitishi bilanoq inidan yugurib chiqdi va vafodor do'stini tuzoqda ko'rgach, ko'zlaridan yosh oqizib dedi:

— Ey aziz va mehribon do'stim! Kim seni bu ahvolga soldi?

Chinkabutar javob berdi:

— Yaxshilik ham, yomonlik ham taqdirdan. Kimning muvaffaqiyatiga nima yozilgan bo'lsa, ertami, kechmi, shu narsa uning boshiga keladi, undan qochib qutulib bo'lmaydi... Qismat bizni bu balo girdobiga soldi. U bizga don ko'rsatib, ko'zimizni bog'ladi va aqlimizni qora pardaga chulg'adi. Hammamiz balo zanjiriga, baxtsizlik shangaliga tushdik. Mendan ko'ra quvvatliroq va sha'n-shavkatliroq bo'lganlar ham qismatdan qochib qutulmaganlar. Vaqt-soati kelganda kun va oy tutiladi, baliq daryo tagidan yuzaga qalqib chiqadi, qush osmon bog'ridan yerga tushadi, nodonlar maqsadga yetadi, oqllilar ojiz qoladilar...

Sichqon bu so'zlarni eshitgach, Chinkabutar o'ralgan iplarni qirqa boshladi. Chinkabutar dedi:

— Avval o'rtoqlarim o'ralgan iplarini qirqqin. Sichqon uning so'ziga parvo qilmadi. Chinkabutar yana dedi:

— Ey aziz do'stim, avval o'rtoqlarimni banddan ozod qil!

Sichqon dedi:

— Sen o'z joningni xalos etishni istamaysanmi, yomon hashga sening haqqing yo'qmi?

Chinkabutar dedi:

— Men ularga rahbar bo'lish vazifasini o'z zimmaniga olganman. Shuning uchun ularning menda haqlari bor, ularni asrash mening burchimdir... Buning ustiga, men ularning harakati va yordami tufayli ovchining qo'lidan xalos bo'lgan edim. Endi men ham o'z burchimni ado etib, o'zimdanda avval ularni qutqazishim kerak. Yana shuni borki, agar sen mening iplarimni qirqa boshlasang, charchab qolishing va do'stlarim to'rda qolib ketishlari mumkin. Lekin men to'rda qolsam, sen qanchalik charchamagin, baribir meni to'rda qoldirmaysan. Hammadan oldin o'zimni qutqazsam, ta'na va malomatga qolaman.

Sichqon dedi:

— Bu muruvvatli va insofli odamlarning xosiyatidir. Bu xosiyat do'stlaringning senga bo'lgan ishonchi va muhabbatini yanada mustahkamlaydi.

Shuni deb sichqon astoydil ishga kirishib, kabutarlarning iplarini qirqa boshladi. Birozdan so'ng kabutarlar va Chinkabutar to'rdan ozod bo'ldilar.

Qarg'a sichqonning jonbozligini va iplarni qirqishdagi mahoratini ko'rib, u bilan do'stlashmoq fikriga tushdi va o'z-o'ziga dedi:

— Kabutarlar boshiga tushgan ish mening ham boshimga tushishi mumkin. Bunday do'st kerak bo'lib qoladi.

U sichqon ini yoniga kelib, chaqirdi.

Sichqon so'radi:

— Kim?

Qarg'a dedi:

— Men, qarg'aman.

Qarg'a uning kabutarlarga qilgan yaxshiligi, vafodorligini aytib berdi va dedi:

— Sening naqadar muruvvatli va olijanob ekanliging menga ma'lum bo'ldi. Shuning uchun sen bilan do'stlashish orzusiga tushdim. Bu do'stlikning nimaiki shartlari bo'lsa, bajo keltirishga hozirman.

Sichqon dedi:

— Sen bilan mening o'rtamda hech umumiylik yo'q, binobarin, do'st bo'lishimiz ham mumkin emas. Aqlli odamlar nodon odamlar ahvoriga tushmaslik va hikmat ahllariga kaltafahm bo'lib ko'rinmaslik uchun mumkin bo'lmagan narsalarni orzu qilmaslik kerak. Quruqlikda kemadan, dengizda otdan foydalanishni istaganlar o'zlarini kulgili holga solgan bo'ladilar. Chunki boshida aqli bor odam bunday ishni qilmaydi. Sen bilan mening oramizda qanaqa muhabbat bo'lishi mumkin! Axir men sening taomingman, demak, sening yoningda bir laha bo'lsa-da, tinch, bexavotir yashay olmayman. Kimki o'z tengi bilan bo'lmasa, uning boshiga ham kaklik boshiga tushgan savdo tushadi.

Qarg'a dedi:

— Uning boshiga nima savdo tushibdi?

Sichqonning hikoyati

Bir kun bir kaklik tog' etagida sayr qilib yurar va qahqahasining sadosi falak gumbazigacha yetardi. Nogoh bir lochin o'sha yerdan uchib o'tdi. U kaklikning yurishini va xandon otib kulishini ko'rib ko'ngli ochilib ketdi va unga mehr qo'yib, u bilan suhbat qilish xayoliga tushdi. (O'zicha: «Bir mehribon yor hammaga ham lozimdir, — deb o'yladi. — Bu kaklik juda chiroyli, dilrabo va xushraftor ekan, agar shunday yor va hamdaming bo'lsa, suhbatidan ko'ngil bahra olg'ay».

Shu so'zlarni aytib, lochin ohista kaklikka yaqinlashdi. Kaklikning ko'zi unga tushishi bilan qo'rqqanidan bir tosh tashigiga kirib ketdi. Lochin havodan tushib teshikka yaqin keldi va dedi:

— Ey kaklik, ilgari sening bu qadar ajoyib qush ekanligingni bilmas ekanman. Bugun sening qahqahalaring va yurishing meni asir qildi. Mendan aslo qo'rqmay mehr qo'ysang, do'stlik daraxtidan murod mevasi yetishar degan umiddaman.

Kaklik bekingan joyidan ovoz berdi:

— Ey qahramon, men bechoradan qo'l tort va o'zingcha bugun bir kaklikni tutib yedim, deb qo'ya qol. O't bilan suv bir-biriga qo'shilgandagina ikkimiz do'st bo'la olamiz.

Lochin dedi:

— Ey aziz, o'zing bir o'ylab ko'r, mehribonlikdan o'zga qanday narsa meni shirin so'zlashga majbur qilishi mumkin? Changalimdan quvvat ketdimiki, senga o'xshaganlarni ov qila olmay hiyla ishlatsam, tumshug'imga putur yetibdimiki, shikorga yaramay qolgan bo'lsam. Menda hamdamlik va hamsuhbat bo'lishdan boshqa orzu yo'q. Mening suhbatim senga ko'p foyda keltiradi. Birinchidan, yirtqich qushlar mening himoyam ostida ekanligingni ko'rib, senga tajovuz qilmaydilar va sen tog' etagida xotirjam yo'rg'alab yuraverasan. Ikkinchidan, seni o'z uyamga olib boraman, u yerda baland mavqeda, o'z hamjinslaringdan baland darajada bo'lasan, o'z jinsingdan bir chiroyligini keltirib beraman, u bilan birga o'ynab-kulib yurasan.

Kaklik dedi:

— Sen qushlar amirisan. Parrandalarning ixtiyori sening qo'lingda. Agar iltifotingdan umidvor bo'lib aytganingga ko'nsam, ehtimolki, ta'bingga yoqmagan biror ish qilib qo'yib, g'azabingga giriftor bo'laman. Yaxshisi shuki, o'z xilvatxonamda tinchgina o'tiray va xatardan xoli bo'lmagan hokimlar xizmatini ixtiyor qilmay qo'ya qolay.

Lochin dedi:

— Ey azizim, do'stlikning ko'zi ko'r ekanligini bilmaysanmi? U aybni ko'rmaydi, do'stdan sodir bo'lgan har qanday yomonlik zebo ko'rinadi. Men sening qilgan ishlaringga muhabbat ko'zi bilan qarab, so'zlaringni mehri qulog'i bilan eshitaman.

Kaklik uzrini aytib qancha bahona keltirmasin, lochin uning uzrini qabul qilmadi. Nihoyat, kaklik teshikdan chiqdi, ular bir-birlari bilan quchoqlashib, do'st bo'lishga ahdu paymon qildilar. Lochin kaklikni o'z uyasiga olib ketdi. Ular totuvlik va xursandchilik bilan umr kechira

boshladilar. Kaklik lochindan qo'rqmay ibosiz gaplar aytib, beadabona harakatlar qila boshladi. So'z orasida u qalqaha otib kular, lochin ham bularni hazilga yo'yib, o'zini bilmaslikka solar edi. Ammo do'stining harakatlari uning jahlini chiqaza boshladi. Bir kun lochin betoblanib, yvga chiqa olmadi. Kechasi qorni juda ham ochdi, ginalar solga tushsa, kaklikni yegisi kelar, ahdu paymon esiga tushsa, o'zini bosar edi.

Kaklik lochinning avzoyini ko'rib, o'zining halok bo'lishi muqarrar ekanini tushunib qoldi va fig'on chekib dedi: «Aksuski, avvalda ishning oxirini o'ylamadim, yetti yot begonaga oshno bo'ldim. Ulug'lar nasihatini quloqqa olmadi, ular: «Nojins suhbatidan ilondan qochgandek qoch», degan edilar. Bila turib o'zimni o'tga tashladim, hayotim iplari uzildi, endi nima qilay?»

Kaklik o'zi bilan o'zi gaplashib turganda, lochin ozor shangalini yozib, qonxo'r tumshug'ini charxlab, kaklikka tashlanishga bahona qidirar edi.

Lochin hech qanday bahona topa olmay, betoqat bo'lib, achchiq aralash dedi:

— Menga oftob yomon ta'sir qildi, sen esa soyada rohat qilib yotibsan.

Kaklik dedi:

— Ey jahongir amir, hozir tun, hamma olam qorong'ilik qo'ynida. Sizga qaysi oftob yomon ta'sir qilyapti-yu, men ulmaning soyasida rohat qilib yotibman.

Lochin aytdi:

— Ey beadab, meni yolg'onchi qilasanmi? — deb shangalini yozdi, kaklikni ikki butidan ajratib tashlab, qo'xtini yedi.

Bu masalni shuning uchun keltirdimki, sen bilib ol: har kim dushman bo'lgan g'ayrijins maxluq bilan suhbat qursa, zararsiz ekanligidan ko'ngli to'q bo'lmagan kishi bilan oshna bo'lsa, falokatga yo'liqadi.

Qarg'a sichqonga dedi:

— Aqlingni boshingga yig'ib o'ylasang-chi, seni tanjitishdan menga nima foyda, seni yeganim bilan na

qornim to'yadi, na ko'zim. Lekin sening do'stliging mening daraja ko'p foyda keltirishi mumkin. Aminmasan sen bilan do'st bo'lish uchun uzoqdan kelganimni nazarda olib, meni rad etmaysan, ko'kragimdan ita tashlamaysan, chunki bu sening sha'ningga yarashmasa insof bunga yo'l qo'ymaydi. Hayot sening yuksak darajada axloqli, saxovatli va shijoatli ekanligingni ko'rsat. Qanchalik harakat qilma, hunar va iste'dodingni sir saqlolmaysan. Hunar va iste'dod mushk-anbar kabidir, u qanchalik bekitma, u shunchalik atrofga yoyill hammayoqni muattar qilib yuboradi.

Sichqon dedi:

— Mubolag'ani haddan oshirib yubording. Meni do'st bo'lishga targ'ib etmoqdasan, lekin kichkina sabab bilan muhabbat iplari uzilishi mumkin. Donishmandlik debdilarki, dushman so'ziga aldanib bo'lmaydi. Muhabbatdan lof urganga yaqinlashmoq xatodir. Do'stlik da'vosini qilgan dushmanning so'ziga ishongan odamning boshiga albatta suvori boshiga tushgan savdo tushadi.

Qarg'a so'radi:

— Uning boshiga nima savdo tushibdi?

Sichqonning navbatdagi hikoyati

Karvonlar yoqib ketgan gulxanning o'tini shamol uchirib, dashtga o't tushib ketgan edi. Tuya mingan bir kishi o'sha yerdan o'ta turib, olovlar o'rtasida bir ilonning to'lg'anib yotganini ko'rdi. U o't balosidan qutula olmay zaharli ko'zlaridan qon yosh to'kib suvoriga yalinib dedi:

— Marhamat qilib, meni bu do'zaxdan qutqar, savob bo'ladi.

Suvori rahmdil kishi edi. U ilonning zorini eshitib, bechoraga yuragi achidi, ilon, garchi odamzodga dushman bo'lsa ham, hozir qiyin ahvolda qolibdi, uni bu balodan qutqarsam savob bo'lar, deb o'yladi. U to'rvasini nayza uchiga bog'lab ilon tomonga uzatdi. Ilon sevinib to'rvaga kirdi. Suvori birozdan keyin to'rvani ochib, ilonga dedi:

— Bor, eson-omon qutulganingga shukur qilib, senga ket, bundan buyon hech kimga ozor berma.

Ilon dedi:

— Ey yigit, bu soʻzlaringni qoʻy. Men seni va tuyangni chaqib, zaharimni solmay ketolmayman.

Suvori dedi:

— Axir senga yaxshilik qildim, seni olovdan qutqardim, pirohim shumi?

Ilon dedi:

— Ha, sen yaxshilik qilding, ammo oʻrinsiz yaxshilik qilding. Bilasanki, men zararli maxluqlar avlodidanman, hechqa narsani mendan kutish mumkin emas. Nima uchun meni qutqarding? Oʻldirmoq lozim edi, sen esa odamzod dushmaniga rahm qilding. Yaxshilikka yomonlik mening kasbimdir. Yomonlarga yaxshilik qilish, yaxshilarga yomonlik qilish, demakdir. Endi men seni saharlasam, bu ishim senga tanbeh, oʻzgalarga ibrat boʻladi.

Suvori dedi:

— Ey noinsof, yaxshilikka yomonlik qaysi mazhabda bor?

Ilon dedi:

— Odamzod mazhabida bor. Men sening ijozating bilan oʻz matolaringizni oʻzlaringizga sotmoqchi va oʻz koʻsangizda oʻzingizga zahar ichirmoqchiman. Tezroq javob qil, avval oʻzingni chaqaymi yo tevangni?

Suvori dedi:

— Meni ham chaqma, tuyamni ham.

Ilon dedi:

— Nega endi! Oʻzlaringiz ham yaxshilikka yomonlik qilasizlar-ku!

Suvori ilonning bu gapini inkor qildi va dedi:

— Bu daʼvoga guvoh kerak.

Shu orada bir sigir koʻrinib qoldi.

Ilon dedi:

— Ey sigir, yaxshilikning jazosi nimadir?

Sigir dedi:

— Odamzod mazhabida yaxshilikning jazosi yomonlikdir. Men bir necha yildan beri ularnikidit turaman. Har yili bola tug'ar va uylarini sut bilan qaymoqqa to'latar edim. Hozir boladan, sutdan qoldim qaridim, o'tlab semirsin, deb meni dalaga haydab qo'ydi. Kecha egam kelib u yog'-bu yog'imni ushlab, biroq semirganimni ko'rib, qassobga sotdi. Mana bugun so'yishga olib ketayotirlar. Yaxshiligimning jazosi shu bo'ldi.

Ilon dedi:

— Ey yigit, eshitdingmi?

Suvori dedi:

— Eshitdim, ammo bir guvohning shohidligi yetishmaydi. Yana bir guvoh kerak.

Ilon atrofga qarab bir daraxtni ko'rib, uning yomonlik keldi va so'radi:

— Ey daraxt, yaxshilikning mukofoti nima?

Daraxt dedi:

— Odamzod mazhabida yaxshilikning mukofoti yomonlik, foydaning jazosi ziyondir. Dalil shuki, men bu dashtda ko'kargan birdan-bir daraxtman, odamlar issiqda horib-charchab kelib, soyamda dam olishadi. Nafaslarini rostlab olgach, yuqoriga qarab, «anavi shoxlarimni arraga dasta bo'ladi, anavinisi teshabop ekan», deb shoxlarimni kesib yoki arralab oladilar. Mendan foydalanib ko'rsalar ham, menga azobni ravo ko'radilar.

Ilon dedi:

— Ikki guvoh bo'ldi. Endi tan ber, seni chaqay.

Suvori dedi:

— Jon juda shirin narsa. Yana bir kishi guvohlik bersang, men uszrga o'rin qolmaydi.

Ittifoqo, o'sha yerdan bir tulki o'tib qoldi. Bularni ko'rib, tulki to'xtadi-da, so'zlariga quloq soldi, keyin savolni kutmasdanoq «Yaxshilikning jazosi yomonlikdir, — dedi keyin suvoriga qarab, — sen bu ilonga nima yaxshilik qilib eding?» deb so'rab qoldi.

Suvori bo'lgan gapni aytib berdi.

Tulki dedi:

— Sen o'zing aqlli odamga o'xshaysan-u, lekin nega yolg'on gapirasan?

Ilon dedi:

— Rostini aytyapti, bu odam meni to'rvaga solib, ilondan chiqardi.

Tulki hayron bo'lib so'radi:

— Bu so'zga qanday qilib ishonsa bo'ladi, axir shunday katta ilon bu kichik to'rvaga sig'ishi mumkinmi?

Ilon dedi:

— Agar ishonmasang, to'rvaga kirib ko'rsatay, ilon hushaga o'rin qolmasin.

Suvori to'rva og'zini ochdi, ilon to'rvaga kirib kulcha bo'lib oldi.

Tulki dedi:

— Ey yigit, dushmaning bandga tushdi, paytni qo'ldan berm.

Suvori to'rva og'zini mahkam bog'lab yerga bir urdi, ilon mahaq-mahaq bo'lib ketdi.

Qissadan hissa shuki, aqlli odam ehtiyotni qo'ldan bermaydi, dushman yalinib-yolvorganda g'ururlanib ketmaydi va uning so'zlariga ishonmaydi.

Qarg'a dedi:

— Hikmatli va foydali so'zlaringni eshitdim. Lekin olijanoblik ko'rsatib, mening so'zlarimga ishon. Sen olijanoblikning sharti yaxshilikka yo'l topmoqlik ekanini bilade yaxshi bilasan. To'g'ri va sof odamlar darrov do'st bo'lib oladilar, ular orasidagi do'stlik uzoqqa cho'ziladi, fitnachi odamlar darrov do'st bo'la olmaydilar, munosabatlari tez buziladi. Yaxshi va olijanob odamlar bir soatlik ko'rishish va bir kunlik tanishish muddatida odamning ko'nglini ovlaydilar. Ammo ko'pdan beri tanishish va do'st bo'lish orzusida yurgan ichi qora odamlardan marhamat va lutf ko'zlab bo'lmaydi. Ular qo'rquv va g'araz tufayli do'st bo'lishni istaydilar. Lekin men sening olijanob ekaningni ko'rib turibman. Sen do'st bo'lib meni sevintirmaguningcha, og'zimga bir qultum

qornim to'yadi, na ko'zim. Lekin sening do'stliging mening daraja ko'p foyda keltirishi mumkin. Aminman sen bilan do'st bo'lish uchun uzoqdan kelganimni namoyish olib, meni rad etmaysan, ko'kragimdan ita tashlamaysan, chunki bu sening sha'ningga yarashmay insof bunga yo'l qo'ymaydi. Hayot sening yuksak darajada axloqli, saxovatli va shijoatli ekanligingni ko'rsat. Qanchalik harakat qilma, hunar va iste'dodingni sir saqla olmaysan. Hunar va iste'dod mushk-anbar kabidir, u qanchalik bekitma, u shunchalik atrofga yoyil hammayoqni muattar qilib yuboradi.

Sichqon dedi:

— Mubolag'ani haddan oshirib yubording. Meni do'st bo'lishga targ'ib etmoqdasan, lekin kichkina sabab bilan muhabbat iplari uzilishi mumkin. Donishmandlar debdilarki, dushman so'ziga aldanib bo'lmaydi. Muhabbatdan lof urganga yaqinlashmoq xatodir. Do'stlikda 'vosini qilgan dushmanning so'ziga ishongan odamning boshiga albatta suvori boshiga tushgan savdo tushadi.

Qarg'a so'radi:

— Uning boshiga nima savdo tushibdi?

Sichqonning navbatdagi hikoyati

Karvonlar yoqib ketgan gulxanning o'tini shamol uchirib, dashtga o't tushib ketgan edi. Tuya mingan bosh kishi o'sha yerdan o'ta turib, olovlar o'rtasida bir ilonning to'lg'anib yotganini ko'rdi. U o't balosidan qutula olmag zaharli ko'zlaridan qon yosh to'kib suvoriga yalinib dedi:

— Marhamat qilib, meni bu do'zaxdan qutqar, savob bo'ladi.

Suvori rahmdil kishi edi. U ilonning zorini eshitib, bechoraga yuragi achidi, ilon, garchi odamzodga dushman bo'lsa ham, hozir qiyin ahvolda qolibdi, uni bu balodan qutqarsam savob bo'lar, deb o'yladi. U to'rvasini nayza uchiga bog'lab ilon tomonga uzatdi. Ilon sevinib to'rvaga kirdi. Suvori birozdan keyin to'rvani ochib, ilonga dedi:

— Bor, eson-omon qutulganingga shukur qilib, senga ket, bundan buyon hech kimga ozor berma.

Ilon dedi:

— Ey yigit, bu so'zlaringni qo'y. Men seni va tuyangni o'qib, zaharimni solmay ketolmayman.

Suvori dedi:

— Axir senga yaxshilik qildim, seni olovdan qutqardim, zaharimni solmay ketolmayman?

Ilon dedi:

— Ha, sen yaxshilik qilding, ammo o'rinsiz yaxshilik qilding. Bilasanki, men zararli maxluqlar avlodidanman, zaharimni solmay ketolmayman. Nima ishni meni qutqarding? O'ldirmoq lozim edi, sen esa odamzod dushmaniga rahm qilding. Yaxshilikka yomonlik mening kasbimdir. Yomonlarga yaxshilik qilish, yaxshilarga yomonlik qilish, demakdir. Endi men seni zaharlasam, bu ishim senga tanbeh, o'zgalarga ibrat bo'ladi.

Suvori dedi:

— Ey noinsof, yaxshilikka yomonlik qaysi mazhabda bor?

Ilon dedi:

— Odamzod mazhabida bor. Men sening ijozating bilan o'z matolaringizni o'zlaringizga sotmoqchi va o'z tuyangizda o'zingizga zahar ichirmoqchiman. Tezroq javob qil, avval o'zingni chaqaymi yo tevangni?

Suvori dedi:

— Meni ham chaqma, tuyamni ham.

Ilon dedi:

— Nega endi! O'zlaringiz ham yaxshilikka yomonlik qilasizlar-ku!

Suvori ilonning bu gapini inkor qildi va dedi:

— Bu da'voga guvoh kerak.

Shu orada bir sigir ko'rinib qoldi.

Ilon dedi:

— Ey sigir, yaxshilikning jazosi nimadir?

Sigir dedi:

— Odamzod mazhabida yaxshilikning jazosi yomonlikdir. Men bir necha yildan beri ularni kuturaman. Har yili bola tug‘ar va uylarini sut bilan qaymoqqa to‘latar edim. Hozir boladan, sutdan qoldir qaridim, o‘tlab semirsin, deb meni dalaga haydab qo‘ydim. Kecha egam kelib u yog‘-bu yog‘imni ushlab, bir semirganimni ko‘rib, qassobga sotdi. Mana bugun so‘yishga olib ketayotirlar. Yaxshiligimning jazosi shu bo‘ldi.

Ilon dedi:

— Ey yigit, eshitdingmi?

Suvori dedi:

— Eshitdim, ammo bir guvohning shohidligi yetishmaydi. Yana bir guvoh kerak.

Ilon atrofga qarab bir daraxtni ko‘rib, uning yoniga keldi va so‘radi:

— Ey daraxt, yaxshilikning mukofoti nima?

Daraxt dedi:

— Odamzod mazhabida yaxshilikning mukofoti yomonlik, foydaning jazosi ziyondir. Dalil shuki, men bu dashtda ko‘kargan birdan-bir daraxtman, odamlar issiqda horib-charchab kelib, soyamda dam olishadi. Nafaslarini rostlab olgach, yuqoriga qarab, «anavi shoxlarimni kesib yoki arralab oladilar. Mendan foyda ko‘rsalar ham, menga azobni ravo ko‘radilar.

Ilon dedi:

— Ikki guvoh bo‘ldi. Endi tan ber, seni chaqay.

Suvori dedi:

— Jon juda shirin narsa. Yana bir kishi guvohlik bersa, uzrga o‘rin qolmaydi.

Ittifoqo, o‘sha yerdan bir tulki o‘tib qoldi. Bularni ko‘rib to‘xtadi-da, so‘zlariga quloq soldi, keyin savolni kutmasdanoq «Yaxshilikning jazosi yomonlikdir, — dedi, keyin suvoriga qarab, — sen bu ilonga nima yaxshilik qilib eding?» deb so‘rab qoldi.

Suvori bo‘lgan gapni aytib berdi.

Tulki dedi:

— Sen o'zing aqlli odamga o'xshaysan-u, lekin nega jalg'on gapirasan?

Ilon dedi:

— Rostini aytyapti, bu odam meni to'rvaga solib, ayvedan chiqardi.

Tulki hayron bo'lib so'radi:

— Bu so'zga qanday qilib ishonsa bo'ladi, axir shunday katta ilon bu kichik to'rvaga sig'ishi mumkinmi?

Ilon dedi:

— Agar ishonmasang, to'rvaga kirib ko'rsatay, shubhaga o'rin qolmasin.

Suvori to'rva og'zini ochdi, ilon to'rvaga kirib kulcha bo'lib oldi.

Tulki dedi:

— Ey yigit, dushmaning bandga tushdi, paytni qo'ldan berma.

Suvori to'rva og'zini mahkam bog'lab yerga bir urdi, ilon majaq-majaq bo'lib ketdi.

Qissadan hissa shuki, aqlli odam ehtiyotni qo'ldan bermaydi, dushman yalinib-yolvorganda g'ururlanib ketmaydi va uning so'zlariga ishonmaydi.

Qarg'a dedi:

— Hikmatli va foydali so'zlaringni eshitdim. Lekin olijanoblik ko'rsatib, mening so'zlaringga ishon. Sen olijanoblikning sharti yaxshilikka yo'l topmoqlik ekanini juda yaxshi bilasan. To'g'ri va sof odamlar darrov do'st bo'lib oladilar, ular orasidagi do'stlik uzoqqa cho'ziladi, fitnachi odamlar darrov do'st bo'la olmaydilar, munosabatlari tez buziladi. Yaxshi va olijanob odamlar bir soatlik ko'rishish va bir kunlik tanishish muddatida odamning ko'nglini ovlaydilar. Ammo ko'pdan beri tanishish va do'st bo'lish orzusida yurgan ichi qora odamlardan marhamat va lutf ko'zlab bo'lmaydi. Ular qo'rquv va g'araz tufayli do'st bo'lishni istaydilar. Lekin men sening olijanob ekaningni ko'rib turibman. Sen do'st bo'lib meni sevintirmaguningcha, og'zimga bir qultum

qornim to'yadi, na ko'zim. Lekin sening do'stliging mening daraja ko'p foyda keltirishi mumkin. Aminman, sen bilan do'st bo'lish uchun uzoqdan kelganimni nazarda olib, meni rad etmaysan, ko'kragimdan iltimos tashlamaysan, chunki bu sening sha'ningga yarashmaydi, insof bunga yo'l qo'ymaydi. Hayot sening yuksak darajada axloqli, saxovatli va shijoatli ekanligingni ko'rsat. Qanchalik harakat qilma, hunar va iste'dodingni sir saqla, olmaysan. Hunar va iste'dod mushk-anbar kabidir, u qanchalik bekitma, u shunchalik atrofga yoyiladi, hammayoqni muattar qilib yuboradi.

Sichqon dedi:

— Mubolag'ani haddan oshirib yubording. Meni do'st bo'lishga targ'ib etmoqdasan, lekin kichkina sabab bilan muhabbat iplari uzilishi mumkin. Donishmandlar deydilarki, dushman so'ziga aldanib bo'lmaydi. Muhabbatdan lof urganga yaqinlashmoq xatodir. Do'stlikda vosini qilgan dushmanning so'ziga ishongan odamning boshiga albatta suvori boshiga tushgan savdo tushadi.

Qarg'a so'radi:

— Uning boshiga nima savdo tushibdi?

Sichqonning navbatdagi hikoyati

Karvonlar yoqib ketgan gulxanning o'tini shamol uchirib, dashtga o't tushib ketgan edi. Tuya mingan bir kishi o'sha yerdan o'ta turib, olovlar o'rtasida bir ilonning to'lg'anib yotganini ko'rdi. U o't balosidan qutula olmasa, zaharli ko'zlaridan qon yosh to'kib suvoriga yalinib dedi.

— Marhamat qilib, meni bu do'zaxdan qutqar, savob bo'ladi.

Suvori rahmdil kishi edi. U ilonning zorini eshitib, bechoraga yuragi achidi, ilon, garchi odamzodga dushman bo'lsa ham, hozir qiyin ahvolda qolibdi, uni bu balodan qutqarsam savob bo'lar, deb o'yladi. U to'rvasini nayza uchiga bog'lab ilon tomonga uzatdi. Ilon sevinib to'rvaga kirdi. Suvori birozdan keyin to'rvani ochib, ilonga dedi:

Bor, eson-omon qutulganingga shukur qilib,
senga ket, bundan buyon hech kimga ozor berma.

Ilon dedi:

— Ey yigit, bu so'zlaringni qo'y. Men seni va tuyangni
sengib, zaharimni solmay ketolmayman.

Buvori dedi:

— Axir senga yaxshilik qildim, seni olovdan qutqardim,
nashim shumi?

Ilon dedi:

— Ha, sen yaxshilik qilding, ammo o'rinsiz yaxshilik
qilimg. Bilasanki, men zararli maxluqlar avlodidanman,
shuqa narsani mendan kutish mumkin emas. Nima
shun meni qutqarding? O'ldirmoq lozim edi, sen esa
damzod dushmaniga rahm qilding. Yaxshilikka
yomonlik mening kasbimdir. Yomonlarga yaxshilik qilish,
yaxshilarga yomonlik qilish, demakdir. Endi men seni
sharhasam, bu ishim senga tanbeh, o'zgalarga ibrat
bo'ladi.

Buvori dedi:

— Ey noinsof, yaxshilikka yomonlik qaysi mazhabda
bor?

Ilon dedi:

— Odamzod mazhabida bor. Men sening ijozating bilan
o'z matolaringizni o'zlaringizga sotmoqchi va o'z
kuyangizda o'zingizga zahar ichirmoqchiman. Tezroq
javob qil, avval o'zingni chaqaymi yo tevangni?

Buvori dedi:

— Meni ham chaqma, tuyamni ham.

Ilon dedi:

— Nega endi! O'zlaringiz ham yaxshilikka yomonlik
qilmoqchilar-ku!

Buvori ilonning bu gapini inkor qildi va dedi:

— Bu da'voga guvoh kerak.

Shu orada bir sigir ko'rinib qoldi.

Ilon dedi:

— Ey sigir, yaxshilikning jazosi nimadir?

Sigir dedi:

— Odamzod mazhabida yaxshilikning jazosi yomonlikdir. Men bir necha yildan beri ularnikida turaman. Har yili bola tug'ar va uylarini sut bilan qaymoqqa to'latar edim. Hozir boladan, sutdan qoldim, qaridim, o'tlab semirsin, deb meni dalaga haydab qo'ydilar. Kecha egam kelib u yog'-bu yog'imni ushlab, biroq semirganimni ko'rib, qassobga sotdi. Mana bugun so'yishga olib ketayotirlar. Yaxshiligimning jazosi shu bo'ldi.

Ilon dedi:

— Ey yigit, eshitdingmi?

Suvori dedi:

— Eshitdim, ammo bir guvohning shohidligi yetishmaydi. Yana bir guvoh kerak.

Ilon atrofga qarab bir daraxtni ko'rib, uning yoniga keldi va so'radi:

— Ey daraxt, yaxshilikning mukofoti nima?

Daraxt dedi:

— Odamzod mazhabida yaxshilikning mukofoti yomonlik, foydaning jazosi ziyondir. Dalil shuki, men bir dashtda ko'kargan birdan-bir daraxtman, odamlar issiqda horib-charchab kelib, soyamda dam olishadi. Nafaslarini rostlab olgach, yuqoriga qarab, «anavi shoxlarga dasta bo'ladi, anavinisi teshabop ekan», deb shoxlarimni kesib yoki arralab oladilar. Mendan foyda ko'rsalar ham, menga azobni ravo ko'radilar.

Ilon dedi:

— Ikki guvoh bo'ldi. Endi tan ber, seni chaqay.

Suvori dedi:

— Jon juda shirin narsa. Yana bir kishi guvohlik bersa, uzrga o'rin qolmaydi.

Ittifoqo, o'sha yerdan bir tulki o'tib qoldi. Bularni ko'rib to'xtadi-da, so'zlariga quloq soldi, keyin savol kutmasdanoq «Yaxshilikning jazosi yomonlikdir, — dedi, keyin suvoriga qarab, — sen bu ilonga nima yaxshilik qilib eding?» deb so'rab qoldi.

Suvori bo'lgan gapni aytib berdi.

Tulki dedi:

— Sen o'zing aqlli odamga o'xshaysan-u, lekin nega yolg'on gapirasan?

Ilon dedi:

— Rostini aytyapti, bu odam meni to'rvaga solib, olovdan chiqardi.

Tulki hayron bo'lib so'radi:

— Bu so'zga qanday qilib ishonsa bo'ladi, axir shunday katta ilon bu kichik to'rvaga sig'ishi mumkinmi?

Ilon dedi:

— Agar ishonmasang, to'rvaga kirib ko'rsatay, shubhaga o'rin qolmasin.

Suvori to'rva og'zini ochdi, ilon to'rvaga kirib kulcha bo'lib oldi.

Tulki dedi:

— Ey yigit, dushmaning bandga tushdi, paytni qo'ldan berma.

Suvori to'rva og'zini mahkam bog'lab yerga bir urdi, ilon majaq-majaq bo'lib ketdi.

Qissadan hissa shuki, aqlli odam ehtiyotni qo'ldan bermaydi, dushman yalinib-yolvorganda g'ururlanib ketmaydi va uning so'zlariga ishonmaydi.

Qarg'a dedi:

— Hikmatli va foydali so'zlaringni eshitdim. Lekin olijanoblik ko'rsatib, mening so'zlarimga ishon. Sen olijanoblikning sharti yaxshilikka yo'l topmoqlik ekanini juda yaxshi bilasan. To'g'ri va sof odamlar darrov do'st bo'lib oladilar, ular orasidagi do'stlik uzoqqa cho'ziladi, fitnachi odamlar darrov do'st bo'la olmaydilar, munosabatlari tez buziladi. Yaxshi va olijanob odamlar bir soatlik ko'rishish va bir kunlik tanishish muddatida odamning ko'nglini ovlaydilar. Ammo ko'pdan beri tanishish va do'st bo'lish orzusida yurgan ichi qora odamlardan marhamat va lutf ko'zlab bo'lmaydi. Ular qo'rquv va g'araz tufayli do'st bo'lishni istaydilar. Lekin men sening olijanob ekaningni ko'rib turibman. Sen do'st bo'lib meni sevintirmaguningcha, og'zimga bir qultum

suv, bir tishlam non ham olmayman, eshigingdan non ham ketmayman.

Sichqon dedi:

— Sen bilan do'st va birodar bo'lishga e'tirozim yo'q. Agar sen xiyonat qilmoq fikrida bo'lsang, bu sichqon kuyim va go'l ekan, degan fikrga bormagin, deb aytdim. Yo'q, mening tabiatimda muhtojlarga yordam berishdan bo'yig'ov tovlash, beg'araz do'st bo'lmoqni istaganlarni rad etish xosiyati yo'qdir.

Sichqon bularni aytgandan keyin o'z uyasining og'zidan chiqib o'tirdi...

Qarg'a dedi:

— Uyangdan chiqib, mening oldimga kelmasligingni va do'stlarcha suhbat qilmayotganingga ne sabab? Yoki hamon taraddud va shubha ichidamisan?

Sichqon dedi:

— Bu dunyoning odamlari bir-biriga mahram bo'lishni istasalar, do'stlik yo'lida o'z aziz jonlarini ham ayamaydilar. Bunday odamlar asl do'st va sadoqatli birodarlardir. Lekin bu dunyoda shunday toifa odamlar ham borki, ular yolg'iz o'z vaziyatlarini yaxshilamoq, qo'lga bir narsa kiritmoq, yaxshi kun kechirmoq uchun do'st bo'ladilar. Bunday odamlar mol-davlat do'stlaridir. Ular qushlarni to'ydirish uchun emas, tutish uchun don sepadigan ovchiga o'xshaydilar. Do'stlik uchun jonini fido etadigan odamning qadr-qimmatli molini fido etadigan odamdan juda va juda yuksakdir. Ravshanki, sen bilan do'stlikni tarozining bir pallasiga, jonimni bir pallasiga qo'ysam, barobar keladi. Agar men sendan shubhalanib, yomon gumonda bo'lsaydim, bunday qilmas edim. Men sening do'stligingga, aytgan so'zlaring samimiy, bergan va'dalaring haqiqiy ekanligiga ishonaman. Sening sadoqating menda hech shubha uyg'otmaydi, lekin hamjinslaring mening men kabi o'ylamaydilar. Ulardan biri meni ko'rib jonimga qasd qilmasin, deb qo'rqaman.

Qarg'a dedi:

— O'rtoqlikning shartlaridan biri, do'stning do'stlari bilan do'st, dushmanlari bilan dushman bo'lishdir...

Bu kun sening bilan mening oramizda do'stlik aytelevori qurildi, bundan keyin seni ranjitmaydigan kimningina bizga do'st bo'la oladi. Buning ustiga, men senla boq bo'lmaganlar bilan do'stlikni uzaman, sen bilan hech bir munosabatda bo'lganlar bilangina do'st bo'laman. Qirishkor bog'bonlarda shunday bir odat bor: gullar yozda sassiqlik o't ko'rsalar, darhol uni ildizi bilan tug'urib olib tashlaydilar.

Sichqon qarg'adan bu so'zlarni eshitib, ko'ngli joyiga mahdi, u sekin yurib qarg'aning oldiga keldi va behribonlik bilan uning yuz-ko'zlaridan o'pdi. Ikkalasi ham bu ko'rishishdan juda mamnun bo'ldilar.

Bir necha kun o'tgandan keyin sichqon qarg'aga dedi:
— Ey do'stim, agar bu yerda qolishni istasang, xotin, bola-chaqalaringni ham ko'chirib olib kel, hijron va firoq dardi ham kamayadi. Chunki bu yer juda bahavo, har narsaga mo'l va ko'ngil bahra topadigan joy.

Qarg'a dedi:
— Bu manzil haqiqatan ham safoli va xushmanzara ekan. Lekin bundan ham go'zal joylar bor. Men shunday bir xushmanzara xilvat joyni ko'z ostimga olib qo'rganman.

U yerda mening do'stlarimdan bir toshbaqa turadi, ko'llarida baliq, bo'stonlarida meva bisyor. Shuni ham aytayki, sening ining yo'l yoqasida, o'tgan-ketganlar ziyon-zahmat yetkazishlari mumkin. Agar istasang, o'sha yerga ketib, tinchgina umr kechiraylik.

Sichqon dedi:
— Sen bilan do'st bo'lib yonma-yon yashash menga har narsadan azizdir. Sen bilan ketmasam, kim bilan ketaman? Men ham o'z ra'yim bilan bu yerga kelgan emasman, buning tarixi uzun va maroqlidir. Bir kuni, joyi kelganda aytib beraman.

Qarg'a sichqonning dumidan tishlab toshbaqa yushaydigan tarafga qarab uchdi. Toshbaqa suv labida

o'tirgan edi. Ularni ko'rib qo'rqqanidan suv tagiga sho'ng'idi. Qarg'a sichqonni sekin yerga qo'ydi-da, toshbaqani chaqirdi. Toshbaqa qarg'aning ovozini tanib suvdan chiqdi. Bir-birlari bilan ko'rishib, hol-ahvol so'rashdilar. Qarg'a bo'lgan ishlarni avvalidan oxirigacha gapirib berdi. Kabutarlarning tuzoqqa tushgani, ularning orqasidan borgani, sichqonning ularga ko'rsatgan yordami, shu tufayli sichqon bilan do'stlashgani, bir necha kun uning mehmoni bo'lgani, so'ngra bu yerga toshbaqani ko'rish uchun kelganlarini aytib berdi. Toshbaqa sichqonning bunchalik aqlli va sadoqatli ekanligini eshitib uni mehribonlik bilan qarshi oldi, e'zoz-ikrom qilib dedi:

— Toile o'zi seni bu yerga keltiribdur. Senday sadoqatli va marhamatli kimsa bu yerlarning zeb-ziynati bo'ladi.

Qarg'a sichqonga dedi:

— Agar munosib bo'lsa, menga aytib bermoqchi bo'lgan hikoyangni aytib bersang. Toshbaqa ham eshitsa, chunki endi u ham yaqin va samimiy do'stingdir.

Sichqon so'z boshladi:

— Mening aslim Nishopurdandur. Men u yerda bir zohid uyining kovagida onadan tug'ilganman. Bir necha sichqonlar mening xizmatimda edilar. Zohidning xotini yo'q edi. Har kun muridlaridan biri uyidan ovqat keltirardi. Undan zohid bir qismini yeb, qolganini kechqurunga olib qo'yardi. U tashqariga chiqishi bilanoq u taomdan xohlaganimcha yeb, qolganini boshqa sichqonlarga berar edim. Zohid bizdan achchig'i chiqib yangi-yangi hiyla-nayrang ishlatib taomni har xil yerlarga yashira boshladi. Lekin foydasi bo'lmadi. Ko'p vaqtgacha ahvol shunday o'tdi. Kunlardan bir kun zohidning uyiga mehmon keldi. Kechki taomdan so'ng, zohid mehmondan qayerdan kelganini, qayerga borishini so'radi. Mehmon achchiq-chuchukni totgan, yaxshi-yomonni ko'rgan odam edi, zohidga ko'p ajoyib va g'aroyib narsalarni so'zlab berdi. Zohid vaqti-vaqti bilan sichqonlarni quvmoqchi bo'lib qarsak urib qo'yardi.

Mehmon g'azablanib dedi:

— Ey zohid, men so'zlayotganimda qarsak chalganingiz nimasi? Bu bilan meni behurmat qilyapsiz-ku.

Zohid uzr so'rab dedi:

— Men qarsak chali b sichqonlarni quvmoqchiman, chunki nima qo'ysam, hammasini yeb ketyaptilar.

Mehmon so'radi:

— Hammalari shunday jur'atlimi?

Zohid dedi:

— Bittasi juda ham surbet, hech narsadan qo'rqmaydi, dindagi dasturxondan ham non olib ketadi.

Mehmon dedi:

— Bo'lmasa, boshqalarni jasoratlantiradigan ham o'sha sichqon. Bu narsa mening yodinga bir kishining: «Bir balosi bo'lmasa, bu xotin po'sti tozalangan kunjutni tozalanmagan kunjutga almashtirardi», degan so'zlarini tushirdi.

Zohid so'radi:

— U qanday hikoya ekan?

Mehmonning hikoyati

Kelayotganimda kechqurun bir oshnamnikiga tushdim. Kechki ovqatdan keyin menga joy soldilar. Uy egasi otinining yoniga ketdi. Ular bilan men yotadigan joy chiy bilan ajratilgan edi. Binobarin, suhbatlarini baralla eshitar dim.

U kishi xotiniga dedi:

— Ey xotin, ertaga tanishlarni chaqirib, kelgan aziz mehmonimiz sharafiga bir ziyofat bersam deymen.

Xotini dedi:

— Uyda xotining, bola-chaqang yegulik taoming yo'qim, ziyofat berish xayolidasan. Bugun qodir bo'lsang ham otinini o'yla, toki bolalaring bir burda nonga zor bo'lmagaylar, aks holda, ularning yuziga qanday qarayasan?

Kishi dedi:

— Ehson va mehmondorchilikka sarf bo'ladigan mabnan qizg'anish insofdan emas. Xasislik qilish va

ortiqcha mol yig'ish yaxshi ish emas, bu yaxshi natija bermaydi, bo'rining boshiga tushgan falokat boshingga tushadi.

Xotini so'radi:

— Bo'rining boshiga qanday falokat tushibdi?

Hikoyat

Bir ovchi chiqib bir ohuni otdi va uni orqalab olib uyiga ravona bo'lmoqchi ham ediki, bir yovvoyi to'ng'iz ularga hujum qildi. Ovchi unga o'q uzdi. To'ng'iz jon talvasasida o'zini ovchiga otdi va uni qornidan yorib halok qildi va o'zi ham halok bo'ldi. Shu vaqtda bir och bo'ri kelib qarasa, bir ovchi, bir cho'chqa va bir ohu o'lib yotibdi. U juda xursand bo'ldi. Uning ochko'zligi tutib, o'z-o'ziga dedi: «Bu ovqatlarni ehtiyot qilib saqlab qo'yish kerak. Eng yaxshisi, bu toza go'shtlarni bir chekkaga yig'ib qo'yay, og'ir kunlarimga yaraydi. Buguncha kamonning tirqishi bilan kifoyalanay». Bo'ri harislik qilib kamonni tortib turgan tirqishni yeya boshladi, kamon ochilib ketib bir uchi bo'g'ziga tiqildi. Bo'ri o'sha ondayoq jon berdi.

Bu masalni shuning uchun keltirdimki, bilib qo'y ochko'zlik qilib mol yig'moqning foydasi yo'qdir.

Xotini dedi:

— Gaping to'g'ri. Uyda biroz guruch va kunjut bor. Olti-etti odamga yetadigan taom pishiray, istagan kishilaringni taklif qila qol.

Ertasiga ertalab turib xotin kunjutni oqladi va uni oftobga yoydi, eriga qushlarni quvib turishlikni tayinlab, o'zi boshqa ishlar bilan mashg'ul bo'ldi. Sal o'tmay erini uyqu elitdi. Bir it kelib kunjutga og'zini tegizdi. Xotin buni ko'rib qolib, o'sha kunjutdan taom tayyorlashga jirkandi. Kunjutni bozorga olib borib, oqlangan kunjutni shu miqdordagi oqlanmagan kunjutga almashtirib oldi. Men o'sha yerda turgan edim, bir kishining: «Bir balosi bo'lmasa bu xotin oqlangan kunjutni oqlanmagan kunjutga almashtirib ketarmidi», deganini eshitib qoldim.

O'ylaymanki, uyingdagi sichqonning bunday jasoratli bo'lishida albatta bir sir bo'lishi kerak. Bir bolta keltiring, men uning inini buzib ko'ray, nimasi bor ekan.

Zohid darhol bolta olib keldi. Men boshqa teshikdan ularning so'zlarini eshitib turardim. Uyamda mingta qizil tilla bor edi, ularni kim qo'yganligini bilmasdim, lekin hamisha ularni o'ynab, ustida ag'anab, terimga sig'may yurar edim. Belimning quvvati, jonimning rohati shu tillalar edi. Tillam borligi yodimga tushsa quvonib ketib, o'zimda jasorat his etar edim.

Mehmon inimni buza boshladi. Tillalarimni topib olib, zohidga dedi:

— Mana sichqonga jur'at bag'ishlagan narsa shu. Davlat aql chirog'i, quvvat manbaidir. Ko'rasan, bundan so'ng sichqon quvvati va jasoratini yo'qotadi.

Men bu so'zlarni eshitgach, badanimda bir zaiflik, ruhimda bir tushkunlik sezdim. Endi bu uyda qola olmasligimni angladim. Biroz o'tgach, sichqonlar oldida obro'yim qolmadi, qadrim ketdi. Ular avvalgidek bosh egib salom berishni tark etib, meni o'rinli-o'rinsiz ta'na qila boshladilar. Mendan avvalgidek zohidning uyidan taom o'g'irlab olib chiqishimni talab qildilar, bu ishning uddasidan chiqolmaganimdan keyin men bilan so'zlashmaydigan bo'ldilar, bir-birlariga: «Bu ish uning qo'lidan kelarmidi, biroz vaqtdan keyin o'zi bizga muhtoj bo'lib qoladi», der edilar. Hammalari mendan yuz o'girib, dushmanlarimga qo'shildilar. Shunday maqol bor: «Kimning moli qo'lidan ketsa, shu bilan birga uning hurmati ham ketadi». Men o'z-o'zimga dedim: «Mol-davlati bo'lmaganning do'st-oshnasi ham, qavm-qarindoshi ham bo'lmaydi. Mol-mulki bo'lmaganga yaxshi gap aytmaydilar, yordam va maslahat ham bermaydilar».

Bundan qiyos olib, qo'li kalta, yo'qsil bir odam biror ish boshlamoqchi bo'lsa, buning oxiri nima bilan tugashini tasavvur etish qiyin emas. Faqirlik uning qo'l-oyog'ini ipsiz bo'lg'lab qo'yadi, o'z maqsadiga yetolmaydi, hech narsaga

havas qilmaydi. U bamisoli yoz yomg'iri: na oqib daryoga to'kiladi, na to'planib soy bo'ladi.

Birodari bo'lmagan kishi g'aribdir, farzandsiz bo'lsa nomi tez unutiladi, puli bo'lmaganni aqlsiz, deb hisoblaydilar. Vabo kasaliga duch kelgan odam kulu hamma yo'qsildan qochadi, g'am va alam lashkari uning ustiga hujum qiladi, bunday odam qavmu qarindosh orasida ham xor bo'ladi...

Ko'pincha inson tirikchiligini o'tkazish, oilani to'ydirish uchun noloyiq yo'llarga kirishga ham majbur bo'lib qolish rasvo bo'ladi. Shu ravishda u dunyoni ham, bu dunyoni ham qo'ldan berib qo'yadi. Sho'rob joyda bitgan, har kim shoxini egib, sindirib ketgan daraxt, har kimdan turtib yeb, do'stga zor bo'lgan kambag'alga o'xshaydi. Kambag'allik eng katta baxtsizlik va zo'r musibatdir. Muhtojlik odamni hammaga dushman, behayo qiladi, insof va muruvvatini qo'lidan oladi, quvvat va idrokini zaiflashtiradi. Muhtojlik gunoh va fasod manbaidir. Kimki kambag'allik va muhtojlikka tushsa, uning sharmi, obro'si ham ketadi. Hayoni qo'ldan bergan odam keksa saqlaydigan va so'kishadigan bo'ladi, g'am pardasi uning aqlini qoplaydi, farosati, zehn-zakosi ozayadi. Bunday baxtsizlikka muhtalo bo'lgan odamning butun qilgan ishi, so'zi hammaga yomon ko'rinadi, beradigan maslahatlar o'ziga ziyon yetkazadi. Ilgari uni yaxshi, deb yurgan do'stlari uni yomon odam, deb hisoblaydilar, boshqalarning gunohini ham uning bo'yniga to'nkaydilar. Boylar aytganda maqtovga sazovor bo'lgan so'zni kambag'al aytsa, uni nafrat va ta'na bilan qarshi oladilar. Agar kambag'al shijoat ko'rsatsa, uni qo'pol va nodon deydilar, saxiylik qilsa, isrofgar deydilar, muloyim bo'lsa qo'rqqoq deydilar, hikmatli so'zlar aytsa, sergap deb, xomush va sokit o'tirsa, tilsiz hayvon, deydilar. Xullas, bunday yo'qsillikdan o'lim yaxshiroqdir. Don og'ziga qo'l tiqib zahar olmoq yoki och sher oldidan go'sht olib qochmoq, nomard odamdan bir narsa so'ragandan osondir. Debduurlarki, sog'ayish ehtimoli bo'lmagan

qatilik, visol umidi bo'lmagan hijron, umrbod g'ariblik
yo'qsillik va tilanchilikdan yaxshidir. Muhtojlikda
tilanchilik bilan yashamoq o'lim demakdir. Bunday
odamning o'limi hayotiga qaraganda rohatdir.

Ko'pincha inson uyalganidan yoki izzat-nafsi
kuchliligidan kambag'al va nochor ekanligini ayta olmaydi.
Muhtojlik zo'r bo'lsa, nomusli odamni ham oxirida
ayonatga, xalqning moliga qo'l cho'zishga majbur etadi.
Olimlar debdurlarki: «Indamaslik — yolg'on gapirishdan,
duduqlanish — so'kinishdan, kambag'allikka chidash —
og'riqlik bilan mol to'plashdan yaxshidir».

Shundan keyin zohid bilan mehmoni tillalarimni
bo'lishib oldilar. Teshikdan qarab turgan edim, mehmon
o'z hissasini olib yostiq ostiga qo'ydi. Men shu puldan
biroz qo'lga kiritsam, yana biroz kuchga kirarman, do'st,
rahna, qavmu qarindoshlar orasida hurmat qozonarman,
degan qarorga kelib, kechasi inimdan chiqib yostiq tomon
yugurgan edim, mehmon uyg'oq ekan, bir yog'och bilan
niyamga tushirdi. Og'riqning zo'ridan sudrala-sudrala
timga qaytib keldim. Biroz o'tgach, og'riqlarim bosildi.
Yana tama jo'sh urib, ikkinchi dafa tashqari chiqdim.
Mehmon meni kutib o'tirgan ekan, yana yog'och bilan
yaxshilab tushirdi... Kaltak zarbidan ko'z oldimda
chaqqoq chaqqanday bo'ldi — og'riq butun dunyo
mollarini men uchun bir pul qilib yubordi... Biroz o'zimga
kelgandan so'ng fikr qila boshladim. Butun balolar
manbai tamagirlik va butun jafolar sababi harislik ekani
menga ma'lum bo'ldi. Bu dunyodagi insonlarning aziyat
va mashaqqatlarining hammasi tamagirlik bilan bog'liqdir.

Kichkinagina bola kuchli bir tuyaning boshiga no'xta
urib, uni istagan yerga olib borgani kabi, tama va
ochko'zlik ham insonlarning bo'yniga arqon solib, ularni
xohlagan joyga sudraydi... Tajribaga asoslanib shunday
desa bo'ladi: asl boylik — ko'zi to'qlik va qanoatdir. Baxt-
saodatning negizi ham shudir...

Debdurlarki, axloqli bo'lish seribodat bo'lishdan,
qanoat boylikdan afzaldir. Olimlar debdurlarki, eng

ortiqcha mol yig'ish yaxshi ish emas, bu yaxshi natija bermaydi, bo'ring boshiga tushgan falokat boshingga tushadi.

Xotini so'radi:

— Bo'ring boshiga qanday falokat tushibdi?

Hikoyat

Bir ovchi chiqib bir ohuni otdi va uni orqalab olib uyiga ravona bo'lmoqchi ham ediki, bir yovvoyi to'ng'iz ularga hujum qildi. Ovchi unga o'q uzdi. To'ng'iz jon talvasasida o'zini ovchiga otdi va uni qornidan yorib halok qildi va o'zi ham halok bo'ldi. Shu vaqtda bir och bo'ri kelib qarasa, bir ovchi, bir cho'chqa va bir ohu o'lib yotibdi. U juda xursand bo'ldi. Uning ochko'zligi tutib, o'z-o'ziga dedi: «Bu ovqatlarni ehtiyot qilib saqlab qo'yish kerak. Eng yaxshisi, bu toza go'shtlarni bir chekkaga yig'ib qo'yay, og'ir kunlarimga yaraydi. Buguncha kamonning tirqishi bilan kifoyalana». Bo'ri harislik qilib kamonni tortib turgan tirqishni yeya boshladi, kamon ochilib ketib bir uchi bo'g'ziga tiqildi. Bo'ri o'sha ondayoq jon berdi.

Bu masalni shuning uchun keltirdimki, bilib qo'y ochko'zlik qilib mol yig'moqning foydasi yo'qdir.

Xotini dedi:

— Gaping to'g'ri. Uyda biroz guruch va kunjut bor. Olti-etti odamga yetadigan taom pishiray, istagan kishilaringni taklif qila qol.

Ertasiga ertalab turib xotin kunjutni oqladi va uni oftobga yoydi, eriga qushlarni quvib turishlikni tayinlab, o'zi boshqa ishlar bilan mashg'ul bo'ldi. Sal o'tmay erini uyqu elitdi. Bir it kelib kunjutga og'zini tegizdi. Xotin buni ko'rib qolib, o'sha kunjutdan taom tayyorlashga jirkandi. Kunjutni bozorga olib borib, oqlangan kunjutni shu miqdordagi oqlanmagan kunjutga almashtirib oldi. Men o'sha yerda turgan edim, bir kishining: «Bir balosi bo'lmasa bu xotin oqlangan kunjutni oqlanmagan kunjutga almashtirib ketarmidi», deganini eshitib qoldim.

O'ylaymanki, uyingdagi sichqonning bunday jasoratli bo'lishida albatta bir sir bo'lishi kerak. Bir bolta keltiring, men uning inini buzib ko'ray, nimasi bor ekan.

Zohid darhol bolta olib keldi. Men boshqa teshikdan ularning so'zlarini eshitib turardim. Uyamda mingta qizil tilla bor edi, ularni kim qo'yganligini bilmasdim, lekin hamisha ularni o'ynab, ustida ag'anab, terimga sig'may yurar edim. Belimning quvvati, jonimning rohati shu tillalar edi. Tillam borligi yodinga tushsa quvonib ketib, o'zimda jasorat his etar edim.

Mehmon inimni buza boshladi. Tillalarimni topib olib, zohidga dedi:

— Mana sichqonga jur'at bag'ishlagan narsa shu. Davlat aql chirog'i, quvvat manbaidir. Ko'rasan, bundan so'ng sichqon quvvati va jasoratini yo'qotadi.

Men bu so'zlarni eshitgach, badanimda bir zaiflik, ruhimda bir tushkunlik sezdim. Endi bu uyda qola olmasligimni angladim. Biroz o'tgach, sichqonlar oldida obro'yim qolmadi, qadrim ketdi. Ular avvalgidek bosh egib salom berishni tark etib, meni o'rinli-o'rinsiz ta'na qila boshladilar. Mendan avvalgidek zohidning uyidan taom o'g'irlab olib chiqishimni talab qildilar, bu ishning uddasidan chiqolmaganimdan keyin men bilan so'zlashmaydigan bo'ldilar, bir-birlariga: «Bu ish uning qo'lidan kelarmidi, biroz vaqtdan keyin o'zi bizga muhtoj bo'lib qoladi», der edilar. Hammalari mendan yuz o'girib, dushmanlarimga qo'shildilar. Shunday maqol bor: «Kimning moli qo'lidan ketsa, shu bilan birga uning hurmati ham ketadi». Men o'z-o'zimga dedim: «Mol-davlati bo'lmaganning do'st-oshnasi ham, qavm-qarindoshi ham bo'lmaydi. Mol-mulki bo'lmaganga yaxshi gap aytmaydilar, yordam va maslahat ham bermaydilar».

Bundan qiyos olib, qo'li kalta, yo'qsil bir odam biror ish boshlamoqchi bo'lsa, buning oxiri nima bilan tugashini tasavvur etish qiyin emas. Faqirlik uning qo'l-oyog'ini ipsiz bog'lab qo'yadi, o'z maqsadiga yetolmaydi, hech narsaga

havas qilmaydi. U bamisoli yoz yomg'iri: na oqib daryo to'kiladi, na to'planib soy bo'ladi.

Birodari bo'lmagan kishi g'aribdir, farzandsiz bo'lsa nomi tez unutiladi, puli bo'lmaganni aqlsiz, deb hisoblaydilar. Vabo kasaliga duch kelgan odam kabi hamma yo'qsildan qochadi, g'am va alam lashkari uning ustiga hujum qiladi, bunday odam qavmu qarindosh orasida ham xor bo'ladi...

Ko'pincha inson tirikchiligini o'tkazish, oilani to'ydirib uchun noloyiq yo'llarga kirishga ham majbur bo'lib qolib rasvo bo'ladi. Shu ravishda u dunyoni ham, bu dunyoni ham qo'ldan berib qo'yadi. Sho'rob joyda bitgan, har kim shoxini egib, sindirib ketgan daraxt, har kimdan turtib yeb, do'stga zor bo'lgan kambag'alga o'xshaydi. Kambag'allik eng katta baxtsizlik va zo'r musibatdir. Muhtojlik odamni hammaga dushman, behayo qiladi, insof va muruvvatini qo'lidan oladi, quvvat va idrokni zaiflashtiradi. Muhtojlik gunoh va fasod manbaidir. Kimki kambag'allik va muhtojlikka tushsa, uning sharini obro'si ham ketadi. Hayoni qo'ldan bergan odam keksa saqlaydigan va so'kishadigan bo'ladi, g'am pardasi uning aqlini qoplaydi, farosati, zehn-zakosi ozayadi. Bunday baxtsizlikka muhtalo bo'lgan odamning butun qilgan ishi, so'zi hammaga yomon ko'rinadi, beradigan maslahatlari o'ziga ziyon yetkazadi. Ilgari uni yaxshi, deb yurgan do'stlari uni yomon odam, deb hisoblaydilar, boshqalarning gunohini ham uning bo'yniga to'nkaydilar. Boylar aytganda maqtovg'a sazovor bo'lgan so'zni kambag'al aytsa, uni nafrat va ta'na bilan qarshi oladilar. Agar kambag'al shijoat ko'rsatsa, uni qo'pol va nodon deydilar, saxiylik qilsa, isrofgar deydilar, muloyim bo'lsa qo'rqqoq deydilar, hikmatli so'zlar aytsa, sergap deb, xomush va sokit o'tirsa, tilsiz hayvon, deydilar. Xullas, bunday yo'qsillikdan o'lim yaxshiroqdir. Don og'ziga qo'l tiqib zahar olmoq yoki och sher oldidan go'sht olib qochmoq, nomard odamdan bir narsa so'ragandan osondir. Deb durlarki, sog'ayish ehtimoli bo'lmagan

talik, visol umidi bo'lmagan hijron, umrbod g'ariblik
yo'qsillik va tilanchilikdan yaxshidir. Muhtojlikda
tilanchilik bilan yashamoq o'lim demakdir. Bunday
olamning o'limi hayotiga qaraganda rohatdir.

Ko'pincha inson uyalganidan yoki izzat-nafsi
kuchliligidan kambag'al va nochor ekanligini ayta olmaydi.
Muhtojlik zo'r bo'lsa, nomusli odamni ham oxirida
ayonatga, xalqning moliga qo'l cho'zishga majbur etadi.
Olimlar debdurlarki: «Indamaslik — yolg'on gapirishdan,
shududlanish — so'kinishdan, kambag'allikka chidash —
og'rilik bilan mol to'plashdan yaxshidir».

Shundan keyin zohid bilan mehmoni tillalarimni
bo'lishib oldilar. Teshikdan qarab turgan edim, mehmon
og'riq hissasini olib yostiq ostiga qo'ydi. Men shu puldan
biroz qo'lga kiritsam, yana biroz kuchga kirarman, do'st,
rahna, qavmu qarindoshlar orasida hurmat qozonarman,
degan qarorga kelib, kechasi inimdan chiqib yostiq tomon
yugurgan edim, mehmon uyg'oq ekan, bir yog'och bilan
niyamga tushirdi. Og'riqning zo'ridan sudrala-sudrala
inimga qaytib keldim. Biroz o'tgach, og'riqlarim bosildi.
Yana tama jo'sh urib, ikkinchi dafa tashqari chiqdim.
Mehmon meni kutib o'tirgan ekan, yana yog'och bilan
yaxshilab tushirdi... Kaltak zarbidan ko'z oldimda
chaqqoq chaqqanday bo'ldi — og'riq butun dunyo
mollarini men uchun bir pul qilib yubordi... Biroz o'zimga
kelgandan so'ng fikr qila boshladim. Butun balolar
manbai tamagirlik va butun jafolar sababi harislik ekani
menga ma'lum bo'ldi. Bu dunyodagi insonlarning aziyat
va mashaqqatlarining hammasi tamagirlik bilan bog'liqdir.

Kichkinagina bola kuchli bir tuyaning boshiga no'xta
urib, uni istagan yerga olib borgani kabi, tama va
ochko'zlik ham insonlarning bo'yniga arqon solib, ularni
sohlagan joyga sudraydi... Tajribaga asoslanib shunday
desa bo'ladi: asl boylik — ko'zi to'qlik va qanoatdir. Baxt-
saodatning negizi ham shudir...

Debdurlarki, axloqli bo'lish seribodat bo'lishdan,
qanoat boylikdan afzaldir. Olimlar debdurlarki, eng

buyuk yaxshilik — saxovat va qo'li ochiqlikdir, eng go'zal vaqt — do'stu oshnolar bilan kechirilgan kundir, eng koinil aql — bo'lishi mumkin bo'lgan ish bilan bo'lmaydigan ishni bir-biridan ajrata bilishdir.

Oxirda men bir parcha nonga qanoat qilib, o'zimni taqdirning ixtiyoriga topshirdim va zohidning uyidan sahroga ko'chdim. Mening bir kabutar do'stim bor edi. U tufayli qarg'a bilan do'stlashdim. Sening fazilatlarining haqidagi qarg'aning aytgan so'zlari menda bu yerga kelish, seni ziyorat qilib, suhbatindan bahramand bo'lish orzusini tug'dirdi. Chunki g'oyiban ta'rifingni eshitgan o'zingni ko'rgandek sen bilan do'st bo'lib qoladi... Qarg'a sening yoningga kelmoqchi ekanligini eshitib, men ham sen bilan do'st bo'lish va shunday qilib, g'ariblik, yolg'izlik dahshatidan yoqani bo'shatish maqsadida unga hamroh bo'lib keldim. Yolg'izlik juda og'irdir. Dunyoda hech bir shodlik do'stlar suhbatidan ortiq bo'lmaydi va hech g'am va mashaqqat birodarlardan ajralishdek og'ir tuyulmaydi. Hijron shunday og'ir yukki, uni hamma ham ko'tarolmaydi, visol shunday shirin sharbatki, hech kim uni oxirigacha ichishga muvaffaq bo'lmaydi... Bu aytilganlardan ravshan bo'ladiki, aqlli odam dunyo molidan o'ziga yashash uchun kerak bo'lganinigina olishi va eng zaruriy narsalar bilan kifoyalanishi lozim. Eng zaruriy narsa: oziq-ovqat, kiyim-kechak va boshpanadan iboratdir. Men bu yerga kelib sen bilan do'st va birodar bo'lishimdan g'oyat faxrlanaman, sen ham meni muhabbatingdan bebahra qilmaysan deb, umidvorman.

Toshbaqa sichqonning bu so'zlariga jiddiy e'tibor berib quloq soldi, fashohat va balog'atli so'zlar bilan javob berdi.

— Men sening gaplaringni eshitdim. Go'zal va ibratli nutqi! Lekin bu yerga kelganingdan norozidek ko'rinasan. Bosh omon bo'lsin, har xil narsalarga yuragingdan joy beraverma. Chunki go'zal so'zlar faqat amalga oshirilgandagina chiroyli natijalar bera oladi. Muolaja yo'lini topgan kasal odam unga amal qilmasa, tabobat ilmini bilgani foydasiz. Olim o'zini ishda oqlashi, nqi

namaralaridan istifoda eta bilishi, mol-dunyoning ozligidan ranjimasligi kerak...

Bog'lanib sandiqqa solingan sher o'z kuchini yo'qotmagani kabi, ilm va hunar egasi ham badavlat bo'lmasa-da, o'z izzat-hurmatini yo'qotmaydi. Aksincha, itning bo'yniga oltin zanjir bog'lansa-da, hamma joyda harom hisoblangani kabi, iste'dodsiz, saxovatsiz davlatmand ham nafratga duchor bo'ladi.

Sen g'aribman deb o'ylab, uni o'zing uchun dardga aylantirma, chunki aqlli odamlarning har qayerda kuni o'taveradi. Noshukr bo'lish yaxshi emas. Og'ir kunlarda va kambag'allikda sabrdan boshqa ko'rkam fazilat bo'lmaydi. Sabr qilib nafsni tiya bilish kerak. Kimiki bunga qobil ekan, suv soylikni, o'rdak ko'lni topgani kabi, kushbaxtlik va saodat eshiklari unga ochiladi. Yosh ayollar «sharti ketib, parti qolgan» qari chollar suhbatidan qochganlari kabi, ilm va hunar ham tanbal va inhyoqmaslarga nasib bo'lmaydi. «Mol-davlatim qo'limdan ketdi» deya afsuslanma, chunki bu dunyoning boyligi o'smonga uchirilgan pufakka o'xshagan bir narsa. Uning qachon va qayerga tushishini bilib bo'lmaydi...

Donishmandlar aytibdurlarki, bir necha narsa dunyoda uzoq muddat qola olmaydi: bulutning soyasi, yomon odamning do'stligi, suyuq oyoq, lafzi bo'sh xotinlarning lahqi, yolg'on maqtov, mol-dunyoning ko'pligi, devonaning lutf-karami, yoshlarning go'zalligi. Oqil odamlarga davlatning ko'pligidan xursand, ozligidan xafa bo'lish yurashmaydi, u faqat hunar va san'atini o'z moli deb hisoblashi kerak. Chunki, bular shunday bir bitmas-tuganmas xazina va davlatki, uni hech kim insondan tortib ololmaydi. Falakning aylanishi unga ta'sir eta olmaydi... Benga nasihat qilib o'tirishimga hojat yo'q va o'z foydangni qararingdan yaxshi farq qila bilasan. Bugun sen bizning nazir do'stimiz va birodarimizsan, qo'limizdan kelganicha seni e'zozlab, hurmatingni joyiga keltiramiz.

Qarg'a toshbaqaning sichqonga iltifot bilan muomala qilganini ko'rib dedi:

— Meni juda sevindirding, o'zim ham sendan boshqa narsa kutmagan edim. Xursandchilik barcha uchun eshigi ochiq bo'lgan odamlarga nasib bo'ladi. Yaqin do'stlar, qavm-qarindoshlar uning marhamati va yordami bilan yaxshi umr kechirib uni duo qilgaylar, muhtojlar uning eshigidan noumid va quruq qaytmagaylar, yaxshi va sodiq do'stlar hamisha uning boshidan arimagaylar... Saxiy odam qiyinchilikka tushsa, lutf-karamli, olijanob odamlar unga yordamga keladilar. Botqoqlikka botgan filni faqat filgina chiqara oladi. Aqlli odam hamisha hunar o'rganib yaxshi nom qoldirishga intiladi. U xavf ostida qolsa ham, hatto boshi tahlika ostida qolsa ham qo'rqmay yaxshilik qiladi. Chunki u bu bilan o'tkinchi dunyo o'rniga abadiylikni, ozga ko'pni xarid qilgan bo'ladi... Boshqalarga yordam qilmagan boy odam davlatmand hisoblanmaydi. Umr bo'yi yomon ishlar bilan mashg'ul bo'lib xalqni ranjitadigan odamning nomi insoniylik daftariga yozilmaydi.

Qarg'a bu so'zlarni gapirib turgan vaqtida uzoqdan chopib kelayotgan bir ohu ko'rindi. Uni ovchi quvib kelyapti, deb gumon qilib, sichqon o'zini iniga oldi, toshbaqa o'zini suvga urdi, qarg'a esa daraxtga chiqib oldi.

Ohu suv labiga kelib biroz suvdan ichdi, so'ngi quloqlarini chimirib turaverdi. Ohuni bunday ahvolda ko'rgan qarg'a ovchi kelayotgani yo'qmi, deb o'ng va so'lga qaradi, lekin hech kimni ko'rmadi. U pastga tushib toshbaqani chaqirdi, sichqon ham inidan chiqdi. Hammalari ohuning yoniga keldilar. Ohuning qo'rqanligini ko'rgan toshbaqa rahmi kelib so'radi:

— Nima bo'ldi, qayerdan kelyapsan?

Ohu dedi:

— Men hamisha sahroda yashayman. Ovchilar doim meni har tarafga quvadilar. Bugun bir qari cholni uchratdim, uni ovchi, deb o'ylab bu yerga qochib keldim.

Toshbaqa dedi:

— Qo'rqma, bu yerlarga ovchilar oyoq bosmaydi. Kel, do'st bo'laylik. Ulug'lar: «Do'stlar qancha ko'p bo'lsa, bala

shuncha kam yopishadi», deganlar. Bu yer juda yaxshi chamanzor, rohat qilib yashaysan.

Ohu ular bilan do'st bo'lib, chamanzorda qolishga rozi bo'ldi. Atrofi qamish bilan o'ralgan joyga yig'ilishib suhbat qurishar, bir-birlariga hikoyalar aytishar, sarguzashtlarini so'zlab berishar va shod-xurram kun kechirishar edi.

Bir kuni qarg'a, sichqon va toshbaqa odatdagidek shu yerga yana to'plandilar. Bir soatcha ohuni kutdilar. U kelmadi. Xavotir olib, qarg'aga dedilar:

— Havoga uchib, atrofni qara, zora ohudan bizga biror xabar keltirsang.

Qarg'a uchib borib ko'p joylarni qaradi, nihoyat, ohuning to'rga tushib yotganini ko'rdi. Darhol qaytib kelib, voqeani do'stlariga aytib berdi. Qarg'a va toshbaqa sichqonga dedi:

— Birodar, bu masalada sendan boshqaga umid bog'lab bo'lmaydi. Tez bo'l, fursat qo'ldan ketmasin.

Sichqon tezlik bilan ohu yoniga keldi va dedi:

— Azizim, nima bo'ldi, nega shuncha ehtiyotliging va hushyorliging bilan bu baloga yo'liqding?

Ohu dedi:

— Taqdir qarshisida ehtiyotkorlik ham ojiz qoladi. Balo qachon kelib yoqaga yopishishini bila oladimi kishi? Bir vaqt qayrilib qarasang, o'zingni balo zanjirida ko'rasan.

Shu payt toshbaqa kelib qoldi. Ohu unga dedi:

— Do'stim, nega kelding? Agar sichqon tuzoqning to'rlarini kesib, meni qutqarsa-yu, birdan ovchi kelib qolsa, sen nima qilasan? Men qochib jonimni qutqaraman, sichqon teshikka kiradi, qarg'a osmonga uchadi, sen nima qilasan? Nega kelding?

Toshbaqa dedi:

— Birodar, qanday qilib kelmayin? Do'stlardan uzoqda, firoq va hijronda kechgan hayotning nima lazzati bor? Qanday aqli odam ayriliqni afzal ko'radi. Baxtsizlik yuz berganda odamga tasalli beradigan, og'ir kunlaringda dardingni yengil qiladigan do'stlar bilan birga bo'lish lozim. Hijron o'tida yongan, do'stlardan uzoqqa tushgan

odamning dili hamisha g'am va alam bilan to'la, sihatlik uning vujudidan yiroq bo'ladi, sabr va qanoat uni tarqatadi, aql va kamolot o'z kuchini yo'qotib, foydasiz bo'lib qoladi.

Toshbaqa so'zini tugatmay, uzoqdan ovchining kelayotganiga ko'zi tushdi. Sichqon iplarni kesib bo'lgan edi, ohu turib qochdi, sichqon o'zini teshikka oldi va qarg'a uchib ko'kka ko'tarildi. Ovchi kelib to'rtning qir qilganini ko'rdi, hayron bo'lib u yoq-bu yoqqa qaradi, toshbaqaga ko'zi tushdi va uni to'rtvaga o'rab shaharga jo'nadi.

Do'stlar ovchi ketishi bilanoq yig'ilib, toshbaqani qidirib boshladilar. Uni ovchi olib ketganini anglab, faryod ko'tardilar...

Sichqon dedi:

— Buni qarangki, bir balodan qutulib, ikkinchisiga tutildik. Ammo hikmatli odamlar to'g'ri aytganlar: inson umidsizlikka, sarosimaga tushmasligi kerak, aks holda, balo seldek yog'ilaveradi, falokat to'liqlari kuchayaveradi. Kishi bir qoqilmaguncha o'zini bardam sezadi, notekis yerda bir qoqildimi, bo'ldi, kaftdek tekis joyda ham qoqilaveradi. Do'stlardan ajralishdan ham og'ir musibat bormi dunyoda? Firoq alangasi yetti daryoni quritadi.

Qarg'a va ohu dedi:

— Qanchalik kuyib-pishmaylik va zor-zor yig'lamaylik, go'zal iboralar va ta'sirli so'zlar aytmaylik, bulardan toshbaqaga hech foyda yo'q. Bir tadbir topib, toshbaqani qutqarmoq kerak. Ulug'lar debdurlarki, shijoatli va kuchli botirilar — urushda, xotin va farzandlar — kambag'allikda, do'st va birodarlar — boshga kulfat tushganda taniladilar.

Sichqon ohuga dedi:

— Bir chora topdim: sen ovchining yo'lidan chiqib o'zingni yarador ko'rsatasan. Qarg'a go'yo seni tiratib o'ldirmoqchi bo'lganday, boshingga qo'nib oladi. Ovchi seni ko'rishi bilan tutib olish niyatiga tushadi va toshbaqani yerga qo'yadi. U senga yaqinlashgan sari sen cho'loqlanib, yiqilib-turib undan uzoqlashaverasan. Lekin shoshilib juda tez qochma, aks holda, ovchi senda

umidini uzib, orqasiga qaytishi mumkin. Agar sen bir soatcha uning boshini aylantirsang, men bu muddatda toshbaqani ovchi to'rtvasidan ozod qilaman.

Do'stlar shunday qildilar. Ovchi ohuni tutmoq uchun rosa ovora bo'ldi, lekin hech ish chiqmagach, pushaymon bo'lib orqasiga qaytdi. Toshbaqani topolmay, to'rtvasining yirtilganini ko'rib taajjublandi. Butun bo'lgan voqeani (avvalo ohu tushgan to'rt iplarning qirqilishi, keyin uning o'zini yaralangan qilib ko'rgazishi, uning ustiga qarg'aning qo'nishi va shu topda to'rtvaning teshilishi, toshbaqaning yo'qolishini) birma-bir eslab, qo'rqib ketdi. Bu joy parilar va jodugarlar maskani ekan, deb o'ylab tezda bu yerni tark etib jo'nab qoldi.

Ovchi ketgach, yoronlar yig'ilishib, sevina-sevina, eson-omon o'zlarining manzillariga bordilar va u yerda rohat va farog'atda umr kechira boshladilar. Shundan keyin hech qanday balo ularga yo'liqmadi va hech qanday yomon niyatli odam ularning baxtli hayotini buzmad.

Sadoqatli do'stlar va samimiy birodarlarning bir-birlariga ko'magi haqidagi hikoyat mana shundan iboratdir.

BOYQUSH VA QARG'A BOBI

Roja brahmanga dedi:

— Sadoqatli do'stlar haqidagi ibratli hikoyani eshitdim. Endi, agar mumkin bo'lsa, dushman o'zini zohiran yumshoq fe'li, tavozekor, marhamatli va lutf-karamli qilib ko'rsatishiga qaramasdan, uning nayrangiga uchmaslik va aldanmaslik haqida bir hikoya aytib bersang.

Brahman dedi:

— Aqlli odam makkor dushmanning so'ziga ishonmaydi, ont ichib bergan va'dalariga uchmaydi, dushman dan qanchalik ko'p marhamat va lutf-karam ko'rsa, shunchalik ko'p ehtiyotkor bo'ladi. Agar u hushyor bo'lmasa va fursatni qo'ldan berib qo'ysa, keyingi pushaymonning foydasi bo'lmaydi va boyqushlar boshiga tushgan falokat uning ham boshiga tushadi.

Roja so'radi:

— U qanday bo'lgan edi?

Hikoyat

Debdurlarki, bir tog'da juda baland va serbutoq daraxt bor edi. Bu daraxtda mingdan ortiq qarg'alar o'zlariga uyoqurgan edilar. Qarg'alarning bir podshosi bo'lib, uning oti Firuz edi. Barcha qarg'alar unga tobe bo'lib, uning amridan chiqmas va shod-xurram, farovon kun kechirar edilar.

O'sha tog'ning qarshisida boshqa bir tog' bor edi. Unda juda ko'p boyqushlar yashardi. Qarg'alar bilan boyqushlar qadimdan bir-birlariga dushman edilar. Boyqushlarning ham podshosi bor bo'lib, oti Shaboxang edi. Bir kuni kechasi u o'z qo'shinlari bilan qarg'alarga hujum qildi. Boyqushlar juda ko'p qarg'alarni qirib, ko'plarini yarador qilishdi, g'olib bo'lib, masrurlik bilan uyalariga qaytishdi. Ertasiga qarg'alarning podshohi Firuz o'z lashkarlarini yig'ib, ularga dedi:

— Boyqushlarning bizga qarshi qilgan kechagi hujumini ko'rdingiz. Orangizda o'lganlar ham, quyruq'l,

qanoti yulingan, yaralanganlar ham oz emas. Lekin ular bu g'alabadan jur'atlanib bizni tamomila tor-mor etmoqqa, urug'imizni quritmoqqa urinadilar, deb qo'rqaman. Aminmanki, ular tezda yana hujum boshlab boshimizga ko'p balo soladilar. Bu borada fikrlashib bir tadbir ko'raylik va birga maslahatlashib mudofaa yo'lini topaylik.

Ular orasida zakovatli, aqli raso beshta qarg'a bor edi. Qarg'alar har ishni ularning maslahati bilan boshlar, biror hodisa ro'y bersa, ularga murojaat etardilar. Podsho ham bu besh qarg'aning fikrlarini inobatga olar va davlat ishlarida ularning maslahatlaridan foydalanar edi. Shoh ularning biridan so'radi:

— Sen bu haqda qanday fikrdasan?

U javob berdi:

— Mening fikrim bizdan avval yashagan olimlarning fikrlari kabidir. Ular aytibdurlarki, kimki dushmanga qarshilik ko'rsata olmasa, mol-davlati va yurt-uyalarini tashlab ketmog'i kerak. Zeroki, urush juda xatarli ishdir, ayniqsa, mag'lubiyatdan so'ng u juda ham tahlikalidir... Mag'rurlanib o'z kuchiga ortiqcha baho berish aqli odamlarga yarashmas. Xanjarning ikki yuzi bordir. Bu qari va shafqatsiz falakning ko'zi ko'r, u odamlarni yaxshi tanimaydi. Uning gardishiga ishonib bo'lmaydi...

Podsho ikkinchi vaziriga yuz o'girib, dedi:

— Sening fikring qanday?

U javob berdi:

— Men u aytganidek vatanni tashlab qochishni maslahat ko'rmayman. Birinchi zarbadan so'ng shunday ravvogarchilikka yo'l qo'yib, ona yurtni tark etmoq bizga yarashmaydi. Menimcha, eng to'g'ri yo'l butun kuchlarimizni safarbar qilib, jiddiy hozirlik ko'rganimizdan keyin urush boshlashdan iboratdir...

Maslahatim shuki, bir necha kuzatuvchilarni har tarafga yuborib, qaysi tomondan xavf ehtimoli bo'lsa, shu yoqqa lashkar tortsak. Yo g'olib kelamiz, yo sharaf bilan fidoyi bo'lamiz.

Podsho uchinchisidan so'radi:

— Sening fikring qanday?

Uchinchi javob berdi:

— Men ikkovining ham fikriga qo'shilmayman. Yaxshini, xufiyalar, darakchilar yuborib, dushman vaziyatini o'rganaylik, boju xiroj olsalar-da, biz bilan sulh tuzishga rozimilar, yo'qmi, shuni aniqlaylik. Agar taklifimizni qabul qilsalar, u vaqt sulh tuzib, boju xiroj to'laylik-da, ularda xalos bo'laylik. Shohlar uchun eng to'g'ri tadbirlardan biri shudir: dushmanning ustunligi, qudrati kengligi ravshan bo'lganda, ular mol-pul hisobiga bo'lsa-da, falokatning oldini olishlari, aholini qirilishdan xalos etishlari kerak...

Podsho to'rtinchisidan so'radi:

— Sen nima deysan?

U javob berdi:

— Men vatanni tark etmaslikni, g'urbat azobini chekmaslikni, hamisha bizdan past bo'lgan dushmanga bo'yin egishdan yuqori qo'yaman... Buning ustiga, agar biz ma'lum miqdorda boj-xiroj to'lashni bo'ynimizga olsak, ular bu bilan kifoyalanmaydilar, yana ko'proq talab etadilar, keyin baribir bizlarni qirib tashlashga harakat qiladilar. Shuning uchun ham aytibdurlar: «O'z maqsadingga erishmoq uchun ma'lum darajada dushmanga yaqinlash-u, ammo uni o'zingga xavf tug'diradigan darajada yaqinlashtirma».

Quyoshga qaratib tik qo'yilgan tayoqni bunga misol tariqasida keltirish mumkin: uni judayam egsang, soyasi kamayadi, ozgina egsang, soyasi kattalashadi. Hech qachon ular bizdan oladigan boj-xiroj bilan qanoatlanmaydilar. Shuning uchun, mening fikrimcha, urush qilmoq lozim... Garchi olimlar urushdan qochishni maslahat ko'rsalar ham, lekin bunday qochish o'limdan og'ir bo'lsa, uni hech vaqt ma'qullamaydilar...

Podsho beshinchi qarg'adan, Korshinos ismli vaziridan so'radi:

— Sen nima deysan? Urushaylikmi, sulh tuzaylikmi yoki vatanni tark etaylikmi, qaysi biri yaxshi?

Korshinos javob berdi:

— Boyqushlar bilan urushib bo'lmaydi, chunki ular kuch-quvvatda bizdan ustundirlar. Aqlli kimsa dushmani zaif hisoblab, o'zini aldamaydi, aldangan halok bo'ladi. Biz bu hodisa yuz berishdan oldin ham boyqushlardan qo'rqar edik. Ehtiyotkor odam hech qachon dushman qarshisida xotirjamlikka berilmaydi. Dushman yaqinda bo'lsa, to'satdan hujum qilishi, uzoqda bo'lsa, qaytib kelib chang solishi mumkin. Yengilsa, yo'lda pistirma qo'yishi, yolg'iz bo'lsa, hiyla ishlatishi mumkin. Urushning oldini oladigan odamlar sog aqlidirlar. Podsho boyqushlar bilan urushish qaroridan voz kechishi kerak. Fil bilan urushganlar uning oyoq ostida toptalanadilar.

Shoh dedi:

— Urushishni istamasang, xo'sh, nima maslahat berasan?

Korshinos dedi:

— Ba'zan maslahat va tadbir bilan qilingan ishni katta qo'shin yordami bilan ham bajarib bo'lmaydi. Daryoning suvi irmoqchalardan yig'ilgani kabi, shohning aql va zakosi ham vazirlar maslahatidan nur oladi. Aqlli shoh dushmanning qanchalik kuch-quvvatga ega bo'lganini, ishlatadigan hiyla va tadbirini biladi. U hamisha dushman tarafning ishlarini kuzatib, birin-ketin ro'y beradigan hodisalarni tasavvur eta biladi, sinovdan o'tgan yordamchilari bilan maslahatlashib turadi.

So'zga tushunadigan, ishbilarmon odamlar bilan maslahatlashmaslikning oxiri yomon bo'ladi. Aql va zakonuridan mahrum bo'lmagan, tajribali, dunyoda har narsani ko'rgan va bilgan maslahatchilarning so'zlarini o'ziga shior qilib olgan shohning baxt yulduzi dunyo turguncha porloq bo'ladi...

Shoh meni maslahat berish sharafiga muyassar qildi. Men o'z fikrlarimning ba'zilarini ochiq, jamoat oldida so'zlashim, ba'zilarini esa shohning o'ziga yashirin aytishim mumkin. Jamoat oldida shuni ochiq aytishim mumkinki, men urushga qarshiman, ayni zamonda

BOYQUSH VA QARG'A BOBI

Roja brahmanga dedi:

— Sadoqatli do'stlar haqidagi ibratli hikoyani eshitdim. Endi, agar mumkin bo'lsa, dushman o'zini zohira yumshoq fe'li, tavozekor, marhamatli va lutf-karamli qilib ko'rsatishiga qaramasdan, uning nayrangiga uchmaslik va aldanmaslik haqida bir hikoya aytib bersang.

Brahman dedi:

— Aqlli odam makkor dushmanning so'ziga ishonmaydi, ont ichib bergan va'dalariga uchmaydi, dushmandan qanchalik ko'p marhamat va lutf-karam ko'rsa, shunchalik ko'p ehtiyotkor bo'ladi. Agar u hushyor bo'lmasa va fursatni qo'ldan berib qo'ysa, keyingi pushaymonning foydasi bo'lmaydi va boyqushlar boshiga tushgan falokat uning ham boshiga tushadi.

Roja so'radi:

— U qanday bo'lgan edi?

Hikoyat

Debdurlarki, bir tog'da juda baland va serbutoq daraxt bor edi. Bu daraxtda mingdan ortiq qarg'alar o'zlariga uya qurgan edilar. Qarg'alarning bir podshosi bo'lib, uning oti Firuz edi. Barcha qarg'alar unga tobe bo'lib, uning amridan chiqmas va shod-xurram, farovon kun kechirar edilar.

O'sha tog'ning qarshisida boshqa bir tog' bor edi. Unda juda ko'p boyqushlar yashardi. Qarg'alar bilan boyqushlar qadimdan bir-birlariga dushman edilar. Boyqushlarning ham podshosi bor bo'lib, oti Shaboxang edi. Bir kuni kechasi u o'z qo'shinlari bilan qarg'alarga hujum qildi. Boyqushlar juda ko'p qarg'alarni qirib, ko'plarini yarador qilishdi, g'olib bo'lib, masrurlik bilan uyalariga qaytishdi. Ertasiga qarg'alarning podshohi Firuz o'z lashkarlarini yig'ib, ularga dedi:

— Boyqushlarning bizga qarshi qilgan kechagi hujumini ko'rdingiz. Orangizda o'lganlar ham, quyrug'i,

qanoti yulingan, yaralanganlar ham oz emas. Lekin ular bu g'ulabadan jur'atlanib bizni tamomila tor-mor etmoqqa, urug'imizni quritmoqqa urinadilar, deb qo'rqaman. Aminmanki, ular tezda yana hujum boshlab boshimizga ko'p balo soladilar. Bu borada fikrlashib bir tadbir ko'raylik va birga maslahatlashib mudofaa yo'lini topaylik.

Ular orasida zakovatli, aqli raso beshta qarg'a bor edi. Qurg'alar har ishni ularning maslahati bilan boshlar, biror hodisa ro'y bersa, ularga murojaat etardilar. Podsho ham bu besh qarg'aning fikrlarini inobatga olar va davlat ishlari uchun ularning maslahatlaridan foydalanar edi. Shoh ularning biridan so'radi:

— Sen bu haqda qanday fikrdasan?

U javob berdi:

— Mening fikrim bizdan avval yashagan olimlarning fikrlari kabidir. Ular aytibdurlarki, kimki dushmanga qarshilik ko'rsata olmasa, mol-davlati va yurt-uyalarini tashlab ketmog'i kerak. Zeroki, urush juda xatarli ishdir, ayniqsa, mag'lubiyatdan so'ng u juda ham tahlikalidir... Mag'rurlanib o'z kuchiga ortiqcha baho berish aqlli odamlarga yarashmas. Xanjarning ikki yuzi bordir. Bu qari va shafqatsiz falakning ko'zi ko'r, u odamlarni yaxshi tanimaydi. Uning gardishiga ishonib bo'lmaydi...

Podsho ikkinchi vaziriga yuz o'girib, dedi:

— Sening fikring qanday?

U javob berdi:

— Men u aytganidek vatanni tashlab qochishni maslahat ko'rmayman. Birinchi zarbadan so'ng shunday rasvogarchilikka yo'l qo'yib, ona yurtni tark etmoq bizga yarashmaydi. Menimcha, eng to'g'ri yo'l butun kuchlarimizni safarbar qilib, jiddiy hozirlik ko'rganimizdan keyin urush boshlashdan iboratdir...

Maslahatim shuki, bir necha kuzatuvchilarni har tarafga yuborib, qaysi tomondan xavf ehtimoli bo'lsa, shu yoqqa lashkar tortsak. Yo g'olib kelamiz, yo sharaf bilan fidoyi bo'lamiz.

Podsho uchinchisidan so'radi:

odamning dili hamisha g'am va alam bilan to'la, sihatlik uning vujudidan yiroq bo'ladi, sabr va qanoat uni tark etadi, aql va kamolot o'z kuchini yo'qotib, foydasiz bo'lib qoladi.

Toshbaqa so'zini tugatmay, uzoqdan ovchining kelayotganiga ko'zi tushdi. Sichqon iplarni kesib bo'lgan edi, ohu turib qochdi, sichqon o'zini teshikka oldi va qarg'a uchib ko'kka ko'tarildi. Ovchi kelib to'rning qirqilganini ko'rdi, hayron bo'lib u yoq-bu yoqqa qaradi, toshbaqaga ko'zi tushdi va uni to'rvaga o'rab shaharga jo'nadi.

Do'stlar ovchi ketishi bilanoq yig'ilib, toshbaqani qidirib boshladilar. Uni ovchi olib ketganini anglab, faryod ko'tardilar...

Sichqon dedi:

— Buni qarangi, bir balodan qutulib, ikkinchisiga tutildik. Ammo hikmatli odamlar to'g'ri aytganlar: inson umidsizlikka, sarosimaga tushmasligi kerak, aks holda, balo seldek yog'ilaveradi, falokat to'lqinlari kuchayaveradi. Kishi bir qoqilmaguncha o'zini bardam sezadi, notekis yerda bir qoqildimi, bo'ldi, kaftdek tekis joyda ham qoqilaveradi. Do'stlardan ajralishdan ham og'ir musibat bormi dunyoda? Firoq alangasi yetti daryoni quritadi.

Qarg'a va ohu dedi:

— Qanchalik kuyib-pishmaylik va zor-zor yig'lamaylik, go'zai iboralar va ta'sirli so'zlar aytmaylik, bulardan toshbaqaga hech foyda yo'q. Bir tadbir topib, toshbaqani qutqarmoq kerak. Ulug'lar debdurlarki, shijoatli va kuchli botirlar — urushda, xotin va farzandlar — kambag'allikda, do'st va birodarlar — boshga kulfat tushganda taniladilar.

Sichqon ohuga dedi:

— Bir chora topdim: sen ovchining yo'lidan chiqib o'zingni yarador ko'rsatasan. Qarg'a go'yo seni tirnab o'ldirmoqchi bo'lganday, boshingga qo'nib oladi. Ovchi seni ko'rishi bilan tutib olish niyatiga tushadi va toshbaqani yerga qo'yadi. U senga yaqinlashgan sari sen cho'loqlanib, yiqilib-turib undan uzoqlashaverasan. Lekin shoshilib juda tez qochma, aks holda, ovchi sendan

umidini uzib, orqasiga qaytishi mumkin. Agar sen bir soatcha uning boshini aylantirsang, men bu muddatda toshbaqani ovchi to'rvasidan ozod qilaman.

Do'stlar shunday qildilar. Ovchi ohuni tutmoq uchun rosa ovora bo'ldi, lekin hech ish chiqmagach, pushaymon bo'lib orqasiga qaytdi. Toshbaqani topolmay, to'rvasining yirtilganini ko'rib taajjublandi. Butun bo'lgan voqeani (avvalo ohu tushgan to'r iplarning qirqilishi, keyin uning o'zini yaralangan qilib ko'rgazishi, uning ustiga qarg'aning qo'nishi va shu topda to'rvaning teshilishi, toshbaqaning yo'qolishini) birma-bir eslab, qo'rqib ketdi. Bu joy parilar va jodugarlar maskani ekan, deb o'ylab tezda bu yerni tark etib jo'nab qoldi.

Ovchi ketgach, yoronlar yig'ilishib, sevina-sevina, eson-omon o'zlarining manzillariga bordilar va u yerda rohat va farog'atda umr kechira boshladilar. Shundan keyin hech qanday balo ularga yo'liqmadi va hech qanday yomon niyatli odam ularning baxtli hayotini buzmad.

Sadoqatli do'stlar va samimiy birodarlarning bir-birlariga ko'magi haqidagi hikoyat mana shundan iboratdir.

BOYQUSH VA QARG'A BOBI

Roja brahmanga dedi:

— Sadoqatli do'stlar haqidagi ibratli hikoyani eshitdim. Endi, agar mumkin bo'lsa, dushman o'zini zohiran yumshoq fe'li, tavozekor, marhamatli va lutf-karamli qilib ko'rsatishiga qaramasdan, uning nayrangiga uchmaslik va aldanmaslik haqida bir hikoya aytib bersang.

Brahman dedi:

— Aqlli odam makkor dushmanning so'ziga ishonmaydi, ont ichib bergan va'dalariga uchmaydi, dushman dan qanchalik ko'p marhamat va lutf-karam ko'rsa, shunchalik ko'p ehtiyotkor bo'ladi. Agar u hushyor bo'lmasa va fursatni qo'ldan berib qo'ysa, keyingi pushaymonning foydasi bo'lmaydi va boyqushlar boshiga tushgan falokat uning ham boshiga tushadi.

Roja so'radi:

— U qanday bo'lgan edi?

Hikoyat

Debdurlarki, bir tog'da juda baland va serbutoq daraxt bor edi. Bu daraxtda mingdan ortiq qarg'alar o'zlariga uy qurgan edilar. Qarg'alarning bir podshosi bo'lib, uning oti Firuz edi. Barcha qarg'alar unga tobe bo'lib, uning amridan chiqmas va shod-xurram, farovon kun kechirar edilar.

O'sha tog'ning qarshisida boshqa bir tog' bor edi. Unda juda ko'p boyqushlar yashardi. Qarg'alar bilan boyqushlar qadimdan bir-birlariga dushman edilar. Boyqushlarning ham podshosi bor bo'lib, oti Shaboxang edi. Bir kuni kechasi u o'z qo'shinlari bilan qarg'alarga hujum qildi. Boyqushlar juda ko'p qarg'alarni qirib, ko'plarini yarador qilishdi, g'olib bo'lib, masrurlik bilan uyalariga qaytishdi. Ertasiga qarg'alarning podshohi Firuz o'z lashkarlarini yig'ib, ularga dedi:

— Boyqushlarning bizga qarshi qilgan kechagi hujumini ko'rdingiz. Orangizda o'lganlar ham, quyrug'i,

qanoti yulingan, yaralanganlar ham oz emas. Lekin ular bu g'alabadan jur'atlanib bizni tamomila tor-mor etmoqqa, urug'imizni quritmoqqa urinadilar, deb qo'rqaman. Aminmanki, ular tezda yana hujum boshlab boshimizga ko'p balo soladilar. Bu borada fikrlashib bir tadbir ko'raylik va birga maslahatlashib mudofaa yo'lini topaylik.

Ular orasida zakovatli, aqli raso beshta qarg'a bor edi. Qarg'alar har ishni ularning maslahati bilan boshlar, biror hodisa ro'y bersa, ularga murojaat etardilar. Podsho ham bu besh qarg'aning fikrlarini inobatga olar va davlat tahlarida ularning maslahatlaridan foydalanar edi. Shoh ularning biridan so'radi:

— Sen bu haqda qanday fikrdasan?

U javob berdi:

— Mening fikrim bizdan avval yashagan olimlarning fikrlari kabidir. Ular aytibdurlarki, kimki dushmanga qarshilik ko'rsata olmasa, mol-davlati va yurt-uyalarini tashlab ketmog'i kerak. Zeroki, urush juda xatarli ishdir, ayniqsa, mag'lubiyatdan so'ng u juda ham tahlikalidir... Mag'rurlanib o'z kuchiga ortiqcha baho berish aqli odamlarga yarashmas. Xanjarning ikki yuzi bordir. Bu qari va shafqatsiz falakning ko'zi ko'r, u odamlarni yaxshi tanimaydi. Uning gardishiga ishonib bo'lmaydi...

Podsho ikkinchi vaziriga yuz o'girib, dedi:

— Sening fikring qanday?

U javob berdi:

— Men u aytganidek vatanni tashlab qochishni maslahat ko'rmayman. Birinchi zarbadan so'ng shunday raavogarchilikka yo'l qo'yib, ona yurtni tark etmoq bizga yarashmaydi. Menimcha, eng to'g'ri yo'l butun kuchlarimizni safarbar qilib, jiddiy hozirlik ko'rganimizdan keyin urush boshlashdan iboratdir...

Maslahatim shuki, bir necha kuzatuvchilarni har tarafga yuborib, qaysi tomondan xavf ehtimoli bo'lsa, shu yoqqa lashkar tortsak. Yo g'olib kelamiz, yo sharaf bilan fidoyi bo'lamiz.

Podsho uchinchisidan so'radi:

— Sening fikring qanday?

Uchinchisi javob berdi:

— Men ikkovining ham fikriga qo'shilmayman. Yaxshisi, xufiyalar, darakchilar yuborib, dushman vaziyatini o'rganaylik, boju xiroj olsalar-da, biz bilan sulh tuzishga rozimilar, yo'qmi, shuni aniqlaylik. Agar taklifimizni qabul qilsalar, u vaqt sulh tuzib, boju xiroj to'laylik-da, ulardan xalos bo'laylik. Shohlar uchun eng to'g'ri tadbirlardan biri shudir: dushmanning ustunligi, qudrati kengligi ravshan bo'lganda, ular mol-pul hisobiga bo'lsa-da, falokatning oldini olishlari, aholini qirilishdan xalos etishlari kerak...

Podsho to'rtinchisidan so'radi:

— Sen nima deysan?

U javob berdi:

— Men vatanni tark etmaslikni, g'urbat azobini chekmaslikni, hamisha bizdan past bo'lgan dushmanga bo'yin egishdan yuqori qo'yaman... Buning ustiga, agar biz ma'lum miqdorda boj-xiroj to'lashni bo'yimizga olsak, ular bu bilan kifoyalanmaydilar, yana ko'proq talab etadilar, keyin baribir bizlarni qirib tashlashga harakat qiladilar. Shuning uchun ham aytibdurlar: «O'z maqsadingga erishmoq uchun ma'lum darajadu dushmanga yaqinlash-u, ammo uni o'zingga xavf tug'diradigan darajada yaqinlashtirma».

Quyoshga qaratib tik qo'yilgan tayoqni bunga misol tariqasida keltirish mumkin: uni judayam egsang, soyasi kamayadi, ozgina egsang, soyasi kattalashadi. Hech qachon ular bizdan oladigan boj-xiroj bilan qanoatlanmaydilar. Shuning uchun, mening fikrimcha, urush qilmoq lozim... Garchi olimlar urushdan qochishni maslahat ko'rsalar ham, lekin bunday qochish o'limdan og'ir bo'lsa, uni hech vaqt ma'qullamaydilar...

Podsho beshinchi qarg'adan, Korshinos ismli vaziridan so'radi:

— Sen nima deysan? Urushaylikmi, sulh tuzaylikmi yoki vatanni tark etaylikmi, qaysi biri yaxshi?

Korshinos javob berdi:

— Boyqushlar bilan urushib bo'lmaydi, chunki ular kuch-quvvatda bizdan ustundirlar. Aqlli kimsa dushmani zaif hisoblab, o'zini aldamaydi, aldangan halok bo'ladi. Biz bu hodisa yuz berishdan oldin ham boyqushlardan qo'rqar edik. Ehtiyotkor odam hech qachon dushman qarshisida xotirjamlikka berilmaydi. Dushman yaqinda bo'lsa, to'satdan hujum qilishi, uzoqda bo'lsa, qaytib kelib chang solishi mumkin. Yengilsa, yo'lda pistirma qo'yishi, yolg'iz bo'lsa, hiyla tahlil qilishi mumkin. Urushning oldini oladigan odamlar eng aqllidirlar. Podsho boyqushlar bilan urushish qaroridan voz kechishi kerak. Fil bilan urushganlar uning oyoq ostida toptalanadilar.

Shoh dedi:

— Urushishni istamasang, xo'sh, nima maslahat berasan?

Korshinos dedi:

— Ba'zan maslahat va tadbir bilan qilingan ishni katta qo'shin yordami bilan ham bajarib bo'lmaydi. Daryoning suvi irmoqchalardan yig'ilgani kabi, shohning aql va zakosi ham vazirlar maslahatidan nur oladi. Aqlli shoh dushmanning qanchalik kuch-quvvatga ega bo'lganini, tahlil qiladigan hiyla va tadbirini biladi. U hamisha dushman tarafning ishlarini kuzatib, birin-ketin ro'y beradigan hodisalarni tasavvur eta biladi, sinovdan o'tgan yordamchilari bilan maslahatlashib turadi.

So'zga tushunadigan, ishbilarmon odamlar bilan maslahatlashmaslikning oxiri yomon bo'ladi. Aql va zakonuridan mahrum bo'lmagan, tajribali, dunyoda har narsani ko'rgan va bilgan maslahatchilarning so'zlarini o'ziga shior qilib olgan shohning baxt yulduzi dunyo turguncha porloq bo'ladi...

Shoh meni maslahat berish sharafiga muyassar qildi. Men o'z fikrlarimning ba'zilarini ochiq, jamoat oldida bo'zlashim, ba'zilarini esa shohning o'ziga yashirin aytishim mumkin. Jamoat oldida shuni ochiq aytishim mummunkinki, men urushga qarshiman, ayni zamonda

bo'yin egib tobe bo'lish, mute bo'lib boj to'lash kabi rasvogarchilikni ham to'g'ri deb bilmayman.

Aql egalari yaxshi va mazmunli umr kechirsalar, uzoq yashashni orzu qiladilar. Ular rasvogarchilik va baxtsizlikdan o'limni ustun ko'radilar. Men mag'lubiyatning va o'limning elchisi, aql zaifligining, ruhiy tushkunlikning jarchisi bo'lgan ojizlikni oqlamayman, ojizlik ko'rsatmoqni maslahat bermayman.

Kimki ojizlik ko'rsatsa, foyda eshiklari uning uchun bekiladi. Uning o'ylagan tadbirlari, qilmoqchi bo'lgan ishlari qarshisida katta to'siq paydo bo'ladi... Endi qolgan so'zlarimni xilvatda aytsam yaxshiroq bo'lur edi, chunki g'alabaning kaliti ehtiyotkorlikdir. Ehtiyotkorlikning birinchi sharti esa kengash va maslahatdir. Mana endi shoh o'z xizmatida bo'lgan odamlar bilan maslahatlashib, ularning fikrini so'rab, o'zining uzoqni ko'radigan, ehtiyotli, irodali, jasur, aqlli ekanligini ko'rsatdi...

Shohlarning shunday ishonchli va e'tiborli odamlari bo'lishi kerakki, ularga o'z sirlarining xazinalarini ochib qo'yib, yashirin maqsadlarini ularga ayta bilsin... Shoh aql va zakoda, ilm va tajribada o'z maslahatchisidan ustun bo'lsa-da, lekin moy quyganda chiroq lopillab yongani, o'tin qalaganda o'choq olovi baland bo'lgani kabi shohning aqli ham mushovirining maslahatidan mukammallashadi, tajribasi ortadi.

Kimniki kuchli, irodali, aqlli maslahatchilari bo'lsa, unga baxt yordir, birinchisining yordami bilan g'alaba qozonib, ikkinchisining yordami bilan xavf-xatarning oldini oladi. Maslahatchilarning o'z boshliqlari bilan tillari ham, dillari ham bir bo'lishi kerak. Agar shohdan xato sodir bo'lsa, maslahatchi mayinlik bilan shohga xatosini tushuntirmog'i, shohni to'g'ri yo'lga solmog'i va shunday qilib ikki tomon uchun ham maqbul bo'lgan qarorga kelmog'i lozim. Shohga shunday sidqidil xizmat qilmaydigan, haqiqatni ayon qilishga tirishmaydigan vazir va maslahatchilar dushman deb sanalishlari kerak... Agar shoh haqni nohaqdan, do'stni dushmandan ajrata bilsa,

Yomonga jazo, yaxshiga in'om berishda odilligini ko'rsatsa, yurtini g'ayratli, tadbirkor va uzoqni ko'radigan odamlarga topshirgan bo'lsa, bunday taqdirda uning sha'n-shavkatiga putur yetmaydi, fitna-fujurlarga o'rin olmaydi...

O'z sirini saqlaydigan, layoqatli vazirlar topa oladigan, xalqiyati hayiqadigan, sir boy bermaydigan, yaxshi ishlaydiganlarni taqdirlaydigan, sadoqat bilan xizmat qiladiganlarning qadriga yetadigan, gunohkorlarning talabini berib turadigan, maslahat bilan ish ko'radigan, tadbirli shohning hokimiyati uzoq umrli bo'ladi. Qazoning qo'li bunday shohning ishini barbod qila olmaydi, shuncha, unga xizmat etadi. Aslini surishtirilsa, baxt-sodat mehnat va g'ayrat bilan qo'lga kiritiladi...

Agar shoh sir saqlay olmasa, o'ziga hamda podshohligiga putur yetadi. Kashmir podshohi o'z vaziriga sir aytgani kasofatidan oz fursatda podshohlikdan tushib, bor-zor bo'lgani kabi.

Firuz so'radi:

— U qanday bo'lgan edi?

Beshinchi qarg'a javob berdi:

— Kashmir viloyatida bir podsho bo'lib, uning nihoyat darajada go'zal, sochlari uzun va qop-qora, sho'x bir mahbubasi bor edi. U nozu karashma va shirin so'z bilan hammaning toqatini toq qilar edi. Ayniqsa, podsho mulozimlaridan bir yigit unga qattiq mehr qo'yib, ishq o'qida yonar edi. Ular ko'z va qosh imosi bilan gaplashar edilar. Bir kun podsho ayshu ishrat qilib o'tirganda, u yigit xizmat uchun o'rnidan turdi va o'z ma'shuqasining yuziga qarab kulib qo'ydi. Ma'shuqasi ham tabassum qilib, qosh uchirib, uning ko'nglini ovladi. Buni ko'rib qolgan podshohning g'azabi qo'zib, mahbubasining bahridan o'tmoqchi bo'ldi. Keyin o'ylab, ikki kishini o'ldirishga oshiqish aqldan emas, sabr qilmoq kerak deb qarorni ko'rmaganga soldi. Ertasi kun podsho har kundagidek o'z ishlari bilan shug'ullandi. Keyin davlat ustunlaridan bo'lgan bir vazirni xilvatga chaqirib, unga

kechasi bo'lib o'tgan voqeani aytib berdi. Vazir ularni o'ldirishni maslahat berdi. Podsho bilan vazirning fikri bir joydan chiqdi: ularga zahar berib o'ldirmoqchi bo'ldilar. Lekin bu sir podsho va vazir orasida pinhon qolishi kerak edi. Vazir uyiga kelib qizini g'amgin holda ko'rdi va buning sababini so'radi.

Vazirning qizi dedi:

— Bugun podsho saroyiga borib edim, podshohning xotini menga iltifot qilmadi. Men o'z tenglarim va dugonalarim o'rtasida xijolat tortdim.

Vazir qiziga tasalli berib dedi:

— G'am yema, bir-ikki kun ichida uning umr chirog'i o'chadi va hayotining guli so'ladi.

Qiz buni eshitib nima gapligini so'radi. Vazir hamma gapni aytib berdi va sir tutib buni hech kimga aytmaslikni uqtirdi. Qiz eshitganlaridan xursand bo'lib otasi huzuridan chiqdi. Bu asnoda haram xodimlaridan biri uzr so'rab, qiz yoniga keldi. Qiz dedi:

— Mayli, xonim meni besabab xafa qilgani uchun jazosini ko'radi.

Xodim xursand bo'lib so'radi:

— Bu so'zni qayerdan eshitding?

Qiz javob berdi:

— Birovga aytmasang, so'zlab beraman.

Xodim ont ichgach, qiz hamma gapni aytib berdi.

Xodim darrov uyiga borib, eshitganlaridan xotinini ogoh qildi. Xotin esa gunohkor yigitni xilvatga chaqirib, hamma gapni aytib berdi. U yigit bir necha sheriklarini to'plab podshohni o'ldirdi.

Agar podsho vazirga sirini aytmaganda edi, shu holga tushmagan bo'lar edi. Bu qissadan hissa shuki, podsho vazirlar bilan kengash qilishi va ularning bergan maslahatlaridan foydalanishi mumkin, ammo o'z siridan ularni voqif qilmasligi kerak. Chunki o'zga odam hech qachon birovning sirini saqlay olmaydi.

Ammo shohlarning sirlari har xil bo'ladi. Ularning ba'zilarini biror odamga aytilish mumkin emas, ba'zilarini

Orim kishilarga so'zlash mumkin. Men aytmoqchi bo'lgan
unga kelganimizda, undan faqat to'rt quloq va ikki yurak
qulqil bo'lmog'i mumkin.

Bhoh beshinchi qarg'a, ya'ni Korshinos bilan xilvatga
yolib so'radi:

— Biz bilan boyqushlar orasida bo'lgan adovat va
ahshmanlikka nima sabab bo'lgan edi?

Korshinos dedi:

— Bir qarg'aning aytgan bir kalima so'zi sabab bo'lgan
edi.

Bhoh so'radi:

— Qanday so'z?

Korshinos hikoyati

Bir gala qushlar boyqushni o'zlariga shoh ko'tarmoqchi
bo'ldilar. Ular bir yerga yig'ilishib, bu borada kengasha
qushladilar. Shu vaqt uzoqdan bir qarg'a ko'rindi.
Qushlarning biri dedi:

— Biroz sabr qilaylik, qarg'a yetib kelsin, u bilan ham
qamulhatlashib ko'raylik-chi, nima der ekan, axir u ham
parrandalar jinsidan-ku. Agar butun tabaqa
qamoyandalari yakdil bo'lmasalar, qaror bir ovozdan
qabul etilgan hisoblanmaydi.

Qarg'a kelishi bilan unga ahvolni bayon etdilar.

Qarg'a dedi:

— Agar butun qushlar halok bo'lib, tovus, turna, g'oz
qabi nomdor parrandalar yo'q bo'lib ketsalar ham
boyqushga tobe bo'lib, uning so'zlari va buyrug'i bilan
qushushdan ko'ra shohsiz qolib, o'z aql-idrokimiz bilan
qushhash yaxshiroqdir. Chunki boyqush zohiran
qushlarning eng xunugi, botinan eng yomoni va iflosidir.
Uning aqli kam, o'zi nihoyat darajada ahmoq, serjahl va
qahinsizdir. Buning ustiga, u kunduz kuni hech narsa
ko'rmaydi. Hammasidan dahshatlisi shuki, u xosiyatsiz,
qaharm-hayosizdir. Binobarin, fikringizdan qayting, uni
qahingizga shoh qila ko'rmang, usiz ham kuningiz o'tadi.

O'zini oyning elchisi e'lon qilib, o'z aqli bilan buyuk ishlar qilgan quyon kabi bo'ling.

Qushlar so'radilar:

— U qanday ishlar qilgan?

Hikoyat

Fillar yashaydigan o'lkalarning birida qurg'oqchilik ro'y berdi. Buloqlar quridi. Suvlar tugadi. Fillar suvsizlik va tashnalikka chiday olmay o'z shohlari huzuriga kelib shikoyat qildilar, zor-zor yig'ladilar.

Shoh suv axtarishga odamlar yubordi. Ko'p axtarish nihoyat «Oy» nomli suvi bor bir buloq topdilar. Fillarning shohi butun fuqarosini to'plab, o'sha buloqqa olib bordi. Buloq quyonlar o'lkasida bo'lganidan fillar inlarida yotgan quyonlarni toptab, hammayoqni vayron qildilar. Ertasi kun quyonlar yig'ilib, o'z shohlarining yonlariga keldilar va dedilar:

— Fillarning boshimizga keltirgan falokatlari senga ma'lumdur. Agar tezlikda bu tadbir ko'rilmasa, ular bizni tamomila yo'q qilib yuboradilar.

Quyonlarning shohi dedi:

— Kimning nima taklifi bo'lsa, yonimga kelib aytsin. Kengash qilib shu baloni daf etamiz.

Quyonlarning ichida o'zining donoligi bilan shubhro topgan Behruz otli bir quyon bor edi. U oldinga chiqib shunday dedi:

— Shoh bu ishni menga havola qilib, fillarning yoniga yuborsinlar. Menga ishonchli bir maslahatchi bersalar, u mening nimalar deb, nimalar qilganimni shohidi bo'ladi va kelib shohga aytib beradi.

Shoh dedi:

— Biz sening aytgan so'zlaringga ishonamiz. Qiladigan ishlaring muvaffaqiyatli bo'lishiga shubha qilmaymiz. Mayli, bor. Vaziyat va sharoitga qarab harakat qil. Lekin unutmaki, elchi shohning tili, zehni va qalbidir. Elchining aql-zakovatiga qarab, uni yuborgan shohning aqli va

Elchilari qay ahvoldaligi to'g'risida hukm chiqaradilar. Agar elchi nazokatsizlik qilsa, uni yuborgan shohni ta'na qiladilar. Elchi o'z shohining nomus va izzatiga, sha'n va shavkatiga xalal yetkazmasligi, shu bilan birga elchimanning nima fikrda ekanligini bilib kelishi lozim.

Bu so'zlarni diqqat bilan eshitgan Behruz oydin hushida fillar tomonga ravona bo'ldi. U o'zicha o'ylar edi: "Agar fillar o'zlari yomonlik qilishni istamasalar-da ularga qayinlashmoq men uchun xatarlidir, oyoqlari ostida qolib qolishim mumkin. Ilon uni o'z qo'lida o'ynatayotgan odamni chaqishni istamasa ham, og'zining suvi unga tegsa ham, odam o'sha soatda halok bo'ladi. Yaxshisi shuki, bir tepning ustiga chiqib, fillar bilan o'sha yerdan turib gaplashay". U shunday qildi. Uzoqdan fillarning shohini chaqirib dedi:

— Men oy tarafidan yuborilgan elchiman. Elchining chaqirilganlari ko'ngilsiz bo'lsa-da, unga diqqat bilan quloq solmoq va buning uchun elchini qoralamaslik kerakdir.

Fillarning shohi so'radi:

— Oy nima xabar yubordi?

Behruz dedi:

— Oy dediki, har kim o'z quvvatiga ishonib zaiflarni qurjitsa va o'z kuch-qudratidan mag'rurlanib o'zidan kuchsizlarni tahqir etsa, uning bu kuch-quvvati o'zining bulokatiga sabab bo'ladi. Sen o'zingni boshqa hayvonlardan ustun hisoblab haddingdan oshibsan. Ish shu darajaga yetibdiki, mening nomim bilan atalgan buloqqa qo'shinlaringni olib borib suvini bulg'atibsan. Buni ogohlantirib qo'yay, agar bundan keyin yana shu buloqningni takrorlasang ko'zlaringni o'yib olaman va o'zingni halok etaman. Agar bu so'zlardan shubha qilsang, hozir buloq boshiga kel, o'sha yerda sen bilan uchrashamiz.

Fillarning podshohi bu so'zlarni eshitib taajjublandi va buloq tarafga yo'l oldi. Suvga qarab oyni aksini ko'rdi.

Behruz dedi:

— Nega qarab turibsan, tez bo'l, xartuming bilan suv ichib yuzingni yuv, bosh egib ta'zim qil.

Fil xartumini suvga solishi bilan suv chayqalib oy qalqiy boshladi. Fil qo'rqib Behruzdandan so'radi:

— Xartumimni suvga tiqsam oyning achchig'i kelyapti shekilli.

Behruz dedi:

— Albatta achchig'i keladi-da, tez bo'l, vaqt o'tmasin, sajda qilib uzr so'ra!

Fil darhol bosh egib uzr so'radi va bu yerga bundan keyin o'zim ham, boshqa fillar ham oyoq bosmaydilar, deb ont ichdi.

Qarg'a dedi:

— Bu masalni aytishdan maqsad sizni ogoh qilib qo'ymoqdir — boyqush makkor va aldanchidir. Shuning uchun boyqushni o'zingizga shoh ko'tarib o'tirmangiz va o'z ishlaringizni unga topshirmang. Zolim podshohlarga, hiylakor va yolg'onchi hukmdorlarga ishonganlarning boshiga taqvodor mushukka murojaat etgan kaklik bilan tihu¹ boshiga tushgan savdo tushadi.

Qushlar so'radilar:

— Ularga nima bo'libdi?

Hikoyat

Bir kaklik mening qo'shnim edi, bir-birimizning mehri muhabbatimiz zo'r edi. Bir kuni u to'satdan yo'qolib qoldi. Halok bo'lgan bo'lsa kerak, deb o'yladim. Bir necha vaqt o'tgandan keyin bir tihu kelib, uning uyasida yashay boshladi. Men unga hech narsa demadim.

Oradan bir necha kun o'tgach, kaklik qaytib keldi. Uyida tihuni ko'rib dedi:

— Uyimni bo'shat!

Tihu dedi:

— Hozir bu uy meniki. Agar seniki bo'lsa, isbot qil.

Kaklik dedi:

— Sen nima deyapsan, mening qozidan hujjatim bor.

¹Tihu — yovvoyi tovuq.

Tihu javob berdi:

— Bir odil hokimni topib unga murojaat qilishimiz kerak. U har birimizning soʻzlarimizni tinglab odilona qaror chiqarib bersin.

Kaklik dedi:

— Yaqinimizda bir moʻmin mushuk bor, u kechayu kunduz roʻza tutib, toat va ibodat bilan mashgʻul boʻladi... Undan koʻra odilroq boʻlgan qozi topa olmaymiz. Soʻzimizni eshitib, insof bilan hukm chiqarib beradi.

Ikkovlari mushuk huzuriga keldilar. Men ishning nima bilan tamom boʻlishini, mushukni koʻrish va uning qanday hukm chiqarishini bilish maqsadida ularning orqasidan ergashib bordim. Mushukning koʻzi ularga tushishi bilan mehrobgga yuz oʻgirib namoz oʻqiy boshladi.

Namozni tugatgach, kaklik nazokat bilan undan iltimos qildi:

— Oʻrtamizda nizo chiqdi, hal qilib bersangiz.

Ular oʻz daʼvolarini aytib boʻlgach, mushuk dedi:

— Menga qarilik taʼsir qilib, tanimda quvvat qolmagan, koʻzlarim nursizlanib, quloqlarim ogʻirlashgan... Yaqinroq keling va balandroq soʻzlang, men gapingizni yaxshi eshitib olib, odilona hukm chiqaray. Lekin bundan oldin sizlarga bir maslahat beray, agar diqqat bilan quloq solib, soʻzimga amal qilsangiz, har ikkingiz dunyoda baxtli boʻlasiz. Maslahatim shuki, har ikkingiz ham chin gapni ayting, chunki hukm haqiqatni aytganning zarariga chiqarilsa ham u odam gʻolib hisoblanadi, agar yolgʻon aytganning foydasiga chiqarilsa ham, u odam yengilgan hisoblanadi. Bu dunyoda inson uchun toʻgʻri soʻzdan, durust ishdan ham katta davlat boʻlmaydi. Aqlli odam bu dunyoning moliga hirs qoʻymaydi, boylikni yoz bulutidek oʻtkinchi va qish kuni kabi qisqa deb biladi, katta-kichik — kosib, muvdogar, kambagʻal, boyga bir koʻz bilan qaraydi. Oʻziga muvo koʻrmagan narsalarni oʻzgalarga ham ravo koʻrmaydi.

Mushuk shu qadar tilyogʻlamalik bilan soʻzlar ediki, kaklik bilan tihu uning gapiga mahliyo boʻlib, yaqinroqʻiga borib oʻtirdilar.

Mushuk bir sapchib, ularning ikkalasini tutib yedi. Uning parhez saqlab, ro'za tutmog'ining, toat-ibodat qilmog'ining makr-hiyla ekanligi ayon bo'ldi. Boyqush ham shunday va'daga vafosiz makkordir. Binobarin, xomlik qilib uni podsho ko'tarmang. Shohlik tojini uning iflos boshiga kiygizmang.

Qushlar bu so'zlarni eshitgandan so'ng boyqushni podsho ko'tarish niyatidan voz kechdilar.

Boyqush pushaymon bo'lib ma'yus holda qarg'aga dedi:

— Sen meni rasvo qilding, sen oramizga shunday bir xusumat soldingki, u dunyo turguncha turaveradi. Men senga biron yomonlik qildimmiki, uning alamini olasan. Har holda shuni bilishing kerakki, daraxtni kessalar, uning ildizidan bir shoxcha ko'karib, uning o'rnini bosadi, qilich va o'q yarasi bitib ketadi, lekin til yarasi hech vaqt tuzalmaydi. Qalbga sanchilgan so'z o'qini chiqarib bo'lmaydi. U umrbod o'sha yerda qoladi. Har dardning bir darmoni bor. Suvning darmoni o't, zaharning darmoni taryak, g'amning darmoni sabr, ishqning darmoni visoldir; adovatni bosadigan dori yo'q. Agar butun daryolarning suvini sepsalar ham kin va g'azab otashini so'ndira olmaydi. Sen qarg'alar bilan boyqushlar orasida shunday bir xusumat daraxtini o'tqazdingki, uning ildizlari juda chuqur, shoxlari juda kattadir, u hech qachon qurimaydi.

Bu so'zlarni boyqush g'azab bilan aytib, ma'yus holda chiqib ketdi.

Qarg'a qilgan ishidan pushaymon bo'lib, o'z-o'ziga dedi: «Nodonlik qildim, o'zim va o'z hamjinslarimga dushman orttirdim. Bu so'zlarni aytishga boshqa qushlarga qaraganda haqqim ko'p emas edi, ular ham boyqushlarning ayblarini bilar va ularning nimalarga qodir ekanliklarini mendan yaxshi tushunar edilar. Lekin buning oqibatini bilib, yuraklaridagi so'zlarini aytishdan o'zlarini tiyganlar. Eng dahshatlisi shuki, men so'zni yuziga aytdim, yuzga aytilgan so'zning tig'i o'tkir bo'ladi.

Kuch va quvvatiga ishongan aqlli odamlar ham boshqalarda adovat uyg'otishni maslahat ko'rmaydilar, o'z sha'n-shavkatlariga mahliyo bo'lmaydilar. Taryak va boshqa dori-darmonlari bo'lgan odam ularga ishonib zahar ichmaydi. Eng yaxshi fazilat — xayrli ish qila bilmoqdir. Yaxshi so'z xayrli ishning o'rnini bosa olmaydi, chunki chiroyli so'z bo'lmagan taqdirda ham yaxshi ish o'z samarasini ko'rsatadi va barcha tomonidan taqdirlanadi. Ammo chiroyli so'z qilinadigan ishni xalq ko'zida qanchalik latofatli qilib ko'rsatmasin, baribir bu ish amalga oshmay qolganda u so'z pushaymonlik keltiradi. Men so'zga e'tibor berib, ishning oxiri nima bilan tamom bo'lishini bilmagan, bunga ahamiyat bermagan ana shunday ahmoqlardanman. Agar aqlim bo'lsa edi, bunday ahmoqlik qilmagan bo'lardim, avval biror kishi bilan maslahatlashardim. Muayyan bir qarorga kelgandan so'ng pardali so'zlar bilan o'z fikrimni aytganimda o'z aqlimning noqisligini oshkor qilib qo'ymagan bo'lardim. Yaxshi o'ylamasdan turib bunday katta va mas'uliyatli ish to'g'risida gap boshlash aqlsizlikdir. Dunyo ko'rgan tajribali odamlar bilan maslahatlashmasdan ish boshlaganlarni nodon deb hisoblaydilar. Axir ko'ra-bila turib, o'zimizga dushman orttirdim?!»

Qarg'a bir soatcha o'z-o'zi bilan shu zaylda ko'zlashgandan so'ng uchib ketdi.

— Biz bilan boyqushlar o'rtasidagi dushmanchilikning boshlanishi mana shunday bo'lgan edi.

Shoh dedi:

— Bu gaplarni aytib berganlaring yaxshi bo'ldi. Endi aytchi, sen bizning boshimizga tushgan ish to'g'risida nima fikrdasan? Bir tadbir ko'rsatki, najot topaylik.

Beshinchi qarg'a dedi:

— Urushishga, boj-xiroj berishga, vatanni tark etib ketishga qarshi ekanligimni aytgan edim. Meningcha, bu ishning chorasi hiyladir. Ko'p odamlar aql bilan shunday zafar qozonganlarki, ularni kuch va urush vositasi bilan

qo'lg'a kiritib bo'lmaydi. Masalan, bir zohidning qo'lidan hiyla bilan qo'yini tortib olganlari kabi...

Shoh so'radi:

— Aytchi, qanday hiyla bilan qo'yini tortib olibdurlar?

Qarg'aning hikoyati

Bir zohid qurbonlik uchun bir qo'yni uyiga olib boradi edi. Yo'lda bir necha ayyor odamlar unga duch keldilar. Ular zohidni aldab, qo'yini olib ketishga qaror qildilar. Ulardan biri zohidga yaqinlashib dedi:

— Ey shayx, bu itni qayoqqa olib ketyapsan?

Ikkinchi tarafdin yana biri kelib dedi:

— Shayx bu itni ovga olib borayotgan bo'lsa kerak.

Yana biri boshqa tomondan kelib dedi:

— Bu kishi tashqi ko'rinishidan zohidga o'xshasa ham, lekin aslida zohid emas, chunki zohid it bilan do'st bo'la olmaydi, qo'linigina emas, hatto kiyimini ham itga tegizishdan jirkanadi, itni harom deb biladi.

Zohid ularning bir xil gapirayotganligini eshitgach, yuragiga shubha tushdi va o'z-o'ziga dedi: «Balki qo'y sotgan odam jodugardir, itni ko'zimga qo'y qilib ko'rsatib, menga sotgandir». Shuni deb qo'yini tashlab ketdi. Lo'ttibozlar esa qo'yni so'yib, go'shtini bo'lib oldilar.

— Bu masalni aytmoqdan maqsadim, biz ham ishimizni hiyla va tadbir bilan saranjom qilmog'imiz mumkinligini ko'rsatmoq edi. Men najot yo'lida o'zimni qurbon qilishga tayyorman. Shoh mendan g'azablangan bo'lsinlar va meni o'z qonimga bo'yab, patlarimni yulib, bir daraxt tagiga olib borib tashlashga amr qilsinlar. So'ngra shoh o'z qo'shinlarini olib falon yerga chekinsinlar va mening qaytishimni kutsinlar. Men hiylani ishlatib ishni bitirgandan keyin shohning huzuriga boraman.

Shoh uning aytganlarini bajo keltirdi. Xuddi o'sha kechasi boyqushlar yana bosqin qildilar. Lekin qarg'alardan asar topa olmadilar, daraxt tagida yotgan qarg'ani ham ko'rmadilar. Majaqlangan qarg'a,

boyqushlar uni ko'rmadan ketib qolishlaridan va chekkan jafolari bekor ketishidan qo'rqib, yotgan yerida qimirlab, sekin-asta oh-voh qila boshladi. Boyqushlar uning oh-zorini eshitib, o'z shohlariga xabar yetkazdilar. Shoh bir necha boyqush bilan yoniga kelib, uning kim ekanligini, qarg'alar qayerga ketganliklarini so'rashni buyurdi.

Qarg'a otini, otasining otini aytib dediki:

— Qarg'alarning qayerga ketganliklarini bilmayman, bu mening hozirgi holimdan ham ma'lumdir.

Podsho dedi:

— Bu qarg'alar shohining vaziridir, bilish kerak, nima uchun uni bu ko'ygga solgan ekanlar.

Qarg'a dedi:

— Siz u kuni bizga hujum qilgan kechadan so'ng shoh bizni chaqirib bu haqda fikrimizni so'radi. Men dedim: «Boyqushlarga qarshilik ko'rsatishning foydasi yo'q, chunki ular bizga nisbatan kuchli, sha'n-shavkatlidirlar. Shuning uchun bir elchi yuborib ular bilan sulh tuzaylik, boj-xiroj to'laylik, rozi bo'lmasalar shaharlarga tarqalib ketaylik, chunki ular uchun urush, biz uchun esa sulh foydalidir. Kuchli dushmanga tobe bo'lishdan boshqa chora yo'qdir. Ko'rmaysizmi, ko'k o'tlar bosh egib kuchli shamoldan o'zlarini saqlab qoladilar, ildizi mustahkam, shoxlari yo'g'on daraxtlar esa ag'darilib tushadilar». Shularni aytganimdan keyin qarg'alar g'azablanib, meni xoin va boyqushlarning tarafdori deb, shu ahvolga soldilar. Endi bilishimcha, ular urushga tayyorgarlik ko'rayotirlar.

Boyqushlarning shohi bu so'zlarni eshitgandan so'ng vazirlarining biridan so'radi:

— Sen bu qarg'a haqida qanday fikrdasan?

Vazir dedi:

— Uning to'g'risida fikrlashib o'tirishga hojat yo'q. Yer yuzini uning iflos va yaramas vujudidan qanchalik tez tozalasak, shuncha yaxshi bo'ladi va uning makrhiylasidan shuncha tez qutulgan bo'lamiz. Uning o'limi

qarg'alar uchun katta talafot bo'ladi. Otalar aytibdurlar: «Kimiki bugun qiladigan muhim bir ishni ertaga qoldirsa barmog'ini tishlaydi».

O'lim girdobidan qutulib qolgan ojiz dushmanni o'ldirib undan qutulmagan pushaymon yeydi. Shoh uning so'zlariga ishonmasinlar, safsatalariga e'tibor bermasinlar...

Shoh ikkinchi vaziridan so'radi:

— Sen nima deysan?

Ikkinchi vazir dedi:

— Men uning o'ldirilishini zarur deb bilmayman. Chunki kuchsiz va qurolsiz dushman muruvvatga sazovordir, aqlli odamlar bundaylarni afv etish bilan o'zlarining olijanob ekanliklarini butun dunyoga namoyon qiladilar. Sig'inib, himoya izlab kelganlarga boshpana bermoq kerak. Ba'zi ishlar borki, ular o'g'ri kishi savdogarning xotinini o'z eriga mehribon qilib qo'ygan kabi dushmanga shafqat uyg'otadi.

Shoh so'radi:

— O'g'ri qanday qilib xotinini eriga mehribon qilib qo'yibdi?

Vazirning xunuk savdogar haqidagi hikoyati

Davlatmand, lekin haddan tashqari xunuk bir savdogar bor edi. Uning xotini esa g'oyat go'zal edi.

Eri uni juda yaxshi ko'rardi. Lekin u eridan nafratlanar, undan o'zini olib qochib yurar va butun umri bo'yi bir soat ham eri bilan birga bo'lishni istamas edi. Bir kuni ularning uyiga o'g'ri tushdi. Savdogar uxlab yotar, xotini uyg'oq edi. Xotin o'g'rini ko'rib qo'rqib ketdi. Qochib borib erining qo'yniga kirdi va uni mahkam quchoqlab oldi. Eri uyqudan uyg'onib ketib so'radi:

— Bu qanday lutf, bu qanday marhamat? Qaysi xizmatim evaziga bu ne'mat menga muyassar bo'ldi?

Ammo o'g'rini ko'rib masalani tushundi va o'g'riga dedi:

— Ey sher yurakli yigit, ko'ngling istaganicha mol-davlatimdan ol. Senga halol bo'lsin. Men yolg'iz sening muborak qadaming tufayli bu baxtga erishdim.

Ikkinchi vazir hikoyasini tugatishi bilan shoh uchinchi vazirning fikrini so'radi.

Uchinchi vazir dedi:

— Albatta, buni o'ldirish kerak emas, aksincha, unga iltifot ko'rsatib baxshish bermoq lozimdir, shoh saroyi unga panoh bo'lsin. Aqlli odam dushman orasiga nifoq solishni ham g'alaba deb hisoblaydi. O'g'ri bilan dev orasidagi janjal zohidga qo'l kelgani kabi dushmanlar orasidagi ixtilof ham ishlarni yo'lga solib yuborishga imkon beradi.

Shoh so'radi:

— O'g'ri bilan dev nega janjallashib qolishgan ekan?

Uchinchi vazirning hikoyati

Zohid bir ho'kizni uyiga olib ketayotgan edi. Uni o'g'ri ko'rib qolib ketidan tushdi. Bir dev ham inson qiyofasini ko'rib, o'g'riga hamroh bo'ldi.

O'g'ri so'radi:

— Sen kimsan va qayerga ketyapsan?

U javob berdi:

— Men devman, zohidni ta'qib etib kelmoqdaman. Fursat topib uni bo'g'ib o'ldirmoqchiman. Xo'sh, sen o'zing kimsan?

O'g'ri dedi:

— Men yulduzni benarvon uradigan o'g'riman. Hozir zohidning semiz ho'kizini o'g'irlamoqchiman.

Ular birga ravona bo'ldilar va tunda zohidning uyiga yetib keldilar. Zohid ho'kizni bog'lab, unga suv, pichan berib, o'zi o'rniga kirib yotdi.

O'g'ri agar dev zohidni o'ldirmoqchi bo'lsa, u uyg'onib qolib shovqin solishi mumkin. Unda ho'kizni o'g'irlash qiyin bo'ladi, deb o'yladi.

Dev ham, agar o'g'ri ho'kizni o'g'irlasa, chiqib ketayotganida uning ovozidan zohid uyg'onib ketadi-yu, uni o'ldirish mumkin bo'lmay qoladi, deb o'yladi.

Dev o'g'riga dedi:

— Sen biroz sabr qil, men zohidni o'ldiray, so'ngra sen ho'kizni olib ket.

O'g'ri dedi:

— Yo'q, avval men ho'kizni olib ketay, so'ngra sen zohidni o'ldir.

Shunday qilib, ular bir-birlari bilan kelisholmay, janjallashib qoldilar. O'g'ri zohidni chaqirib dedi:

— Ey badbaxt, nima qilib yotibsan, tur, bu yerda dev bor, u seni o'ldirmoqchi.

Dev ham baqirib dedi:

— Zohid, tur, uyingga o'g'ri tushdi, ho'kizingni o'g'irlab ketmoqchi.

Zohid uyg'onib ketib, dodlay boshladi. Dev va o'g'ri qo'rqib qochdilar.

Shunday qilib, dushmanlar orasidagi ixtilof zohidning moli va jonining salomat qolishiga sababchi bo'ldi.

Bu so'z shu yerga yetganda, qarg'aning o'ldirilishini maslahat ko'rgan birinchi vazir dedi:

— Men ko'rib turibman, bu qarg'a o'z makri bilan sizni aldashga muvaffaq bo'ldi. Men hamon ta'kidlayman, siz g'aflat uyqusidan uyg'onib, ko'zingizni katta oching, bu ishning oqibatini o'ylang. Aqlli odamlar yolg'on so'zlarga uchmaydilar. Faqat tajribasiz odamgina kichik bir xushomadgo'ylikni ko'rganda yumshab, avvalgi xusumatni, dushmanning xiyonati va riyokorligini unutadi, dushmanning yolg'on gapini rost deb qabul qiladi va u bilan kelishadi. Hammasidan taajjublisi shuki, bu yolg'onchining ko'zbo'yamachiligi natijasida Basra sizning ko'zingizga Bag'dod bo'lib ko'rinyapti va siz xotining so'ziga ishongan duradgorga o'xshab qolyapsiz.

Shoh so'radi:

— Duradgorga nima bo'libdi?

Birinchi vazirning hikoyati

Sarandip shahrida bir duradgor bor edi. Uning xotini bag'oyat xushro'y, hiylakor va ishvali ayol edi. Duradgor o'z xotinini haddan tashqari sevar, u esa qo'shnilaridan biri bilan aloqada edi. Qarindoshlar bundan xabardor bo'lib qolib, duradgorga yetkazdilar. Duradgor avval ishni tekshirib, so'ngra chora ko'rmoqchi bo'ldi.

U xotiniga dedi:

— Men uncha ham uzoq bo'lmagan bir qishloqqa boradigan bo'lib qoldim. Lekin safarim uch-to'rt kunga cho'zilsa kerak. Safar anjomini hozirlab qo'y.

Xotin darhol safarga kerakli narsalarni tayyorlay boshladi. Duradgor xotini bilan xayrlashib chiqib ketdi.

Eri ketishi bilan xotin o'ynashiga xabar qildi. Duradgor esa kechasi yashirin yo'l bilan uyiga kirib keldi. Xotinini o'ynashi bilan birga suhbat qurib o'tirganini ko'rdi, lekin duradgor shoshilmadi, ular yotoqqa kirsinlar, keyin ushlayman, deb kutib turdi. Ular yotoqqa kirib yotdilar. Duradgor ish nima bilan tugashini mushohada qilmoq uchun taxtaning ostiga kirib oldi. Lekin biroz vaqt o'tgach, uni uyqu elitib, oyog'i taxtaning ostidan chiqib qolganini bilmay qoldi. Xotining ko'zi oyoqqa tushishi bilan darhol masalani tushundi. U o'ynashining qulog'iga sekingina bir narsa deb pichirladi.

O'ynash kulimsirab so'radi:

— Eringni ko'proq sevasanmi yoki meni?

Xotin javob berdi:

— Erimni ko'proq sevaman. Ba'zan soddalik, ba'zan nodonlik va ba'zan ehtiros xotinlarni asl va nasabiga, qobiliyat va layoqatiga qaramay, ular bilan yaqinlik qilishga majbur etadi. Endi erga kelsak, u boshqa masala. U ota, jigar va avlod kabidir. O'z aziz jonidan erini ming marta ortiq ko'rmagan, erning rohati va farog'ati uchun o'z hayotini qurbon qilmagan xotingga ming la'nat!..

Duradgor bu so'zlarni eshitgach, yuragi yumshadi va o'z-o'ziga dedi: «Xotinimdan badgumon bo'lib, yaxshi ish

qilmadim. Hech bo'lmasa endi ularning kayf-safolarini buzmay». Shundan keyin ovozini chiqarmay, sahargacha taxtaning ostida yotdi...

Tong bilan, o'ynash ketgandan so'ng duradgor taxtaning ostidan chiqib xotining oldiga kelib o'tirdi. Xotin o'zini uxlaganga solib yotdi. U xotini asta-sekin uyg'otib, ohista silab der edi:

— Agar sening qalbing sadosini eshitmasam edi, halig kishining uyini yondirib yuborardim, boshqa hayosizlarga bu ibrat darsi bo'lar edi. Lekin sening menga bo'lgan muhabbatingni va bu ishni yanglishib soddaligingdan qilib qo'yaningni bilgach, sening nomusingni qo'riqlashni lozim bildim. Qo'rqma, o'zingni qo'lga olib dadil bo'l.

Sening haqingda ba'zi yomon narsalar o'ylab, badgumon bo'lganim uchun meni kechir.

Xotini ham uzr so'ray boshladi. Shunday qilib, har ikki taraf orasida totuvlik vujudga keldi.

Bu masalni shuning uchun keltirdimki, siz ham duradgor kabi aldanib, qarg'aning makr-hiylasiga uchmay va hushyorligingizni yo'qotmagaysiz. Dushmanlar uzoq masofadan turib zarba bera olmasalar, yaqinlashish yo'lini qidira boshlaydilar va o'zlarini xayrixoh qilib ko'rsatishga urinadilar, shu vosita bilan sirdosh bo'lib oladilar. Sirlarni bilib, kerakli ma'lumotlarni olgach, payt poylab turib shunday zarba berishlari mumkinki, ular yetkazgan jarohatlarni asrlar mobaynida ham tuzatish mumkin bo'lmaydi. Men qarg'alarni sinab ko'rgan, ularning aql-farosatlarini imtihon qilganman. Bu mal'un qarg'ani ko'rib, uning so'zlarini eshitgach, ularning uzoqni ko'radigan ekanliklari yana bir karra ma'lum bo'ldi.

Boyqushlarning podshohi vazirning so'zlariga ahamiyat bermadi. Qarg'ani hurmat qilib, yedirib-ichirib, uni yaxshi mehmon qilishni buyurdi.

Qarg'ani o'ldirish tarafdori bo'lgan vazir dedi:

— Modomiki, qarg'ani o'ldirmadingiz, hech bo'lmasa, u bilan dushman kabi muomalada bo'ling. Uning makr va hiylalariga uchib xotirjam bo'lmang. Shuni aytib

qo'yayki, uning bu yerda bo'lishi — bizga baxtsizlikkina keltiradi.

Podsho uning bu so'zlariga ham e'tibor bermadi, dono va aqlli vazirining nasihatlariga quloq solmadi. Qarg'a esa shohning xizmatida qolib, izzat-hurmat ichida yashay boshladi. U shohga yaqin odamlar bilan qalin do'st bo'lib oldi. Shoh va uning mulozimlari unga mehr qo'yib, nasihatlariga quloq soladigan bo'ldilar.

Bir kuni qarg'a katta bir majlisda, jamoat oldida shunday dedi:

— Qarg'alarning shohi menga sababsiz jafo yetkazdi, men undan qasos olmaganimcha tinchiy olmayman. Bu haqda kecha-yu kunduz o'ylayman. Oxiri shu fikrga keldimki, qarg'aligimcha qolsam, bu orzumga yeta olmayman. Olimlardan eshitgan edimki, birov zolimdan jafo ko'rib, o'zini olovga tashlasa va shu chog'da duo o'qisa iltijosi mustajob bo'ladi. Podsho rozi bo'lsa, meni o'tga tushlanglar, bag'rimga olov o'ta boshlaganda, boyqushga ayylanishimni so'rab duo qilaman, zora shu yo'l bilan u zolimdan intiqom olsam.

Qarg'ani o'ldirishni maslahat ko'rgan boyqush ham shu majlisda edi. U qarg'aning bu so'zlarini eshitib dedi:

— Sen o'zingni zohiran guldek pokiza qilib ko'rsatishga urinayotgan bo'lsang ham, ko'ngling qora, o'zing makkor va riyokor maxluqsan. Sen rangi go'zal, hidi xush, lekin zahar solingan sharobga o'xshaysan. Sening qora qalbing, popok vujuding na suv bilan tozalanur, na o't bilan; sen qaysi shaklda ko'rinmagin, semurg'mi, tovus:ni qiyofasiga kirmagin, baribir, hamisha sen qarg'alarga yordam qilish orzusidasan. Sen quyosh, bulut, shamol va tog'ga tegish haqidagi taklifni rad etib, ulardan sichqonni afzal ko'rgan buluv qiz qiyofasidagi sichqonga o'xshaysan.

Shoh so'radi:

— U sichqon qanday kuyovga chiqibdi?

Boyqushning hikoyati

Bir duosi mustajob zohid bor edi. Bir kuni u ariq labida o'tirganida tepasidan bir kalxat uchib o'tdi. Uning tumshug'idagi sichqon bolasi zohidning yoniga tushib ketdi. Zohid u sichqon bolasiga shafqat qilib, uni yaproqqa o'radi-da, uyiga jo'nadi. Uydagilar uni ranjitmasin, deb bir duo bilan uni suluv qizga aylantirdi. U shunday bir qiz bo'ldiki, kun desa ko'zi bor, oy desa yuzi bor edi. Xotiniga dedi:

— Bu mening qizim, o'z bolalaringni qanday tarbiyat qilsang, buni ham shunday tarbiyat qil.

Xotini uni o'z qizidek ko'rib, parvarish qila boshladi. Qiz balog'atga yetgach, zohid unga dedi:

— Sen katta bo'lib qolibsang, endi erga tegadigan vaqtning keldi, ko'ngling istagan odamlardan birortasini ayt, men seni unga uzatay.

Qiz dedi:

— Men eng kuchli bir kimsaga kuyovga chiqishni istayman.

Zohid dedi:

— Dernaq, quyoshga turmushga chiqmoqchi ekansan-da? — So'ngra quyoshga qarab dedi: — Bu go'zal va iffatli qiz kuchli va qudratli yerga talabgor, uni senga bersam deyman.

Quyosh dedi:

— Men unga o'zimdan ham kuchli, qudratli bir odam ko'rsata olaman. U bulutdir. U mening yuzimni berkitib, insonlarni mening jamolim yorug'ligidan mahrum etadi.

Zohid bulutning yoniga kelib, o'sha gapni aytdi.

Bulut dedi:

— Shamol mendan kuchli, chunki u meni xohlagan yerga quvib olib ketadi.

Zohid shamol yoniga kelib, o'z taklifini takrorladi.

Shamol dedi:

— Tog' mendan kuchli, men uni joyidan qo'zg'atolmayman, u mening yo'limni to'sadi.

Zohid tog'ning yoniga kelib, o'sha gapni aytdi.

Tog' dedi:

— Sichqon mendan kuchli, u mening bag'rimni teshib, yuragimda o'ziga in yasagan. Uni quvib chiqarishga kuchim yetmaydi. Sen uning yoniga bor.

Qiz bu so'zni eshitgach, dedi:

— To'g'ri gap. Mening asl erim o'sha sichqon bo'lishi kerak.

Zohid sichqonning yoniga kelib, dedi:

— Sen shu qizga uylanasanmi?

Sichqon dedi:

— Mening xotinim o'z jinsimdan bo'lishi kerak.

Qiz zohidga dedi:

— Duo qil, men sichqon bo'lay.

Zohid duo qildi. Qiz sichqonga aylanib qoldi va zohid uni sichqonga uzatdi, shunday qilib, sichqon asliga qaytdi.

Shuni deb boyqush qarg'aga dedi:

— Ey hiylakor, sening ham tabiatning shu sichqonning tabiatiga o'xshaydi.

Boyqushlar podshohi bu safar ham uning so'zlariga bovar qilmadi. Qarg'a esa o'z ishini bilib qilar, har kuni yangi-yangi maroqli hikoyalar, ajoyib va g'aroyib afsonalar aytib, boyqushlarning boshini aylantirar, sekin-sekin ularning qalblariga kirib, sirlarini o'rganar, yotadigan-turadigan yerlarini ko'z ostiga olib qo'yar edi. Nihoyat, bir kuni fursat topib, yashirincha qarg'alarning yoniga kelib, dedi:

— Mo'ljallagan ishlarimni bitirdim, endi bu yog'i sizlarga qoldi, ishni boshlash kerak. Bir g'ayrat ko'rsatsangiz boyqushlar podshohini qo'shin-po'shini bilan asfalasofilinga jo'natasiz.

Shoh dedi:

— Sensiz ishimiz bitmaydi. Nima qilmoq lozim bo'lsa ayt, amr qilay.

Qarg'a dedi:

— Butun boyqushlar hozir falon tog'dadirlar, kunduzlari falon g'orga to'planadilar. G'orning yaqinida

qurib yotgan tikanzor va chakalakzor bor. Podsho buyursin, qarg'alar o'tinlarni yig'ib g'or og'ziga qalasinlar. Men esa biror cho'pon gulxanidan bir cho'g' olib kelib o'tinga tashlay, shunda qarg'alarning hammasi qanoq qoqa boshlasinlar, buning shamolidan olov gurillab yonib ketadi, g'ordan chiqqan har bir boyqush kuyib o'laveradi. Chiqolmaganlari esa tutundan bo'g'ilib halok bo'ladi.

Podshohga bu tadbir ma'qul tushdi. Shoh amr qildi, qarg'aning butun aytganlarini bajo keltirdilar. Boyqushlarning hammasi kuyib o'ldi. Qarg'alar g'alaba qozonib, hech talafot bermay shod va xurram bo'lib o'z yerlariga qaytdilar. Shoh va uning lashkarlari qarg'aning bu ajoyib tadbirini, ko'rsatgan bu ulug' xizmatini maqtalunga minnatdorchilik bildirdilar.

Bir kuni shoh suhbat asnosida qarg'adan so'radi:

— Deydilarki, yaxshilik bilan yomonlik o't bilan suvdok bir-biriga dushman, yaxshilar yovuz odam bilan ulfatchilik qilolmaydilar. Sen esa qanday qilib shuncha muddat boyqushlar bilan birga yashay olding?

Qarg'a javob berdi:

— Rost aytdingiz. Lekin aqlli odamlar o'z qabiladoshlarining orzularini ro'yobga chiqarish uchun jonbozlik ko'rsatib, yo'lida duch kelgan har qanday qiyinchiliklardan qo'rqmaydilar, mashaqqat va aziyatni pisand qilmaydilar. Axir ganj ranjsiz qo'lga kirmaydi, gul tikansiz bo'lmaydi. Katta va mas'uliyatli ishlarda, ayniqsa, vatan va shoh tahlika ostida qolganda dushmanni daf etish ishiga sovuqqonlik bilan qaragan shaxslarni hikmat egalari qoralaydilar...

Podsho dedi:

— Boyqushlarning aql-farosatidan so'zlab bersang.

Qarg'a dedi:

— Ularning ichida meni o'ldirishni maslahat ko'rgan boyqushdan bo'lak birorta ziyrak va aqllisini ko'rmadim. Uning gapiga hech kim quloq osmadi. Men o'z urug'doshlarim oldida yuksak hurmat va baland mavqe egasi ekanligim, aqlli va tajribali hisoblanganligimni,

biyla ishlatib ularga tuzoq qo'yishim mumkinligini
glushga farosatlari yetmadi. Ular na o'z aqlari bilan
li ko'ra oldilar, na maslahatchilarning aytganlarini
bul etdilar. Ular mendan o'z sirlarini ham yashira
madilar. Holbuki, podshohlar o'z sirlarini norozi
atdan saqlashlari lozim.

Podsho dedi:

— Demak, boyqushlar halokatining sababi podshoh-
ning takabburligi va vazirlarining ahmoqligi ekanda?

Qurg'a dedi:

— Xuddi shunday. G'alaba qozonib mag'rurlikka
rilmaydigan, xotinlar bilan yomon yurib, sharmanda
lmagan, ko'p taom yeb qorni og'rimagan odam, aqlsiz
rilar so'ziga kirib halok bo'lmagan podsho kamdan-
m topiladi.

Podsho dedi:

— Dushmanni daf etish uchun ko'p mashaqqatlar
kding. Hatto o'z izzat-nafsingni ayamay dushman
dida tiz cho'kishga va uni hurmatlashga majbur bo'lding.

Qurg'a dedi:

— Maqsadga erishish uchun barcha azob-uqubatni
yniga olgan kimsaga bundan boshqa chora yo'qdir.
hohim, ilonning nima uchun qurbaqaga xizmat qilishga
ni bo'lganligini eshitgandirlar.

Podsho dedi:

— Qani eshitaylik.

Qarg'aning hikoyati

Bir ilon qarib, kuch-quvvatdan qolib, ovga yaramay
ilkchilik o'tkazish yo'lini topolmadi. O'z-o'ziga der edi:
Yig'itlik ketdi, uni endi qaytarib bo'lmaydi. Hech bo'lmasa
qariligimni tinchgina o'tkazsaydim. Bu vafosiz dunyoga
ko'ngil qo'yib bo'lmaydi, oxiri voydir. Modomiki, men shu
shvolga tushibman, aziyat va mashaqqatga taslim
bo'lmay, makr va hiylaga murojaat etay».

Shuni deb ilon qurbaqalari ko'p bo'lgan bir ko'lning qirg'og'iga sudralganicha keldi-da, cho'zilib yotdi. Ilin qurbaqa uning yoniga kelib so'radi:

— Senga nima bo'ldi? Xafa ko'rinasan?

Ilon javob berdi:

— Dunyoda mendan baxtsiz bir maxluq bormikin? Mening tirikchiligim qurbaqa tutib yeyish bilan o'tar edi. Endi shunday bir kasallikka yo'liqdimki, qurbaqalar o'zlari kelib og'zinga kirsalar ham yuta olmayman.

Qurbaqa bu xabarni o'z shohiga yetkazdi, qurbaqalar shohi taajjub qilib ilonni o'z huzuriga chaqirtirdi va dedi:

— Qanday qilib sen bu kasallikka yo'liqding?

Ilon dedi:

— Bir kuni bir qurbaqani tutmoqchi bo'lib quvlagan edim, u qochib bir zohidning uyiga kirib ketdi, men ham uning orqasidan ergashdim. Uy qorong'i edi. Zohidning o'g'li uxlab yotgan ekan, bilmabman. Og'zimni ochib bir hamla qilgan edim, qurbaqa deb o'sha bolaning boshmaldog'ini tishlab olibman. Zohidning o'g'li o'sha zamonog' jon berdi.

Zohid buni ko'rib mening orqamdan quvlay boshladi va meni la'natlab der edi: «Iloyo, sen shunday bir kasallikka duchor bo'lginki, qurbaqalar shohi sening ustingga minib gasht qilib yuradigan bo'lsin. Qurbaqalar shohi o'zi in'om qilmaguncha, aslo qurbaqa yuta olmagin». Endi bu yerga, zora shoh mening ustimga minib sayr qilib yursa degan umid bilan keldim, chunki qazoning hukmidan qochib qutulib bo'lmaydi.

Shohga bu so'z ma'qul tushdi, o'zining shunday bir sha'n-shavkatga, sharaf va hurmatga loyiq bo'lganligidan shod bo'ldi va ilonning ustiga minib olib kerilganicha sayrga jo'nadi.

Biroz vaqt o'tgach ilon dedi:

— Shohim omon bo'lsinlar, menga uni sayr qildirib yurish uchun kuch kerak, ovqat kerak, endi esa holjonim qolmadi.

Shoh dedi:

— To'g'ri aytasan. Har kuni senga ikki qurbaqa in'om
aman.

Ilon har kuni ikki qurbaqa yeb o'z kunini o'tkazar edi.
O'zining qurbaqaga qilayotgan bu xizmatidan foyda
ayotgani uchun uni o'ziga or va nomus deb bilmas edi.

Men ham aziyat cheksam-da, sabr qildim, chunki bu
dushmanni halok etmoq, qavmimizni tahlikadan
qutqarmoq va shohning hayoti, davlatini saqlab qolmoq
uchun zarur edi. Dushmanni bartaraf qilishda hiyla va
sabrning o'rni kattadir. Shunga ko'ra «Aql kuchdan
astundir», deganlar. Masalan, bir odam qanchalik kuchli
bo'lmasin, urush maydonida 10-20 dan ortiq odamni
halok qila olmaydi, holbuki bir aqlli odam o'ylab, tadbir
bilan ish ko'rsa, butun bir o'lkani xarob etib, quvvatli bir
dushinni mag'lubiyatga uchratishi mumkin. Masalan, o't
agar bir daraxtning ustiga tushsa, yerdagidan ko'ra
ko'proq zarar yetkazmaydi, holbuki suv suyuq bo'lishiga
qurumay katta daraxtlarni ildizlari bilan qo'porib keta
biladi.

Debdurlarki, agar ikki kishi bir buyuk orzuga
yetishishni istasalar, bunga ularning muruvvatda ustun
bo'lgani muvaffaq bo'ladi; agar muruvvatda teng bo'lsalar,
irodasi kuchli bo'lgani yetishadi; irodada ham barobar
bo'lsalar, yordamchi va do'stlari ko'p bo'lgan yengib
chiqadi; agar bu jihatdan ham oralarida farq bo'lmasa, u
vaqtda tolei baland bo'lgani yetishadi...

Hikmat egalari aytibdurlar: «Kimki g'alabadan boshi
aylanmaydigan va mag'lubiyatdan ruhi tushmaydigan
aqlli va tajribali shohlar bilan olishsa, unday odam o'z
baxtini qora qilgan va o'zini o'zi o'limga hukm qilgan
bo'ladi. Shoh paydo bo'lishi mumkin bo'lgan barcha
moneliklarni nazarga olishi, qilinadigan ishni har
tomonlama o'rganishi, qayerda shoshilib, qayerda sabrli
bo'lishni, qayerda g'azabli, qayerda muloyim bo'lishni
yaxshi bilishi zarur. Juda yumshoqlik qilib har narsaga
yo'l qo'ya bermasin, juda ham shafqatsizlik qilib har narsa
uchun jazo beravermasin...»

Podsho dedi:

— Boyqushlar bizni nazarga ilmadilar, chunki bizni oz va zaif deb o'yladilar.

Qarg'a dedi:

— Dunyoda to'rt narsa borki, ularning kamini ham ko'p hisoblaydilar. Birinchisi — olov bo'lib, uning ko'pi ham, ozi ham kuydiradi, kichigi juda tez katta bo'lib ketadi; ikkinchisi — qarz bo'lib, qarzini so'rab keluvchilardan yetishadigan xijolat bir tanga uchun ham, ming tilla uchun ham barobardir; uchinchisi — bemorlikdirki, har qandayi ham kishini behuzur qilib, zaiflashtiradi; to'rtinchisi — dushman bo'lib, u qanchalik xor va zaf bo'lmasin, axir bir kun o'z ishini qiladi. Men bir chumchuqning bahaybat bir ilondan intiqom olganini eshitganman.

Shoh so'radi:

— Chumchuq qanday intiqom olibdi?

Qarg'aning navbatdagi hikoyati

Bir tom bo'g'otida ikki chumchuq in qo'yan edilar. Ular bir kuni bola ochdilar. Ikkovlari navbatma-navbat bolalarini boqish uchun ovqat izlab ketar edilar. Kunlardan bir kun eri kelganda ona chumchuq o'z un oldida parvona bo'lib uchib yurardi, Eri, nima gap, dedi so'radi.

Ayoli javob berdi:

— Bir lahza g'oyib bo'lgan edim, kelsam bir haybatti ilon kelib bolalarimizga qasd qilayotgan ekan. Shuncha yalinib-yolvordim, bo'lmadi, keyin tahdid qilishga o'tdim. «Bu ishingdan qayt, yo'q esa bolalarimning otasi bilan intiqom kamarini belimizga bog'lagaymiz», dedim, bo'lmadi. Faryodu zorimga qaramay inimizga kirib, bolalarimizni yedi, hozir ham o'sha yerda yotibdi. Ota chumchuqning g'azabi qaynab, nima qilishni bilmay turgan edi, shu vaqt uy egasi qora chiroq yoqmoqchi bo'lib pilikni yondirdi va endi uni chirog'donga qo'ymoqchi

bo'lganda, chumchuq parillab kelib, yonib turgan pilikni olib qochdi, uni bo'g'otdagi inga otdi. Uy egasi uyga o't ketishidan qo'rqib darhol tomga chiqdi va bo'g'otni ochib o'tni o'chirishga urindi. Ilon olovdan qutulish uchun bo'g'ot ochilgan tomondan boshini chiqargan edi, uy egasining ketmoni kelib boshini cho'rt uzdi. Bu qissadan hissa shuki, ilon o'z dushmanini mensimagani va zaif deb hisoblaganligi uchun halok bo'ldi.

Hozir mamlakatni muhofaza qilish va dushmanni bartaraf qilishda bizning shoh bilan tenglashadigani yo'qdir; o'z xizmatida bo'lganlarga g'amxo'rlik qilishda, ularni o'z iste'dod va layoqatlariga qarab davlat ishlariga tayinlashda, lutf-karam ko'rsatishda, raiyat uchun g'amxo'rlikda shohimizning misli yo'qdir.

Shoh dedi:

— Yo'q, bu buyuk ishlarni ro'yobga chiqarish, dushmanlarni mahv etish — sening to'g'ri maslahatlaring, mislsiz sadoqating va zo'r mahorating natijasidagina mumkin bo'ldi. Men senga iltifot qilib, uning samarasini ko'rdim. Kimki davlat ishlarining jilovini aqlli vazirlarga topshirsa, u hech vaqt pushaymon bo'lmaydi, hech narsa uning baxtini qo'lidan tortib ololmaydi. Eng taajjubli narsa shuki, uzoq muddat dushman orasida yashab, ularning ming xil ta'na va tahqirlarini eshitib, azob-uqubatlar chekib, biror marta ham og'zingdan dushmanda shubha tug'dirishi mumkin bo'lgan so'z chiqarmading.

Qarg'a dedi:

— Men har ishda, har qanday vaziyatda shohning bergan pand-nasihatlarini qulog'imda tutdim, bilimi, aqli, shohni g'oyat yuksak bo'lganligi uchun har ishda undan o'tnak olishga tirishdim, uning shohlarga xos bo'lgan dasturilamal va farmonlarini o'zimga rahnamo deb bildim...

Shoh dedi:

— Sen xushmuomalaliging, to'g'riliging, ishbilarmonliging jihatidan saroy mulozimlarining mumtozi eding. Zo'r aql va metin iroda bilan shunday ulug' ishning uddasidan

chiqa olding. Ungacha na yeganimizda, na yotar-turarda halovatimiz bor edi, chunki o'zidan kuchli dushman uch kelgan odam to jonini undan xalos etmaguncha kechani kunduzdan, oqni qoradan ajrata olmay qoladi. Hikmat egalari aytibdurlarki, kasal odam to sog'aymagunicha yegan ovqatining lazzatini bilmaydi, hammol to og'ir yuk ostidan chiqmagunicha chuqur nafas olmaydi, mazlum xalq to dushman yo'qotilmagunicha tinchimaydi. Endi aytib berchi, ularning podshosi qanday ekan?

Qarg'a dedi:

— Uning rayosatining asosini fuqaroga mehribonlik emas, takabburlik, xudpisandlik tashkil etar edi. Buning ustiga u aql va zakovatdan mahrum, kaltafahm, hech qanday fazilatsiz bir maxluq edi. Uning yonidagilar — vazir va vakillari ham aynan o'ziga o'xshardi. Yolg'iz meni o'ldirishni maslahat ko'rgan boyqush vazirgina ulardan ajralib turar edi.

Shoh dedi:

— U vazirning aqlidan darak beradigan xususiyatlari nimadan iborat ekan?

Qarg'a dedi:

— Uning ikkita xususiyati bor edi: biri — meni o'ldirishni maslahat bergani; ikkinchisi — o'z shohining rozi emasligini bilsa ham o'z fikrini undan yashirmaganligi. U nazokat va muloyimlik bilan shohga qattiq, lekin dilga botmaydigan so'zlar aytar, shohning qanday ulug' odam bo'lishi kerakligini esiga solib turar edi; shohning xatolarini ko'rganda, go'zal va ibratli so'zlar, masallar bilan xatosini tushuntirishga urinar edi, ma'noli rivoyatlar, qiziq voqealar, chiroyli hikoyalar aytib berib, shu orqali boshqalarning nuqsonlarini shohga ibrat ko'zgisida ko'rgazardi, toki shoh unga qarab o'zining ayblarini ko'rsin va unga g'azab qilmasin. Bir kuni shohga quyidagi gapni aytib turganini eshitib qoldim: «Hukmdorlik juda sharafli ish va ulug' mavqedir. Bu baxtga muyassar bo'lgach, uning qadrini bilmoq va uni

qariqlash uchun mislsiz fidokorlik ko'rsatmoq kerak. Endi mumkin qadar oz xato qilib, ko'p ish qilish payti keldi. Mamlakatning osoyishtaligi va davlatning mustahkamligi yetuk aql, mustahkam iroda, to'g'ri maslahat va o'tkir qilich bilan barqarordir». Lekin uning so'ziga quloq quluvchi va maslahatini qabul qiluvchi topilmadi. Na ular bu boyqushning aql va zakosidan foydalana oldilar, na buning o'zi dono maslahatlari va aqli bilan jonini balodan qutqara bildi.

Dushman zaif va kuchsiz bo'lsa ham uning makr va hiylasidan ehtiyot bo'lmoq haqidagi hikoya shundan iboratdir. Qarg'a zaif va kuchsiz bo'lsa-da, o'z aqli va zakovati bilan o'zi kuchli, lashkari behisob, lekin kaltafahm dushmanni mana shunday yo'l bilan tor-mor keltira oldi. Boshqa yo'l bilan u o'z maqsadiga erisha olmas edi. Ma'rifat sohiblari bu hikoyadan ibrat darsini olishlari, kerakli xulosalar chiqarishlari lozim va bilishlari kerakki, dushman zaif bo'lsa-da, unga e'tiborsizlik, mensimaslik bilan qarash va hech narsa qila olmaydi deb o'ylash xatodir...

Sadoqatli do'st va layoqatli ko'makchilar eng qimmatli davlat hisoblanadi. Kimki bularning ikkalasiga yetishsa, ham do'stlar orasida sarafroz, ham dushmanlarning makr-hiylasidan emin bo'ladi.

MAYMUN VA TOSHBAQA BOBI

Roja brahmanga dedi:

— Dushmanning hiylasidan va raqibining fitna-fasodidan ehtiyot bo'lishlik haqidagi hikoyani eshitdim. Endi iltimos qilardim, mumkin bo'lsa, shunday bir hikoya so'zlab bersangki, unda birov bir narsani qo'lga kiritmoq uchun harakat qilsa-yu, lekin maqsadga yetgandan keyin beg'amlik qilib uni qo'ldan berib qo'ygan bo'lsa.

Brahman dedi:

— Bir narsani qo'lga kiritmoq uni saqlamoqdan osondir, chunki qimmatli, nafis va nodir narsalar ba'zan baxtli tasodif tufayli hech bir mehnatsiz qo'lga kirib qoladi, lekin miyani ishlatmasang, uni saqlamoq juda qiyindir. Masalan, bir toshbaqa mehnat sarf qilmasdan mehribon va fidokor bir maymunga oshna bo'lib qoldi-yu, lekin aqlsizligi va nodonligi tufayli undan ayrilib, pushaymon bo'ldi.

Roja so'radi:

— Qanday qilib?

Hikoyat

Brahman dedi:

— Bir orolda maymunlar ko'p edi. Ularning Kordon nomli bir podshohlari bor bo'lib, siyosat va rayosat bobida tengi yo'q, odil va aqli komil edi. Umrning bahori o'tib, qarilik uni iskanjasiga ola boshladi. Ko'zining nuri, belining quvvati ketib, unga zaiflik yuzlandi... Bu zamon uning qarindoshlari ichida baxt yulduzi yonib, peshanasida saodat nuri porlagan, sarkardalik va shohlik mansabiga loyiq bo'lgan bir yosh maymun taxtiga da'vogar bo'ldi. Qarib, kuch-quvvatdan qolgan shohni taxtdan tushirib, mamlakatning jilovini unga berdilar.

Bechora qari maymun qayg'u-hasratga to'lib-toshib yo'lga ravona bo'ldi, yura-yura bir dengiz qirg'og'idagi qalin o'rmonga keldi. U yerda bir anjir daraxtini topib oldi-

yu, uning mevalarini yeb, kun kechira boshladi. Bir kuni maymun anjir daraxtining ustida o'tirib uning mevalarini maza qilib yeyayotganida bir anjir suvga tushib ketdi. Anjirning shopillab suvga tushgan ovozi maymunga juda yoqib tushdi. Maymun dam-badam suvga anjir tashlar va bundan katta zavq olar edi. O'sha suvda bir toshbaqa yashar edi, suvga tushgan anjirlarni ishtaha bilan yer va maymun bularni atayin men uchun tashlamoqda, tanish bo'lmagani holda menga shuncha mehribonlik ko'rsatmoqda, do'stlashsam menga nimalar qilishi mumkin», deb o'ylar edi. Maymunning yaxshiligini qaytarish orzusida toshbaqa qirg'oqqa chiqib, u bilan salomlashdi. Ular suhbatlashib o'tirib, bir-birlariga mehribon do'st bo'lib qoldilar, go'yo ikki tanda bir jon va bir ko'krakda ikki yurak kabi...

Maymun o'z mamlakati va davlati qo'ldan ketganligini ko'zlab berdi. Toshbaqa uning gapiga mahliyo bo'lib o'z uyi va oilasiga qaytishni unutilib qo'ydi. Toshbaqaning xotini uning uzoq muddat yo'q bo'lib ketganidan xavotirlanib, nima qilishini bilmay qo'shnisiga hasrat qildi.

Qo'shnisi dedi:

— Xafa bo'lma, uning qayerda ekanligini senga aytib berishim mumkin.

Toshbaqaning xotini dedi:

— Egachi, tezroq ayting, u qayerda?

Qo'shnisi dedi:

— Men eshitdimki, ering bir maymun bilan do'stlashib, unga maftun bo'libdi, uning vaslini sening hijroningdan ustun tutib, sening firoqing olovini uning visoli suvi bilan o'chirib yuribdi. Endi g'am chekishning foydasi yo'q. Bir tadbir ko'rish kerakki, ering uyga qaytsin.

Ular ikkalasi bir bo'lib maslahatlasha boshladilar. Oxirida maymunni o'ldirishdan boshqa chora yo'q, degan qarorga keldilar. Toshbaqaning xotini o'zini kasalga solib, qo'shnisidan eriga xabar yubordi. Toshbaqa xotining kasal bo'lganini eshitgach, maymundan uyiga borib kelish uchun ijozat so'radi va yo'lga tushdi.

Uyiga kelib qarasa, xotini ko'rpaya-yostiqlik qilib yotibdi. Uning atrofida parvona bo'lib hol-ahvol so'radi, lekin xotini bir so'z aytmadi.

Toshbaqa xotininining xastaligi va nima uchun gapirmasligi sababini qo'shnisidan so'radi.

Qo'shnisi javob berdi:

— Bemorning dardi og'ir bo'lib, sog'ayishdan umidi uzilgan bo'lsa, qanday qilib gapira olsin.

Toshbaqa dedi:

— Uning dardining davosi nima ekan? Agar bu yerlarda bo'lmasa, boshqa joylardan axtaray, do'stlardan iltimos qilay, dushmanlarga yolvoray.

Qo'shnisi dedi:

— Bu biz xotinlarga xos kasallikdirki, uni maymunning yuragidan boshqa hech narsa bilan muolaja etib bo'lmaydi.

Toshbaqa dedi:

— Maymun yuragini qayerdan topsam bo'larkin?

U g'amga botdi. O'ylab-o'ylab hech bir chora topa olmaganach, do'sti maymun yodiga tushib, o'z-o'ziga dedi: «Agar oramizda bo'lgan do'stlik va sadoqatga qaramay unga xiyonat qilsam, bu nomardlik va insofsizlik bo'ladi, agar ahdgaga vafo qilaman desam uyimning tayanchi, hayotimning bezagi, farzandlarimning panohi bo'lgan xotinimdan ajralib qolaman».

Anchagina vaqt bu haqda o'ylab iztirob chekdi, shubha va taraddud ichida qolib, nihoyat, xotininining ishqi g'alaba qildi. Shunday qilib, u vafodorlikdan voz kechish qaroriga keldi... Lekin yaxshi bilardiki, maymunni bu yerga keltirmaguncha maqsadiga erisha olmaydi. Shular haqida o'ylab-o'ylab maymunning huzuriga bordi. Ayriliq vaqtlarida muhabbati yanada kuchayib ketgan maymun toshbaqani zo'r quvonch bilan kutib oldi va uning kasal xotininining ahvoli, bolalarining, qavm-qarindoshlarining sog'liq-salomatliklari haqida so'rab-surishtirdi.

Toshbaqa dedi:

— Sening firoqing o'ti shunday yondirdiki, ularni ko'rishdan biron ham lazzat ololmadi. Yolg'izliging esimga tushganda tinchligim buzilib, dunyo ko'zimga qorong'i bo'lib ko'rinardi. Mana endi yoningga keldim. Marhamat qilib mening uyimga borsang, farzandlarimni ko'rib, otinimni sevintirsang, qavm-qarindoshlarim, do'st-eshnolarim oldida boshim osmonga yetardi. Ular jayyorlab qo'ygan ovqatlarini oldingga qo'yib, o'z mehmondo'stlik burchlarini bajaradilar. Shu bilan yaxshiliklaringni biroz bo'lsa ham qaytargan bo'lar edim.

Maymun dedi:

— Qo'y, bu haqda o'ylab ko'p aziyat chekma. Sen do'stlik va ahd-vafoda meni o'zingdan ustun qo'yma, chunki oramizdagi do'stlik ipini boshlab sen mustahkamlading. Endi men o'z ko'nglimning hoqoniman. Baxt-afodat ichida yashamoqdaman. Agar bu ozodlik va rohat ahmoli mening dimog'imga avval yetganida edi, bunday tinch, baxtli yashashning shunday shirin ekanligini avvalroq bilsaydim, foydasi oz, g'ami ko'p hukmdorlikdan allaqachon voz kechgan bo'lardim. Lekin shu bilan birga men vatandan, qavm-qarindosh, do'st-eshnolarimdan uzoqqa tushgan bir bechora maxluqman. Men shunday ayriliq azobida mahv bo'lib ketayotganimda sen menga do'stlik qo'lini uzatding. Saxovat ahli nazarida do'stlik g'oyat bebaho narsadir. Haqiqiy do'stlik beg'araz bo'lur. Ot va eshak birga xashak yesalar ham, oralarida do'stlik paydo bo'lmaydi. Ammo haqiqiy do'stlarning biri mashriqda, boshqasi mag'ribda bo'lsa ham, baribir, bir-birlarini eslab va shundan tasalli topib yashayveradilar...

Dengiz safariga chiqqan odam o'ziga hamroh axtaradi, lekin do'stlari bunday safarga borishga rozi bo'lmasalar, buni dushmanlik deb hisoblamaslik kerak. Sen menga oilangni borib ko'rishni taklif qilyapsan, mayli, qabul qilay, lekin mening daryodan o'ta olmasligimni bilasanmi?

Toshbaqa dedi:

— Xotiring jam bo'lsin, seni o'z orqamda ko'tirib manzilimga olib boraman. U yerda rohat va farog'likda yashaysan.

Xullas, toshbaqa turgan joyini shu qadar maqtadiki nihoyat, maymun borishga rozilik berdi va muqaddarotini unga topshirdi. Toshbaqa uni o'z orqamda mindirib uyi tomon ravona bo'ldi. Suvning o'rtasiga yetganda o'ylab qoldi va o'z-o'ziga dedi: «Olimlar vafot va xiyonat, ayniqsa, e'tiborsiz xotinlar uchun qilingan xiyonat eng katta gunohdir, deyдилar. Ulug'larning yurishi shunday gapi bor: «Oltinning sofligini o'tda, hayvonning kuchini og'ir yuk ortilganda, insonning to'g'riligini omonatga xiyonat etmasligida bilsa bo'ladi». Har holda donolar xotinlarning makr-hiylalariga aldanmaslik uchun maslahat ko'radi».

U shunday bir-biriga zid muhokamalar yuritib suvning o'rtasida to'xtab qoldi... Uning taraddudga tushganligini va qandaydir jiddiy bir narsa haqida o'ylayotganini sezgan maymun shubhalanib toshbaqadan so'radi:

— Nima bo'ldi, nima uchun fikr daryosiga g'afllanib bo'lding, balki meni ko'tarish senga og'irlik qilayotgandir? Toshbaqa dedi:

— Sen nimaga asoslanib bunday savol beryapsan? Ya men biror harakatim bilan buni oshkor qilib qo'ydimmi? Maymun dedi:

— Men ko'rib turibman: sen vijdon azobini chekmoqdasan, o'z nafsing bilan kurashmoqdasan, taraddud va iztirob o'tida yonmoqdasan.

Toshbaqa dedi:

— To'g'ri aytasan. Sen birinchi marta biznikiga ketyapsan, xotinim esa kasal, uylar ostin-ustin bo'lib yotgandir. Ko'nglim istaganidek seni yaxshi qabul eta olmasam, mehmondorchilikni joyiga qo'ya olmasam, hammaning oldida rasvo bo'laman deb qo'rqayotirman.

Maymun dedi:

— Sening nomusli va to'g'ri bo'lganliging, meni dildan do'st hisoblab yaxshi niyat bilan uyingga olib borayot-

gung ma'lum. O'tirishimiz qanchalik sodda, dasturxon qanchalik faqirona bo'lsa, suhbatimiz shunchalik samimiy bo'ladi. Sening toza yurakli ekaningni bilganligim uchun aytishim mumkinki, sen bekorga tashvish keltiriyapsan, mehmonni yaxshi kutib olmasam nima bo'ladi, deb iztirob chekishga asos yo'qdir; bu jihatdan tashvishli bo'l, o'zingni bekorga xafa qilma.

Toshbaqa biroz suzib borib, yana to'xtab qoldi, yana xayoldek o'y-xayolga toldi.

Maymunning shubhalari orta boshladi va o'z-o'ziga dedi: «Do'stidan shubha qilgan odam o'sha soat tadbir talab, unga nisbatan ehtiyotli munosabatda bo'lishi, o'zini saqlashi kerak. Agar shubhalari to'g'ri chiqsa, muqarrar bo'lgan falokatdan o'z jonini saqlab qolgan bo'ladi, gumoni noto'g'ri bo'lib chiqsa, ehtiyotkorlik qilgani uchun uni ko'rmaydilar. Yurak tez-tez o'zgarib turgani uchun uni saqlab deb ataganlar. Har daqiqada u nima xayolga tushadi, niyati yaxshimi, yomonmi, bilib bo'lmaydi».

Uningra toshbaqaga dedi:

— Yana nima bo'ldi, xayol daryosiga sho'ng'ib ketding?

Toshbaqa dedi:

— Nima qilay, xotinimning kasalligi, uning sihatining yomonligi xayolimni parishon qilmoqda.

Maymun dedi:

— Do'stlik hurmati uchun bu narsani menga ochiq aytib berding. Endi uni nima bilan sog'aytirish, dardiga nima davo topish mumkin, ayta olasanmi?

Toshbaqa dedi:

— Tabiblar shunday darmon belgiladilarki, uni hech qanday dardidan topish mumkin emas.

Maymun so'radi:

— U qanday darmon ekan?

Toshbaqa dedi:

— Maymunning yuragi.

«Qalb» — arabcha «aylanuvchi», «o'zgaruvchi» demakdir.

Buni eshitib daryo o'rtasida turgan maymunning qo'liga o'chib ketdi, ko'z o'ngi qorong'lashdi va o'z-o'ziga dedi: «Meni bu dahshatli falokatga sudragan narsa badnafislik va ochko'zlik bo'ldi; meni bu qo'rqinchli girdobdan shuhratparastlik va harislik soldi. Endi esa meni hiyladan tadbirdan boshqa hech narsa xalos eta olmaydi. Agar orolga borsam, o'lishim muqarrar, o'zimni bu yerda tashlab qochmoqchi bo'lsam, cho'kib halok bo'lishim aniq».

Maymun bu fikrlarini xayolidan kechirib, toshbaqaqqa dedi:

— Olimlar aytibdurlarki, xalqqa zarur bo'lgan ozuqani yashirgan shoh, do'stlarning baxtli bo'lishi uchun kerak narsani bermagan do'st, shoh va do'st degan nomlarga noloyiqdurlar. Men xotiningni qanchalik sevishingni bilaman, uning sog'ayib ketishi uchun zarur bo'lgan darmonni bermaslik do'stlikka xiyonat qilish demakdir. Men xotiningning dardini bilaman, chunki bizning maymun xotinlarda ham shunday xastalik bor. U yuraklarimizni berib, ularni muolaja etar edik. O'zimiz esa yuraksiz yashay berar edik. Agar sen buni sohilda aytganingda, men yuragimni o'zim bilan birga olib chiqar edim. Qarigan vaqtimda menga yurakning ehtiyoji yo'q. Menga yuragimni ko'tarib yurish juda og'ir, chunki unga qo'ngan g'am-anduh haddan tashqari ko'p va og'irdir. Shuning uchun yuragimning dardi biroz kamaysin, deb olib qo'ygan edim.

Toshbaqa dedi:

— Nima uchun yuragingni uyda qoldirding?

Maymun dedi:

— Maymunlarda bir odat bor: yaqin do'stlarining uyiga ketayotganlarida, mehmondorchilik yaxshi va shirin o'tirib deb, yuraklarini o'zlari bilan olib bormaydilar, chunki yurak g'am va alam maskanidir. Sening aqlli va iffatli xotiningni xastaligini eshitgach, yuragimni olib yursam ezilib ketadi, deb o'yladim. Albatta, sen mening do'stligimni sinagansan, shuning uchun so'zlarimga ishonasan. Lekin

ning qavmu qarindoshing, qalin do'st bo'lsa ham, o'ziga hech narsa zarur bo'lmagan bir narsasini bizga berishdan keyin tovladi, deb badgumon bo'lishlari mumkin. Yashisi, orqaga qaytsak, yuragimni olib kelaman.

Toshbaqa suyunib darhol orqasiga qaytdi. Qirg'oq bo'yiga yetgach, maymun sakrab bir daraxt ustiga chiqib o'tdi.

Toshbaqa bir soatcha kutdi, so'ngra maymunni chaqirdi va dedi:

— Ey, aziz do'stim, yuragingni olib tush, fursat emas.

Maymun kulib dedi:

— Men uzoq yashab, ko'p narsalarni boshimdan kechirgan, dunyoning issiq va sovug'ini ko'rgan, achchiq-achchugini totganman. Endi kelib-kelib sendan pand o'ynaymi? U xom xayolingdan voz kech va bundan so'ng hech narsa ahdu vafodan so'z ochma. Sening bevafo xonligingni ilgariroq payqagan edim. Meni tulki aytgan yuragi va qulog'i yo'q eshak», deb gumon qilmagin.

Toshbaqa so'radi:

— Tulki nima degan ekan?

Maymunning sher haqidagi hikoyati

Bir sher qo'tir kasaliga muhtalo bo'lgandan keyin qiwvati ketib, ov qilolmay qoldi. Uning xizmatida bir tulki bor edi. U sherdan qolgan taom bilan kunini o'tkazardi. Sher ovga yaramay qolgandan keyin, tulkining rizqi kesildi. U bir kun sherga dedi:

— Shohim, dardlarini muolaja qilish fikrida emasmilar?

Sher dedi:

— Ey tulki, agar darmoni topilsa, bu azobga bir zum ham chidab o'tirmas edim. Eshitishimcha, eshakning qulog'i bilan yuragi dardimga davo emish.

Tulki dedi:

— Agar ijizat bersangiz, eshakni topib keltirsam. Bu yaqinlikdagi buloqqa bir odam har kuni kir yuvgani

keladi. Uning bir eshagi bor, har kelganida buloq atrofi o'tlab yuradi. Zora o'shani hiyla bilan olib kelsam. Shohning uning yuragi va quloqlarini yeb, qolganlarini va xizmatchisiga bersa.

Sher rozi bo'ldi. Tulki buloq tarafiga jo'nab ketdi. Uzoqdan bir eshakni ko'rib qoldi. Uning yoniga kelib salom berdi, mehribonlik ko'rsatib, u yoq-bu yoqdan o'tib boshladi, so'ngra so'radi:

— Nima uchun sen juda charchagan, xafa va g'uboh ko'rinasan?

Eshak dedi:

— Xo'jayinim borgan sari ko'proq yuk ortib, kamroq ovqat beryapti. Nima qilishimni bilmayman.

Tulki dedi:

— Sen sodda va go'l bo'lmasang, qochib bu azob-uqubatdan qutulgan bo'lar eding.

Eshak dedi:

— Qayerga bormayin, men bu azobdan qutulolmayman.

Tulki dedi:

— Xo'p desang, seni shunday bir chamanzorga olib borib qo'yayki, u joyning havosi musaffo bo'lib, ko'mil o't belingdan keladi... Bundan ilgariroq bir urg'och eshakka nasihat qilib edim, u hozir o'sha chamanzorga borib, yuk ham tashimasdan, yeb-ichib, maza qilib yurib emish...

Bu so'zlardan eshakning og'ziga suv keldi va xurmet bo'lib tulkiga dedi:

— Sening maslahatingga kirmasdan bo'lmaydi, chunki sen buni do'stlik, shafqat va xayrixohlik yuzasidan aytmoqdasan.

Tulki eshakni sherning huzuriga keltirdi. Shohning ochko'zlik qilib bo'kirganicha eshakka tashlandi, lekin zaifligi tufayli uni ushlay olmadi. Eshak esa qochib qutulib qoldi.

Tulki sherning zaifligidan taajjub qilib dedi:

— Baxtsizligingizni qarang, bir oriqlik eshakni ham tushirib yeya olmadingiz-a!

Bu soʻz sherga ogʻir tuyuldi, u oʻz-oʻziga dedi: «Agar oʻzim joʻrttaga tutmadim desam, uni taajjublantirgan boʻlaman, agar zaifligim tufayli tuta olmadim desam, oqizligimni eʼtirof etgan boʻlaman». Soʻngra tulkiga qarab dedi:

— Shohlarning qilayotgan ishlari sababini raiyatning bilishi shart emas. Sen bu savolni menga bermasliging kerak edi. Endilikda bu fikringdan kech. Yana bir hiyla ishlatib, eshakni qaytarib kelsang, sening sadoqating hamda fidokor ekanliging yana bir karra isbot etilgan boʻlar edi.

Tulki oʻrnidan turib eshakning yoniga keldi. Eshak uni koʻrib koyib dedi:

— Sen meni qayerga olib borgan eding?

Tulki dedi:

— Sening odamlardan koʻrgan azob-uqubatlaring hali ham yodingdan chiqmaganga oʻxshaydi. Shuning uchun har narsadan qoʻrqaverasan. Aslida u yerda tahlikali hech narsa yoʻq edi.

Sening koʻrganing men senga aytgan urgʻochi eshak edi. U ehtirosi shiddatidan oʻzini unutib qoʻyib senga tashlandi. Agar biroz sabr qilsang edi, uning qanchalik mehribon va yumshoq muomalali ekanligini koʻrar eding.

Tulki urgʻochi eshakni shunday maqtab ketdiki, oxiri bu eshak uning gapiga ishondi (u shu vaqtga qadar sherni koʻrmagan edi) va tulkining oldiga tushib, sherning huzuriga tulki ketidan ravona boʻldi. Tulki oldinroq borib sherni ogohlantirib qoʻydi. To eshak sherga yaqinlashmaguncha hamla etmasligini iltimos qildi.

Sher tulkining aytganini qilib, eshakni mehribonlik bilan qarshi oldi, bir necha shirin soʻz aytdi. Eshak tap tortmay sherning oldiga juda yaqin keldi. Shunda sher sakrab turib eshakni pora-pora qilib tashladi, soʻng tulkiga dedi:

— Men buloqqa borib choʻmilib kelgunimcha buni poylab tur, kelganimdan soʻng uning yuragi va quloqlarini yeyman.

To sher cho'milib kelguncha tulki eshakning yuragi va quloqlarini yeb to'yib oldi.

Sher kelib eshakning yurak va qulog'ini topmagach, tulkiga dedi:

— Buning yuragi va quloqlari qani?

Tulki dedi:

— Shohim salomat bo'lsinlar. Bu eshakning qulog'i ham, yuragi ham yo'q edi. Agar uning yuragi bo'lsa edi, xavf-xatarni sezgan, qulog'i bo'lsa, birinchi hujumingizdan so'ng mening yolg'onlarimga quloq solmagan va o'z oyog'i bilan go'rga kirmagan bo'lar edi.

Bu masalni shuning uchun keltirdimki, sen bilginki men eshak kabi qalbsiz va quloqsiz emasman. Sen hiyla va makrlaringning hammasini ishlatding, men esa ularni o'z aql va idrokim bilan tushunib oldim. Endi sen yana orqaga qaytishni xohlaysan, yo'q, bu hiylangdan endi ish chiqmaydi.

Toshbaqa dedi:

— To'g'ri aytasan, senga e'tiroz etishga o'rin qolmadi. Endi sening qalbingga shunday dog' tushdiki, uni hech narsa yuvib tashlay olmaydi. Mening ham betimga bir razolat tamg'asi bosildiki, uni ham hech narsa yo'qotolmaydi... Endi firoq zaharini qatra-qatra yutib, hijron qamchilariga yelkani tutib berishdan bo'lak iloj qolmadi...

Toshbaqa bu so'zlarni degandan so'ng ming pushaymon bo'lib uyiga qaytib ketdi. Bir qimmat narsani yoki bir do'stni qo'lga kiritib, nodonlik va g'aflat tufayli undan ayrilish haqidagi hikoyat mana shundan iboratdir. Aql va tajriba egalari bu qissadan ibrat olib, qo'lga kiritgan davlat, orttirgan do'st va boshqa ne'matlarini ehtiyot qilib saqlashga intilishlari va ularni qo'ldan boy bermasliklari lozim. Chunki qo'ldan ketgan narsani qaytarmoq mumkin bo'lmaydi, bir so'z bilan aytganda, oxirgi pushaymon — o'zingga dushman.

ZOHID VA LATCHA¹ BOBI

Roja brahmanga dedi:

— Fursatni qoʻldan berib pushaymon boʻlmoq haqidagi hikoyani eshitdim. Endi shunday bir hikoya aytib berki, unda doimo shoshiladigan, ishning orqa-oʻngini oʻylamasdan harakat qiladigan bir odamning ahvoli tasvir etilsin va uning oqibati nima bilan tugashi koʻrsatilsin.

Brahman dedi:

— Ishlarini aql va tajribaga suyanib qilmaydigan bemulohaza odam hamisha oxirida pushaymon boʻladi. Bunga misol qilib, bir zohidning oʻylamasdan shoshilinch ish qilib bir bechora latchani oʻldirgani va qoʻlini nohaq qonga boʻyagani haqidagi hikoyani keltirish mumkin.

Roja soʻradi:

— Qani, zohid va latcha hikoyasini eshitaylik.

Brahmanning hikoyati

Bir zohid va uning bir gʻoyat goʻzal, iffatli xotini bor edi. U xotinning chehrasi tong shafagʻi singari goʻzal, nochlari tun qorongʻisidek qop-qora edi. Ular uzoq vaqt birga turmush kechirdilar, lekin farzand koʻrmadilar. Bir kuni xotini farzand koʻrishdan umidini uzgan eriga homilador boʻlganligini aytib, behad quvontirdi. Zohid xotiniga dedi:

— Sen yaqinda oʻgʻil tugʻib berasan, men unga yaxshi bir ot qoʻyaman, bir enaga topib beraman, keyin uni oʻz tarbiyamga olib, olim qilib yetishtiraman, tariqat yoʻllarini oʻrgataman.

Xotini dedi:

— Qayerdan bilasiz oʻgʻil tugʻilishini, bordi-yu oʻgʻil boʻlganda ham, siz aytgandek umr koʻradimi, yoʻqmi? Halitdan orzu otiga minib olib, xayollar maydonida

¹ *Latcha* — suvsarlar oilasidan boʻlgan yirtqich kichik hayvon (kubutar va tovuqqa juda oʻch).

chops angiz yaxshi bo'lmaydi. Sizning bu so'zlaringiz yuzi va soqoliga asal va yog' sachrab ketgan darvishning ishiga o'xshaydi.

Zohid so'radi:

— Darvish nima qilgan ekan?

Xotinning hikoyati

Bir pokiza darvish bor edi. U yog' va asal sotuvchi bir savdogarning qo'shnisi edi. Savdogar deyarli har kuni unga biroz asal va yog' chiqarib turardi.

Darvish istaganicha yeb, qolganini ko'zaga solib qo'yar edi. Bir kun qarasa, ko'za to'lib qolibdi. Darvish o'ziga o'zi dedi: «Agar bu yog' bilan asalni o'n tangaga sotsam, bu o'n tangaga beshta sovliq qo'y olaman. Bu qo'ylar olti oyda beshta tug'ib beradi, bora-bora ular juda ko'payib, bo'y bo'lib ketaman. Keyin tagli-zotli bir oiladan xotin olaman, u albatta bir o'g'il tug'ib beradi. Unga bir chiroyli o't qoyib, yaxshi ta'lim va tarbiya beraman. Agar so'zimga kirmay to'polon qilsa, mana bu tayoq bilan boplab adabini beraman», deb jahl aralash tayog'ini ko'tarib bir urgan edi, ko'zaga tegib uni sindirdi. Yog' va asal uning yuzi va soqoliga sachrab ketdi. Shunday qilib, darvishning hamma xayollari puchga chiqdi. Men bu masalni shuning uchun keltirdimki, oqibati nima bo'lishini yaxshi bilmasdan turib bo'lmagan narsalarni xayol qilmaslik kerak. Aks holda, pushaymon bo'lish mumkin.

Xotining bu so'zlari zohidning es-hushini joyiga keltirib qo'ydi.

Ma'lum vaqt o'tgach, xotining ko'zi yorib, pahlavondek o'g'il tug'di. Shod-xurram bo'lib, nazr-nizozlar berdilar. Zohidning xotini biroz quvvatga kiringach, bolani eriga topshirib, o'zi hammomga ketdi. Bir soat o'tgach, saroydan farrosh kelib, darvishni podsho chaqirayotganini aytdi. Zohid nima qilishini bilmay, uy poylasiga o'rgatilgan latchani o'g'li bilan qoldirib, o'zi podsho yoniga ketdi. Darvish uydan chiqishi bilan

teahikdan bir katta ilon chiqib, beshik tomon o'rmalab kelaverdi. Latcha yugurib kelib ilonni bo'ynidan oldi-da, tashlab o'ldirdi, bolani halokatdan qutqardi. Shu payt darvish qaytib kelib qoldi, latcha go'yo uni uyuntirmoqchi bo'lgandek, oldiga yugurib chiqdi. Darvish qonga bo'yalgan latchani ko'rgach, o'g'limni o'ldiribdi, deb gumon qilib, hech o'ylamay-netmay, latchaning boshini ezib tashladi. Uyga kirib qarasa, o'g'li g'alamat, beshik tagida esa bir katta ilon cho'zilib yotibdi. Zohid masalani tushundi va qilib qo'ygan ishidan ming pushaymon bo'lib sochlarini yula boshladi...

Shu vaqt xotini kelib qoldi. Bo'lgan voqeani eshitib, juda k'afa bo'ldi. Bir necha vaqt o'tgandan keyin eriga tasalli berib, uni tinchitdi.

Zohid o'ziga kelgach xotiniga dedi:

— Bu hodisani yaxshilab esingda tut va bilginki, shoshilib qilingan ishning oqibati xunuk bo'ladi.

Xotini dedi:

— To'g'ri, shoshilgan odam murodiga yetmaydi. Bir podsho o'z lochinini begunoh o'ldirib qo'yib, hasrat va nadomat chekkanidek, siz ham qilib qo'ygan ishingizdan hadeb pushaymon bo'lavermang.

Darvish so'radi:

— U nima qilgan ekan?

Xotinning navbatdagi hikoyati

Ilgari zamonda ovni juda yaxshi ko'radigan bir podsho bo'lgan. U podshohning lochini bo'lib, uning parvozi baland, ko'zi o'tkir va panjasi temirdek edi. Podsho uni juda sevar va doim o'z qo'li bilan boqar edi. Bir kuni shoh uni qo'lga qo'ndirib ovga jo'nadi. Cho'lda uning oldidan bir ohu qochib o'tdi. Podsho uning orqasidan shunday tezlik bilan ot choptirib ketdiki, mulozimlari orqada qolib ketdilar. Podsho juda chanqab, bir tog'dan oqib tushayotgan zilol suv yoniga keldi. U shu suvdan ichmoqchi bo'lib, suvdonni to'latgan ham ediki, qush

qanot qoqib suvni to'kib yubordi. Shohning jahli chiqib yana suvdonni to'ldirdi. Bu da'fa ham lochin qanoti bilib idishni ag'darib yubordi. Podsho darg'azab bo'lib lochin yerga urib halok qildi. Shu vaqtda uning bir mulozimi kelib qoldi. Podsho unga dedi:

— Tog'dan tushayotgan bu zilol suv tomchilarida suvdonning to'lishi uchun ancha vaqt kerak ekan. Sen yuqoriga chiqib, buloqning o'zidan tezda suv olib tush.

Mulozim toqqa chiqdi. Qarasa, u yerda kichkina bir buloqcha bo'lib, uning labida bir haybatli ajdaho o'lib yotgan ekan. Kun harorati ta'sir qilib, undan qatra-qatra zahar suvga tomayotgan ekan. Mulozim darhol tog'dan tushib, ko'rganlarini podshohga aytib berdi. Shoh uning so'zini eshitib yig'lay boshladi.

Mulozim so'radi:

— Yig'ingizning sababi nimadir?

Podsho chuqur uh tortib, bo'lgan voqeani aytib berdi.

Mulozim dedi:

— Ey shohim, bu ishni shoshilmay o'ylab qilishingiz kerak edi.

Shoh dedi:

— Qilib qo'ygan ishimdan pushaymonman, lekin foydasi yo'q. O'lgunimcha bu jarohat ko'ksimdan ketmaydi.

Darvishning xotini dedi:

— Bu masalni shuning uchun keltirdimki, sizga ma'lum bo'lsin: bunday hodisalar ko'p bo'ladi.

Zohid dedi:

— Ey mehribon yorim, bu hikoyatni aytib berib, menga ancha tasalli berding, go'yo yaramga malham qo'ygandek bo'lding. Bu voqealar davron sahifalariga yoziladi. Ana shunday, buni o'qigan odamlar ibrat olib, hech ishni shoshilib va o'ylamasdan qilmaydigan bo'ladilar. Chunki shoshilinch bilan qilingan ishning oqibati faqat pushaymonlikdir.

MUSHUK VA KALAMUSH BOBI

Roja dedi:

— O'ylamasdan ish qilgan va oqibatda pushaymon bo'lib, afsus-nadomat daryosiga g'arq bo'lgan odam bog'ridagi hikoyatni eshitdim. Endi shunday bir voqeani eslab berki, unda har tomondan o'rab olgan dushmanlar to'qumiga duchor bo'lib, o'lim, jar yoqasida qolgan va o'zini qutqarish uchun dushmanlarning biri bilan do'stlashgan, u bilan ahd-paymon tuzib, o'z jonini qutqarib qolgan kishi tasvir etilgan bo'lsin. Yana dushmani bilan qanday yashaganligi, bunga qanday yo'llar bilan erishilganligini bayon qilib ber.

Brahman dedi:

— Ko'pincha do'stlik va dushmanlik uzoqqa cho'zilmaydi. Ular bo'layotgan hodisalarning jarayoniga va namon g'ildiragining aylanishiga qarab o'zgaradilar.

Ular xotinlarning vafosi, shohlarning do'stligi, tentaklarning muloyimligi, bolalarning go'zalligiga bog'lanmaydi. Uzoq vaqt davom etgan sof do'stlikka ham ko'pincha ko'z tegishi, tezda nafrat va adovatga aylanishi mumkin. Shuningdek, qadimdan mavjud bo'lgan dushmanlik ham bir baxtli tasodif tufayli do'stlikka aylanishi mumkin.

Shuning uchun aqlli odam har ikki holda sabrli bo'ladi va dushmanning bir vaqt kelib do'st bo'lishi mumkinligiga umid bog'lab, u bilan xushmuomala qilishni tark etmaydi. Nam do'stlari bilan yaxshi munosabatda bo'lib, ayni namonda bu do'stlikning abadiy bo'lmasligini esdan chiqarmaydi. Uzoqni ko'radigan kishi dushman bilan sulh tuzib, u bilan do'stlashmoqni g'animat biladi, chunki, shunday qilinganda xatar bartaraf bo'lib, foyda qo'lga keladi. Kimki aytilib o'tilganlarga amal qilsa, mushuk bilan kalamush kabi o'z maqsadlariga erishadi.

Roja so'radi:

— Ular qanday qilib maqsadlariga erishibdilar?

Brahmanning hikoyati

Falon mamlakatdagi o'rmonlardan birida bir katta daraxt bo'lib, ostida bir kalamushning ini bor edi. Uning yaqinida bir mushuk yashardi. Bu yerlarga ovchilar tez kelib turishardi. Kunlardan bir kun bir ovchi daraxt yaqiniga dom qo'yib uchiga bir parcha go'sht ilib ketdi. Mushuk kelib, domga ilindi. Shu orada kalamush ham ovqat izlab kelib qoldi va mushukni tuzoqda ko'rib juda quvonib ketdi. Nogoh ko'zi uni tutishga payt poylab turgan latchaga tushdi, daraxtga qarasa, bir boyqush ham hujumga rostlanib turganini ko'rdi. U qo'rqib ketib, o'ziga-o'zi dedi: «Agar orqaga qaytsam, latcha men parchalab tashlaydi, turgan joyimda qolsam, boyqush ustimga o'zini otadi, oldinga yursam, mushukni yo'liqaman. Balo dengizi tug'yonga kelib, falokat to'lov hujumga tayyor turibdi; shunga qaramay men noumit bo'lmasligim, o'z hayotimni qutqarishim kerak. Bu holda menga aqldan yaxshiroq madadkor yo'qdir. Aqlli kim ham hech vaqt sarosimaga tushmasligi, qalbini dahshat va tashvish chulg'ab olmasligi kerak. Endi men uchun yagona najot yo'li balo zanjirida talpinib yotgan va mening yordamimga muhtoj bo'lgan mushuk bilan kelishib do'stlashmoqdir. Balki u o'z vaziyatini nazarda tutib, mening so'zlarimga quloq osar va dushmanlikdan voz kechib, xalos bo'lish uchun maslahatlarimni qabul etar. Shunday qilib, har ikkimiz balodan omon qolamiz».

Kalamush mushukka yaqinlashib hol so'radi:

— Qani, xo'sh, hol-ahvoting qalay?

Mushuk hazin ovoz bilan javob berdi:

— Bunday balo domiga tushib, aziyat chekkanlarning ahvoli qanday bo'lar edi?

Kalamush dedi:

— Shu vaqtga qadar hech kim mening yolg'ov gapirganimni eshitmagan. Sen g'amnok bo'lsang, hamisha men shod bo'lar, muvaffaqiyatsizligingdan quvonar edim. Hozir esa ikkovimizning ham boshimiz xatarda qoldi. Bu

balodan qutulish uchun sendan najot kutaman, shuning uchun do'stlashmoqchiman. Agar diqqat qilib atrofga qarasang, latchaning meni ta'qib etayotganini va boyqushning fursat poylab o'tirganini ko'rishning mumkin. Har ikkisi ham meni halok qilish fikridadirlar. Ular ikkovimizning ham dushmanimizdir. Agar sen meni o'z panohingga olsang, ular mendan umid uzadilar.

Agar menga tegmasang yoningga borib maqsadimga erishaman — bandlaringni kesib seni ham ozod qilaman. Yana qaytarib aytaman, bu so'zlarimga ishon. Xayrixohlikimga shubha qilma. Hech kimga ishonmaydigan va hikmat egalarining so'zlariga quloq solmaydigan kishi baxtli hayot kechirolmaydi.

Ikkilanmay mening bu lutf-marhamatimni qabul et, aqlli odamlar katta va mas'uliyatli ishlarda taraddudga tushib, fursatni qo'ldan bermaydilar. Kema kemachining harakati bilan sohilga yetib borgani kabi, xalos topishimiz ikkovimizning harakatimizga bog'liqdir.

Mushuk kalamushning gapini eshitib xursand bo'lib ketdi va dedi:

— Sening gaping aqlga muvofiqdir. Bu maslahatingni bajonidil qabul etaman va o'lgunimcha sendan minnatdor bo'laman. Deb durlarki, dushman sen bilan sulh tuzishni istasa, uning uzatgan qo'lini qaytarma.

Kalamush dedi:

— Oldingga borganimda sen meni mehribon do'st kabi kutib ol, dushmanlar inoqlashganimizni ko'rib, jo'nab qolsinlar, shunda men tuzoq iplarini qirqishga kirishaman.

Mushuk uning gapiga ko'ndi. Kalamush tuzoq iplarini qirqa boshladi. Mushuk nazarida kalamush imillab ishlayotganga o'xshab ko'rindi.

Mushukning toqati toq bo'lib dedi:

— Men sening ahdingga ishongan edim. Endi maqsadingga erishganingdan keyin bergan so'zingdan qaytmoqchimisan? Lekin bilib qo'yki, va'daga vafo, uhdning buzilmasligi og'ir kunlarda sinaladi... Meni

kechir deb yolvorishlarga qaramay, zulmdan qo'l torta olmagan, afv etish qo'lidan kelmagan odam yaxshi nom qozonish ne'matidan mahrum va mard odamlar orasida yuzi qora bo'ladi. Ammo xiyonat qilganlar va yolg'ondan qasam ichganlar to'xtovsiz jazoga mustahiqdirlar.

Kalamush dedi:

— Bilib qo'y, do'stlar ikki xil bo'ladilar: birinchilari — o'z ixtiyorlari bilan samimiy do'st bo'lganlar; ikkinchilari — majburiyat va zaruriyat yuzasidan ahdu paymon bog'laganlar. Bularning maqsadi foyda ko'rmoq va zarardan qochmoqdir. Lekin samimiyat va sadoqatga asoslangan do'stlik hamisha, har yerda va har sharoitda ishonchli bo'ladi; zaruriyat va majburiyat natijasida paydo bo'lgan do'stlik esa unday bo'lmaydi. U daryo kabi goh toshib atrofni bosadi, goh qurib suvi ozayib qoladi. Men bergan so'zimning ustidan chiqaman, lekin o'z jonimni saqlashni undan afzalroq deb bilaman. Chunki men garchi dushmanlarning hujumidan sening yordaming tufayli qutulib qolgan va shuning uchun sen bilan kelishishga majbur bo'lgan bo'lsam-da, lekin sen o'sha dushmanlardan ham xavflisan. Men tahlikani daf etib, xatarli ishlarning oldini olish uchun sen bilan murosa qilyapman, bu vaqt va zamon taqozosi bilan qilingan bir tadbirdir. Har ishning o'z yeri, har soatning o'z hukmi bordir. Vaqtning o'tkazib, mavqeini qo'ldan bergan odamni uzoqni ko'radigan odam deb bo'ladimi?! Men albatta bandlaringni kesaman, lekin bir asosiy bandni jonimning garovi sifatida saqlab turaman. Uni sen o'zing bilan ovora bo'lib, menga hujum qilishdan muhimroq ish bilan mashg'ul bo'lib, o'z joning g'amini yeb qolganingdagina kesaman. Ana shunda sen banddan ozod bo'lasan, men ham sendan qutulaman.

Kalamush aytganini qildi — hamma bandlarni qirqib, bittasini qoldirdi. Tong otib, ufqdan quyosh bosh ko'tara boshladi. Birozdan keyin uzoqdan ovchining kelayotgani ko'rindi.

Kalamush dedi:

— Endi oxirgi bandni kesmoq, va'da ustidan chiqmoq vaqti keldi.

Mushukning ko'zi ovchiga tushishi bilan oq o'lim vahmiga tushdi, kalamush uning yodidan ko'tarilib ketdi. Shu vaqtda kalamush oxirgi bandni kesdi. Mushuk gapchib, bir daraxtning ustiga chiqib oldi, kalamush esa bir teshikka kirib g'oyib bo'ldi. Ovchi titilgan kesilgan to'rini ko'tarib orqasiga qaytdi.

Ertasi kuni kalamush inidan mo'ralab turgan edi, mushukni ko'rib qoldi. Lekin uning yoniga borishga jur'at qila olmadi.

Mushuk baland ovoz bilan qichqirib dedi:

— Ey do'stim, nega mendan xavfsiraysan? Qo'lga kiritilgan eng yaxshi noyob narsani — do'stligimizni saqlab qolish kerak. Yaqinroq kel, men yaxshiligingni qaytaray, muruvvat qilib, mardligim va saxiyligimni ko'rsatay.

Kalamush uning taklifini qabul etmay joyida turaverdi.

Mushuk dedi:

— Diydoringni mendan yashirma va do'stligimizni barbod etma... Men sen tufayli tirik qoldim, bundan buyon hayotimni senga bag'ishlayman, umrimning oxirigacha yaxshiligingni unutmayman va imkon tug'ilishi bilan mening yaxshiligingni qaytarishga harakat qilaman.

Mushuk ko'p yolvordi, ko'p yalindi, lekin so'zlari kalamushga kor qilmadi.

Kalamush javob berdi:

— Zoti dushman bo'lib do'stlikdan lof urganlarga, dilida g'anim, tilida do'st bo'lganlarga ishonib bo'lmaydi. Ikkimizning o'rtamizda hamjinslik yo'q. Kimki o'z jinsidan bo'lmaganga qo'shilsa, qurbaqadek baloga yo'liqadi.

Mushuk so'radi:

— Qurbaqaga nima bo'lgan ekan?

Kalamushning hikoyati

Bir sichqon o'rmon chetida yashar edi. Shu atrofdagi buloqda bir qurbaqa umr o'tkazar edi. U goh-goh buloq chetiga chiqib havo olib o'tirar va o'zini bulbul fahmlab, yoqimsiz ovoz bilan sayrar va xush ovozli qushlarning ensasini qotirar edi...

Bir kuni sichqon o'z inida bir ish bilan mashg'ul edi. Qurbaqaning nosoz ovozini eshitib hayron bo'ldi, xonandaning yuzini ko'rmoqchi bo'lib tashqariga chiqdi va uning xunuk basharasi-yu, bema'ni ashulasidan taajjublaniq qo'llarini bir-biriga urib, boshini qimirlata boshladi. Qurbaqa bu holni ko'rib, u menga tahsin qilayotir, deb xursand bo'ldi va sichqon bilan oshno bo'lish orzusiga tushdi. Xullas, sichqon bilan qalin og'ayni bo'lib oldi. Ular bir-birlariga ajoyib hikoyatlar aytib berib, vaqtlarini chog' etar edilar.

Bir kuni sichqon qurbaqaga dedi:

— Necha vaqtdan beri sen bilan suhbatlashgim kelib, buloq yoniga kelsam, sen suv ostida bo'lasan, qanchalik baland ovoz bilan chaqirsam ham eshitmaysan.

Qurbaqa dedi:

— To'g'ri aytasan, men ham ko'pdan beri shuni o'ylayman. Ba'zan men qirg'oqqa chiqib seni topolmayman, sen boshqa teshikdan chiqib ketgan bo'lasan. Men anchagacha muntazir bo'lib o'tiraman. Endi bu ishning tadbirini ham o'zing ko'rib, muammoni o'zing hal etasan.

Sichqon dedi:

— Eng yaxshi tadbir shuki, men bir uzun ip topaman, uning bir uchini sening oyog'ingga, ikkinchi uchini o'zimirning oyog'ingga bog'layman. Har vaqt suvning labiga kelib, ipni qimirlatsam, darhol chiqasan. Agar sen ham mening yonimga kelmoqchi bo'lsang, ipni tortib meni xabardor qilasan.

Ikkovlari ham bu tadbirni ma'qul topib, ko'p vaqtgacha shu usul bilan bir-birlaridan xabardor bo'lib, ko'rishib

yurdilar. Bir kuni sichqon suv yoqasiga keldi, qurbaqani chaqirib suhbat qilay deb turgan edi, nogoh bir qarg'a bulo-qazodek havodan tushib, sichqonni ko'tarib uchdi. Oyog'idan ipga bog'langan qurbaqa ham ular bilan havoga ko'tarildi. Sichqon qarg'a tumshug'ida, qurbaqa esa pastroqda osilgan holda uchib borar edilar. Bu holni ko'rgan odamlar hayron bo'lib der edilar:

— Ajab holat, qarg'a o'z odatiga xilof ravishda qurbaqani olib ketyapti, axir hech vaqt qurbaqa qarg'aga ov emas edi-ku. Sichqon bilan do'stligining kasofatidan qurbaqa bu baloga muhtalo bo'libdi. Kimki nojinsga qo'shilsa, jazosi mana shunday bo'ladi.

Mushuk dedi:

— Suhbat qilishga rag'bating yo'q ekan, nima uchun avval mendan do'stlik talab qilding?

Kalamush dedi:

— U mahalda shunga muhtoj edim. Aqlli odam og'ir ahvolga tushsa-yu, dushmanning yordami bilan falokatdan qutulmog'i mumkin bo'lsa, dushman bilan yaqinlashib, uning ko'magidan foydalanadi. Shuningdek, do'stdan ziyon ko'rsa, undan uzoqlashadi. Hayvon bolalari ham sut emadigan vaqtlarida onalari bilan birga yuradilar. Sutdan ayrilgach esa hech narsa bo'lmagandek, ulardan uzoqlashib ketadilar. Aqlli odam buni dushmanlik demaydi. Aql egalari hamisha o'z ishlarini zamonaning taqozosi va hayot talabini hisobga olib qiladilar; zamon va makonni nazarga olib tadbir ko'radilar, do'st — oshno bilan, raqib — dushman bilan qanday muomala qilishni, vaqtida mehribonlik ko'rsatib, vaqtida qattiqqo'l bo'lishni biladilar. O'zing bilasanki, sen bilan bizning asl zotimiz va tabiatimiz bir-biriga tamomila qarama-qarshidir, bir-birimizga dushmannimiz. Zaruriyat yuzasidan paydo bo'lgan do'stligimizga ishonib bo'lmaydi, zaruriyat o'rtadan ko'tarilgan zamon do'stlik adovatga aylinishi muqarrar. Axir kalamush jinsi uchun mushukdan ko'ra dahshatli dushman yo'qdir. Har ikkimiz o'lindan xalos bo'lmoq uchun majburan sulhga kelgan

edik. Endi esa zarurat yo'qoldi, demak, yana qadimiy xusumat paydo bo'ldi. Men seni o'zimga do'st deb hisoblamayman, endi sening yaqinlashishingdan ko'zlagan maqsading mening lazzatli go'shtimni yeyishdir. Lekin men qurbon bo'lishni xohlamayman. Kuching kuchlidan, zaif quvvatidan uzoq bo'lishi kerak. Kel, gapni qisqa qilaylik, ikkimiz ikki yoqqa qarab ketaylik.

Mushuk xafa bo'lib, ko'ziga yosh oldi...

Shunday qilib, mushuk kalamush bilan abadiy vidolashdi.

Zaruriyat natijasida dushman bilan do'stlashib, fursatni qo'ldan bermagan va o'z maqsadiga yetgandan so'ng ehtiyotli bo'lib, o'z jonini salomat saqlab qolgan aqlli kalamush haqida hikoyat shundan iboratdir.

SHAHZODA VA QUBBARA QUSH

Roja brahmanga dedi:

— Quvvatli, beomon dushmanlar qurshovida qolgan, qochib qutulish yo'llari bog'langan odamning istar-istamas o'z dushmanlarining biri bilan do'st bo'lgani, u bilan sulh tuzib, o'z jonini xalos etgani, ehtiyotlikni qo'ldan bermay o'z hayotini oxirgi dushmanning qo'lidan qutqarib qolgani haqidagi hikoyatni eshitdim. Endi iltimos qilaman, shunday hikoyat aytib berki, unda bir-biridan qasos olmoq payida yurgan, ko'rishganda esa hech sir boy bermaydigan ikki kimsa tasvir etilgan bo'lsin.

Brahman dedi:

— Aqli boshida bo'lgan, tajribali odamlar hech vaqt ehtiyotlikni qo'ldan bermaydilar. Yaxshini yomondan, avobni gunohdan ajrata oladilar, ranjigan do'stlardan, norozi bo'lgan oshnalardan ehtiyot bo'lib, ularning makr va xiyonatlaridan saqlanishni yaxshi biladilar. Aql va idrok egalari bunday odamlarning yuragidagi narsalarni, ularning yashirin fikr va istaklarini, nima qilish xayolida ekanliklarini ko'zlari va harakatlaridan bilib oladilar... Kimki bunday odamlarning tilyog'lamaliklari va shirin so'zlariga ishonib, ehtiyotkorlik va sezgirlikni yo'qotsa, u o'z jonini balo o'qiga nishon qilgan bo'ladi. Bunga Qubbara qush qissasi misol bo'la oladi.

Roja so'radi:

— Unga nima bo'lgan ekan?

Brahmanning hikoyati

Ibn Madin otli bir podsho bor edi. Uning bir Qubbara degan ziyrak, nutqi yaxshi va chiroyli qushi bor edi. Kunlardan bir kuni Qubbara shoh saroyida tuxum qo'yib bola ochdi. Podsho qush bolasini o'z saroyida avaylab, parvarish qilishni buyurdi. Shu vaqtda podsho ham aymosida baxt-saodat yulduzi porlagan bir farzand ko'rdi.

Qubbaraning bolasi bilan shahzoda hamisha birga o'ynar edilar. Qubbara har kuni tog' va o'rmonlarga uchib borib, odam qo'li tegmagan mevalardan ikki dona olib kelardi. Ulardan birini o'z bolasiga va ikkinchisini shahzodaga berardi. Qushcha bilan shahzoda uni yeb, kuch-quvvatga kirib tez o'sa boshladilar. Shu tufayli podsho va saroy odamlari nazarida Qubbaraning qadri oshardi. Bir kuni Qubbara uyda yo'qligida uning bolasi shahzodaning qo'lini tirnab oldi. Shahzoda g'oyat g'azabga kelib, do'stlikni unutdi va qushchani oyog'ida ushlab yerga shunday urdiki, u o'sha zamonAQ halok bo'ldi. Qubbara qaytib kelib, bolasining o'lib yotganini ko'rib faryod qila boshladi. Podshohlarga la'natlar o'qib derdi:

— Bu baloni o'zimga o'zim orttirdim, farog'atni mashaqqatga o'zim almashtirib oldim. Bir daraxt shoxiga uya qilishim kerak edi. Podshohning saroyini menga kim qo'yibdi. O'z farzandimnigina tarbiyat qilishim kerak edi, podsho o'g'lini parvarish qilishning nima hojati bor edi. Agar ozga qanoat qilib hayot kechirganimda edi, bu baloga muhtalo bo'lmas edim. Shohlar, sultonlar va shahzodalar bilan do'stlik qilishning oqibati shunday bo'ladi. Chunki shoh, sulton va mustabidlar o'z ahdlarini tez unutadilar. Ular hamisha vafoga jafoni mukofot qilib beradilar. Ularning nazarida na sadoqatning ahamiyati bor, na samimiyatning. Ularning do'stlikdan ko'zlagan maqsadlari yolg'iz manfaatdir. Ular o'z rohatlarini ko'zlab, butun qonun-qoidalarni toptaydilar, rahm-shafqat qilish kerak bo'lganda jazo beradilar, jazolanishi kerak bo'lganni afv etadilar. O'zlari qilgan qabih ishlarni kichik va ahamiyatsiz deb, boshqalarning kichik xatolarini esa juda katta va tahlikali ish deb hisoblaydilar. Endi men fursatni qo'ldan bermay, o'z do'stini o'ldirgan bu rahmsiz va shafqatsiz shahzodadan bolam uchun intiqom olishim kerak.

Shuni deb Qubbara o'zini shahzoda ustiga tashladi. Uning ikki ko'zini o'yib olib qal'aning burchiga borti

qo'ndi. Bo'lgan voqeani shohga yetkazdilar. Shoh o'g'lining ko'r bo'lganini ko'rib, kuyib yondi; avval qushni hiyla bilan uahlab olmoqchi, so'ngra qiynab o'ldirmoqchi bo'lib, yaqiniga bordi va dedi:

— Qubbara, pastga tush, senda hech ayb yo'q.

Qubbara uning so'zini rad etib dedi:

— Shohingga itoat qilishga o'rganib qolgan edim, endi uning amridan chiqib, rad javobini berish menga juda og'ir. Shoh saroyi mening ka'bam edi, eng saodatli kunlarim shohning marhamat va lutfi karami soyasida o'tdi. Men hamisha shunday bo'ladi, deb o'ylardim. Agar mening ikki jonim bo'lsa va dunyoga ikki marta kelishim mumkin bo'lsaydi, o'shanda «labbay» deb xizmatingga qaytar edim... Endi qanday qilib bolamning qoni to'kilgan joyga qaytib boraman? Men uchun eng to'g'ri yo'l, buyrug'ingga bo'yin egmaslik va saroyga qaytmaslikdir. Men endi sening so'zlaringga ishona olmayman va o'zimni halo girdobiga tashlashni istamayman. Shahzoda mening farzandimni halok etdi. Men esa undan qasdimni oldim. Har kim alam va sitam daraxtini eksa, uqubat va azob mevasini to'rib oladi. Sen Donodil va o'g'rilar haqidagi hikoyatni eshitmaganmiding?

Podsho so'radi:

— U qanday hikoyat?

Qubbaraning hikoyati

Bir shaharda darvish yashar edi. U xushfe'l, odobli va dono bo'lgani uchun uni Donodil der edilar. Fuqaro uni hurmat qilar va sevar edi.

Kunlardan bir kun Donodil Makka ziyoratiga bir o'zi ravona bo'ldi. Yo'lda bir necha o'g'ri uning mol- dunyosi ko'p bo'lsa kerak, deb o'ylab, yo'lini to'sdi. Shunda Donodil dedi:

— Menda mol-dunyo yo'q, yo'lga olgan ko'rpa-to'shagimgina bor. Istasangiz oling, lekin meni salomat qoldiring, orzumga yetay.

O'g'rilar uning so'ziga e'tibor bermay, o'ldirish uchun qilich yalang'ochladilar. Donodil sarosimaga tushib, atrofga alangladi. Shu vaqt tepalaridan uchib borayotgan bir to'da g'ozlarga ko'zi tushdi. Donodil ularga qarab dedi:

— Ey g'ozlar, bu biyobonda sitamkorlar qo'lga tushdim. Holimdan xabar oladigan hech kimim yo'q. Sizlardan o'tinaman, bu odamlarning adabini beringiz!

O'g'rilar kulib so'radilar:

— Oting nima?

Donodil javob berdi:

— Donodil.

O'g'rilar dedilar:

— Sen hech narsadan xabarsiz, beaql odam ekansan. Aqlsizni o'ldirishning aybi yo'q.

Donodil dedi:

— Men bir so'z aytay, eshitib aqlim darajasini biling.

O'g'rilar so'ziga quloq solmay, uni o'ldirib, molini oldilar. Bu xabar shahar ahlining qulog'iga yetdi. Ular qotillardan qasos olishga qasd qildilar. Bir kuni talay odamlar jomega namoz o'qigani yig'ildi. Bir burchakda Donodilning qotillari — o'g'rilar ham o'tirgan edilar. Nopoh osmondan bir to'da g'ozlar uchib kelib, chug'urlashib, o'g'rilar boshida aylana boshladilar. Shu vaqt o'g'rilardan biri istehzo bilan yonidagi sherigiga dedi:

— Bular Donodilning xunini talab qilmoqdalar.

Bu gapni eshitgan kishi yonidagi hamrohiga, u yana boshqasiga aytdi. Shunday qilib, bu xabar shahar hokimi qulog'iga yetib bordi. Darhol o'g'rilarni ushlab, qiynoq bilan halok qildilar.

Xuddi shu singari men ham shahzodani jazoladim. Endi makr-hiylang domiga ilinmayman, buyrug'ingni bajo keltirmayman.

Podsho dedi:

— Har ikki tomon ham nodonlik qilib qurbon beribdi. Endi na mening g'azablanishga haqqim bor, na-da mening qo'rqishga asosing. Men qasos olishni odamlarning

bitta ayblaridan biri deb bilaman va hech vaqt o'zinga
ishni ravo ko'rmayman.

Qubbara dedi:

— Men huzuringga qaytib borolmayman. Chunki otalar
tibtdurlarki, zarar ko'rgan odam shirin gapirib,
shribonlik ko'rsatib, o'z kin-advovatini oshkor qilib
ayyadi. Hikmat egalari ota-onalarni — do'st, aka-ukalarni
o'rtoq, xotinlarini umr yo'ldoshi deb biladilar.
Qarindoshni qarz olganlarga, qizni safarga birga chiqqan
inrohlarga, o'g'ilni esa vorislarga o'xshatadilar. Inson
bitta-yu bitta hisoblaydi. Muhim bir hodisa, jiddiy
falokat yuz berganda har kim o'zini chetga oladi, hech
o'zini birov uchun fido etmaydi.

Men bugun tanho qoldim. Hammadan ayrildim.
Qalbimning bir parchasi, belimning quvvati, ko'zimning
nari bo'lgan yolg'iz bolamni sening xizmatingga qurbon
berdim-a! Buning ustiga o'zimning boshim ham xatarda.
Endi tilyog'lamaligingga ishonib, to'rga ilinish aqlsizlik
qiladi. Men firoq o'tida yonib, sabr qilishni senga xizmat
qilishdan afzal ko'raman.

Shoh dedi:

— Agar bu ishni sen boshlagan bo'lsang edi, qo'rqishing
tini bo'lar edi. Lekin bu ishni qasos olish uchun
qaysan, buning uchun xavfsirashing to'g'ri emas.
Hududniki shunday ekan, mendan qochishing va
safatlanishing sababini tushuna olmayapman?

Qubbara dedi:

— Yuragida kin-advovat, ko'zlarida g'azab bo'lgan
damning og'zidan chiqqan muloyim so'zlariga ishonib
bo'lmaydi. Chunki bunday vaqtlarda kishi yurakda bor
haqiqatni yashirmoqqa urinadi. Lekin qalblar yolg'on
gapirib, aldamoq iste'dodiga ega emaslar. Ular haqiqat va
adolat xabarchilaridir. Sening dilingdagi gap tilingdagi
gapga to'g'ri kelmaydi. Men sening qanchalik kek
so'zlaydigan ekanligingni bilaman, shuning uchun menga
bermasligingga ishonmayman.

Bir tabib yuragi og'rikan kishiga, sening kasalliging ko'z og'riq dorisi davo bo'ladi, deb aytgan ekan, men esa kishi toifasidan emasman.

Shoh so'radi:

— U kishiga nima bo'lgan ekan?

Qubbaraning navbatdagi hikoyati

Bir kishi bir tabib oldiga keldi. U qorni qattiq og'rigandan yerga yumalanib-yumalanib ingrar edi.

Tabib uning kasalini aniqlab, bemorga dedi:

— Bugun nima yegan eding?

Kasal soddagina kishi edi, javob berdi:

— Bir parcha kuygan non yegan edim.

Tabib yordamchisiga buyurdi:

— Ko'zini ravshan qiladigan doridan keltiring, bu kishining ko'ziga surtib qo'yaman.

U kishi faryod qildi:

— Ey tabib, masxarabozlikni qo'y, meni masxara qilma, mening qornim og'riyapti. Sen esa ko'zingda dori qo'ymoqchisan. Axir ko'zning qoriga nima aloqasi bor?

Tabib dedi:

— Men avval ko'zingni davolamoqchiman. Shunda non oqni qoradan farq qiladigan bo'lib, ikkinchi marta kuygan non yemaydigan bo'lasan. Demak, ko'zingni davolash qorningni davolashdan ko'ra zarurroqdir.

Qubbara hikoyasini tamomlab shohga dedi:

— Men sening adovat saqlab turib gapirayotganingni va menga jazo berishga tayyor ekanligingni ko'rib turibman.

Shoh dedi:

— Do'stlar orasida ko'ngilsiz hodisalar ko'p bo'ladi. Aqlli odamlar bunday hodisalarning oldini olishga harakat qilishlari kerak.

Qubbara dedi:

— Men dunyoning issiq-sovug'ini ko'rdim, achchiq-chuchugini totidim. Ko'p qimmatbaho nafis narsalarni bu

Manchi va ko'zbo'yamachi dunyo shamoliga sovurdim. Umi yetarli tajribaga ega bo'lib, haqiqatni tushunadigan bo'lib qolganman. Bu masxaraboz dunyo mening qalbig'imga burab, menga ibrat darsini berdi. Kim zo'r bo'lmas, u boshqalarni xor etmoqda, insof va muruvvat, adolat va sadoqatni oyoq osti qilmoqda. Aql kitobida, shahmanning tilyog'lamaligidan hazar eting, raqibning qalbinin so'zlariga, yumshoq muomalasiga uchmang, deb aytilgan. Dushman hamisha qasos olishga, o'z niyatiga erishishga fursat axtaradi. Agar kuch bilan yenga olmasa, hiyla ishlatadi. Men hech vaqt, hech bir sharoitda shohning qasosini kechirishiga va mendan qasos olmasligiga ishonmayman, chunki men zaif, u qudratli...

Shoh dedi:

— Olijanob va mard odam og'ir kunlarda o'z do'stimni qutqalab ketmaydi, har qanday shubha va gumonga ishonib o'rtoqlik aloqalarini uzmaydi, borish-kelish, adom-alikni kanda qilmaydi.

Qubbara dedi:

— Riyo va xiyonatdan, ayniqsa, shohlarning adovatidan qo'rqmoq lozimdir. Chunki shohlar qasos olmoqni qonun deb biladilar, jazo bermoqqa imkon topilsa sevinadilar. Jazo berish fursati qo'ldan ketsa g'azablanadilar. Qalabda yig'ilib yotgan adovat kul ostidagi cho'g'ga o'xshaydi, cho'g' o'tinga tushsa, yondirib yuborgani kabi adovat fursat kelganda g'azab o'tiga aylanadi. Bu yong'inni na so'z, na xokisorlik, na yolvorish, na hiyla, bir so'z bilan aytganda, hech narsa, ha, hech narsa so'ndira olmaydi. Tarasha yonib tuganaguncha shu lasi pasaymagani kabi, aybdor jazolanmaguncha kin-adovat ham oradan ko'tarilmaydi. Shularning hammasiga qaramasdan qasdi bor kimsa raqibidan foydalanmoq yoki kutilgan baloning oldini olmoq uchun u bilan avvalgi do'stlik munosabatlarini tiklab, yaxshi muomalada bo'lish mumkin; lekin unday baxt menga muyassar bo'lmas, men shunday omadsizmanki, oqar suv yoqasiga borsam, suv ham qurib qoladi. Mening xizmatim qalbingdagi kinni marhamatga

aylantira oladi, bizning oramizda muhabbat va do'stlik barqaror bo'ladi, deb qanday ishona olaman? Agar men huzuringga qaytib borsam ham, hamisha qo'rquv va tashvish ichida yashab, har soat o'z o'limimni kutib turaman. Yo'q, qaytishdan menga hech qanday foyda yo'q. Men ko'ra-bila turib o'z bo'ynimni pichoqqa tutib bora olmayman.

Shoh dedi:

— Har narsa tolega bog'liq. O'g'limning qilmishiga yarasha jazo berishing qazoning hukmi bilan bo'ldi. Bunda hech kim aybdor emas. Hali ham bo'lsa qayt, meni ranjitib, yuraginga o't yoqib ketma, davlat va saodat do'st-o'shnolarga, raiyat va mulozimlarga nasib bo'lgandagina u kishiga lazzat berishi mumkin.

Qubbara dedi:

— To'g'ri aytasan, hamma narsa falakning qo'lida. Lekin shu bilan birga ehtiyot bo'l, umrni falakning shamoliga sovrma, deganlar.

Sening tiling bilan diling bir emasligi men uchun ayon. Shuni bila turib qaytish — aqlsizlikdir. Meni aldab tuzoqqa ilintirmoqchisan, o'ldirib qalbingga tasalli bermoqchisan. Hozirga qadar hech bir hayvon o'z ixtiyori bilan o'lim sharbatini ichmagan. Deydilarki, g'am — baxtsizlik, kambag'allik — baxtsizlik, dushmanga yaqin bo'lish — baxtsizlik, do'stlardan judo bo'lish — baxtsizlik, xastalik, g'ariblik — baxtsizlik, lekin eng buyuk baxtsizlik o'limdir. Yuragida hasrat dog'i bor odamlarning dardini boshidan o'tgan odamgina tushunishi mumkin. Hozir men ham o'z tajribalarimga asoslanib, shohning nima qilmoqchi ekanligini, nimalar o'ylayotganligini bilib turibman. Uning hayajon va iztiroblari menga ma'lum, qalbidagi g'azab va intiqom olovining uchqunlarini men ko'zidan ko'rib turibman. Men yaxshi bilamanki, sen o'z o'g'lingning ko'zidan ayrilganligini, men esa o'z farzandimdan judo bo'lganimni esga olganimizda yuraklarimizda g'azab to'lqinlanib ketadi. Buning nima bilan tugashini bilib bo'lmaydi. Har holda, bizning do'st bo'lishimiz foydasizdir, ayrilishimiz yaxshidir.

Shoh dedi:

— Xo'p, mayli, lekin o'z do'stlarining xatolarini kechirmaslikning, ularga yetkazgan zararni unutmazlikning odam uchun nima foydasi bor? U qanday insonki, o'z do'stining tavba va uzrini qabul etmasin va uni sevinch bilan qarshi olmasin. Mening qalbim shishadek musaf-fodir. Sen aytgan narsalarning birontasini xayolimga ham keltirmaganman. Sen bilasanki, men hamisha mulozim-larning gunohini kechirib, xizmatchilarga marhamat ko'rsatib, in'om berib kelganman.

Qubbara dedi:

— Tovoniga tikon kirgan odam unga ahamiyat bermay qirrali toshlar ustida yuraversa, albatta, uning yaraga aylanib ketishiga sababchi bo'ladi va yumshoq tuproq ustida yurishdan ham benasib bo'lib qoladi. Ko'z og'rig'iga duchor bo'lgan odam quyoshga qarasa yo ahamolga tutsa, ko'zdan ajralishi mumkin bo'lgani kabi gunohkor odam o'z dushmaniga yaqin kelsa halok bo'ladi. Shuning uchun dushmandan qochmoq tabiiy va qonuniydir. Hech bir maxluq o'z boshiga nimalar kelishini, qilgan ishlari oxirda qanday natijalar berishini oldindan bila olmaydi. Kim dushmanning aytganiga ishonib ish ko'rsa, e'tiborsiz odamning so'ziga kirib harakat qilsa, uni donishmand odamlar beaql va johil deb hisoblaydilar. Peshanasiga nima yozilganligini, boshiga nima kelishligini hech kim bilmaydi. Lekin bunga qaramasdan, har kim o'z qadamini bilib bosishi, aqlga to'g'ri keladigan ishlar bilan mashg'ul bo'lishi lozim. Aqlli kimsa o'z kuch-quvvatiga ishonadi, hech narsadan qo'rqmaydi, tahlikaga tushmasdan najot yo'lini axtaradi. Hozir mening qarshimda o'lim turibdi, lekin qochadigan yo'llarim ko'p, najot yo'llari ochiq, taraddudlanib tursam, trodasizlik qilib, zaiflik ko'rsatsam halok bo'laman. Qayerga borsam ham ovqatimni topib yeyman. Deb durlarki, quyidagi besh xosiyati bo'lgan odam och qolmaydi, uzog'i yaqin bo'ladi, begonalar yurtida ham unga do'st topiladi.

Bu besh xosiyat shudir: mardumga ozor bermaslik, shubhali ishlar bilan mashg'ul bo'lmaslik, axloqlik, nazokatli bo'lish, olijanob bo'lish, o'z qadrini bilish.

Shuni bilmoq kerakki, mol-davlatning eng yaroqlik uning foydalanilmay qolib ketgani; xotinlarning eng hayosizi — eri bilan kelishmagani; farzandning eng tarbiyasizi — ota-onasining so'ziga kirmagani; do'stning eng vafosizi — og'ir kunlarda yuzini teskari o'g'irganlik, shohning eng layoqatsizi — gunohsizlarni qo'rqutib solgani; mamlakatlarning eng yomoni — tinch bo'lmaganlik, xavfsizlik ta'min etilmagan mamlakatdir. Endi qanchalik shoh menga lutf-karam va'da etib, tasalli bermasin, o'ng ichib ahdu paymon qilmasin, uning huzurida yashamoq menga rohat bag'ishlamasligi aniqdir. Zamon o'rtamizda dushmanchilik soldi va yaqin bo'lish yo'llarini bekitib qo'ydi.

Qubbara bu so'zlarni aytib, shoh bilan vidolashdi va bir qanot qoqdi-yu, uchdi-ketdi...

Xusumati bo'lgan dushmanning hiylasidan saqlanmoq va uning shirin so'zlariga uchmaslik haqidagi hikoyat mana shudir.

SHER VA SHAG'OL BOBI

Roja dedi:

— Oralarida adovat bo'lgan raqiblarning bir-biriga tahona olmaganliklari haqidagi hikoyatni eshitdim. Endi yana bir hikoyat aytib berginki, unda shohlar bilan ularning yaqin odamlari orasida ro'y bergan hodisalar muvofiq etilsin, haq yo nohaq jazolangandan so'ng yana ular shoh huzuriga qaytib kelsinlar, buning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligi ko'rsatilsin.

Brahman dedi:

— Shoh afv va marhamat eshigini berkitsa, ozgina gunoh qilib qo'yganlarni qattiq jazolasa, hech kim unga tahonmaydi, unga e'tiqod qilmaydi. Natijada mamlakat ishlari xarob bo'ladi, mulozimlari afv etilishdan noumid bo'lib, mamlakat ishlari orqaga ketadi.

Ulug'larning eng buyuk xususiyati odamlarni afv etib, gunohlarini kechirishdadir. Lekin shohlarning lutfi ham behad bo'lmasligi, zulmi ham chegaradan oshmasligi lozim. Xizmat — hadyasiz, xiyonat — jazosiz qolmasligi lozim. Shohlar shunday ish yuritishlari kerakki, ham do'stlar noumid bo'lmasinlar, ham dushmanlar hadlaridan oshmasinlar.

Xullas, shohlar gunoh qilib qo'ygan odamning samimiyat va sadoqati darajasini, aqli va idrokining saviyasini yaxshi o'rganishlari, bilishlari kerak. Agar bunday odamlar foyda bera olishlari mumkin bo'lsa, ularga ish topshirishlari, ularni to'g'ri yo'lga solib yuborishga intilishlari lozim. Shohlar bunday odamlarning gunohlarini kechirishlari, barcha huquqlarini qaytarib berishlari, ularni qo'rquv va shubhadan qutultirishlari va shu ravishda avvalgi vaziyatlarini tiklashlari kerak. Shoh bilmog'i kerakki, vazirlar, mulozimlar, maslahatchilarsiz mamlakatni boshqarish mumkin emas. Tabiatan aqlli, bilimli, to'g'ri va xayrixoh bo'lgan mulozimlardangina yaxshilik kutish mumkin. Shohlarning ishlari ko'p, faoliyat sohalari keng

va nihoyasizdir. Shuning uchun ham ularning ishbilarmon, chigal tugunlarni yecha oladigan, vaziyatni yaxshi tushunib, uzoqni ko'radigan, mustaqil tashabbihi ko'rsatadigan, uddaburon xizmatchilarga ehtiyojlarini ko'pdir. Shohlar mana shunday odamlarni xizmatga olib ish topshirishlari kerak.

Ularning butun ishlari shohning nazorati ostida bo'lishi kerak. Shoh sodiqlarning xizmatidan ham, xoinlarning riyokorligidan ham xabardor bo'lmog'i lozim. Sadoqat ko'rsatganlarga munosib mukofot, xiyonat qilganlarga muvofiq jazo berish kerak. Agar shunday qilinmasa, sadoqatlilar tanballashib, ishdan sovub ketadilar, xoinlar hadlaridan oshib quturadilar, ishlarda sustlik, maishatda buzg'unlik ro'y beradi, natijada davlatlari barbod bo'ladi. Bunga misol qilib sher va shag'ol masalini keltirish mumkin.

Roja so'radi:

— U qanday masal?

Brahmanning hikoyati

Hind tuprog'ida xudojo'y bir shag'ol bor edi. U dunyodan yuz o'girib, toat-ibodat bilan mashg'ul, go'ah yeyishdan, qon to'kishdan, jonivorlarga ozor berishdan voz kechgan edi. Bir kuni yoronlari unga e'tiroz bildirib dedilar:

— Sening bu ishlaringdan biz rozi emasmiz. Modomiki, bizlar bilan bir yerda yashar ekansan, odat va an'analarimizga rioya qilishing kerak. Umringni zohidlik bilan och-yalang'och o'tkazishning nima foydasi bor? O'tgan kuning qaytib kelmaydi. Ertangi kunga esa umid yo'q. Bas, shunday ekan, bugungi kunni zoye qilib, fursatni qo'ldan berish yaxshi emas. Umrni aysh-ishratda o'tkazish kerak.

Shag'ol dedi:

— Ey mening aziz do'stlarim va mehribon birodarlarim! Bu ma'nosiz so'zlarni tashlang. O'zingiz aytib

turibsizki, bugundan ham, ertadan ham umid yo'q edi. Binobarin, fursatni qo'ldan bermay, oxirat uchun savob ishlar qilish kerak. Axir bu vafosiz dunyoning ayb va natolar bilan to'la ekanligini bilasiz-ku!..

Bu dunyoning lazzati chaqmoq kabi, bulut soyasi kabi bir zumda o'tib ketadi. Agar har ikki dunyoda baxtli bo'lmoq istasangiz, mening so'zlarimga quloq qiling. Nafs balosi uchun hayvonlarni o'ldirish va boshqalarga aziyat berishdan qo'l torting. Mening sizlar bilan bir yerda yashab, do'st bo'lishim gunohga sabab bo'lmaydi. Lekin harom ishlaringizga sherik bo'lib, yovuz fikrlaringizni ma'qullasam, u dunyoda azob va toqanajaga duchor bo'laman. Qo'l va dil gunoh vositalaridir: biri — yaramas ishlar qiladi; ikkinchisi — nozoyiq narsalarni orzu qiladi.

Shag'ol oz fursatda taqvo va ibodatda shunday darajaga yetdiki, shuhrati hammayoqqa yoyildi. U yashayotgan joyning yaqinida go'zal bir chamanzor bor edi. Unda hayvonlar nihoyatda ko'p bo'lib, ularga bir sher podshohlik qilar edi. O'rmondagi barcha hayvonlar uning amr-farmonidan chiqmas edilar. Shag'olning taqvodorligi haqidagi xabar sherga yetib keldi. Sher uni o'z huzuriga chaqirib, suhbatlashdi, keyin xilvatda shag'olga dedi:

— Shohlar yaxshi maslahatchilarga muhtoj bo'ladilar. Men senga bir ish topshirib, martaba va mansabingni oshirsam, mening eng yaqin mahramlarimdan bo'lsang.

Shag'ol javob berdi:

— Shohlarning ishbilarmon, tadbirkor xizmatchilar tanlab olishga haqlari bor. Lekin odamlarni majburan ishga tortish noto'g'ri, chunki zo'rlik bilan yuklatilgan vazifaning yaxshi bajarilishi maholdir. Men davlat ishlaridan o'zimni olib qochaman, uning ustiga bu sohada na tajribam bor, na ma'lumotim.

Siz buyuk hukmdorsiz, xizmatingizga baquvvat, ishbilarmon, tadbirkor, mansab sevadigan, mol-dunyoga hirs qo'ygan mulozimlar ko'p. Agar siz menga topshirmoqchi bo'lgan ishni ulardan biriga yuklasangiz,

ham ishning bajarilishidan xotirjam bo'lardingiz, ham ular sizdan mamnun bo'lar edilar.

Sher dedi:

— Bahonalaringni qo'y, men seni ishsiz qoldirish mansabsiz qo'ymayman.

Shag'ol dedi:

— Shoh xizmati ikki toifa odam uchun yaxshidir: birinchisi — hiylakor va jasur odam uchun; bunday odam o'z jasurligi bilan maqsadga yetib, hiyla bilan jonlarini qutqaradi, ikkinchisi — nodon va qo'rqqoq odam uchun, bunday odam xo'rliklar va ta'nalarga chidayveradi, hech vaqt hurmat qozonish, shon va shuhratga ega bo'lish haqida o'ylamaydi. Shuning uchun boshqalar unga hamd qilmaydilar. Men bulardan hech qaysisiga o'xshamayman. Baxil, ochko'z emasmanki, xiyonat qila olsam, qotillik g'amini yeydigan maxluq emasmanki, xorlikni bo'ynimga olsam... Shohga sodiq bo'lib, samimiy va to'g'ri xizmat qilishni istagan, shohni xiyonat va suiqasdlardan muhofaza etib, uning saroyini riyokor va fitnaohlardan mulozimlardan tozalamoq orzusida bo'lgan kimsaning ishi yaxshi yurishmaydi, u davron surolmaydi. Unga do'stlar hasad qiladilar, dushmanlar balo o'qlarini yog'diradilar. Ichi qora do'st bilan yovuz dushman birlashsa, hasad bilan adovat qovushsa, odamni halok etadi. Uning hurmati, shon va shuhrati ko'klarga chirmashgan bo'lsa-da, ertami-kechmi, yo'q bo'lib ketadi. «Sen o'zingga do'st axtar, dushman o'choq boshidadir», degan gap bor.

Sher dedi:

— Men sening tomoningda bo'lsam yaqin odamlarimdan birortasi ham senga hech bir zarar yetkuzmay olinaydi. Dushmanlarga kelesak, ulardan cho'chishga ehtiyoj yo'q, chunki men ularning butun hiylalarini fosh qilib, bir zarba bilan jonlarini olaman, sening rohat va farog'atda yashamog'ingni ta'min etaman.

Shag'ol dedi:

— Agar shoh menga lutf va marhamat ko'rsatmoqchi bo'lsa, ketishga ijozat bersin. Men bu sahroda tabiat ato

gan ne'matlardan yeb, tirikchilik o'tkazay, o't, sabza va
bilan kifoyalani, raqiblarning hasad va adovatlaridan
bo'lay. Tinchlik bilan kechirilgan qisqa umr qo'rquv
tashvish bilan kechirilgan uzoq umrdan yaxshi deb
dalarimiz bekorga aytmaganlar.

Sher dedi:

— Nima demoqchi bo'lganing ma'lum bo'ldi. Xotirjam
bo'l, sen mening eng yaqin odamlarimdan biri bo'lasan.

Shag'ol dedi:

— Agar shunday bo'lsa, unda menga shunday va'da
berinlar: do'stlar qasd qilsalar, yolg'on gapirib bo'hton
qilsalar, menga jazo berishga shoshilmasinlar, avval
kelahirib ko'rib, so'ngra chora ko'rsinlar.

Shoh ont ichib shunday qilishga va'da berdi. Xazinalar
holitini unga topshirdi. O'lkani boshqarish ishlarida uning
fikri va maslahatini so'raydigan bo'ldi. Shunday qilib,
shag'olning martabasi kundan-kunga ziyoda bo'ldi.

Bu esa shohning atrofida qilarga yoqmad. Ular
hammasi bir bo'lib, shag'olni ag'darish uchun har qanday
yo'l axtara va tadbir ko'ra boshladilar. Nihoyat, bir
kuvozdan «sherning bekitib qo'ying», deb tayinlab ketgan
lazzatli go'shtini o'g'irlab, shag'olning uyiga yashirish
qaroriga keldilar. Shunday qildilar ham. Ertasi kun sher
o'sha go'shtni yegani kelganida, unga «go'sht o'g'irlanibdi»,
dedilar, shu vaqtda shag'ol yo'q edi. Sherning g'azabi
alangalanganini, sabr kosasi to'lib-toshganini ko'rgan
dushmanlar niyatlarini amalga oshirish payti kelganligini
angladilar.

Ulardan biri dedi:

— Garchi shohga yoqmasa-da, biz uni foyda va zarariga
aloqador bo'lgan barcha hodisalardan xabardor qilishni
o'z burchimiz deb bilamiz. Men go'shtni shag'ol o'z uyiga
olib ketgan deb eshitdim.

Yana biri dedi:

— Men bu gapga ishona olmayman. Bu ishni yaxshilab
tekshirish kerak, odamzodni bilish qiyin...

Uchinchi dedi:

— To'g'ri, birovning ko'nglidagi narsani bilish qiyin. Agar go'sht uning uyidan chiqsa, boshqa xiyonatlar to'g'risidagi gaplarga ishonsa bo'ladi.

Boshqasi dedi:

— O'z mansab va mavqeiga ishonib, har narsani qilaverish ham yaxshi emas, xoin hech qachon o'z jinoyatini yashira olmaydi.

Yana birisi dedi:

— Men uning hiylakor va riyokor ekanligini bilar edim. Birinchi qarashdayoq ishlarining oqibati nima bo'lishini anglagan edim va allakimga, bu taqvodorning ishi oxiri rasvochilik bo'ladi, undan katta xatolar, kechirilmagan gunohlar sodir bo'ladi, deb aytgan edim.

Yana bir boshqasi dedi:

— Sizlarning hammalaringiz e'tiborli va sinalgan zotlarsiz. So'zlaringizdan shubhalanib bo'lmaydi, lekin eng to'g'ri tadbir shuki, shoh shag'olning uyiga birortani yuborib, uyini tintuv qildirsin. Ana shunda haqiqat yuzaga chiqadi.

Yana bir boshqasi dedi:

— Bo'lmasa shoshilish kerak — shag'olning josuslari har yerda bor, o'g'irlik molni bekitib qo'ymasinlar...

Boshqasi dedi:

— U xoin gunohi aniqlansa ham, makr-hiyla ishlatib shunday bahonalar topishi mumkinki, natijada bilgin shohning oldida gunohkor bo'lib qolamiz.

Shohning g'azabi alangalanib turganida aytilgan bu gaplar uning yuragida shag'olga qarshi shubha uyg'otdi. U shag'olni chaqirib kelishlarini buyurdi. Shag'ol yetib kelgach, go'sht qayerda ekanligini so'radi.

Shag'ol dedi:

— Sizga taom tayyorlash uchun ertalab oshpazlar bergan edim.

Oshpazlar ham dushman tomonida edilar. Ular dedilar:

— Yolg'on gapiryapti, bizga go'sht bergani yo'q.

Shundan keyin sher shag'olning uyiga bir necha odam yubordi. Ular shag'olning uyidan go'shtni topib keltirdilar.

Shunda hozir bo'lganlardan biri — shu vaqtgacha indamasdan o'tirgan, o'zini odil qilib ko'rsatishga tirishgan, masala isbot etilmaguncha ishga aralashmaydigan qari bo'ri oldinga chiqib dedi:

— Bu pastkashning kirdikori ochildi. Endi shoh tezlik bilan uni jazolashi lozim. Aks holda jinoyatkorlar qo'rqmaydigan bo'lib qoladilar.

Shoh shag'olni zindonga solishga amr qildi. U yerdagilardan biri dedi:

— Jinoyat oshkor bo'lgandan keyin ham shoh aybdorni jazolashni paysalga solmoqda. Taajjub!

Sher oradan bir necha kun o'tgach shag'olga xabar yubordi va aytirdi:

— Agar gunohi kechirilishini istasa, uzr so'rasin.

Uning mulozimlaridan biri bu gapni shag'olga yetkazmay, uning nomidan bo'lmag'ur gaplarni kelib aytdi. Buni eshitib shohning qoni qaynab ketdi, ichgan ontini ham unutib, shag'olni qatl etishga qaror qildi. Bu xabar sherning onasiga yetib bordi. U sherning shoshilayotganini bilib, o'z-o'ziga dedi:

— Tezda borib o'g'limni bu xatodan xalos etmog'im lozim...

Ona kelib, shag'olni qatl etish ishi topshirilganlarga buyruqni ijro etishni kechiktirish kerakligini aytdi, so'ngra o'g'lining oldiga borib dedi:

— Shag'olning gunohi nima, nechun uni o'ldirtirmoqchi bo'lding?

Sher bo'lgan gapning hammasini aytib berdi.

Onasi dedi:

— O'g'lim, shoshilinch bir ishni qilib, pushaymon bo'lish shohlarga yarashmaydi. Shohlar uchun sabr va mulohazadan sharafli narsa yo'q. Sen shuni bilib qo'yki, otinning yaxshi bo'lishi eriga, o'g'ilning itoatkorligi atasiga, shogirdning bilimi muallimiga, lashkarning jangga layoqati sarkardasiga, raiyatning tinch-omonligi shohlarga bog'liq. Shohlarning aqlli ekanini ko'rsatuvchi belgi, raiyatni yaxshi bilish, odamlarga tajribalari va

iste'dodlariga muvofiq vazifa topshirishdan iboratdir. Agar xizmatchilar bir-birlariga choh qazib, sadoqatli odamlarni xiyonatda ayblasalar, xoinlarga sodiqlik libosini kiydirsalar, yaxshini yomon, yomonni yaxshi deysalar, shoh ularni qo'llamasligi kerak. Shohning o'zi ishni yaxshi tekshirib, haqiqatni yuzaga chiqarmagunicha, sadoqat va ishonchli odamlarni jazolamasligi, fidokor xizmatchilarning kechmishdagi xizmatlarini hamisha ko'z o'ngida tutishi, yaxshi fazilatlarini esda saqlab, berpan foydalarini unutmashligi kerak. Iste'dodsiz odamlarning hunar egalari haqida aytgan so'zlariga ishonmaslik kerak... Shag'ol sening xizimatingda ulug' vazifa va yukrak mavqega ega bo'lgan edi. Endi sen uning haqida berpan buyrug'ingni bekor qilib, uni ham, o'zingni ham dushmanlar ta'nasidan muhofaza etishing, raqiblarning g'alaba qozonishlariga yo'l bermasliging kerak. Nega o'zingga yarasha olijanoblik va ehtiyotkorlik bilan bu ishni tekshirib ko'r, o'z vijdoning oldida va raiyat qarshisida xijolat chekma. Axir bir go'sht parchasi shunchalik katta narsa emaski, shag'ol uning uchun o'z nomini bulg'ushi. Buning ustiga sen bilasanki, shag'ol butun xizmat muddatida go'sht yemagan. Shuning uchun ham bu ish oydinlashmaguncha jazolashni paysalga solib tur, chunki faraz hamda taxminga qarab ish qilish natijasida ko'pgina noto'g'ri hukmlar chiqarilgan. Masalan, tun qorong'iligi yaltiroq qurti birinchi ko'rgan odam uni cho'g' deb o'ylashi mumkin, lekin qo'lga olib qarasa, aldangani ma'lum bo'ladi. Bir narsani juda yaxshilab o'rganmasdan turib, u haqda qat'iy bir qarorga kelish noto'g'ridir. Axir nodonning olimga, nomardning mardga, qo'rqqning jonli odamga hasad qilishi hammaga ma'lumdur... Menimcha, go'shtni shag'olning uyiga uning raqiblari olib bora qo'yganlar. Xoin odamlarning qanchalik baxil bo'lishlarini hamma biladi. Ayniqsa, olijanob odamni ko'rganlarida, hasadning had-hududi bo'lmaydi. Ko'kdagi qushlar, dengizdagi baliqlar, sahrodagi hayvonlar ham bu badbaxtlarning qo'lidan o'z jonlarini salomat qutqara

qilmaydilar... Sen bu ishda sabrli bo'l. O'zingga xos talug'vorlik bilan haqiqatni yuzaga chiqar, shag'olni o'ldirish esa oson gap, bu ishni keyin qilsang ham bo'laveradi.

Sher diqqat bilan onasining so'ziga quloq solib eshitishi joyiga keldi. Shag'olni yoniga chaqirib dedi:

— Ahdu paymonimizga muvofiq, sening uzringni qabul qilib, gunohingni kechirish, dushmanlar so'ziga e'tibor berishdan ko'ra afzal.

Shag'ol dedi:

— Podsho masalani oydinlashtirmaguncha yuragim tinchmaydi, yuzimda dog' qoladi. Bu ish qanchalik tinchiklab tekshirilsa, mening to'g'riligim va sadoqatli ekanligim hamma xizmatchilarga shunchalik oydin bo'ladi.

Sher so'radi:

— Buning uchun nima qilmoq kerak?

Shag'ol dedi:

— Buning uchun tuhmatchilarning har biri bilan ayri-ayri suhbatlashmoq kerak. Aytsinlar, nima uchun go'sht yoydiganlar, bir parcha go'sht ustida bir-biri bilan bo'g'ishadiganlar bir tomonda qolib, bu gunohni mening ustimga ag'darmoqdalar. Shohning bunday savoliga javob bermasdan shovqin-suron solsalar, shoh haqiqatni so'zlaganlarni gunohidan kechaman, deb va'da bersinlar.

Ana shunda haqiqatning yuzidan parda olib tashlanadi va mening to'g'ri va sofligim isbot bo'ladi.

Sher dedi:

— Bir begunohga bo'hton qilib, halok etmoqchi bo'lganlarning gunohini kechirib bo'ladimi?

Shag'ol dedi:

— Afv shohlarning hurmati va shuhratini oshiradi, qanchalik qudratli ekanini ko'rsatadi. Gunohkor tavba qilib, sadoqat bilan xizmat qilaman deb ont ichsa, undan qasos olish insofsizlik bo'ladi. Olimlar yomon ishning oldini olib, gunohni kechirmoq savob ish qilmoqqa barobardir, deganlar.

Sher u aytgandek qilib, ishni tekshira boshladi. Borgan sari masala oydinlashdi, ba'zilar gunohlarini e'tirof qilishga majbur bo'ldilar, boshqalari esa ularning so'zlarini tasdiqladilar. Shag'olning gunohsiz ekanligi tamomila ma'lum bo'ldi. Buni eshitgan sherning onasi o'g'lining yoniga kelib dedi:

— Shoh bu bo'htonchilarni nohaq kechiribdi. Endi bo'lar ish bo'libdi, aytilgan so'zni qaytarib olib bo'lmaydi, lekin sher bu voqeadan o'ziga kerakli ibrat darsini olish kerak. Bundan buyon mulozimlari to'g'risida aytilgan so'zlarga quloq solib shubhaga tushmasligi, xoinlarning bo'htoniga ishonmasligi, yomon niyatli fitnachilarga e'tibor bermasligi kerak. Ularning og'ziga urilmasa bora-bora shu darajaga yetadilarki, ortiq ularni daf qilish mumkin bo'lmay qoladi: sen shuni bilginki, sakkiz xil odam bilan do'stlashib bo'lmaydi. Birinchisi — o'z so'zida turmovchilar, ikkinchisi — nonko'rlar, uchinchisi — yoshining kattaligiga qaramay, odob qonun-qoidalariga rioya qilmaganlar, to'rtinchisi — osonlikcha xiyonat yo'lga tushib ketadiganlar, beshinchisi — yolg'onchilar, oltinchisi — ochko'z, pastkash, maishatparastlar, yettinchisi — odamlardan sababsiz shubhalanib, ularni asossiz gunohkor qiluvchilar, sakkizinchisi — hayosizlar. Quyidagi sakkiz xil odamlar bilan do'stlashish maqsadga muvofiqdir: birinchisi — qanoatli kishilar, ikkinchisi — o'z so'zidan qaytmaydiganlar, uchinchisi — olim va hunar sohiblarini qadrlaydiganlar, to'rtinchisi — xiyonat va nomardlikdan nafrat etadiganlar, beshinchisi — yaxshi xulqli, nazokatli kishilar, oltinchisi — g'azab vaqtida o'zini qo'lga oladiganlar, yettinchisi — saxiylar, sakkizinchisi — badaxloq odamlarning aysh-ishrat majlislaridan nafratlanuvchilar.

Shag'ol ishining bunday tugashidan onasi mamnun bo'lganligini ko'rib, sher behad sevindi va dedi:

— Bu sening xayrixohliging natijasida ro'y berdi.

E'tiborli bir xizmatchi, ish biladigan, tadbirli maslahatchi oqlandi, sadoqatli, gunohsiz bir maxluq o'lim tahlikasidan qutuldi.

Bundan so'ng sherning shag'olga bo'lgan mehri yana ortdi. Uni yoniga chaqirtirib kelib, dedi:

— Senga to'nkalgan ayblar asossiz ekanligi ma'lum bo'lgandan keyin senga bo'lgan hurmat va ishonchim yana ortdi. Avvalgiday o'zingga topshirilgan vazifalarni bajaraver.

Shag'ol dedi:

— Shoh avvalgi ahdiga vafo qilmay, dushmanlarning aydirmalariga ishondi. Bundan keyin shunday hodisa ro'y bermaydi deb kim ayta oladi...

Sher dedi:

— Bu haqda gapirib o'tirishga endi hojat yo'q, chunki sening hurmating ham tushmadi, mansabing ham pasaymadi. Shuningdek, mening senga bo'lgan ishonchinga putur yetgani ham yo'q. O'zingni qo'lga olib tash boshla.

Shag'ol javob berdi:

— Bu safar jonim salomat qoldi. Lekin dunyoni baxil, razil va og'zi katta odamlardan tozalash juda ham qiyin. Shoh mendan marhamatini darig' tutmas ekan, raqiblarning hasad va adovati kamaymaydi. Shohning ular so'ziga quloq solganlarini bir daf'a ko'rganlari uchun ular yana yangi tuhmatlar yog'dirishdan, yangi bo'htonlar to'qishdan qaytmaydilar. Fitna-fasodchilarning bo'hton va iftiorlariga quloq osgan va xalqning falokatga tushishini tayaydigan, nayrangbozlar ishining tomoshabini bo'lgan bir shohga xizmat qilish o'zini o'zi o'lim girdobiga otish bilan barobardir. Shunday shohga xizmat qilmoq kerakki, uning qalbi daryodek keng, irodasi tog'dek mustahkam bo'lsin. Na xiyonat bo'ronlari uni to'lqinlata olsin, na g'azab zarbalari uni joyidan qo'zg'ata bilsin...

Sher dedi:

— Sening so'zlaring to'g'ri va ibratlidir. Lekin bu gap menga qattiq tegayapti.

Shag'ol dedi:

— Shoh raqiblarning yolg'on so'zlariga ishonganida bundan ham qattiq gaplarni aytgan edi. Quruq

tuhmatlarga quloq solgan odam endi to'g'ri va samimiy so'zlardan achchig'lanmasligi kerak.

Sher dedi:

— Bu ham to'g'ri, lekin ishingni diqqat bilan tekshirib, seni o'lim girdobidan qutqarib qolgan men edim-ku.

Shag'ol dedi:

— Ammo shuni ham unutmaslik lozimki, shoshilinch holda o'ldirishga hukm chiqargan shu shohning o'zi edi.

Sher dedi:

— Bilasanmi, xatoga ketib o'limga mahkum etilgan odamga yangidan hayot berish eng buyuk yaxshilik va eng katta savob hisoblanadi.

Shag'ol dedi:

— Qancha uzoq umr ko'rsam-da, shohning menga qilgan bu lutf va marhamatini qaytara olmayman. Ayniqsa, qatl etish haqida hukm e'lon qilingandan keyin afv etilib oqlanganligim shohning shu vaqtga qadar menga qilgan yaxshiliklaridan, bergan in'omlaridan qimmatlidir, lekin shoh shuni ham biladiki, men unga sodiq quldek sadoqat bilan xizmat qilganman, undan hech narsani, hatto jonimni ham ayamaganman... Bu so'zlarni aytishimdan maqsad mening ishimda xato qilganini shohning yuziga solish emas. Lekin men nodon va johil odamlarni ko'rishga ko'zi yo'q ekanligini aytmoqchiman. Haqiqat oxir yuzaga chiqadi. Haq hamisha g'olib kelib, nohaq mag'lub bo'ladi. Lekin bunga qaramay, dushmanlar yana sizda shubha uyg'otib, shoh bilan mening oramga sovuqchilik solmasalar deb qo'rqaman. Yo'qsa men hamisha shohning xizmatida kamarbasta bo'lar edim.

Sher so'radi:

— Dushmanlar menda yana qanday shubha tug'dirishlari mumkin?

Shag'ol dedi:

— Ular, siz shag'olni azob-uqubatlarga soldingiz, endi u sizga nisbatan yuragida kin saqlaydi, deb aytishlari, ko'nglingizda shubha uyg'otishlari mumkin. Ayniqsa, o'zining sodiq qulini xafa qilgan, uning mansabini

panaytirgan yoki dushmanini baland vazifaga qoʻygan shohlarda juda tez gumon tugʻdirish mumkin.

Albatta, aqlli odamlar biladilarki, bir xizmatchisida kunchilik borligini koʻrgan shoh oʻzini mahkam qoʻlga olib, uni toʻgʻri yoʻlga solsa, gap tashiydiganlarning, boʻhtonchilarning soʻzlariga quloq solmasa, bu xizmatchisining yuragida kin va gina qolmaydi. Chunki hech bir sodiq, isteʼdodli xizmatchi yoʻqki, hech bir xatoga yoʻl qoʻymagan, unga hasadchi doʻstlari biron musibat yetkazmagan boʻlsin...

Sher dedi:

— Soʻzlaring haqiqatan ham juda maʼnoli va hikmatlidir. Haqiqatan olijanob ekanliging maʼlum boʻldi. Endi bor, hech narsadan qoʻrqmay, ishingni boshlab yubor. Bundan buyon sendan shubhalanish va badgumon boʻlish hech mumkin emas... Biz seni juda yaxshi bilib oldik. Bundan soʻng sening haqingda sadoqat va samimiyatdan, insof va muruvvatdan boshqa har nima desalar, hammasi yolgʻon, boshdan oyoq iftiro va boʻhton hisoblanadi. Bekorchi fikrlarga berilib koʻnglingni buzma. Bizning ishonch va eʼtiqodimizga hech shubhalanma...

Sher shunday ajoyib soʻzlar bilan shagʻolning yuragini zabt etdi va uni oʻz vazifasida qolishga koʻndirdi. Shagʻol umrining oxirigacha rohat farogʻatda, nozu neʼmat ichida yashadi.

Shohlar bilan uning yaqin odamlari orasida roʻy beradigan hodisalarga oid hikoyat mana shundan iborat...

ONA SHER, SHAG'OL VA OVCHI BOBI

Roja dedi:

— Shohlar bilan mulozimlar o'rtasida yuz bergan mojarolar haqidagi, mamlakatni idora qilish ishlarini tartibga solmoq uchun jafoga chekkan va tuhmatga uchirib zulm ko'rgan sodiq xizmatchiga ishonib, yana avvalgi munosabatini tiklagani haqidagi rivoyatni eshitdim. Endi o'z rohatini ko'zlab, boshqalarga aziyat bergan, ammo boshiga kulfat tushgandan keyin aqlli odamlarning maslahatiga quloq solib o'zini og'ir ahvoldan qutqara olgan bir kimsa to'g'risida hikoya aytib bersang.

Brahman dedi:

— Yaxshilik bilan yomonlik, foyda bilan ziyonning farqiga bormaydigan ahmoqlardan boshqa hech kim o'zgalarga azob berishni o'zlariga ravo ko'rmaydilar. Yolg'iz johillargina o'z ishlarining nima bilan tamom bo'lishini bila olmaydilar. Aqlli odam o'ziga ravo ko'rmaganini o'zga ham ravo ko'rmaydi.

Bilmoq lozimdirki, har bir yomonlikning bir jazosi bor. Yomonlik qilgan odam albatta o'z jazosini tortishi kerak. O'z yomonligini niqoblagan, hiyla ishlatib, o'zini yaxshi ko'rsatgan, zohiran o'zini xalqqa xayrixoh qilib ko'rgazib yurgan odam albatta, ertami, kechini qilmishlarining ajrini ko'radi. Bunday odam yolg'iz jazosini tortgandan keyingina ibrat darsini olib foydali ishlarga mayl ko'rsatadigan bo'lishi mumkin. Bunga misol qilib ona sher, shag'ol va ovchi hikoyasini keltirsa bo'ladi.

Roja so'radi:

— U qanday hikoya?

Brahmanning hikoyati

Halab viloyatida bir o'rmon bo'lib, unda bir bahaybat ona sher yashar edi. Uning qiladigan ishi hamisha qon to'kish edi. Uning Qoraquloq degan mulozimi sherning

sitamkorligi va qonxo'rligi oqibatidan juda qo'rqar edi. O'ylab-o'ylab uning xizmatidan ketishga qaror qildi.

Bir kuni Qoraquloq ona sher o'rmon chetiga chiqib o'tirgan edi, bir sichqonning jahdu jadal bilan daraxt tumirini kemirayotganini ko'rib qoldi.

Daraxt tilga kirib unga dedi:

— Ey dilozor va sitamkor! Nima uchun jonim ishtahalarini qirqyapsan?

Sichqon uning nola-yu zoriga e'tibor bermay, o'z ishini davom ettiraverdi. Nogoh bir burchakdan bir ilon chiqib, sichqonga hamla qildi va bir damda uni yutib yubordi. Qoraquloq bu voqeadan «dilozorning jazosi ozor ekan», degan xulosa chiqarib oldi.

Shu vaqt bir tarafdin tipratikan kelib, ilonning dumidan tishladi-yu, boshini ichiga tortib g'ujanak bo'lib oldi. Ilon jahl bilan unga o'zini ura boshlagan edi, a'zoyi badanini tikanlar pora-pora qilib yubordi. Ilon o'sha zahoti o'ldi. Qoraquloq bundan ham ibrat darsi oldi. Ilon o'lgach, tipratikan boshini chiqarib, uning yaxshi-yaxshi joyidan tanlab edi. Qorni to'ygach, daraxt soyasida ko'ptokdek bo'lib yumalab, huzur qilib yotgan edi, nogoh bir och tulki kelib qoldi. Tipratikanning nayzalaridan qo'rqib, uni hiyla bilan o'ldirmoqchi bo'ldi. U tipratikanni ag'natib qorniga yozildi. Tipratikan yomg'ir yog'yapti shekilli deb o'ylab, boshini chiqargan ham ediki, tulki bir hamla bilan uni cho'rt uzdi, bo'shshib, qorni ochilib qolgan tipratikanni ishtaha bilan yeb oldi. Shu vaqt bo'riga o'xshagan vahshiy bir it kelib, tulki turgan yerida bo'g'ib, uning go'shti bilan ochligini qondirdi.

Qoraquloq bu ajoyibotlarni ko'rib hayron qolib yotar edi.

It endi dam olishga hozirlik ko'rayotganda bir qoplon kelib, uning siynasidan oldi. Qoplon hali itni tugatmagan ham edi, ovchi kelib, bir o'q bilan uni jo-bajo qildi. Qoplonning joni hali uzilmagan edi, yerdan bir otliq o'tib qoldi. Unga qoplonning terisi yoqib qolib, ovchi bilan urisha boshladi. Qilich solib ovchining boshini tanidan

judo qildi va qoplonning terisini olib yo'lgga tushdi. U yuradigan qadam ham yurmagan edi, oti qoqilib, yerga yiqildi. Gardani sinib, u shu on halok bo'ldi.

Qoraquloq bu voqealarni ko'rgandan so'ng sherning huzuriga kelib, safar qilmoqqa undan ijozat so'radi.

Sher dedi:

— Mening davlatim soyasida osoyishta hayot kechiryapsan. In'omimdan bahramandsan, tag'in nima uchun ketmoqchi bo'lib qolding?

Qoraquloq dedi:

— Agar ketmasam, g'amdan yuragim yorilishga yetdi, aytsam boshim xatarda. Agar omon qoldirishga omon ichsang aytib beraman.

Sher uni omon qoldirishga so'z berdi.

Qoraquloq dedi:

— Qilayotgan ishlaring xaloyiqqa ozor va begunohlarga sitam ekanligini ko'rib turibman. Uning oqibatidan qo'rqqanimdan xizmatini tark etmoqchiman. Sen tufayli mening boshimga yomon kunlar kelishi mumkin. Bu dunyoni toqqa o'xshatadilar. Uning orasidan turib nima deb baqirsang, o'sha so'zning aks-sadosini eshitasan...

Men bugun birovlariga ozor yetkazgan kimsaning albatta jazoga mustahiq bo'lishining shohidi bo'ldim, deb o'z ko'zi bilan ko'rganlarini birma-bir sherga aytib berdi.

Sher juda mag'rur va g'azabnok bo'lgani uchun Qoraquloqning nasihatlari uning qulog'iga kirmadi. Shundan keyin u sherning xizmatini tark etib yo'lgga chiqdi. G'azabidan tushmagan sher uning izidan boraverdi. Qoraquloq buni sezib, o'zini qalin tikanzor ichiga oldi. Sher uni ko'rmay o'tib ketdi. Qarshisida bir ohuning ikki bolasi o'tlab yurar, mehribon onasi esa ularni qo'riqlab turar edi. Ona ohu sherni ko'rgach, faryod qilib dedi:

— Bu ikki norasida go'dakni yeganing bilan to'ymaysan. Yalinaman, nuridiydalarim firoqida meni yig'latma, bag'rimni qon qilma! Axir sening ham farzandlaring bordir.

Ularga ham balo yetishi mumkin, o'zing ham jazosiz qolmagaysan.

Haqiqatan ham sherning ikki bolasi bor edi. Sher ohu bolalariga qasd etib turganida, bir ovchi uning bolalariga kamonini to'g'rilab turgan edi. Bu yerda sher ona ohuning nolai zoriga boqmay, uning bolalarini yedi, u yerda esa sherning ikki bolasini ovchi otib, terisini shilib ketdi. Sher kelib o'z farzandlarining o'ldirilganliklarini ko'rgach, yurak-bag'ri o'rtanib zor-zor yig'ladi.

Sherning bir shag'ol qo'shnisi bor edi. U sher qoshiga kelib dedi:

— Nima bo'ldi, nega muncha faryod qilasan?

Sher bo'lgan hodisani aytib berdi.

Shag'ol dedi:

— Har bir narsaning avvali ham, oxiri ham bo'ladi. Umr nihoyasiga yetib, ajal kelganda, uning chorasini ko'rib bo'lmaydi. Dunyoning ishi shunday. Har bir g'am orqasidan shodlik, har bir shodlik orqasidan kulfat keladi. Otalarimiz, qazoning ishiga chidashdan boshqa chora yo'q, deganlar... Yetar, qo'y, oh-u fig'on ko'tarma. Qilgan ishlaringni ko'z o'ngingga keltir. Sen boshqalarga bundan ham og'ir kulfatlar yetkazgansan. Kim nima qilsa, o'sha narsa uning oldiga keladi. Agar sen bu yovuzliklaringga barham bermasang, bundan ham ko'p musibatlar ko'rasan. Rohatda yashamoqchi bo'lsang, o'zingdan zaiflarga aziyat berma.

Sher dedi:

— Qo'rqmay, fikrlaringni ochiqroq bayon et.

Shag'ol so'radi:

— Sen necha yoshga kirding?

Sher javob berdi: — Yuzga.

Shag'ol so'radi:

— Sen bu yuz yil ichida nima bilan oziqlanding?

Sher javob berdi:

— Hayvonlarning va insonlarning go'shti bilan.

Shag'ol dedi:

— Xo'p, yillar davomida sen yegan bu hayvon va insonlarning ota-onalari yo'qmidi? Ayriliq va hijron dardi ularning qalblariga o't yoqib, yuraklariga dog solmaganmikin? Agar qon to'kish bilan mashg'ul bo'lmaganingda, bunday bir musibat sening boshingga tushmas edi...

Sher bu so'zlarga sabr bilan quloq solib, ularning to'g'ri ekanligini angladi. Qonxo'rlikdan voz kechib, go'sht yemoqni tark etdi va mevalar bilan kun kechira boshladi...

Shag'ol o'z nasibasi bo'lgan mevalarning ozayib ketayotganini ko'rib, juda xafa bo'ldi. Ularni sher yeb qo'yayotganligini bilib dedi:

— Qorin to'ydirishning xo'p oson yo'lini topib olibsan. Endi sen o'zingdan zaif hayvonlarning nasibasini tortib ola boshlading. Senga meva chidaydimi? Sal o'tmay barcha mevalar tugaydi, ko'p hayvonlar ochlikdan halok bo'ladilar. Chunki ularning taomlariga dahshatli bir sherik paydo bo'ldi. Sening go'sht yeyishing jonivorlarni dahshatga solganidek, meva yeyishga o'tishing ham ularni tashvishlantirmoqda. Baribir sendan xalqqa avval ham zulm va sitam yetar edi, hozir ham. Sening ahvoling maymunning mevasini yeb qo'ygan cho'chqaning holiga o'xshaydi.

Sher so'radi:

— Cho'chqaga nima bo'пти?

Shag'olning hikoyati

Bir maymun o'z hamjinslaridan chetlanib, o'rmonning bir burchagida yashar edi. Bu o'rmonda bir necha anjir daraxti bo'lib, ular faqat yozdagina hosil berar edilar. Maymun har kuni anjir qoqib to'ygunicha yer, qolganini quritib qishga g'amlab qo'yar edi.

Maymun bir kuni o'z odati bo'yicha anjir daraxtiga chiqib, anjir terayotganida tasodifan bir cho'chqa ovchidan qochib, bu yerga kelib qoldi. Maymunning ko'zi cho'chqaga tushib, kayfi uchib ketdi. Cho'chqa ham

maymunni ko'rish bilan, marhabo, deb salom berdi. Maymun esa istehzo bilan dedi:

— Agar ilgariroq odam yuborib xabar bersalar edi, ziyofat tayyorgarligini ko'rib qo'yar edik. Endi yaxshi kutib olmasak, aybga buyurmagaysiz.

Cho'chqa dedi:

— Men uzoq yo'ldan kelyapman, nima bo'lsa ham ishtaha bilan yeyman. Takalluf qilmay, bor narsangni olib kel.

Maymun anjir qoqib berdi. Cho'chqa ishtaha bilan yeb oldi, lekin to'ymadi.

U maymunga dedi: — Ey mezbon, qornim to'ymadi, nafsım qonmadi, boshqa daraxtni qoqib ber.

Maymun og'rına-og'rına yana bir daraxtni qoqib berdi. Cho'chqa hayal o'tmay hamma anjirni yeb tugatdi, keyin boshqa daraxtga ishora qildi.

Maymun dedi:

— Ey aziz mehmon, insofni unutma. Bir oylik ovqatimni menga berdim. Bundan ortiq karam ko'rsata olmayman.

Cho'chqa g'azabga kelib dedi:

— Sen necha yillardan beri bu o'rmonda yashab, mevalarni yeb kelasan. Endi o'rmondagi mevalarning barchasi mening nasibamdir.

Maymun dedi:

— Birovning mulkini zo'rlik bilan olish shumlik hisoblanadi. Zo'ravonlikning oqibati yaxshi bo'lmaydi. Zaiflarga ozor berish, begunohlarni ranjitish yaxshi emas.

Cho'chqaning jahli chiqib:

— Men seni hozir daraxtdan tushirib, jazongni beraman, — dedi va daraxtga tarmashdi. Bir shoxga oyoq qo'ygani edi, shox sinib, yiqilib tushdi va halok bo'ldi.

Bu masalni shuning uchun keltirdimki, sen ham cho'chqaga o'xshab, boshqalarning rizqini zo'rlik bilan tortib olsang, jamoat ochlikdan o'lsa, sen ham jazongni tortasan.

Sher bu so'zlarni eshitgandan so'ng meva yemoqni ham tark etdi, toat-ibodat bilan mashg'ul bo'ldi.

Insonlarga aziyat berib, qilgan ishining oqibatini tushunmagan, o'z boshiga falokat kelgandan keyingi xatosini anglab, zulmni tark etgan odam haqidagi afsohadan iboratdir.

ZOHID VA MEHMON BOBI

Roja brahmanga dedi:

— Boshqalarga zulm qilib, o'ziga baxtsizlik yuzlandi-
gundan keyingina tavbasiga tayangan odam haqidagi
masalni eshitdim. Endi shunday bir qissa aytib bersangki,
unda o'z hunarini qo'yib boshqa bir hunarga yopishgan,
so'ngra bu yangi mashg'ulotning uddasidan chiqa-
olmasdan o'zining avvalgi hunariga qaytishni istagan,
lekin uni ham eplay olmay arosatda qolgan odam haqida
hikoya qilinsin.

Brahman dedi:

— Har ishning o'z odami bor. Kim o'z qo'lidan keladigan
ishini tashlab, qo'lidan kelmaydigan bir ishga yopishsa,
albatta muvaffaqiyatsizlikka uchrab rasvo bo'ladi, keyingi
pushaymoni yordam bermaydi. Deydilarki: «Hunar yoddan
chiqmasa-da, lekin nozik tomonlari unutiladi». Inson o'z
ishini yaxshilab o'rganib, uni hech qachon qo'ldan bermasligi
kerak. Bo'lmag'ur xayollarga berilib shoxdan shoxga
qo'nmasligi, har qanday gulning go'zalligiga uchmasligi
kerak. Bunga misol qilib, quyidagi hikoyani keltirsa bo'ladi.

Roja so'radi:

— U qanaqa hikoya?

Brahmanning hikoyati

Qinuch degan viloyatda toat-ibodat bilan mashg'ul
bo'lgan bir zohid yashar edi. Bir kuni uning uyiga
mehmon keldi, zohid uni samimiy kutib oldi. Hol-ahvoi
so'rashgach, mehmonning qayerdan ekanligini va qayerga
ketayotganligini surishtirdi.

Mehmon javob berdi:

— Sarguzashtlarim juda uzun. Sizga malol kelmasa,
aytib beray.

Zohid dedi:

— Kimki qissaga quloq solsa, albatta, uning har biridan
o'ziga hissa oladi. Ko'rgan-bilganlaringizni va har bir
nafardan olgan foyda va zararingizni so'zlab bering.

Mehmon dedi:

— Mening aslim farangdir. O'z yurtimda og'ir mehmon bilan tirikchiligimni o'tkazaman. Mening bir dehqon do'stim bor edi. U menga yordam qilib, qarzga g'alla beth turar, pulimni ber deb shoshirmas edi. Bir kuni meni u bog'iga chaqirib mehmon qildi va qizg'in suhbat asnosida mendan so'radi:

— Sen o'z kasbingdan qancha foyda olasan? Sana yang qancha-yu, foydang qancha?

Men o'z ahvolimni qisqacha bayon qilib dedim:

— Do'konimdagi dastmoyam yigirma xarvar¹ g'alladur, undan oladigan foydam oilamga yetib turadi.

Dehqon dedi:

— Yo'g'-e, foydang ko'proq bo'lsa kerak?

Men dedim:

— Sening hunaring qancha foyda beradi?

U javob berdi:

— Mening dastmoyam kam bo'lmasa ham, foydasi benihoyadir, Ozgina urug' sepib ko'p hosil olaman.

Men hayron bo'ldim va dedim:

— Qanaqa qilib?

Dehqon dedi:

— Taajjub qilma, bir dona boshqoq hech narsa emas, lekin undan ancha bug'doy undirib olsa bo'ladi. Kasbim juda foydali. — Dehqonning bu so'zlarini eshitgandan so'ng do'konni berkitib dehqonchilik qilmoqchi bo'ldim.

Buni mahallamizdagi bir shayx eshitib qolib, meni chaqirtirdi va dedi:

— Sen o'z kasb-koringga qanoat qil. Undan ortig'ini istama. Xirs shumlik keltiradi.

Men dedim:

— Ey shayx, men foydasi ko'proq ish bilan shug'ullanmoqchiman. Shunda tirikchiligim osonlik bilan o'tadi deb o'ylayman.

¹ Xarvar — bir eshak ko'taradigan yuk (og'irlik o'lchovi).

Shayx dedi:

— Ko'p muddatdan beri shu kasbing bilan kuning o'tib yuribdi. Dehqonchilik kuch va mehnat talab qiladi. Boddalik qilma va o'z ishingni tashlama. Kimki o'z kasbini ushlab, nomunosib ishga yopishsa, qarg'aning boshiga tushgan savdo uning ham boshiga tushadi.

Men so'radim:

— Qarg'aning boshiga nima savdo tushibdi?

Shayxning hikoyati

Bir kir yuvuvchi bor edi. U har kun suv labida kir yuvar va o'sha suvda qurt-qumursqalarni tutib yeb yuradigan bir g'ozni ko'rar edi. Bir kuni bir lochin semiz kaklikni tutib kelib, go'shtidan biroz yedi-da, qolganini tashladi. Uni ko'rib g'oz o'ziga-o'zi dedi: «Bu qush kichkina jussasi bilan katta qushlarni tutib yeydi, men bo'lsam shu shakl va haybatim bilan mayda-chuyda narsalarga qanoat qilib yuribman. Endi kattaroq kabutar, kakliklar tutishga harakat qilay».

Shu vaqt kabutar suv labiga qo'nmoqchi bo'lgan edi, g'oz uning ketidan quvdi. Ammo kabutar chap berib uchib ketdi. G'oz suv labiga yiqildi, oyog'i loyga botib qoldi. Qutulishga harakat qilib zo'r bergan sari battarroq bota boshladi, kir yuvuvchi yugurib kelib uni ushlab oldi-da, uyiga olib ketdi. Yo'lda uchragan bir do'sti undan so'radi:

— Qo'lingdagi nima?

Kir yuvuvchi dedi:

— Bu lochin ishini qilmoqchi bo'lgan g'oz o'z ehtiyojidan ortiqcha narsa ketidan yugurib o'z hayotini barbod qildi.

Bu masalni shuning uchun keltirdimki, bilib qo'y: o'z ishing bilan mashg'ul bo'lmay, senga to'g'ri kelmaydigan hunarga yopishmoqchi bo'lsang, oqibati xuddi shunday bo'ladi.

Shayx bu masalni aytib bergandan keyin, dehqonchilikni yana ham ortiqroq orzu qila boshladim.

Uning so'zlarini quloqqa olmadim. O'z ishimni tashlab dehqonchilik bilan shug'ullana boshladim. Don sepi, hosilini kutib o'tirdim. Bu orada ro'zg'orim tang bo'lib qoldi, chunki do'kondan har kuni ozgina foyda qo'lga kiritib, uyga xarajat qilar edim, endi esa hosil olguncha yarim yil kutishim kerak bo'ldi. O'z-o'zimga dedim: «Katta xato qildim. Ulug'lar so'ziga quloq solmadim. Yaxshisi birovdan ozroq pul qarz olib, avvalgi ishimni boshlab yuboray. Shundan keyin shaharda o'ziga to'q bir odamdan pul qarz olib, yana do'kon eshigini ochdim. Gumashta soldim. O'zimga goh dehqonchilik bilan, goh do'kon ishi bilan shug'ullana boshladim. Shu ahvolda ikki oy o'tdi. Bir kuni dalaga chiqib ketgan edim, gumashta xiyonat qilib dastmoyanni o'g'irlab ketibdi. Qo'limda qolgan pul qarzni to'lashga ham, kun kechirishga ham yetmas edi. Fursatni g'animat bilib, bu kun kechasi shahardan qochib ketdim. Ko'p ranju alamlar tortib uzoq joylarga bordim. Bir qancha vaqt o'tgandan keyin bola-chaqam o'lib ketganini eshitdim. Uy-joyim va qolgan bisotimni qarz berganlar bo'lishib olibdilar. Mana endi men vatanga qaytmoqdan noumid bo'lib, manzilmu-manzil sargardon bo'lib yuribman. Bu sarguzashtlarimning bir shingiliginadir.

Zohid dedi:

— So'zlaring rostga o'xshaydi. Necha yillab vatandan uzoqda — judolik dardini tortib, safar mashaqqatini chekibsan, achchiq-chuchukni totib, yaxshi tajribalar orttiribsan. Bundan keyin farog'at bilan yashagaysan.

Suhbatdan so'ng zohidning buyrug'i bilan keltirilgan xurmoni yeya boshladilar.

Mehmon dedi:

— Bizning yerlarda juda shirin va lazzatli mevalar ko'p. Xurmo biroz badhazm bo'lsa ham, lekin g'oyat shirin mevadir. Afsuski bizning viloyatlarda o'smaydi.

Zohid dedi:

— Xohlagan narsasiga muhtoj bo'lganni baxtli deb bo'lmaydi. Orzu qilgan narsasiga erishmagan odam saodatmand emas.

Yolg'iz orzu qilish bilangina qanoatlanib, unga erishish uchun harakat qilmaslik aqlga xilofdir.

Zohid o'tkir notiq edi. Aramiy tilini yaxshi bilardi. Uning tilda juda chiroyli so'zlashi mehmonga yoqdi. Mehmon bu tilni bilmasa ham, ko'pincha shu tilda so'zlang, deb aliddan iltimos qilar edi. Zohid fasohat va balog'at bilan mehmonga shu tilda gapirar edi. Oxiri mehmon uni o'rganishni orzu qilib qoldi.

Bir kuni u zohidga dedi:

— Yomon ko'zdan asrasin, juda chiroyli gapirasiz. Men shu vaqtgacha bunday fasohatli bir so'z, bunday balog'atli bir jumla eshitmagan edim... Sizdan iltimos qilaman: menga shu tilni o'rgatsangiz.

Zohid dedi:

— Jonim bilan. Bizning tilimizni o'rganishni oshlaganingiz uchun faxrlanaman, agar jazmingiz qat'iy bo'lsa, men mehnatimni ayamayman.

Mehmon uzoq muddat bu tilni o'rganish bilan mashg'ul bo'ldi. Ko'p vaqt sarf etdi, ko'p aziyat chekdi. Lekin hech narsa chiqmadi. Bir kuni zohid unga dedi:

— Bu juda qiyin ish... Kuchi yetmagan ishga yopishgan va o'ziga yarashmagan kiyim kiygan odam kulgi bo'ladi. Chunki ona tilini unutib, ota-bobolarining odat va qonunlarini tark etsa shunday bo'ladi.

Mehmon dedi:

— Ajdodlarining zararli odatlariga taqlid etmoq ham nodonlikdir. Fazilat egalarining bilim va hunarlarini o'rganmoqqa intilish esa yetuklikdan dalolat beradi.

Zohid dedi:

— Men o'z burchimni bajardim. Aytish mumkin bo'lgan gaplarning hammasini gapirib o'tdim. Siz tag'in kaklik qilishini o'rganmoqchi bo'lgan zog'ga o'xshab qolmang.

Mehmon so'radi:

— Unga nima bo'lgan ekan?

Zohidning hikoyati

Bir kun bir zog' bir kaklikni ko'rdi. Uning noz va g'amzu bilan yurishi zog'ga yoqib qoldi. U ham kaklikning yurishini o'rganmoqchi bo'lib, uning izidan qolmasdan butun harakatlariga taqlid qildi, lekin bundan hech narsa chiqmadi. U kaklikning yurishini ham o'rgana olmadi, o'z yurishini ham unutdi.

Bu masalni shuning uchun keltirdimki, yaxshilab bilib oling: bekorga o'zingizni o'zingiz qiynab yurmang, aramni tilini ham o'rgana olmaysiz, o'z ona tilingizni ham unutasiz.

Aytibdurlar: eng nodon odamgina qo'lidan kelmaydigan ishga yopishadi. Bu masalada ayniqsa, shohlar ehtiyot bo'lishlari kerak. Raiyat ahvolini yaxshilash, dushmanlarni tor-mor keltirish fikrida bo'lgan hukmdor iste'dodsiz, qo'lidan ish kelmaydigan shaxslarni o'zlariga munosib bo'lmagan vazifalarga qo'ymasligi va xizmatchilarning bir vazifadan ikkinchi vazifaga ko'chaverishlariga yo'l qo'ymasligi kerak. Davlat ishlarida har odamning o'z o'rnini to'g'ri belgilay olish buyuk mahorat talab qiladi.

Iste'dodsiz, nodon va razil odamlar yuksak mavqega chiqib olishga urinsalar, bu narsa odat shakliga kirsam, idora ishlarida buzg'unlik ro'y beradi, axloq buziladi va pastkash odamlar bilan iste'dodli odamlar orasida nizo boshlanadi. Natijada podshohlarga itoatsizlik kabi xatarli hodisalar yuz beradi.

O'z hunarini tashlab, qo'lidan kelmaydigan ishga yopishgan odamning qanday ahvolga tushishi haqidagi hikoya shundan iborat.

BILOR VA BRAHMANLAR BOBI

Roja dedi:

— O'z hunarini tashlab har maqomga yo'rg'alagan, natijada hech narsaga erisholmagan odam haqidagi hikoyani eshitdim. Endi menga mamlakatni idora etish va davlatni mustahkamlash uchun podshohlarning qanday xususiyatlarga ega bo'lishini, beozorlik, saxovat va shijoatdan qaysi biri eng yaxshi fazilat ekanligini bayon qiluvchi hikoyani lutfan aytib bersang.

Brahman dedi:

— Shohlarning qudrat va shavkatidan dalolat beruvchi narsa beozorlik va donolikdir. Ayni zamonda u xalqning oboyishta yashashligi ham davlatning mustahkamligi uchun eng zarur xosiyatdir... Chunki saxiylik bilan biror toifani rozi qilish mumkin, shijoat esa har doim kerak bo'lavermaydi. Beozorlik va donolik esa hammavaqt, ham jamoat bilan muomalada, ham lashkarni va raiyatni idora etishda darkor bo'ladi... Beozorlikning asosiy sharti aqlli va tajribali odamlar bilan maslahatlashmoq, nodon va johil odamlardan qochmoqdir... Chunki hech narsa insonga do'stlik kabi kuchli ta'sir eta olmaydi. Shuning uchun ham otalar debdurlar: «Sen do'stingning kimligini aytib ber, men esa sening kimligingni so'zlab beraman».

Saxiyligi bilan butun dunyoni oltinga to'ldirgan, shijoat bilan urushlarda g'olib chiqqan kishi beozorlik xislatidan mahrum bo'lsa, bir nojo'ya harakat bilan bularning hammasini yo'qqa chiqarib yuborishi mumkin. Lekin saxiyligi va jasurligi bo'lmasa ham, muloyim va dono bo'lsa, shu bilan hammaning ko'nglini olishi, hatto dushmani ham bartaraf qilishi mumkin. Shunisi ham borki, birgina beozorlikning o'zi yetmaydi, beozorlik iroda va qat'iyat bilan birga bo'lsa yaxshi, bu xislatlar bo'lmasa beozorlikning o'zi nuqson hisoblanadi. Agar shoh bu narsani nazaridan qochirsa, uning hayotdan olgan lazzati, mamlakatni idora etish ishlarida qozongan muvaffaqiyatlari arzimagan bir g'azab tufayli yo'q bo'lib

ketadi. Ma'lumki, shohlarning baxt-tolei ularning aql va kamoliga, vazirlarning tadbir va sadoqatiga bog'liqdir. Podsho olim va beozor bo'lsa, uning vaziri ma'rifatli bo'ladi, u barcha murod-maqсадlariga erishib, har ishda g'alaba qozonadi. Qaysi tarafga yuz o'girsas, baxt va davlat uning ketidan yuradi. Butun quloqlar uning ovoziga, ko'zlar uning ishorasiga muntazir bo'lib turadi. Agar podsho aqlli vazirning tadbir va maslahatlari asosida ish olib borsas, baxtsizlik va falokatdan omon qolishi mumkin. Bunga misol qilib hind shohi bilan brahmanlar orasidagi mojaroni bayon etuvchi hikoyani keltirish mumkin.

Roja so'radi:

— U qanday hikoya?

Brahmanning hikoyati

Hind viloyatlaridan birida bir Hemlon nomli podsho bo'lgan. Bir kuni kechasi u yetti marta yetti xil tush ko'rib, qo'rqib uyg'ondi, quyrug'i qirqilgan ilon kabi to'lg'anib, chayon chaqqan odamdek betoqat bo'lib chiqdi. Tong otgach, shoh brahmanlarni chaqirib, ko'rgan tushlarini ularga aytib berdi va ta'birini so'radi. Brahmanlar shohning so'zlarini diqqat bilan eshitib dedilar:

— Juda dahshatli tushlar ko'ribsiz, agar ijozat bersangiz, biz biror soat xilvatga chekinib, kitoblarga murojaat qilsak, keyin tushlar ta'birini aytib, najot yo'llarini ko'rsatib bersak...

Shoh dedi:

— Boring, ijozat!

Ular shohning huzuridan chiqqach, xilvat xonaga yig'ilishib, bir-birlariga dedilar:

— Bu zolim shoh oz vaqt ichida bizlardan o'n ikki ming odamni o'ldirdi. Endi bu tushini bizga aytib berib, qo'limizga tushdi. Agar o'lkamizda tushni ta'bir qila oladigan birorta boshqa odam bo'lsa edi, u bizga murojaat qilmagan bo'lardi. Endi fursatni g'animat bilib, jadal bir tadbir ko'rmog'imiz, intiqom olmog'imiz lozim. Eng

yaxshisi shuki, bu tushga dahshatli ta'bir berib, uni shunday qo'rqitaylikki, so'zimizdan chiqmay, nima desak, shuni qilishga majbur bo'lsin. Biz unga shunday deyaylik: «Yaqin qarindoshlaring va vazirlaringdan ba'zilarini o'z ko'zing o'ngida qilichdan o'tkazmasang, falokatni boshingdan daf qilib bo'lmaydi». Agar kimlarni qatl etish zarurligini so'rasa, shunday deb javob beraylik: «Aziz o'g'ling, xotining Eronduxt, vaziring Bilor, munshing Kamol, minadigan oq filing, eng sevimli ikki kulrang filing, so'ngra bir kechada mamlakatning bu boshidan kirib, u boshidan chiqib keta oladigan tuyang». U bularning hammasini qilichdan o'tkazgandan keyin, shu qilichini o'ndirib, ular bilan birga ko'mib tashlasin. So'ngra oqqan qonlarni bir chuqurga yig'ib, podsho uning ichida bir soatcha o'tirsin. Chuqurdan chiqqanda bizlardan to'rt brahman to'rt tarafdin duo o'qib unga dam solishlari va bodanini yuvib qondan tozalashlari kerak. Shundan keyin uni ko'tarib, sekin-asta o'z taxtiga o'tqazaylik. Agar u shu aytganlarimizning hammasini qilsa, tushida ko'rgan gunohlari yuviladi, agarda qilmasa, unga bir katta balo yuzlanadi: yo podshohlikdan mahrum bo'ladi, yo hayotidan. Agar u bizning shu so'zlarimizga amal qilsa, undan yaxshilab intiqom olgan bo'lamiz. U yolg'iz o'zi qoladi, keyin biz o'z ishimizni bilib qilamiz.

Ular so'zni bir yerga qo'ygandan so'ng, shohning yoniga keldilar va yuqoridagi so'zlarni aytdilar. Shoh ularning ta'birini eshitgandan keyin g'azabga kelib dedi:

— Sizning so'zingizga kirgandan ko'ra o'lganim yaxshidir. O'z hayotimdek aziz va shirin bo'lgan farzandim va yaqin odamlarni o'ldirgandan so'ng, yashamog'imning nima foydasi bor? Ma'lumki, hayot abadiy emas, hammaning boshida o'lim bor.

Mening ham ertami-kechmi o'lishim aniq. Siz bundan ko'ra yaxshiroq boshqa bir tadbir toping...

Brahmanlar dedilar:

— Shohimiz sog'-salomat bo'lsinlar, haq so'z achchiq va to'g'ri maslahat og'ir bo'ladi. Sadoqatli odamlarning

nasihatiga quloq osing. Mashhur masalda debdurlar: «Kuldirib gapirganlar emas, achitib gapirganlar soʻziga quloq sol». Shoh oʻz jonini va molini hamma narsadan ustun qoʻyishi, bu ishda taraddudlanmasdan tez harakat qilishi lozim... Agar shoh sogʻ boʻlsa, unga xotin ham topiladi, farzandlar ham. Shuningdek, hokimiyat boʻlsa, unga dono vazirlar ham topiladi.

Shoh bu soʻzlarni eshitib juda xafa boʻlib ketdi. Ularning yonidan turib uyiga kirdi, yigʻisini toʻxtata olmay, quruqlikka otilgan baliqdek tipirchilab oʻz-oʻziga der edi: «Agar aziz yoronlarimdan voz kechsam, rohat va farogʻatdan benasib boʻlaman. Umr bevafo, inson hayoti bebaqo, toj, davlat oʻtkinchi narsadir. Koʻzimning nuri, yuragimning parchasi, belimning quvvati, oʻlimimdan keyin davlatimning vorisi boʻlgan oʻgʻlimni halok qilsam, menga shohlikning nima keragi bor?! Davlatim dushman qoʻliga oʻtib ketadi. Oʻgʻlim ham shunday bir oʻgʻilki, uning aql va farosati koʻzidan, baxt tolei esa peshanasidan koʻrinib turadi.

Bolaning onasi, jamoli quyoshdek porloq, yuzi oydek nurafshon, suhbat shirin, nazokatli, sof vijdonli Eronduxtdan ajralsam, mening hayotim zaharga aylanadi-ku.

Insonlarning eng donosi, hunar egalarining eng isteʼdodlisi, gʻaddor falakning sirlaridan boxabar vazirim Bilor boʻlmasa, kim davlat ishlarini tartibga soladi, boj-xiroj yigʻib, xazinani kim toʻldiradi?

Oʻz fasohat va balogʻati bilan dunyoni hayratda qoldirgan, har soʻzi inju, har satri bir marvarid shodasi boʻlgan kotib Mirzo Kamol boʻlmasa dunyo hodisalarini kim qalamga oladi?!

Dunyoni koʻruvchi koʻzim, boʻlib turgan gaplarni eshituvchi qulogʻim boʻlgan bu ikki mulozimim boʻlmasa, mamlakatni qanday qilib idora etish mumkin?

Ohu kabi tez yuguradigan, tosh qalʼa kabi mustahkam, kuchli oq filim boʻlmasa, men dushman oldiga qanday qilib chiqa olaman?

Bulut kabi bahaybat, yashindek tez, xartumlari tog' tepasidan tushib kelayotgan ajdahoga, kallasi dengiz bo'lqinlari orasidan bosh chiqarib turgan nahangga o'xshagan, urush vaqtida qo'shinlarni sel kabi oldiga solib haydaydigan u ikki filim bo'lmasa, men jang kunlarida qanday qilib g'alaba qozona olaman?

Sabo yelidek uchqur u Xuroson tuyasi bo'lmasa, men mamlakat ishlaridan qanday qilib xabar topaman?

Sadafli dastasi osmondagi «Somon yo'li»dek porlagan, qayrilma tig'i qarshisida hech narsa bardosh bera olmagan, mamlakatimiz shon-sharafining himoyachisi, chaqmoq kabi kesgir qilichim bo'lmasa, men nima qila olaman?!

Men aziz, mehribon yordamchilarimni qo'ldan bergandan keyin bu davlat va noz-ne'matdan lazzat ola bilarmidim?! Yaqin odamlarning firoqi ichib bo'lmaydigan achchiq bir sharob, chidab bo'lmaydigan og'ir bir darddir. Yordamchilari va xizmatchilari bo'lmagan bir odam buyuk va mas'uliyatli ishlarni qanday qilib bajara oladi?!»

Xullas, shohning fikrga tolib, iztirob chekayotganini ko'rgan fuqaro: «Podshohimiz boshiga bir musibat tushganga o'xshaydi», deb gapira boshladi. Bu xabar podshohning vaziri Bilorga yetganda, u o'z-o'ziga dedi: «Shoh meni chaqirmadi, shuning uchun men o'zim uning yoniga borib hol so'rasam, yaxshi bo'lmaydi, mulozimlik, tasm-odatlarini buzgan bo'laman. Beparvolik qilsam, vafosizlik bo'ladi».

Keyin u shohning xotini Eronduxtning qoshiga bordi va dedi:

— Ajib bir voqea yuz berganga o'xshaydi. Shu vaqtgacha shoh birorta sirni mendan yashirmagan edi. U men bilan maslahatlashmasdan hech ish boshlamas edi. Lekin oxirgi vaqtda u bir-ikki marta brahmanlarni o'z huzuriga chaqirdi va ular bilan suhbat o'tkazdi. Shundan keyin g'amboda bo'lib qoldi. Siz bu o'lkaning malikasi, qo'shin va xalqning umidisiz. Shohning saxovat va karamidan keyin hamma sizning marhamat va

shafqatingizga ko'z tutadi. Bu hiylakor brahmanlar bir ish qilib qo'yib, uning oxiri rasvolik va pushaymonlik bilan tugamasa deb qo'rqaman. Siz shohning yoniga borib, nima gap o'tganligini bilib, menga xabar qiling, men shunga qarab tadbir ko'ray.

Eronduxt dedi:

— Shoh bilan oramizda bir gap o'tgan edi. Shuning uchun men uning yoniga kira olmayman.

Bilor dedi:

— Shoh shu qadar iztirob chekayotganida raiyatning gina saqlashiga haqqi yo'qdir. Men aytgan narsani sizdan boshqa hech kim bajara olmaydi. Men bir necha marta shohning: «Xafa bo'lgan vaqtlarimda Eronduxt yonimga kelsa, xursand bo'lib ketaman», deganini eshitganman. Boring, sirini bilib oling. Shu bilan butun saroy ahli, shoh mulozimi va mahramlari oldida katta ish qilgan bo'lasiz.

Eronduxt rozi bo'ldi. U shohning huzuriga kirib, ta'zim qildi va dedi:

— Nega bunchalik fikr daryosiga g'arq bo'libsiz, u mal'un brahmanlardan nimaiki eshitgan bo'lsangiz, hammasini aytib bering. Fuqarolar ham siz bilan hamdard bo'lsinlar.

Shoh dedi:

— Bu shunday narsaki, uni eshitsang dorudunyong qorong'i bo'lib ketadi, shuning uchun so'ramay qo'ya qol.

Eronduxt dedi:

— Shohimni xafa qilgan bir sabab bor. Agar shunday sabab bor bo'lsa, sizdan jonini ayamaydigan do'stlaringiz bilan maslahatlashing. Sabr va sovuqqonlik insonning eng yaxshi fazilati ekanligini shohim biladi. Aytibdurlarki: «Musibat to'zimli odamga bir, to'zimsiz odamga esa ikki hissa og'ir tuyuladi». Sizning g'amgin bo'lishingizga hech bir asos yo'q. Nima istasangiz hammasi bor. Hamma sizning farmoningizga mute, amringizga tobe.

Katta hodisalar ro'y berganda aql bilan falokatning oldini olgan, sarosimaga tushmagan odam baxtiyordir. Inson ojiz qolgan vaqtda yaqinlari bilan maslahatlashishi

kerak. Aql va irodaga tayanmagan odam bunday paytlarda najot topa olmaydi.

Shoh dedi:

— Agar togʻning qulogʻi boʻlsa-yu, brahmanlar aytgan oʻzlardan birini eshitsa, parchalanib ketardi, falak eshitsa, harakatdan toʻxtardi, quyosh tutilar, oy qorayib ketardi... Sen ham eshitsang, diling pora-pora boʻlardi. Bu malʼun brahmanlar koʻrgan tushim taʼbirini aytib, halokatdan xalos boʻlishim uchun seni, oʻgʻlimni, butun sadoqatli xizmatchilarni, oq filni va yana boshqa ikki filni, Xuroson tuyasini, xullas, nimaiki yaxshi narsam bor boʻlsa, hammasini halok qilishimni taklif etdilar.

Eronduxt farosatli va hushyor ayol boʻlganidan oʻzini yoʻqotmasdan dedi:

— Shohim shu gap uchun xafa boʻlib, iztirob chekmasliklari kerak. Bandalarining joni shohiga qurbon boʻlsin. Agar shohim sogʻ boʻlsa, xotin ham, farzand ham, davlat barqaror boʻlsa, qul ham, mulozim ham topiladi. Ammo nohaq qon toʻkmoq ogʻir gunohdir, shoshib qilingan ishning oqibati pushaymonlik boʻladi. Oʻtmishni qaytarib, oʻlikni tiriltirib boʻlmaydi. Brahmanlarning shohga doʻst boʻla olmasliklarini ham yodga solib oʻtay. Toʻgʻri, ular ilmi odamlardir, lekin olim boʻlishning oʻzi — sodiq boʻlish degani emasdir. Ilmi bor ekan deb brahmanlarga ishonmoq va ularga sir aytib, maslahat olmoq yaxshi natija bermaydi. Razil va chirkin odamlarni ilm fazilatli qila olmaydi, davlatga erishib ular sadoqatli boʻlib qolmaydi. U murdor brahmanlar fursatdan foydalanib, shohdan qasos olish, yuraklaridagi kin va gʻazab olovlarini soʻndirib oʻz dardlariga shifo topish maqsadida tushni qasddan mana shunday taʼbirlaganlar. Ular avvalo shohning koʻzini oqu qorasi boʻlgan, manglayidan aql va kamol asari koʻrinib turgan yolgʻiz oʻgʻlini halok qilishni istaydilar, soʻngra shohning sadoqatli xizmatchilarini halok etish, fili, tuyasi va otini yoʻq qilish orzusidadirlar. Ammo mening unchalik ahamiyatim yoʻq, chunki shoh xizmatida mendaqalar koʻp. Shoh brahmanlar taklifini qabul etib,

bir zarba bilan o'z yaqinlari va mulozimlarining hammasini halok qilsa, yolg'iz o'zi qoladi, shundan keyin brahmanlar shohimdan istaganicha qasos oladilar. Ko'rgan tushingizni va brahmanlar ta'birini sadoqatli, tajribali, dunyo ko'rgan, kelajakni tushunadigan Koridun hakimga aytib bersangiz yaxshi bo'lardi. U garchi brahmanlar toifasidan bo'lsa ham, o'zi yumshoq tabiatli va dono kimsadir. Bu ikki fazilat birlashsa dunyoda undan yuksak narsa bo'lmaydi... Agar uning ta'biri brahmanlarning aytganlariga to'g'ri kelsa, shak va shubha oradan ko'tariladi. Aksincha bo'lsa, shohning komil aqli yolg'on bilan rostni, haq bilan nohaqni ajrata biladi. Shundan keyin shoh farmonini amalga oshirishga to'siqlik qiladigan hech narsa qolmaydi.

Bu so'z shohga ma'qul tushdi. Shoh darhol otga minib, Koridun hakim qoshiga bordi. Unga salom berib, bosh egganicha turib qoldi. Koridun dedi:

— Bu yerlarga shohning qadam ranjida qilishlarining boisi nima? Amr etganlarida men o'zim shohning xizmatlariga borar edim... Nima uchun shohimning muborak yuzida hayajon va tashvish alomatlari ko'rinadi?

Shoh ko'rgan tushini va brahmanlar ta'birini unga batafsil so'zlab berdi. Koridun shohning aytganlarini oxirigacha tinglab dedi:

— Bunda xatoga yo'l qo'yilibdi. Brahmanlar tushga noto'g'ri ta'bir berganlar. Ularda na aql va ma'rifat bor, na insof, na muruvvat. Shohim bu tushdan shod bo'lishi kerak, shukur qilib sadaqa bersalar arziydigan tush. Tushning ta'biri quyidagichadir: ikki qizil baliq — Nohovand shohining sizga yuborayotgan ikki elchisi va ustiga to'rt sandiq yoqut yuklangan ikki filidir; podshohimning orqasidan uchib o'tgan ikki o'rdak Balx podshohining sizga in'om qilgan ikki oq otidir; shohimning chap oyog'iga chirmashgan ilon Chin hoqonining sizga yuboradigan qilichidir; shohimning o'zini qonga belangan ko'rgani — Kazrun viloyatidan yuborilayotgan,

qimmatbaho toshlar bilan bezangan qizilrang libosdir; shohimning tushidagi oq tuya — Butxonagar shohining shohim xizmatiga yuborgan bir oq filidir; shohning boshida porlagan narsa Arzan shohining hadya qilib yuboradigan tojidir; shohimning boshini cho'qigan qush nimaga ishora ekanligini bilish uchun biroz sabr qilish kerak. Lekin uning zarar va ziyoni deyarli yo'q — bu shohning yaqin odamlaridan birining ba'zi bir noroziligiga ishoradir. Shoh ko'rgan tushlarining ta'biri shundan iborat. Yetti marta tush ko'rganingiz yuqoridagi hadyalarni keltirayotgan elchilarning yetti kunda shohim dargohlariga yetib kelishlarini ko'rsatadi. Bundan buyon shoh noahil odamlarga sir aytmasligi kerak.

Shoh bu so'zlarni eshitib, o'zida yo'q sevindi. Qo'lini ko'ksiga qo'yib shukurlar qildi. Koridunga tashakkurlar aytib, shodu xurram saroyga qaytdi. Yetti kundan keyin elchilar ketma-ket tuhfar bilan yetib keldilar... Shoh sevinib dedi:

— Tushlarimni dushmanlaringa so'zlab katta xato qildim. Eronduxtning nasihat va maslahatlari bo'lmaganda, bu tushlarning oqibati dahshatli bo'lar edi. Kimning aqli boshida bo'lsa, samimiy do'stlar, sadoqatli mulozimlarining maslahatlariga quloq soladi. So'ngra yuzini o'g'liga, vaziriga va mirzosiga o'girib dedi:

— Bu hadyalar xazinaga olib borilmasin, ularni shu yerda bo'lishib olinglar, chunki siz juda katta bir tahlika ostida qolgan edingiz. Eng qimmatbaho hadyani Eronduxt oladi. Bu baloning oldini olishda u buyuk fidokorlik ko'rsatdi.

Bilor dedi:

— Xizmatchilar biror hodisa ro'y berganda, o'zlarini baloga qalqon qilib, hukmdorlari uchun jon fido qilishga tayyor bo'lishlari va bu bilan faxrlanishlari kerak. Hamma narsa podshohning toleiga bog'liqdir; xizmatchilar o'z-o'zlaricha, hukmdorning dasturilamali va yordamlarisiz bir narsa qila olmaydilar. Lekin fidokorlik ko'rsatish kerak bo'lib qolganda, ular hammadan oldin o'zlarini maydonga

tashlashlari kerak... Mulozimlardan birining baxti kullib, bunday fidokorlikdan keyin sog'-salomat qolsa, o'z boshlig'idan mukofot kutmasligi kerak. Lekin asrimiz malikasi Eronduxtning bu ishda xizmati juda katta bo'lganligi uchun yo javohirlar bilan bezalgan toj yoki qizil libos unga berilishi lozim.

Shoh bu ikki sovg'ani saroyga olib borishni buyurdi-da, o'zi ham o'sha yerga jo'nadi, uning orqasidan boshqalar ham ergashdilar. Shoh toj bilan qizil libosni Eronduxtning oldiga qo'yishlarini amr qildi va unga qarab dedi: «Qaysisini xohlasang, ol». Eronduxtning ko'ziga toj yaxshi ko'rindi, lekin taraddudlanib, Bilor menga qaysisini maslahat ko'rsa shuni olaman, deb unga qaradi. Bilor libosga ishorat qildi. Shoh Bilordan shubhalanib, unga qaradi. Eronduxt Bilor bilan o'zining orasidagi imo-ishorani shoh sezganini bilib, shohning shubhasini tarqatmoq uchun libosni emas, tojni oldi. Ana shundan keyin Bilor qirq yil umr kechirdi va har safar shohning huzuriga kirganda, shohning ko'nglidan shubhasini chiqarib yuborish uchun chetga boqar edi. Shunday qilib, vazirning aqli va Eronduxtning farosati bo'lmasa edi, ularning har ikkalasi halok etilgan bo'lardilar.

Shoh bir kechani Eronduxt bilan, bir kechani Bazmafruz bilan o'tkazar edi. Eronduxtning navbati edi, shoh uning xilvatiga bordi. Go'zal Eronduxt tojni o'zining boshiga kiyib, qo'lida zarrin tovoqda taom tutib shohning oldiga keldi, shoh uning qo'lidan ovqat yeya boshladi. Shu taxlitda ular shirin-shirin so'zlashib o'tirgan edilar, kundoshi Bazmafruz qirmizi rang libosni kiyib ularning yonidan o'tib ketdi. Shoh uni ko'rib, ovqatdan qo'l tortdi. U ko'zlariga ishonmay qoldi, ehtirosining shiddati uning ixtiyorini qo'lidan oldi, o'zini tuta olmay, Eronduxtga qarab dedi:

-- O'sha libosni tanlamasdan xato qilibsan. -- Kundoshiga shohning qiziqib boqqanligini ko'rgan Eronduxt rashk o'tida yonib, o'zini bosib ololmay, qo'lidagi tovoqni shohning boshiga otdi, uning yuz-ko'zini, ust-boshini bulg'atdi.

Koridunning taʼbiri toʻgʻri chiqdi.

Shoh gʻazabga toʻlib Bilorni chaqirtirdi va dedi:

— Bu nodonning tarbiyasizligini qara. Zamon shohini, davron hukmdorini qanday ahvolga soldi-ya! Olib borib boʻynini uz. Bu ahmoq bilib qoʻysinki, uning bunday jasorat qilishga haqqi yoʻqdir.

Bilor Eronduxtni tashqariga olib chiqqandan keyin oʻz-oʻziga dedi:

— Bu ishda shoshilmaslik kerak. Bu misli yoʻq dono, goʻzal xotindir. Men ishonamanki, shoh uning hijroniga chiday olmaydi. Shuncha odam bu ayolning aql va farosati tufayli oʻlim girdobidan qutulib qoldi. Men aniq bilamanki, ertaga shoh, biroz sabr qilsang boʻlmasmidi, deb gʻazablanadi. Shuning uchun shohning qarori qatʼiy boʻlmaguncha men uni oʻldirmay turay. Shoh pushaymon boʻlsa, xotin salomat qoladi, men tashakkur eshitaman: Eronduxtni oʻldirish qiyin emas. Shu bilan uchta xayrli ish qilgan boʻlaman: birinchidan, Eronduxtning hayotini saqlab qolaman; ikkinchidan, shohni xursand qilaman; uchinchidan, xalq ichida hurmat va shuhrat qozonaman.

Shundan keyin u Eronduxtni oʻz uyiga olib kelib, uni podsho haramxonasida ishlovchi sodiq mahramiga topshirdi. Oʻz uyidagilariga uni yaxshi hurmat qilib, xizmatida boʻlishlarini buyurdi. Oʻzi esa qilichini qonga boʻyab, gʻamgin holda shohning huzuriga keldi va dedi:

— Shohning amr-farmonlarini bajo keltirdim.

Shohning gʻazabi biroz sovigan edi, bu soʻzni eshitib, butun vujudi larzaga keldi. Eronduxtning aql va kamoli, goʻzal jamoli uning koʻz oʻngida namoyon boʻldi. Qalbini chuqur qaygʻu qopladi, lekin oʻz hayajon va iztirobini Bilordan yashirishga, pushaymon boʻlganini bildirmaslikka urindi. Amrining rostdan ham bajo keltirilganligini yo keltirilmaganligini soʻrashdan uyalar edi. Shoh vazirning sabrli, dono, yumshoq koʻngilli va tajribali ekanligini bilgani uchun Eronduxtning oʻlimi kechiktirilganligiga koʻnglida ishonar edi, lekin aksini

eshitib qolishdan qo'rqib, uning nomini tilga olishga botinmas edi. Bu masalaning naqadar nozik ekanligini faqat oqil odamlargina emas, hatto nodonlar ham tushunardi.

Vazir shohning yuzida pushaymonlik alamlarini ko'rib, dedi:

— Ey shohim, g'amnok bo'lmang, bekorga tashvish tortishning foydasi yo'q. Xafagarchilik badanni bo'shashtirib, aqlni zaiflashtiradi. Podshohning g'ambodaligini ko'rib, mulozimlar ham qayg'uradilar, dushmanlar xursand bo'ladilar. Sabr qiling, shohim. Agar istasalar men bu hodisaga o'xshagan bir hikoya so'zlab beray.

Shoh so'radi:

— U qanday hikoya?

Bilorning hikoyati

Bir juft kabutar bor edi. Ular uyalarini arpa-bug'doyga to'ldirib qo'ydilar.

Nar modaga dedi:

— Hozir hammayoq o't bilan qoplangan. Yiqqan donlarimizni asrab qo'ysak, qishda kunimizga yaraydi. Moda uning gapini ma'qulladi. Donlar nam bo'lgani uchun, uyaning ichi liq to'lib ketgan edi. Yog'ingarchilik o'tib, yozning issiq kunlari boshlangandan keyin u qurib, kamayib qoldi. Nar kabutar uzoq safarga ketgandi. Qaytib kelganda donning kamayib qolganini ko'rib, modaga dedi:

— Axir buni qish uchun olib qo'ygan edikku, nega yeding?! Moda «men yeganim yo'q» deb qanchalik ont ichmasin, nar ishonmadi, g'azablanib, modani shunday urdiki, bechora shu on jon berdi. Qish kelib, yog'inlar boshlandi, havo namlanib, donlar yana bo'rtib, avvalgidек bo'lib qoldi. Buni ko'rgan nar kabutar faryod qilib, g'amgusor yori firoqida kuyib der edi: «Afsuski so'nggi pushaymondan foyda yo'q».

Aqlli odam nar kabutar kabi hijron o'tida yonishni istamasa, odamlarga jazo berish va ularni qatl etish uchun

shoshilmasligi kerak... Amalga oshiradigan tadbirning natijasini oldindan biladigan, atroflicha o'ylab ish qiladigan adolatli, saxovatli va raiyatparvar shoh baxtiyor sanaladi. Shohning, albatta, bunday nasihatimiz so'zlarga ehtiyoji yo'q. Bu so'zlarni aytishdan maqsadim shuki, shoh bir xotin uchun bu qadar alam chekib, g'amgin bo'lmasin. Saroyda o'n ikki ming xotin bor...

Shoh vazirning bu so'zlarini eshitib Eronduxt qatl qilinibdi, deb tashvishga tushdi va dedi:

— Tasodifan og'zimdand chiqqan bir so'zni hukm deb bilib, bir odamni halok etding. Hikmat egalariga xos bo'lgan sabr va toqatni unutding...

Vazir dedi:

— Ikki toifa odamning boshi g'amdan chiqmaydi: biri — hayotini yomon ishlarga sarf qiladigan; ikkinchisi — imkoniyati bo'lsa ham yaxshilik qilmaydigan odamlar. Ularning hayotida xursandchilikdan ko'ra xafagarchilik ko'p.

Shoh dedi:

— Sendan uzoq bo'lmoq lozimdir.

Vazir dedi:

— Ikki xil odamdan uzoq bo'lmoq lozimdir: biri — qilgan ishining natijalarini hisobga olmaydigan, yaxshi bilan yomonni farq qilmaydiganlar; ikkinchisi — ko'zlarini boshqalarning moliga tikkan, quloqlarini fisq-fasod va g'iybatlarga o'rgatgan, vaqtini aysh-ishrat bilan o'tkazgan yomon nafsli odamlardan.

Shoh dedi:

— Bilor, sen juda hozirjavobsan.

Bilor dedi:

— Uch toifa odamda shunday xosiyat bo'ladi: o'z mol va davlatini lashkar va xalq bilan baham ko'rgan ahohlarda; o'z eriga loyiq bo'lgan xotinlarda; ishi bilan so'zi to'g'ri keladigan olimlarda.

Shoh dedi:

— Ey Bilor, sening yonimdaliging meni asabiylashtirmoqda.

Bilor dedi:

— Ikki toifa odam kishining asabini qo'zg'atadi: illi achchiq va iflos xotin, xotinini har doim so'kadigan, uradigan jirkanch er.

Shoh dedi:

— Sen nonko'rlik qilib malikani o'ldirding, menga shu vaqtga qadar qilgan xizmating zoye ketdi.

Bilor dedi:

— Uch xil odamning mehnati zoye ketadi: oq kiyim kiyib iflos ish qilganlarning, go'zal xotini va chiroyli bolalarini tashlab, ehtiyoji bo'lmasa ham g'urbatda umrini o'tkazganlarning, yangi etik kiyib suvga tushib ko'n yuvganlarning.

Shoh dedi:

— Sen azob va iskanjaga loyiqsan.

Bilor dedi:

— Azob va iskanjaga ikki xil odam loyiq: biri — xalqni sababsiz ranjitganlar, ikkinchisi — o'rinsiz savollar bilan odamlarni tang qilib, berilgan javoblarga quloq osmaganlar.

Shoh dedi:

— Hoy, borgan sari ahmoqlashib ketyapsan-a!

Bilor dedi:

— Bu so'zni eshitishga uch toifa odam loyiq. Birinchisi — uyi kichik bo'lsa ham, taxta yo'nib, payraha va qirindini yig'ishtirib olmagan, bu bilan xotin, bola-chaqasiga uyi tor kelib qolgan duradgor; ikkinchisi — soch olishda mahorati bo'lmagan, tez-tez odamning boshini kesib yara qiladigan satarosh; uchinchisi — g'urbatda yashab, mol-davlati xotiniga va bolalariga emas, dushmanlarga nasib bo'lgan savdogar.

Shoh dedi:

— Eronduxtni ko'rgim kelyapti.

Bilor dedi:

— Uch xil odam erishish mumkin bo'lmagan uch narsaga erishishni orzu qiladi: gunoh ish qilganlar —

ayobni, yomonlik qilganlar — yaxshilikni, umrini fosiqlik bilan dilozorlik bilan kechirganlar — jannatni.

Shoh dedi:

— Men o'zimni o'zim jazoladim.

Bilor dedi:

— Uch xil odam o'zini o'zi jazolasa bo'ladi: ehtiyot koralarini ko'rmay, jangga kirib yarador bo'lganlar, vorisi bo'lmagan, sudxo'rlik bilan mol to'plagan, arzon olib, qimmatga sotadigan savdogarlar, yosh va axloqsiz xotin bilan har kuni dakki yegan, xotini esa ersirab uning o'limini haydigan chollar.

Shoh dedi:

— Qara, sening ko'z o'ngingda obro'yim naqadar tushib ketganki, menga shunchalik yaramas narsalarni so'zlashga jur'at etyapsan.

Bilor dedi:

— Faqat uch toifa odamlar o'z xo'jalariga haqorat ko'zi bilan qaraydilar: birinchisi — o'z hurmatini saqlamagan, quruq hazillarni sevadigan, orqa-o'ngiga qaramasdan gapiradigan, kattalar bilan qanday so'zlashish qoidalaridan xabarsiz, og'ziga kelganini qaytarmagan, xo'jasi bilan o'tirib ichkilik ichishgan navkarlar. Ikkinchisi — qisqa muddatda boylik orttirib, xo'jasidan kechgan, shuning uchun o'zini xo'jasidan yuqori tutgan nonko'r kizmatchilar. Uchinchisi — o'zi loyiq bo'lmagan holda shonch qozonib, xo'jasining yaqin odamlari qatoriga kirgan, suhbat vaqtida uning sirlaridan voqif bo'lgani uchun kerilgan mulozimlar.

Shoh dedi:

— Sen juda ezma, o'rinsiz so'zlaydigan, og'zi bo'sh bir do'st ekansan!

Bilor dedi:

— Uch xil odamni bunday ayb bilan qoralasa bo'ladi: birinchisi — nodonni to'g'ri yo'lga solib, uni ilmga qiziqtirishni istagan, lekin mehnat qilib ba'zi narsalarni o'rgatgandan keyin tashakkur o'rniga yaramas so'zlar aytgan, so'ngra afsus yegan odamni; ikkinchisi —

ahmoqni ishiga emas, so'ziga qarab yuksak vazifaga tayin etgan; unga ishonib yashirin topshiriq bergan, so'ngra esa har daqiqa o'zi haqida uning ming xil yolg'on va uydirma tarqatayotganini eshitib pushaymon bo'lgan odamni, uchinchi — o'z sirini saqlay olmaydigan shaxsga aytdi aytgan odamni.

Shoh dedi:

— Sen juda ham laqma ekansan-ku!

Bilor dedi:

— Uch xil odamni laqma desa bo'ladi; birinchisi — tanimagan odamga qarz bergan, notanish odamni dushman bilan o'zi o'rtasida vositachi qilgan odamni, ikkinchisi — shijoat, jasurlik, sabr, vazminlik, sadoqat, do'stlik, maslak va e'tiqoddan lof urib, urush kuni falokat yuz berganda, dushman hujumga o'tib, vatani tahlik ostida qolganda qochib yashiringan odamni; uchinchi — tilida o'zini xudojo'y qilib ko'rsatib, butun kunini aysh-ishratda kechiradigan fosiq odamni.

Shoh dedi:

— Sen menga mamlakatni boshqarish sabog'ini berib, o'zingni iste'dodli va ishbilarmon vazir qilib ko'rsatishni istayotganga o'xshaysan.

Bilor dedi:

— Layoqati bo'lmagani holda uch toifa odam o'zini iste'dodli gumon qiladi: birinchisi — yuqori va quyi pardani ajrata olmagan, past va baland ovozni farq qila olmagan, tor bilan kamonni aralashtiradigan bilimsiz mug'anniy; ikkinchisi — rang berishni bilmagan, soya bilan nurni ajratmaydigan tajribasiz rassom; uchinchi — she'rdan lof urib, g'azaldan so'z ochgan, lekin o'qiganda tutiladigan, g'azal yozishga majbur bo'lganda qo'l ostidagilardan qofiya so'ragan shoir.

Shoh dedi:

— Ey Bilor, sen Eronduxtni nohaq o'ldirding.

Bilor dedi:

— Uch toifa odam nohaq ish qiladi: birinchisi — bilim turib yolg'on gapirganlar, so'z berib ustidan chiqmaganlar;

Ikkinchisi — g'azablarini bosa olmagan hukmdorlar; uchinchisi — maqsadlarini, ayniqsa, muhim sirlarini duch kelgan odamga gapirgan shohlar.

Shoh dedi:

— Ey Bilor, men sendan qo'rqaman.

Bilor dedi:

— Yolg'iz to'rt xil jonivor sababsiz qo'rqadi: birinchisi — chittak, osmon yiqilib ketishidan qo'rqib, oyog'ini osmonga qilib yotadi; ikkinchisi — laylak, ikki oyog'ini qo'ysa yerga botib ketishidan qo'rqib, doim bittasini ko'tarib turadi; uchinchisi — chuvalchang, ko'p loy yesam tugab qoladi, deb qo'rqib, och yuradi; to'rtinchisi — ko'rshapalak, inson uning go'zalligiga maftun bo'lishidan va boshqa qushlar kabi tutib qafasga solishidan qo'rqib kunduzlari uyasidan chiqmaydi.

Shoh dedi:

— Ey Bilor, sen marhamatni xiyonatdan ajrata olmayapsan!

Bilor dedi:

— To'rt xil odam bularni bir-biridan ajrata olmaydi: birinchisi — og'ir, davosiz kasallikka muhtalo bo'lib, o'z shirin jonini qadrlamagan va boshqalar ham shunday deb o'ylagan bemor; ikkinchisi — shavkatli va kuchli xo'jasiga duch kelganda o'zini yo'qotib qo'ygan gunohkor qul; uchinchisi — jang maydonida dushmanga yuzma-yuz kelganda har narsani unutilib qo'ygan askar; to'rtinchisi — o'zidan ham shafqatsiz bir jallodning qo'liga tushib o'linini kutgan zolim.

Shoh dedi:

— Endi senga ishonib bo'lmaydi.

Bilor dedi:

— Aqlli odam to'rt toifaga ishonmaydi, quyrug'i bosilgan ilonga, och qolgan yirtqich hayvonga, rahmsiz shohga va insofsiz hukmdorga.

Shoh dedi:

— Ikkimizning fikrimiz bir-biriga to'g'ri kelmaydiganga o'xshayapti.

Bilor dedi:

— To'rt xil narsa bir-biriga to'g'ri kelmaydi: go'zallik bilan xunuklik; yaxshilik bilan yomonlik; yorug'lik bilan qorong'ilik; kunduz bilan kecha.

Shoh dedi:

— Sening e'tiboring qolmadi.

Bilor dedi:

— To'rt xil odam e'tibordan qoladi: o'g'rilikda shuhrat qozonganlar; axloqsizlikda nom chiqarganlar; yolg'onchilikda dong chiqarganlar; aqli kam, og'zi bo'shlar.

Shoh dedi:

— Mening qalbidam shu choqqacha bo'lmagan shunday bir cheksiz g'am, shu darajada og'ir bir dard borki, buning davosi yolg'iz Eronduxtdir. Afsuski, u endi yo'q.

Bilor dedi:

— Besh xil ayollar uchun qayg'u-hasrat cheksa arziydi olijanob, pokiza va go'zallar uchun; aqli, qanoatli, iflatli, vafolilar uchun; butun harakatlarini o'ylab qiladigan, erining borida ham, yo'g'ida ham hurmatlab, o'zini va nomusini saqlaganlar uchun; yaxshi va yomon kunlarda fidokor bo'lishni o'zlariga shior qilib olganlar uchun; yuzidan kulgi arimaydigan, tili shirin, qo'li barakali, qadami qutlug' bo'lganlar uchun.

Shoh dedi:

— Kimda-kim menga Eronduxtni topib keltirsa, unga istaganidan ham ko'proq boylik baxshida qilib, yuksak mansablarga ko'tarar edim.

Bilor dedi:

— Faqat besh toifa odam dunyo molini o'z jonidan aziz ko'radi: g'orat uchun urush ochganlar, qalin devor ostiga ko'milgan xazinani qazib chiqarishga kirishganlar, foyda uchun dengiz sayohatiga chiqqan savdogarlar, mahbus ko'payarmikin deb zoriqqan zindonchilar, poraxo'r qozilar.

Shoh dedi:

— Sen Eronduxtni o'ldirib mening yuragimga shunday adovat o'tiri soldingki, uni hech narsa so'ndira olmaydi.

Bilor dedi:

— Yolg'iz to'rt maxluq o'rtasidagina shunday adovat bo'lishi mumkin: bo'ri bilan qo'yning, mushuk bilan sichqonning, lochin bilan kaklikning, boyqush bilan qarg'aning.

Shoh dedi:

— Sen butun umring bo'yi qilgan yaxshiliklaringni zoye etkazding.

Bilor dedi:

— Yetti xil odamning mehnati zoye ketadi: birovga ehson qilgandan so'ng unga minnat qilganlar, birovni kechirgandan so'ng unga aziyat berganlar, tuzalmas dangasa va yolg'onchi odamlarni tarbiyalamoqchi bo'lgan shohlar, qo'rsligi muloyimligidan, zulmi rahmidan ustun bo'lgan hokimlar, nonko'r farzandlariga haddan tashqari umid bog'lagan mehribon onalar, birovning haqidan qo'rqinmaydigan odamlarni mo'tabar hisoblab ularga omonat bergan saxiy olijanoblar, o'rtoqlarining bema'ni suhbatlari bilan faxrlanadiganlar, to'g'ri va mo'min odamlarga inonmaganlar.

Shoh dedi:

— Ey Bilor, bundan so'ng bizning oramizda do'stlik bo'lishi mumkin emas.

Bilor dedi:

— Hikmat egalari olti xil odamlar bilan do'st tutunmaydilar: aqldan mahrum bo'lganlar ila maslahatlashganlar, buyuk ishlarda sabri tez tugaydigan, kam hafsalalilar bilan o'zi aytgan so'zidan tongan yolg'onchilar, pulni hayotdan afzal ko'rgan ochko'zlar, uzoq safarga chiqishga qasd qilgan zaif odamlar, o'z muallimini va boshlig'ini tanimagan xudpisandalar bilan.

Shoh dedi:

— Ey Bilor, axir sen sinovdan o'tgan eding-ku?

Bilor dedi:

— Odamni yolg'iz o'n xil yo'l bilan sinovdan o'tkazish mumkin: yigitni — urushda, dehqonni — ekish-yig'ishda, xo'jani — g'azablanganida, savdogarni — hisobda, do'stni

— ishing tushganda, qarindoshni — baxtsizlik yuz berganda, zohidni — qanoatda, kambag'alni — sabrda, davlatmandni — saxovatda, xotini va davlati qo'ldan ketganni — toqatda.

Bilor shohning siyomosidan g'azabi haddan oshganligini, sabr kosasining toshganligini ko'rib, so'z shu yerga kelganda jim qoldi va o'z-o'ziga dedi: «Endi xafagarchilikni xursandchilikka aylantirish. Eronduxtning salomatligini xabar qilish vaqti keldi. Shohning ehtirosi alangalandi. Visol havasi so'nggi darajaga yetdi. Shunisi ham borki, u yuqorida men aytgan achchiq va tahqiroimiz so'zlarga chidadi, g'azabi qo'zisa ham, o'zini bosib o'tirdi. Bundan ortiq imtihon qilib bo'lmaydi». So'ngra shohga qarab dedi:

— Shohning umri uzun, davlati abadiy bo'lsin. Unga teng keladigan shohni men dunyoda ko'rmaganman. Qaysi bir shohda shunday qudrat borki, u men kabi xokisor, vazifasi kichik bir bandasining qattiq va beibo so'zlariga, andozadan tamomila chiqib ketib, haddan oshganligiga uzoq chidab tura olsin? Holbuki, bizning shoh o'zini tutib g'azabning g'olib kelishiga yo'l qo'ymadi... Uning beozorligi hadsiz, ilmi hududsizdir. Shohning adolatli va rahmdil ekanligi tillarda doston, saxovati, muloyimligi dillarda muhabbat uyg'otgan, muloyimligi va yuragining kengligi olamga mashhurdir. Benihoya qudrat va iqtidorga ega bo'lgan shoh men kabi qulining sovuq va qattiq so'zlarini chidam bilan eshitib uni jazolashga jazm qilmadi.

Qaysi qul bu minnatdorlikni unuta oladi. Axir o'tkir xanjari qo'lda yarqirab turgan shoh kesilishi kerak bo'lgan boshni tanidan judo qilmadi. Buni hukmdorning donoligi va beozorligidan boshqa narsa bilan izohlab bo'lmaydi. Men shoh oldida gunohkor ekanligimni e'tirof etaman. Agar shoh meni iskanjaga giriftor etib, jazoga mustahiq qilsa haqqi bordir. Men gunoh bo'lsa ham, shohning amrini bajo keltirishni kechiktirishni o'zimga ravo ko'rdim, aytgan gaplarimning hammasini qo'rqqanimdan gapirib o'tiribman. Endi esa shohimga ta'zim qilib, dunyoning malikasi Eronduxt o'ldirilmaganligini e'lon etaman.

Shoh bu soʻzni eshitishi bilan qalbi shodlik bilan toʻlib, yuzi porlab ketdi, koʻzlarida sevinch uchquni chaqnadi. U Bilorga dedi:

— Men sening samimiyat va sadoqatingga ishonar edim, sen gʻazab vaqtida berilgan bu amrni bajo keltirishda shoshilmasliging, masalani tubdan oʻrganib chiqqandan keyingina uni ijro etishingni bilar edim. Eronduxt katta ayb ish qilib qoʻydi. Lekin gunohidan oʻtib boʻlmaydigan jinoyat qilgani yoʻq. Vafodor yor, ishonchli sirdosh, qadami qutlugʻ boʻlgan Eronduxtning jonini saqlab, naqadar ulugʻ ish qilganing yana ham ravshan boʻldi. Yuqoridagi suhbatda aytgan soʻzlaring uchun seni gunohkor qilish mumkin emas. Chunki sen mening buyrugʻimni koʻr-koʻrona ijro qilmay, masalani tushunib yetganingdan keyin uni amalga oshirmoqchi boʻlibsan. Bu sening aql va kamoling yuksakligidan, ehtiyotkor va tajribang oʻtkirlikidan dalolat beradi, bizning koʻz oʻngimizda sening qadr-qimminatingni, obroʻ va eʼtiboringni yanada orttiradi. Sen bu ishing bilan bizga katta xizmat qilding. Biz ham unga loyiq darajada yaxshiligingni qaytaramiz. Shohlar oʻzlariga nihoyatda ehtiyotkor va tajribali, sabrli va ishbilarmon xizmatchilar topmoqlari lozimdir. Debdurlarki: «Ishni istaganga emas, bilganga topshirish kerak». Endi bizning bu suhbatimizni, orzu va istagimizni, uzr va pushaymonimizni borib Eronduxtga yetkazmoq sening burching.

Eronduxtga ayt, tez kelsin, yangidan joʻsh urgan sevgi va shodligimiz avjiga etsin. Biz ham firoq zindonidan chiqib, visol ayyomiga yetishaylik, majlis qurib kayf-safo suraylik.

Bilor dedi:

— Rost aytasiz, endi visol damini ortiq kechiktirib boʻlmaydi.

Soʻngra Eronduxtning yoniga kelib, podsho bilan boʻlib oʻtgan hamma voqeani gapirib berdi va uni taklif etayotganini bildirdi.

Eronduxt bu xabarni eshitgach, bir zumda yasandi. Bilor bilan birga shohning huzuriga keldi, taʼzim qilib, dedi:

— Men shohning bu olijanobligiga qanday qilib tashakkur etishimni ham bilmayman. Bilor shohning marhamat va karamiga, adl va saxovatiga qattiq ishonmaganda edi, buyruqni kechiktirishga jur'at eta olmagan bo'lardi.

Shoh Bilorga dedi:

— Sen bizni qarzdor qilib qo'yding. Men sening xayrixoh ekanligingga hech vaqt shubha qilmagan edim, lekin shu bugun xayrixohliging yana bir marta isbot qilindi. Bundan keyin sening martabang yana ham ulug', huquqing boshqalarnikidan yana ham ortiq bo'ladi. Bundan buyon hech bir katta-kichik masala sening maslahatingsiz hal qilinmaydi.

Bilor dedi:

— Shohning davlati abadiy, qudrati mustahkam, umri uzoq bo'lsin. Uning barcha bandalari sidqidillik bilan xizmat qilishga, qo'llaridan kelganicha yaxshilik qilishga majburdirlar. Ular ming yil umr ko'rib, ming yil kamarbasta bo'lsalar-da, xizmatlari shohning ko'rgazgan lutf va marhamatining mingdan biriga ham teng bo'la olmaydi. Men shohdan faqat bir narsani so'rardim, u ham shundan iboratki, shoh bundan keyin amr qilish, hukm chiqarishda hech vaqt shoshilmasin, hovliqmasin, g'azab vaqtida odamning taqdirini hal etmasin.

Shoh dedi:

— Sening nasihatingni qabul qilaman. Bundan keyin o'ylamasdan sendek mulozimlarning maslahatini olmasdan, o'lchab-bichmasdan turib amr-farmon bermayman.

Shoh vazirga va Eronduxtga qimmatbaho liboslar in'om qildi. Ularning ikkovlari unga tashakkur aytdilar. Ertasi kun shoh tushini noto'g'ri ta'bir qilgan brahmanlar to'g'risida maslahatlashib, ularning ba'zilarini qatl qildirdi, ba'zilarini zindonga soldirdi, ba'zilarini dorga ostirdi.

Shoh Koridun hakimni saroyga chaqirtirib kelib, unga bosh-oyoq qimmatbaho sarupo hadya qildi, brahmanlarning jazolanganini aytdi.

Koridun uning qilgan ishini ma'qullab dedi:

— Zolim va g'addor xoinlarning jazosi shunday bo'ladi.
Koridun ketgandan keyin shoh Bilorga dedi:

— Sen ham borib dam ol, biz ham Eronduxt bilan
o'zimiz mahramona suhbat qilaylik...

Shohlarning eng yaxshi xosiyati bo'lgan donolik,
bezorlikning afzalligi haqidagi hikoya mana shundan
iborat.

SAYYOH VA ZARGAR BOBI

Roja brahmanga dedi:

— Shohlarning boshqa xosiyatlariga nisbatan beozorligi, donoligining ustunligi va fazilati haqidagi hikoyani eshitdim. Endi menga bir qissa aytib bersang, unda sultonlar xizmatchilarni qanday tanlashi va qandaylarini ustun qo'yib, o'z lutf-karami bilan sarafiro qilishi bayon qilinsin...

Brahman dedi:

— Podshohlar qanday odamni, qay vaqt va qanday ishga tayin etishni bilishi kerak. Shoh xizmatchilarni tanlashda ularni mahak¹ toshiga surtib olishi, turli sinovlardan o'tkazishi, ularning har birisining qo'lidan nima kelishini, nimaga qobil ekanligini, aql va idrokning darajasini, sadoqati va fidokorligini bilib olishi kerak. Chunki shoh xizmatida bo'ladigan odamdan har narsadan oldin to'g'rilik va sadoqat talab etiladi. Xizmatchilar e'tiborli va vafoli bo'lganlaridagina ularning iste'dodi foydali bo'ladi. Bir odamning to'g'riligi va sadoqatli ekanligini aniq bilib olish uchun har narsadan oldin, uning ajdodi, ota-bobolari kim ekanligini bilish kerak. Ular to'g'ri, sadoqatli, qattiq kunda sabotli, og'ri vaqtlarda chidamli bo'lishlari kerak. Ota-bobolari mana shunday xislatlarga ega bo'lib, ularning avlodlariga shu yaxshi xususiyatlar o'tgan bo'lsa, ularni shoh xizmatiga tayyorlash lozim. Agar bu masalada ishtiboh bo'lsa, unday odamlarni aslo yaqinlashtirmaslik, shohga sirdosh qilmaslik kerak. Ulardan hech qanday xayrli ish kutib bo'lmaydi.

Yaxshi xususiyatli odamlar tanlanib olingandan keyin, ularni to'g'ri so'zlash va sadoqatli bo'lish ruhida tarbiya qilmoq lozim. Yolg'onchilik katta gunohdir, shoh atrofida bo'lgan odamlar o'zlarini yolg'on gapirishdan saqlashlari

¹Mahak — oltin va kumushga surib, ularning aslligini aniqlaydigan tosh.

kerak. Yolg'onchi deb nom chiqargan odamga hech kim ishonmaydi, uni hech kim hurmatlamaydi. Hech bir aqlli shoh odamning qanchalik sadoqatli ekanligini sinovdan o'tkazmasdan turib, unga muhim ish topshirmaydi. Pastkash va razil odamlar yaxshilikning qadrini bilmaydilar. Ular shamol qaysi tomonga essa, o'sha tarafga qarab ketaveradilar. Olijanob odamlar, ulug'san'atkorlar bunday xosiyatga ega bo'lishdan o'limni afzal ko'radilar.

Eng to'g'ri yo'l shuki, shohlar xizmatchi tanlashda, uning sha'n-shavkatiga, boyligi va davlatiga emas, iste'dod va qobiliyatiga, axloq va tarbiyasiga qarashlari kerak. Chunki shoh xizmatida bo'lganlar uchun aql va kamol, sha'n-shavkat, ilm va iste'dod buyuk davlatdir... Ilmli va hikmatli odamlar nazarida boylikning qimmati bo'lmaydi. Shoh xizmatiga loyiq topilgan odam ilmli, to'g'ri, nafsini tiya biluvchi bo'lmog'i kerak. Shohning vazifasi, o'zi tarbiyat qilgan xizmatchilarga vazifa topshirib, o'lkani idora etish ishida ularga ishonch bildirishdan iboratdir. Xizmatchi fidokorlik ko'rsatganda shoh mukofot berib uni rag'batlantirsin, uning vazifasi qancha kichik bo'lsa, shoh unga shuncha katta marhamat ko'rsatsin. Ammo xizmatchining to'g'ri, sadoqatli, aqlli va yetuk ekanligi aniq ma'lum bo'lgandan keyin uni mukofotga sazovor etmoq kerak. Xullas, podshohlar o'z xizmatchilarining kim ekanliklarini va nimaga yaray olishliklarini bilmoqlari lozim. Aks holda, agar ular o'ylamasdan, tasodifiy odamlarga ish topshirib qo'ysalar, keyin pushaymon bo'ladilar. Bunga misol qilib, zargar haqidagi hikoyani keltirish mumkin.

Roja so'radi:

— U qanday hikoya?

Brahmanning ovchilar haqidagi hikoyati

Ovchilar hayvonlarni tutish uchun cho'lda bir quduq qazib, ustini berkitib qo'yg'an edilar. Bir kuni bars, maymun, ilon, ulardan keyin bir zargar haligi quduqqa

tushib ketdi. Hayvonlar o'zlari bilan ovora bo'lib, zargarga zarar yetkazmadilar.

Bu hodisadan bir necha kun o'tgandan so'ng u yerdan bir sayyoh o'tib qoldi. Zargarning ahvolini ko'rib, bu kishini chohdan qutqarishdan ham ortiq savob ishi bo'lmasa kerak», deb arqon keltirib quduqqa soldi. Birinchi bo'lib maymun, ikkinchi bo'lib ilon, uchinchi bo'lib barcha yuqoriga chiqdilar. Ularning har uchulasi sayyohga qat'iy dedilar:

— Har birimizning bo'yimizda qarzing bor. Sen bizga juda katta yaxshilik qilding. Lekin afsuski, bizlar hech yaxshiligingni qaytara olmaymiz.

Maymun dedi:

— Mening vatanim shahar chekkasidagi tog'dadir.

Bars dedi:

— Men shu yaqin oradagi o'rmonda yashayman.

Ilon dedi:

— Mening uyam shu shahar qo'rg'onining tagidadir. Yordamga muhtoj bo'lsang, bizga xabar et, balki bizga qilgan xizmatim evaziga yaxshilik qaytararmiz. Endi sen bir maslahatimiz bor: u kishini quduqdan chiqarma. U yolg'onchi, yaxshilikka yomonlik qiluvchi, vafosiz odam. Vajohatiga aldanma, xulq-atvori juda-juda yomon. Bu necha kun birga bo'lib, uning xususiyatlarini bilib oldik. Hech kimning qadrini bilmaydi. Aytganimizni qilmasang, oxirida pushaymon bo'lasan...

Sayyoh ularning so'ziga qaramay arqon tushirib, zargarni quduqdan tortib oldi. Zargar minnatdorchiлик bildirdi va dedi:

— Agar yo'lingiz falon yerdan tushsa, hamisha xizmatimizga tayyorman.

So'ngra vidolashib har qaysilari o'z uylariga ketdilar.

Oradan bir necha vaqt o'tgach, sayyohning yo'li halig shaharga tushdi. Maymun uni uzoqdan ko'rib, yugurganicha oldiga keldi va dedi:

— Maymunlarda seni xursand qiladigan hech narsa yo'q, bir nafas kutib o'tirgin, meva keltiraman.

Ozgina vaqt o'tgandan keyin maymun meva olib keldi. Sayyoh undan to'yib yeb, yo'lga ravona bo'ldi. Uzoqdan uni bars kuzatib turar edi. Sayyoh uni ko'rib qo'rqib ketdi, qochmoqchi bo'lib turganda, bars kelib salom berdi va dedi:

— Qo'rqma, biz hali sening yaxshiligingni unutmaganimiz yo'q. Bir nafas sabr qil, hozir kelaman.

Bars saroy bog'iga kirib amirning qizini o'ldirdi va uning marjonini olib kelib sayyohga berdi. Sayyoh tashakkur bildirib, shaharga jo'nadi.

Birdan uning yodiga zargar tushib, o'z-o'ziga dedi: «Hayvonlar ahdlariga vafo qilib, meni shunchalik hurmat bilan kutib oldilar. Zargar qanday izzat-hurmat bilan mehmon qilar ekan? Menga hadyalar taqdim etib, sovg'ai salom bilan kuzatsa kerak, chunki u zargar hayvon emas, odam-ku».

Shunday qilib, sayyoh shaharda zargarining uyini axtarib topdi. Zargar sayyohni ko'rishi bilan g'oyat sevinib, mehribonlik bilan qarshi oldi. Ular bir soatcha u yoq-bu yoqdan gaplashib o'tirishdi, o'tgan kunlarini eslab dardlashishdi. So'ngra sayyoh marjon haqida so'z ochdi. Uni sotish fikrida ekanligini, bu ishda zargarining yordamiga muhtoj ekanligini aytdi-da, marjonni yonidan chiqarib ko'rsatdi. Zargar tasalli berib, dedi:

— Hech tashvish tortma, buni sotmoq menga suv ichishdek oson gap. Bir nafas sabr qil, hozir kelaman.

Zargar chiqib ketdi. U marjonni ko'rishi bilanoq tanigan edi -- uni zargardan amirning o'zi qizi uchun sotib olgan edi. Zargar o'z-o'ziga dedi: «Qo'limga nozik narsa tushdi, agar fursatdan foydalana olmasam, meni odamlar ahmoq deyдилar, zo'r davlat, sarupo va in'omdan mahrum bo'laman».

Xiyonat qilish qaroriga kelib, u saroy tomon yo'l oldi va amirga qizini o'ldirib, marjonini o'g'irlagan odamni tutganligini xabar qildi. Amir bir odam yuborib sayyohni saroyga keltirdi.

Shoh sayyohni shaharda sazoyi qilib aylantirib, so'ngra zindonga solishni, ertasiga ertalab esa dorga osishni amr

etdi. Shahar devori yonidan o'tayotganlarida ularni ilon ko'rib qolib dedi:

— Vafosiz odamga yaxshilik qilsang, yomonlik qiladi, deb aytmabmidim?.. Kimki razil, pastkash va nonko' odamdan mardlik kutsa, uning oqibati mana shu bo'ladi. Men seni bu ahvoldan qutqarmoq uchun bir tadbir ko'rayin. Borib amirning o'g'lini chaqib olay, butun shahar uni muolaja qilolmay seni maslahatga chaqirsinlar. Sen avval o'z boshingdan o'tganlarni gapirib ber, so'ngra mana bu o'tni kasalga ber, u yesin, o'sha soat shifo topadi, balki sen mana shu yo'l bilan najot toparsan.

Sayyoh tashakkur aytib dedi:

— Men o'z sirimni nomardga aytib, katta xato qilibman. Ilon dedi:

— Pushaymon yeb o'tirishning vaqti emas. O'tgan ishga salovat derlar. Oxiri xayrli bo'lsin.

Ilon saroyga yo'l oldi va u yerga borib, amirning o'g'lini chaqdi. So'ngra hammaga eshittirib: «Shahzodani ilon chaqdi, davosini faqat qamalgan sayyohgina biladi», dedi-da, yugurganicha iniga kirib ketdi, uni hech kim ko'rmay qoldi.

Sayyohni zindondan chiqarib, amir yoniga olib bordilar. U avval boshidan o'tganlarni gapirib berdi, so'ngra shahzodani muolaja qila boshladi. Shahzoda sog'aydi. Sayyohning gunohsiz va to'g'ri odam ekanligi amirga ayon bo'ldi. Sayyohga qimmatbaho libos va yaxshi in'omlar berib, uning o'rniga zargarni dorga osdilar. Xoinning qismati dor yog'ochi bo'ldi. Kimiki birovga quduq qazina, o'zi yiqiladi, yaxshilik hech vaqt unutilmaydi, yomonlik esa jazosiz qolmaydi, deb bekorga aytmaganlar.

Aqlli odamlar birovga jabr qilishdan qochib, yaxshilik qiladilar, shu bilan ham bu dunyoning, ham u dunyoning noz-ne'matlarini qo'lga kiritadilar.

Shohlarning xizmatchilar tanlash, raiyatning xususiyatini o'rganish, tasodifiy odamlarga vazifa va mansab topshirib bo'lmaslik haqidagi hikoya mana shundan iboratdir...

SHAHZODA VA UNING O'RTOQLARI HAQIDAGI BOB

Roja brahmanga dedi:

— Shohlarning xizmatchi tanlashi, pastkash, razil va nonko'r odamlarni vazifaga tayin etmaslik haqidagi hikoyani eshitdim. Endi shunday bir hikoya aytib bersangki, unda aqlli, ishbilarmon, beozor bir odamning balo zanjiriga duchor bo'lib, undan qanday qilib qutulgani, ahmoq, qo'lidan ish kelmaydigan, johil bir odamning farog'at va rohatda hayot kechirishi va yuksak mavqega yetishib, keyin zavol ko'rishi tasvir etilsin.

Brahman dedi:

— Aql barcha ezgu ishlarning asosi, saodat darvozalarining kalitidir. Bu xislat kimda bo'lsa, unga ilm va muloyimlik fazilati qo'shilsa, u odam sha'n va shavkatga, izzat va hurmatga sazovor bo'ladi. Lekin uning bu mavqega erishish-erishmasligi taqdirning qo'lida. Bir shahzoda Nastur shahrining darvozasiga shunday deb yozib qo'ygan edi: «Asl saodat qismat va tolega bog'liqdir...» Bu haqda bir hikoya ham bor.

Shoh so'radi:

— U qanday hikoya ekan?

Brahmanning to'rt do'st haqidagi hikoyati

Bir kuni to'rt kishi yo'lda keta turib bir-birlari bilan do'stlashib qoldilar. Ulardan biri — shahzoda, ikkinchisi — zodagonning o'g'li, uchinchisi — savdogarning o'g'li, to'rtinchisi — dehqonning o'g'li edi... Ularning hammalarining boshiga og'ir kunlar tushib, ustlaridagi kiyimlaridan bo'lak hech narsalari qolmadi.

Bir kuni shahzoda dedi:

— Bu dunyoning butun ishlari taqdirning qo'lidadir. O'zingni o'tga-suvga urganingdan biror narsa chiqmaydi.

Zodagonning o'g'li dedi:

— Baxt-saodatning asosi go'zallik va asl nasabdir.

Savdogarning o'g'li dedi:

— Yaxshi o'ylab to'g'ri tadbir ko'rish saodatning kalitidir. Baxtsizlik yuz berganda odamga aqldan boshqa hech narsa yordam bera olmaydi.

Dehqonning o'g'li dedi:

— Har narsaga sa'y-harakat orqali erishiladi. Zahmat chekib mehnat qilish insonlarni orzulariga yetkazadi, ularga sevinch va shodlik libosini kiydiradi. Qat'iyat bilan ishga bel bog'laganlar erta yo kech o'z maqsadlariga yetadilar, mabodo mag'lubiyatga uchrasalar ham, hech kim ulardan kulmaydi.

To'rttala o'rtoq uzoq yo'l yurib, Nastur degan shaharga keldilar va bir yer topib istiqomat qila boshladilar. Birinchi kun dehqon o'g'liga dedilar:

— Hammamiz juda charchadik, butun umidimda sening sa'y-harakatingga bog'liq bo'lib qoldi. Bor, bugunga yetadigan biror ovqat topib kel. Damimizni olib, ertaga bizlar ham navbat bilan biron narsa topib kelamiz.

Dehqon o'g'li shaharga bordi va shaharliklardan, nima ish qilsam ko'p pul topa olaman, deb so'radi.

— Hozir o'tin pul,— deb javob berdilar.

Dehqon o'g'li darhol toqqa chiqib o'tin kesdi, shaharga keltirib sotdi, puliga ovqat olib, jo'ralari yoniga jo'nadi. Ketayotganida shaharning darvozasiga: «Bir kunlik mehnat to'rt odamning ovqatiga barobardir», deb yozib qo'ydi.

Ertasi kun zodagonning o'g'liga dedilar:

— Qani bor, bugun sen o'z go'zalliging bilan bir narsa topib keltir, biz esa biroz dam olaylik.

Zodagonning o'g'li keta turib o'z-o'ziga dedi: «Qo'limdan hech qanday ish kelmaydi, o'rtoqlarim oldiga qo'lim bo'lib qaytsam, sharmanda bo'laman-ku». O'ylab-o'ylab shaharga yetib keldi va g'amgin holda bir daraxtga suyanib, nima qilsam ekan, deb fikr daryosiga cho'mdi. Shu vaqtda bir badavlat xotin uning yonidan o'tib qoldi. Yigitni ko'rish bilan unga oshiqu beqaror bo'ldi va dedi: «Yo rabbiy, shunday ham go'zal odam bo'larkan-ay!»

Birozdan keyin cho'risini yuborib, uni uyiga taklif etdi. Yigit ham, xonimning xizmatiga hozirman, deb ravona bo'ldi. Ikkovlari butun kunni aysh-ishrat bilan o'tkazdilar. Kechqurun xotin unga besh yuz dinor berib jo'natdi. Zodagon o'g'li bu pulga ovqat olib, shahar darvozasiga: «Go'zallikning bir kunlik bahosi besh yuz dinordir», deb yozib, o'rtoqlari yoniga keldi.

Ertasi kuni yoronlar savdogarning o'g'liga dedilar:

— Bu kunni sening aqling va ishbilarmonliging keltiradigan narsa bilan o'tkazmoqchimiz.

Savdogarning o'g'li yo'lga tushdi. Lekin sal yurmay, duryo bo'yidagi katta kemaga ko'zi tushdi va uning oldiga bordi. Shahar aholisi, mollarning egasi bahosini pasaytirar, degan maqsadda hech narsa xarid qilmay kutib turgan edi. Savdogarning o'g'li yashirincha kemaga chiqib, undagi hamma molni nasiyaga oldi. Keyin u xuddi shu yerning o'zidayoq mollarni sotib, yuz ming dinor foyda qildi. So'ngra o'rtoqlari yoniga ketayotib, darvozaga: «Aqlning bir kunlik bahosi yuz ming dinor», deb yozib qo'ydi.

To'rtinchi kuni o'rtoqlari shahzodaga dedilar:

— Bor, agar toleing yor bo'lsa, bugungi xarajatimizni men qilib kel.

Shahzoda tavakkal qilib shaharga yo'l oldi. Shu kuni tasodifan shaharning amiri qazo qilib, jamoat motam ichida edi. Shahzoda tevarak-atrofga qarab, saroy darvozasi yoniga borib o'tirdi. Darvozabon uni ko'rib, ta'ziyada ishtirok etmayotganligi uchun koyidi. Hamma amirni dafn etishga ketib, saroy bo'sh qoldi, lekin shahzoda o'tirgan yeridan qimirlamadi. Darvozabon shubhalanib, uni josus gumon qildi va hibsonaga qamab qo'ydi.

Ertasi kun saroy ahllari yig'ilib, mamlakat muqaddarotini kimga topshirish — kimni podsho ko'tarish haqida mu'ozlasha boshladilar. Amirning vorisi yo'q edi. Bahs juda qizib ketdi. Shu zamon darvozabon dedi:

— Baland ovoz bilan bahslashmang, men bir josus lutganman, agar u sizlarning orangizdagi ixtilofdan xabardor bo'lib qolsa, yaxshi bo'lmas.

So'ngra bor gapning hammasini aytib berdi. Yig'ilganlar yakdillik bilan, josusning kim ekanligini oydinlashtirish kerak, degan qarorga keldilar. Shahzodani hibsonadan chiqarib keltirdilar. Uning kim ekanligini, qayerdan kelib, qayerga ketayotganligini surishtirdilar. Shahzoda o'zini bardam tutib, juda dono javoblar berdi. Uning dadil, hushyor, jasoratli va shijoatli ekanligini ko'rgan a'yonlar shahzodaning tug'ilgan yeri va asl nasabi bilan qiziqdilar.

Shahzoda dedi:

— Otam bu dorilfanodan dorilbaqoga rixlat qilishi bilanoq, birodarim toj-taxtga ega bo'lib, saltanatni zabt etdi. Men hayotimni saqlash maqsadida vatanni tark etib, sizning mamlakatingizga keldim.

U yerda hozir bo'lgan savdogarlar shahzodani tanidilar, uning ajdodi, ota-bobolarining sha'n va shavkatidan so'z ochdilar. A'yon va ashroflar shahzodaning bu yerlarga kelib qolganidan juda sevinib, dedilar:

— U bu shaharning amiri bo'lishga loyiqdir. Tomirida shoh qoni bor. Mamlakatni idora etishda o'z ota-bobolarining yaxshi va xayrli rasm-rusmlari va odatlarini bu yerda ham joriy qilishi aniqdir...

Shu soatdayoq shahzoda nomiga xutba o'qittirib uni o'zlariga shoh ko'tardilar. Mamlakat shahzoda qo'liga o'tdi. Bu shahar aholisining shunday odatlari bor edi: birinchi kuni yangi shohni oq filga mindirib, butun shaharni aylantirib chiqar edilar. Shahzodani ham filga mindirib shahar kezdira boshladilar. U shahar darvozasi yoniga kelganda do'stlarining yozuvlarini o'qidi va ularning ostiga: «Sa'y-harakat, mehnat — go'zallik, aql — omad kelgandagina samarali bo'ladi... Mening bir kunlik toleim bunga misol bo'la oladi», deb yozdirib qo'ydi.

So'ngra shoh saroyga kelib taxtga o'tirdi va do'stlarini chaqirtirib keldi. Aql egasini vazir qilib tayinladi, hammasi narsa sa'y-harakatga bog'liq, degan o'rtog'ini mamlakatning barcha xo'jalik ishlariga bosh qilib qo'ydi, chiroyiga ishongan o'rtog'iga ko'p davlat baxsh etib, unga bu shahardan chiqib ketishlikni maslahat ko'rdi va dedi

— Shunday qilmasak, xotinlar senga maftun bo'lib fisq-fasod ko'payadi.

Shoh shaharning olimlari va ulug'larini yig'ib dedi: — Sizlarning ko'plaringiz mendan aqli, shijoatli, iste'dodli va ishbilarmon ekanligingizni bilaman. Lekin taqdirning taqozosi bo'lmasa, podshohlikka yetishib bo'lmaydi. Mening do'stlarimning har birisining bir fazilati bor. Ular bir narsani qo'lga kiritish umidida edilar. Men esa na o'z bilimim kuchiga ishonar, na o'zganing yordam berishiga, birodarim meni yurtimdan quvgandan keyin bu darajaga yetisha olishligimga aqlim yetmas edi...

O'tirganlar orasida juda ko'pni ko'rgan bir sayyoh bor edi, u o'rnidan turib dedi:

— Shoh tajribali, zakoli, adolatli hukmdorlarga loyiq so'zlarni aytdi. Omad bilan ilm va donolik birga qo'shilsa, shoh baxtiyor, fuqaro saodatmand bo'ladi. Sizni bizga tolening o'zi yubordi...

Sayyoh so'zini tugatishi bilan yana boshqasi turib dedi:

— Men shohning fazilatleri haqida bo'lak vaqtda fursat topib gapirishni istardim... Shohim ijozat bersa, hozir yodinga tushgan va meni hayron qoldirgan bir hodisani aytib berar edim.

Shoh ijozat berdi.

U dedi:

— Men bir zamonlar buyuk bir odamning xizmatini qilar edim. Falak, ko'p shohlarni mahv etganligini, ko'p oshiqlarni sargardon qilganligini ko'rib, bu dunyoga hirs qo'ymay, savob ish bilan mashg'ul bo'lishga qaror qildim. Xo'jayinim bilan xayrlashdim, u qo'limga ikki dinor berdi. Bir kun bozorda ikkita kabutar ko'tarib, sotmoqchi bo'lib turgan ovchining yoniga keldim. Savob uchun ularning ikkalasini ham sotib olib, azobdan qutqarmoqchi bo'ldim. Ovchi ikki dinor so'radi. Tavakkalga takya qilib, qushlarning ikkalasini ikki dinorga sotib oldim. Ularni shahardan tashqaridagi o'rmonga olib borib, qo'yib yubordim. Ular parillab uchib borib daraxtga qo'ndilar va menga tashakkur bildirib dedilar:

— Sen bizga yaxshilik qilding. Biz ham yaxshiligingni qaytarishimiz kerak. Mana shu daraxtning tagida ko'milgan pul to'la ko'zacha bor. Uni kovlab ol.

Men ularning bu so'zlariga taajjublanib dedim:

— Qiziq, osmonda uchib yurib, yerning tagidagi ko'zachani ko'ribsizlar, qanday qilib shunday katta ovchining domiga tushdinglar?

Ular javob berdilar:

— Qazo yuz berganda hech narsani ko'rib bo'lmaydi, aql shoshib, ko'z ko'rmay, quloq eshitmay qoladi.

Men yerni kovlab ko'zachani chiqarib oldim. Iltimos qilaman: shoh amr bersin — uni xazinasiga keltirib qo'ysinlar. Menga biroz narsa bersalar kifoya.

Shoh dedi:

— Yaxshilik urug'ini sepib, bahra topibsan. Menga hech narsa kerak emas. Hammasini o'zingga baxsh etdim.

Brahman bu bobni tugatib shohga qaradi. Roja indamay o'tirib qoldi. U boshqa savol bermadi...

XOTIMA

Rojaning sukut etib turganini ko'rgan brahman dedi: — Imkonim boricha men shohning butun savollariga javob berib, o'z vazifamni o'tadim. Bu kitob haqida juda chuqur o'ylab, undagi hikmatli so'zlardan xulosalar chiqara olgan zot taqdir yordami bilan buyuk ishlar qiladi, ulug' darajaga erishadi.

Bu kitob hukmdorning avvalgi shohlardan ustun bo'lishini ta'min etadi, unga hikmatdan dars berib, jahlg'azab o'tini so'ndiradi, aql fonusi bilan tabiatini ravshan qiladi. Bu kitob shohning dovrug'ini olamga yoyib, nomini abadiy qoldiradi.

Har so'zning avvali-yu oxiri bor. Bu noyob asar — bizdan yodgor.



ILOVALAR

I

Kabutar, tulki, laylak yoki birovlariga yo'l ko'rsatib, o'zlarini falokatdan qutqara olmaganlar haqidagi bob

Roja brahmanga dedi:

— Endi boshqalarga yo'l ko'rsatib, o'zi yo'l topolmagan odam haqida bir hikoya so'zlab bersang.

Brahman dedi:

— Bunga kabutar, tulki va laylak haqidagi hikoya yaqqol misol bo'la oladi.

Roja so'radi:

— U qanday hikoya ekan?

Brahmanning kabutar haqidagi hikoyati

Bir kabutar juda baland bir xurmo daraxti ustiga zo'r mashaqqatlar bilan uya solgan edi. Bolalari tuxumdan chiqib uchirma bo'lish vaqtida bir tulki kelib, bolalaringni tashlamasang, hozir chiqib hammangizni yeyman, der edi. Undan qo'rqqan kabutar bolasini yerga tashlardi. Kabutarning ikki bolasi uchirma bo'lishiga yaqin qolganida bir laylak uchib kelib, o'sha xurmo daraxtiga qo'ndi. Kabutarni g'amgin ko'rib, hol so'radi: — Kabutar, singlim, senga nima bo'ldi, nega buncha xafa ko'rinasan?

Kabutar dedi:

— Ey aziz laylak, nima qilay? Bir tulki meni hol-u jonimga qo'ymayapti. Qay vaqt bola ochsam, u meni qo'rqitib bolalarimni olib ketadi.

Laylak dedi:

— Bu safar tulki kelganida unga, men endi senga bolalarimni bermayman. Qo'lingdan kelsa daraxtga chirmashib chiq, u vaqt bolalarim seniki, o'zinga hech narsa qila olmaysan — uchib ketaman, degin.

Laylak kabutarga bu so'zlarni uqtirgach, o'zi uchib borib suv qirg'og'iga qo'ndi. Tulki daraxtning ostiga keldi va o'z odati bo'yicha qichqirib, do'q qila boshladi. Kabutar laylak o'rgatganidek javob berdi. Bunday javobni kutmagan tulki so'radi:

— Buni senga kim o'rgatdi?

Kabutar dedi:

— Laylak.

Tulki darhol daryo qirg'og'iga, laylakning yoniga keldi. Unga qarab dedi:

— Ey laylakjon, shamol o'ng tomondan esganda, sen boshingni qayoqqa o'girasan?

Laylak dedi:

— So'l tomonga o'giraman.

Tulki so'radi:

— So'ldan esganda-chi?

Laylak javob berdi:

— O'ng tomonga.

Tulki dedi:

— Agar shamol har tomondan essa, nima qilasan?

Laylak dedi:

— U vaqtda boshimni qanotim ostiga berkitaman.

Tulki dedi:

— Bunday qilish mumkin emas, men ishonmayman. Sen boshingni qanoting ostiga ololmaysan.

Laylak dedi:

— Olaman.

Tulki dedi:

— Bo'lmasa ko'rsat. Agar shunday bo'lsa, Olloh qushlarni bizdan afzal qilib yaratgan ekan. Siz bir soatda qiladigan ishni biz bir yilda ham bajara olmaymiz, siz shunday ishlar qilasizki, unga bizning sira aqlimiz yetmaydi. Aytishingcha, siz boshingizni qanotlaringiz

ostiga olib, sovuqdan va shamoldan saqlana olasiz. Ofarin, sizlarga. Qani ko'rsat, sen buni qanday qilasan?

Laylak boshini qanoti ostiga olgan ham ediki, tulki bir sapchib, uni tutib oldi va shunday siqdiki, bechoraning umurtqa suyagi sinib ketdi. Qanot va dumlarini yula turib tulki dedi:

— Ey boshqalarga norin qilib berib, o'ziga atala ham pishira olmagan ahmoq! Sen kabutarga yo'l ko'rsatib hiyla o'rgatding-u, lekin o'z joningni dushmandan qutqara olmading.

Tulki shu so'zlarni aytib, bir zumda laylakni yedi-qo'ydi.

II

Sichqonlar podshohi va uning vazirlari

Hind rojasi brahman Beydaboga dedi:

— Bu masalni ham eshitdim. Lekin men istar edimki, sen inson qanday qilib sadoqatli, dono va halol kengashchilarni topa oladi va ulardan qanday qilib foydalana oladi, shu haqda hikoya qilib bersang.

Brahman dedi:

— Kimki sadoqatli va dono kengashchi topib olib, uning maslahatlariga quloq solsa, u sichqonlar podshohi o'zining sadoqatli vaziri bilan maslahatlashib, o'zini va butun sichqonlarni falokatdan qutqarib qolgandek, falokatdan xalos bo'ladi.

Roja so'radi:

— U qanday hikoya?

Brahmanning hikoyati

Brahmanlar yashaydigan mamlakatda Duran degan bir viloyat bo'lgan. Bu viloyatning o'rtasida mahsuldor dalalar bilan qurshalgan Idozinun degan bir shahar bor edi. Bu shaharda Mehroz nomli bir sichqon bo'lib, u shu shahardagi va shahar atrofidagi sichqonlarning podshohi

edi. Uning uch vaziri bor bo'lib, shoh har ishda ular bilan maslahatlashar va aytganlariga amal qilar edi. Ulardan birining oti Zuzama edi. U aql va kamolda boshqalardan ustun edi. Ikkinchisining oti Shira, uchinchisining oti Bog'doz edi.

Kunlardan bir kuni ularning uchalasi ham podsho huzurida bahslashib qolishdi. So'z sichqonlarga va ularning ota-bobolariga dushman bo'lgan mushukdan xalos bo'lish ustida borar edi. Birinchi bo'lib shoh so'z boshladi:

— Men hikmat egalaridan eshitganman, ular aytadurlarki, inson ishonchli va nomusli maslahatchi tanlay bilishi, farzandlariga ikki narsani tushuntirishi lozim. Ulardan birinchisi shuki, inson o'tmishda ko'rgan foyda va ziyon haqida o'ylamasligi, bu haqda qayg'urmasligi kerak; ikkinchisi — qo'lda mavjud bo'lgan ne'matlarni muhofaza etishi, ro'y berishi mumkin bo'lgan zararlarning oldini olishga harakat qilishi kerak. Biz ota-bobolarimizning sa'y-harakati soyasida eson-omon yaxshi kun kechirdik. Endi bizning zo'r bir tashvishimiz bor, u ham bo'lsa mushuklardan bizga yetadigan - ozordir. Endilikda biz ota-bobolarimiz ko'p mashaqqat chekib xalos bo'la olmagan bu og'ir vaziyatdan qutulish yo'lini topishimiz kerak. Bizning vazifamiz bu baloni daf qilish uchun bir vosita topmoqdan iborat bo'lib qoldi. Nozu ne'matlar ichida yaxshi kun kechirishimizga qaramasdan, bu balo tufayli, bu noz-ne'matlar tatimayapti. Donishmandlar: «Vatanni, bola-chaqasini, xotini tashlab, sarsonu sargardon bo'lgan, tunashga joy topolmay, qo'rquv va dahshat ichida yashagan odamning hayotidan o'lim yaxshidir», deganlar.

Shoh so'zini tugallagandan keyin Shira va Bog'doz dedilar:

— Shohim, bizning farovonlikda yashashimizning boisi sensan, sen har jihatdan komil, aqli raso podshohsan, mashoyixlar debdurlarki: «Ahmoq navkarning xojasi aqli va bahodir bo'lsa, uning ko'rsatgan qahramonligi va

jasorati tufayli qozongan shuhratiga navkar ham sherik bo'ladi». Biz sening donishmandligingga ishonamiz, bu ishda tole senga yor bo'lsin, butun orzularing ro'yobga chiqsin, biz esa sening amringga hozirmiz. Shohimizning mangu nom qozonishiga biz aminmiz. Uning sharofati bilan bizni ham ba'zan yod etarlar, chunki shohning bu istagini amalga oshirish uchun biz jonimizni ham, qonimizni ham fido qilishga tayyormiz.

Bu ikki vazir so'zlarini tugatganlarida shoh uchinchi vaziriga nazar tashladi. U so'z boshlamayotganini ko'rib shoh g'azab bilan qichqirdi:

— Hoy, menga qara, inson jamiyatida ishonchli, sadoqatli do'stlari bo'lgan shohlar turli masalalarni muhokamaga qo'yib, bunda aytilgan fikrlarning qaysisi to'g'ri, qaysisini amalga oshirish mumkin-u, qaysisi mumkin emasligi haqida o'z mulohazalarini bildiradilar. Agar hozir muhokama qilinayotgan masalani hal etib bo'lmasa, sen tosh kabi qotib indamay o'tirmasdan o'z mulohazalaringni bizga aytishing kerak.

Vazir dedi:

— Shu paytgacha indamay o'tirganim uchun shoh meni koyimasin. Men faqat do'stlarimning gaplarini bo'lmay, ular aytgan ajoyib fikrlarni diqqat bilan tinglay, deb jim o'tirdim. Avval o'ylab, so'ngra o'z bilimim doirasida mulohazalarimni aytmoqchi edim.

Shoh dedi:

— Yaxshi, gapir, ko'raylik-chi, sen nima fikrdasan?

Vazir dedi:

— Men shunday fikrdaman: shoh maqsadga yetishish uchun nima qilish zarurligini yo biladi yoki bilmaydi. Agar bilmasa u vaqtda bunday maqsadga erishishni orzu qilish va u haqda o'ylashning foydasi yo'q. Biz ota-bobolarimiz sinovlaridan o'tmagan, ko'p mehnat sarf etilmay qo'lg'a kiritilgan biror narsani meros olganimiz yo'q. Jonivorlarning xosiyati Olloh tomonidan yaratiladi. Hech kim, hech qanday shoh hayvonlarning tabiatini, xosiyatini o'zgartirish qudratiga molik emas.

Shoh dedi:

— Bu yerda gap yolg'iz avloddan avlodga o'tadigan irsiy xususiyatlar ustida ketayotgani yo'q, hech bir ish, xoh katta bo'lsin, xoh kichik, tashqaridan ta'sir bo'lmasa, amalga oshmaydi.

Vazir dedi:

— Shohning aytganlari to'g'ridir. Lekin ota-bobolardan meros bo'lib o'tgan irsiy xususiyatlar bilan kurashish og'ir va imkonsiz bo'lsa, u vaqtda bunday ishga kirishmaslik kerak, zotan, kimki, irsiy xususiyatlarga qarshi kurash ochsa, u keskin qarshiliklarga duch keladi. Unday odam o'z ojizligini sezgach, boshlagan ishidan voz kechishga majbur bo'lib, sekin-asta avvalgi mavqeiga qaytadi. Ba'zi hollarda buning natijasi dahshatli bo'lib, o'lim bilan yakunlanishi mumkin, bunday holda avvalgi mavqei ham qo'lidan ketadi. Ba'zan ko'p zahmat chekib mehnat sarf qilgandan keyin bunday odam bir shohning boshiga tushgan ahvolga tushadi.

Shoh so'radi:

— U qanday ahvolga tushgan ekan?

Vazirning hikoyati

Nil bo'yidagi viloyatlarning biriga bir shoh hukmron edi. U yerda serbuloq va qalin mevali daraxtlar bilan qoplangan boy, g'oyat baland bir tog' bor edi. Bu tog'da yirtqich, vahshiy hayvonlar yashar edi. Shu tog'ning bir yoriq joyi bo'lib, yetti iqlimdan esgan shamolning hammasi shu yerdan o'tar edi. Bu yoriqning yaqinida dunyoda misli ko'rilmagan daraja go'zal bir uy bor edi. Shohning o'zi ota-bobosi yashagan shu uyda turar edi. Ularning ba'zilari dahshatli shamol va bo'ronlar natijasida halok bo'lib ketar edilar, lekin muhtasham binoni, mevalarni va ona yurtni tashlab boshqa yerlarga ko'chib ketishni istamas edilar. Shohning bir maslahatchi vaziri bor edi. Bir kuni shoh unga dedi:

— Bizning ajdodlarimiz sa'y-harakati bilan baxtli kunlarga yetishganligimizni sen yaxshi bilasan. Agar

shamol bo'lmasa, bu yer xuddi jannatning o'zi. Dahshatli shamollar esadigan bu yoriqni berkitish uchun bir chora topish zarur. Shunday qilsak hozirgi va kelajak avlodlarimizni falokatlardan qutqargan, bu dunyoda ham bir jannat paydo qilgan bo'lur edik.

Vazir dedi:

— Men shohning amriga muntazir bo'lgan quliman.

Shoh dedi:

— Bu mening so'zlarimga javob bo'lmadi.

Vazir dedi:

— Mening boshqa javobim yo'qdir. Chunki shoh har jihatdan bizdan ko'ra bilimli va aqllidir. Shoh yer yuzining hukmdoridir, lekin u aytgan ishini qilishi odamning qo'lidan kelmaydi, uni amalga oshirish uchun ilohiy kuch-quvvat kerak. Kichiklar ulug'larga qarshi turolmaydilar.

Shoh dedi:

— Odamlarning bir-birlari bilan musobaqalashib qo'lga kiritishga uringan noz-ne'matlari samodan beriladi, lekin shunday bo'lsa-da, ularning qanday kun kechirishlari, o'zlarining harakatiariga bog'liq. Bu narsa qudrati ilohiy emas, odamning o'ziga bog'liq. Qani, bu haqda nima deysan?

Vazir dedi:

— Mening o'ylashimcha, shoh qilmoqchi bo'lgan ishga diqqat bilan qarashi kerak, so'zning esa ahamiyati ozdir. Bu ishdan keladigan foyda va zararga kelganimizda, ularni oldindan bilib bo'lmaydi, bunga insonning aqli yetmaydi. Shuning uchun ham shoh ehtiyot bo'lishi kerak, tag'in o'ziga shoh axtarib ketgan eshakning vaziyatiga tushib qolmasin.

Shoh so'radi:

— Eshak qanday ahvolga tushibdi?

Vazirning navbatdagi hikoyati

Bir kishining bir eshagi bo'lgan. Uni egasi nuqul arpa bilan boqar edi, eshak semirib ketib qutura boshladi. Bir

kuni uni egasi sug'ormoqqa olib ketayotgan edi, u uzoqdan moda eshakni ko'rib qoldi. U hangrab, egasining qo'lidan chiqib ketmoqchi bo'ldi. Egasi eshakni zo'rg'a bir daraxtga bog'lab, o'zi moda eshak egasining yoniga bordi va dedi:

— Mochangni chetroqqa ol, tag'in mening eshagim unga zarar yetkazib qo'ymasin.

U kishi moda eshakni chetga oldi.

Nar eshak hamon hangrab va arqonni uzib ketishga tirishar edi. Boshini siltab no'xtasidan chiqarib olmoqchi bo'lib, yerga engashgan edi, bir tayoqqa ko'zi tushdi va o'z-o'ziga dedi: «Bu yog'och yordamida odamlar bilan urishib bo'lmaydi, buning ustiga men yog'och bilan jang qilish qoidalarini bilmayman, lekin har holda duch kelganlarni, ayniqsa, bunday qurol bilan urishishni bilmaganlarni savalab g'olib kelaman. Agar qo'linga nayza tushib qolsa, nimalar qilmas edim? Unda men osonlikcha yuz otliqni yerga qulatardim. Demak, albatta, bir nayza topishim kerak. Agar ota-bobolarim shunday bir narsaning hozirligini ko'rib ketganlarida edi, meni bu og'ir vazifadan ozod qilgan bo'lar edilar».

Shu payt bir kishi uzun shoxli echkini yetaklab suv tomon o'tib qoldi. Eshak echkini, unda o'zi orzu qilayotgan narsani — uchi ingichka shoxlarini ko'rib hayron qoldi, keyin o'z-o'ziga dedi: «Bu echkinging nayza, o'q va boshqa aslahalari bo'lmasa edi, bunday mag'rur yurmas edi. Shubhasiz, u urishish qoidalarini ham yaxshi biladi. Bu yerdan qochib, echkinging yoniga borishga muvaffaq bo'la olsam, unga biroz xizmat qilib, hamma narsani o'rganib olar edim. Keyin xizmatlarim evaziga aslahalaridan ba'zilarini menga berardi».

Echki esa eshakning xatti-harakatlaridan quturganini bilib, turgan joyida qotib qoldi. Suv ichish ham yodidan ko'tarildi. Eshak ham echkinging suv ichmay, ag'rayib turganini ko'rib, o'ylay ketdi: «Uning suv ichmayotganidan ko'rinib turibdiki, mening miyamdagilarni bilib olgan. U menga qarab sevinmoqda. Ulug' Olloh bu ishda menga

madad berdi, bu xayol ko'nglimga kelishi bilan oq orzuimga yetishdim. Mening yulduzim qaysi yulduz ekanligini, peshanamga nimalar yozilganini, boshimga nimalar kelishligini bilsaydim, qanday yaxshi bo'lar edi! Agar menga baxt-saodat yuz bersa, unda oddiy maxluq emas ekanman, yer yuzidagi hamma hayvonlarning shubhasiz, eng afzali ekanman».

Echkining egasi uning suv ichmaganini ko'rib uyiga qaytarib olib ketdi. Uning uyi shu yaqin orada edi. Eshak echkini kuzatib, qaysi hovliga kirib ketganini bilib oldi. Birozdan keyin eshakning egasi ham uni qaytarib olib ketdi, oxurga bog'lab, yem to'kdi. Lekin echkining oldiga borish orzusi bilan o'rtanayotgan eshakni na yem, na suv qiziqtirmasdi. U o'ylab tadbir axtara boshladi va nihoyat, o'z-o'ziga dedi: «Men kechasi qochib, echki yoniga borishim mumkin...»

Kechasi hamma uxlaganidan keyin eshak eshikni buzib echkining yoniga ketdi. Borib qarasa, eshik qull ekan. Eshak tirqishidan mo'ralab echkining bog'siz turganini ko'rdi va ertalabgacha bir burchakda yashirinib turdi. Ertalab egasi echkini uzun arqonga bog'lab sug'organi olib ketdi, egasi oldinda, echki ancha orqada ketar edi. Eshak echkiga yaqinlashib o'z tilida unga gapira boshladi. Echki bu tilni bilmaganligi uchun tushunmay qo'rqib ketdi. Eshak yaqinlashgani sari u hurkib qochar edi. Buni sezgan echkining egasi eshakni tutib olmoqchi bo'ldi, keyin o'z-o'ziga dedi: «Agar eshakni olib ketsam, bular bir yerda tura olmay urishadilar. Yaxshisi, uni quvib yubora qolay». U qo'lidagi yog'och bilan eshakni urdi. Eshak qochdi. Lekin echki egasi yo'lga tushishi bilan u yana kelib echkiga gapira boshladi. Echki uni suzmoqchi bo'lib shoxlarini ko'rsatdi. Buni sezib qolgan echki egasi eshakni urdi, eshak qochdi, keyin yana echkiga yaqinlashdi, kishi yana uni urdi. Shunday qilib, eshak uch martaba echkiga yaqinlashishga harakat qildi, har gal kaltak yedi. Shunda eshak o'z-o'ziga dedi: «Echkiga yaqinlashib o'z maqsadimni unga tushuntirishga xalal

berayotgan birgina shu kishidir». Ushbu soʻzlarni aytib kishi ustiga tashlandi va yelkasiga tishlari bilan shunday qattiq yopishib oldiki, bechora oʻz jonini eshakdan zoʻrgʻa qutqarib qoldi.

Kishi eshakning quturayotganini koʻrib dedi: «Uni ushlab bogʻlab qoʻysam, mening boshimga bir falokat solishi mumkin. Yaxshisi, unda bir nishon qoldiray, egasini koʻrganimda eshagi yetkazgan zararni toʻlashni undan talab qilay». Aytganini qilib, pichogʻini chiqardi va eshakning ikki qulogʻini shart kesib oldi. Eshak uyiga qaytib keldi. Egasidan shunday kaltak yediki, bu qulogʻining kesilishidan va quloqsiz qolishdan koʻra ogʻirroq tuyuldi. Shundan keyin eshak dedi: «Mening ajdodlarim ishning oqibati bunday xunuk boʻlishini bilganlaridan, azob-uqubatga chidab insonga xizmat qilishni afzal koʻrgan ekanlar-da!»

Shoh dedi:

— Men aytganlaringni eshitdim, ammo sen nega bu ishdan qoʻrqasan? Xudo koʻrsatmasin, agar bu ishning uddasidan chiqa olmasak, sen zarar koʻrmaysan-ku. Biz hamisha oʻzimizni uning ziyonli natijalaridan saqlay olamiz.

Shohning oʻz fikrida qattiq turib olganligini koʻrgan vazir ortiqcha qarshilik qilmay, rozilik berdi.

Soʻngra shoh farmon berib butun mamlakatga jar soldirdi: «Har bir yoshu qari togʻdan bir bogʻ oʻtin kesib, falon kuni, falon soatda saroyga kelsin». Odamlar zoʻr qiziqish bilan bu ishga kirishdilar. Shoh shamol pasayib turgan paytni poylab, oʻtinlarni teshik ogʻziga qalashni, ustini tosh bilan bostirishni, roʻparasida katta devor qurishni buyurdi. Jamoat bu ishni ham ortigʻi bilan bajardi. Yoriqdan esadigan shamol butunlay toʻxtab, oʻlka yelsiz, shamolsiz qoldi. Bir yil oʻtmasdan togʻdagi oʻtlar, daraxtlar quriy boshladi. Yirtqich, vahshiy va boshqa hayvonlar qirilib ketdi, ariq va buloqlar quridi. Dahshatli qurgʻoqchilik boshlandi. Vabo koʻp odamlarni halok qildi. Mamlakat aholisi qanchalik urinib harakat qilmasin,

falokat va musibatdan o'zini xalos eta olmadi. Nihoyat, tirik qolganlar qo'lga qurol olib isyon ko'tardilar, saroyga borib shohni, uning vazirini, xotini, bola-chaqasini o'ldirdilar. Keyin yoriqqa borib devorni buzib tashladilar, toshlarni uloqtirdilar, bostirilgan o'tinga o't qo'yib yubordilar. Yoriq ochildi. Ko'pdan beri o'tishga yo'l topa olmay turgan shamol birdan guvillab o'sha ochilgan yoriqdan otilib chiqdi va olovni butun mamlakatga yoyib yubordi, har yerda yong'in boshlandi. Bu yong'in ikki kecha-yu ikki kunduz davom etib, barcha shahar va qishloqlar, daraxtlar, hayvonlarning kulini ko'kka sovurdi...

Sichqonlar shohi dedi:

— Aytib bergan hikoyangni eshitdim. Lekin otalar debdurlarki: «Ayagan ko'zga cho'p tushar». Manfaati ko'p bo'lgan ishni boshlashni istagan, lekin biror xato, zarar ro'y berishi mumkinligidan qo'rqib bu ishdan qo'l tortgan odam yuksak martabalarga yetisha olmaydi. Bunday odamlar yolg'iz tasodifdan yuksak darajaga ko'tarilishlari mumkin. Odam uchun mardlik va qahramonlik buyuk baxtdir. Bu dunyodan ketayotganida inson yaxshi nomdan bo'lak hech narsani o'zi bilan olib keta olmaydi.

Vazir dedi:

— Shohim, sen haqsan. Lekin har bir ishning oqibati yaxshi bo'lavermaydi. Aqlli odamlar aytadurlarki, «qasddan o'zlarining boshiga balo keltiruvchilar xalos etilishga loyiq emasdir. O'z o'limiga sababchi bo'lganlarga jannatda joy bo'lmaydi».

Shoh dedi:

— Mening fikrimcha bunday aqlli maslahat bera olar ekansan, demak, g'alaba muqarrardir. Albatta sen bizning zafar qozonishimizga yordam etishing kerak.

Bu masala ustida avvaldan reja tuzib qo'ygan vazir shohning bu ishga butun vujudi bilan berilganligini ko'rib, dedi:

— Men faqatgina qo'limdan kelgan maslahatni berishim mumkin. Men shohning aql va zakoda bebadal ekanligini

bilganim uchun yuqoridagi gaplarni aytishga jur'at etdim. Mening o'zimga kelganda esa shoh biladi, unchalik ilmim zo'r emas, rejalarimning muvaffaqiyatli bo'lishi yolg'iz shohning baxti va toleiga bog'liqdir. Olimlar ham, johillar ham aqlli odam ahmoq bilan maslahatlashishi kerak, deyдилar. Chunki ahmoqning aytganining aksi qilinsa, foydali bo'ladi. Lekin aqlli odam ahmoqqa faqat ikki holdagina murojaat qiladi: birinchi — boshqalarning sirini o'rganish va o'z siri boshqalarga oshkor bo'lgan yoki bo'lmaganini bilishni istaganda; ikkinchi — ahmoqning tabiatida ishga foydasi tegadigan xususiyat bo'lgan taqdirda. Men bu haqda gapirar ekanman, shohning aql va zakosiga suyanib, uning g'azablanmay, so'zlarimni sabr bilan tinglashiga ishonardim.

Shoh dedi:

— So'zlaringning barchasi to'g'ri, ammo ilming yetarli emasligi haqida aytganlaring o'rinli emas. Mening fikrimcha, sen hammadan har sohada ustunsan...

Shundan keyin shoh uchala vaziri bilan maslahatlasha boshladi. U eng kichik vaziriga murojaat qildi. Vazir dedi:

— Meningcha, biz juda ko'p qo'ng'iroqchalar tayyorlab, uni har bir mushukning bo'yniga ilib qo'yaylik. Ular yurganda qo'ng'iroqchalar ovozini eshitib, bizlar o'z inlarimizga berkinib olamiz va shunday qilib, jonimizni saqlab qolamiz.

Shoh ikkinchi vaziridan so'radi:

— Sen bunga nima deysan?

U dedi:

— Men bu fikrga qo'shilmayman. Aytaylik, qo'ng'iroqchalar tayyor bo'ldi, lekin kim uni hatto eng kichik mushuklarning bo'yniga taqishga jur'at eta oladi? Meningcha, hammamiz bir yilga sahroga chiqib ketsak. Biz g'oyib bo'lgandan keyin odamlarning mushuklarga ehtiyojlari qolmaydi, behuda boqishdan tinkalari qurib, ularni qirib tashlaydilar. Qochib qutulganlari esa har tomonga to'zib ketadilar, sahrolarda yovvoyilashib, shaharga kelmaydigan bo'ladilar. Ana shundan keyin biz

shaharga qaytib kelib, mushuklarsiz tinch hayot kechirishimiz mumkin.

Shoh katta vaziridan so'radi:

— Sherigingning bu aytganlariga nima deysan?

U dedi:

— Mening fikrimcha, bu reja ham to'g'ri emas. Avvalo, bir yilda odamlar mushuklarni boshqa yerlarga ko'chirib, yo'q qilib yuborishlariga ishonmayman. Ikkinchidan, sahroda boshimizga shunday azob-uqubatlar tushishi mumkinki, ularning oldida mushuklarning zulmi holva bo'lib qoladi. Axir sahroda mushukdan ham yomon ilon, qo'shoyoq, kalxatlar bor.

Shoh dedi:

— Rost aytding. Qani, sen nima tadbir ko'rishga maslahat berasan?

Vazir dedi:

— Men faqat birgina tadbirni ma'qul deb topaman. U ham bo'lsa quyidagidir: shoh amr etsinlarki, saroyda yashaydigan, shaharda in qurgan, atrofga yoyilgan barcha sichqonlar bu yerga to'plansinlar; har bir sichqon o'zi yashaydigan joyida butun sichqonlarni sig'dira oladigan bir uya qursin va unga o'n kunga yetadigan oziq-ovqat g'amlasin, undan tashqariga chiqadigan yettita teshik va gilam, mato saqlanadigan omborga uchta teshik ochsin. Ana shundan keyin hammamiz bittagina mushugi bor biron davlatmand odamning omboriga to'planib borib, uning matolari, gilamlari, kiyim-boshlarini chaynab, tit-pitisini chiqara boshlaylik, lekin don, oziq-ovqat va boshqa ozuqalarga tegmaylik. Buni ko'rgan uy xo'jayini bir mushuk-sichqonlarning uddasidan chiqa olmayapti shekilli, deb ikkinchi mushukni ham olib keladi. Shundan keyin biz ishga yana ham qattiq kirishib, yana ham ko'proq ziyon yetkaza boshlaymiz. Uchinchi mushukni keltirgandan keyin biz avvalgidan ko'proq harakat qilib, yolg'iz to'qilgan va tikilgan mollarnigina emas, barcha oziq-ovqatlarning ham pes-moxovini chiqara boshlaymiz. Uy egasi mushuklar sonini orttirgan sari biz ham ko'proq

zarar yetkazaveramiz... Shundan keyin uy egasi o'ylab, «men mushuklar sonini orttirganim sari sichqonlar mollarimni shuncha ko'p xarob qilmoqdalar, endi mushuklarni ozaytirib ko'ray-chi, nima bo'lar ekan», deb o'ylab qoladi. U mushukning birini quvib yuboradi, shunda biz ham biroz o'zimizni tiyamiz. Buni ko'rib mushukning nima foyda, nima ziyoni bor ekanligini tezda fahm qilgan xo'jayin ikkinchi mushukni ham haydaydi, shundan keyin biz ham unga zarar berishni to'xtatamiz. Buni ko'rgan xo'jayin mushukning uchinchisini ham quvib yuborishga majbur bo'ladi. Shundan keyin biz ham uning uyini butunlay tark etamiz. Uy egasi unga berilgan zararlarning boisi mushuklar ekanligi, ularning bizlarga qilgan jabr-zulmi tufayli qasos olish uchun bu ishlarni qilayotganimizni tushunadi va ularni uyidan quva boshlaydi. Natijada mushuklar bu uyga mutlaqo kelmaydigan bo'ladilar. Shundan keyin biz o'z ishimizni davom ettirib, boshqa uyga boramiz, undan yana boshqasiga va hokazo. Xullas, shunday qilamizki, oxirida hamma odamlar mushuklarning zararli ekanligini tushunadilar va xonaki mushuklarnigina emas, yovvoyilarini ham qirib tashlaydilar. Shunday yo'l bilan biz mushuklar balosidan xalos bo'lamiz.

Shoh vazirning bu tadbirini ma'qulladi va uni amalga oshirishga kirishishni amr etdi. Olti oy o'tar-o'tmas odamlar sichqonlardan keladigan zararning hammasini mushuklardan ko'radigan bo'ldilar. Ularni uylaridan quvib, o'ldira boshladilar. Oz vaqt ichida shahardagi barcha mushuklarni qirib yubordilar yoki uzoq-uzoq yerlarga olib borib tashladilar. Oxirida shunday ahvolga yetib kelindiki, agar biror odam birovning kiyimi yoki palosi teshilganini ko'rgudek bo'lsa, «bu shahar yonidan mushuk o'tib ketibdi shekilli», deydigan, odamlar va hayvonlar orasida kasallik tarqalsa, «bu shaharga mushuk kelibdimi», deydigan bo'lib qoldilar. Sichqonlar mana shu hiyla bilan mushuklardan qutulib, rohat-farog'atda yashadilar.

Jisman zaif kichkina bir hayvon o'z dushmanidan xalos bo'lish chorasini topa olar ekan, o'zining bilimdonligi va tadbirchanligi bilan butun jonivorlardan yuksak bo'lgan inson o'z dushmanidan xalos bo'lishga kirishsa, nima ishlar qilmasligi mumkin?

III

Ko'r va ko'zi ochiq

Dimna aytgan rivoyat

Bir zamonda bir zohid bor edi. U uzlatga chekinib kecha-kunduz toat-ibodat bilan mashg'ul bo'lardi.

O'sha viloyatning dindor bir podshohi bor edi. U qari zohidning ta'rifini eshitgan zamoniy oq darhol o'tlanib uni ziyorat qilgani keldi, zohidning achinarli ahvolini ko'rib, ko'zidan yosh chiqib ketdi. So'ngra zohiddan duo olib, bir necha kun uning qoshida qolishga ijozat so'radi. Zohid duodan so'ng dunyo va oxiratdan gap ochdi, shohning oldiga faqirona bir dasturxon yozdi. Podsho bir necha kundan keyin qaytishda zohidni ham o'zi bilan birga saroyga olib keldi.

Sal o'tmay zohid har masalada shohning eng yaqin maslahatchisi bo'lib oldi. Uning roziligisiz hech bir jiddiy tadbir ko'rilmas, hech bir farmon berilmas, hech bir hukm chiqarilmas edi. Mol-davlat, sha'n-shavkat zohidning tabiatini o'zgartirdi. U ibodatdan yuz o'girib, xiyonatga qo'l cho'zdi, hokimiyatni qo'lga kiritish xayoliga tushdi.

Podsho zohidning boshida o'zga bir savdo borligini, mamlakatga shoh bo'lish orzusida ekanligini payqab qoldi. Ilgarilari bir burda nonning tashvishini yegan zohid endilikda bir mamlakatni qo'lga kiritish haqida fikr yuritmoqda!

Tasodifan shu vaqtda zohidning qadimgi tanishlaridan bo'lgan bir darvish unikiga mehmon bo'lib keldi. U zohidning tamomila o'zgarib ketganligini, muomalasini ko'rib hayron bo'ldi.

Zohid darvishni ko'rib o'zini tanimaganga soldi va unga e'tibor qilmadi. Darvish dedi:

— E, zohid, bu nima qilganing? O'zingdan xabaring yo'q, takabbur va g'urur sharobi seni mast qilibdi. Sening ishing ko'r haqidagi masalga o'xshaydi.

Zohid dedi:

— Ko'rga nima qilibdi?

Darvish dedi:

— Bir ko'r bilan ko'zi ochiq kishi hamroh bo'lib safarga chiqibdilar. Ko'rning qo'lidagi qamchisi tushib ketdi, u otidan tushib, qamchini qidira boshladi. Bir zaharli ilon tun sovug'i ta'siridan Musoning hassasi kabi yerda karaxt bo'lib qotib yotardi. Ko'r uni o'z qamchisi deb o'ylab qo'lga oldi va otga mindi. Ko'zi ochiq uning qo'lidagi ilonni ko'rgach, qichqirdi:

— Do'stim, qamchi xayol qilib olganing zaharli ilonku! Tashla!

«Do'stim qamichini ko'rdi, mendan olmoqchi», deb o'yladi ko'r. Shuning uchun ham dedi:

— Do'stim, Olloh menga eski qamchi o'rniga yangisini baxsh etdi. Uni mendan tortib olmoqchimisani?

Ko'zi ochiq dedi:

— Ey, aziz do'stim, sendan qamchi tama qilayotganim yo'q. Ammo hamrohlikning shartlaridan biri, yo'ldoshi xatarda bo'lsa uni xabardor qilishdir.

U gapini qizg'anchiq ko'rga ma'qullata olmadi. Birozdan keyin havo qizidi, ilon jonlanib, ko'rning qo'lini chaqdi va uni halok qildi. Bu masalni shuning uchun keltirdimki, ko'r tutganini qo'ymagandek, sen ham dunyo moliga hirs qo'yma!

MUNDARIJA

Abadiyatga daxldor yodgorlik	3
Ibn-ash-shoh al-forsiy nomi bilan mashhur boʻlgan behnud ibn sahvoning muqaddimasi	8
Ibn muqaffa tartib etgan kitobdagi muqaddima	30
Buzurjmehr buxteqoning «kalila va dimna» kitobiga yozgan muqaddimasi	38
Barzuya hakim haqidagi bob	43
Sher va hoʻkiz bobi	54
Dimna ishining tekshirilishi	108
Chinkabutar, qargʻa, sichqon, toshbaqa va ohu bobi ..	131
Boyqush va qargʻa bobi	156
Maymun va toshbaqa bobi	188
Zohid va lacha bobi	199
Mushuk va kalamush bobi	203
Shahzoda va qubbara qush	211
Sher va shagʻol bobi	221
Ona sher, shagʻol va ovchi bobi	234
Zohid va mehmon bobi	241
Bilor va brahmanlar bobi	247
Sayyoh va zargar bobi	270
Shahzoda va uning oʻrtoqlari haqidagi bob	275
Xotima	281
ILOVALAR	282

Adabiy-badiiy nashr

KALILA VA DIMNA

Muharrir
Ma'mura QUTLIYEVA

Badiiy muharrir
Uyg'un SOLIHOV

Musahhih
Navro'z BEKMURODOV

Texnik muharrir
Surayyo AHMEDOVA

Kompyuterda sahifalovchi
Feruza BOTIROVA

Bosishga 06.01.2014y.da ruxsat etildi. Bichimi 84x108 1\32.

Bosma tobog'i 9,5. Shartli bosma tobog'i 15.75.

Adadi 5000 nusxa. Buyurtma № 1.

Garnitura «Academy Cyr+Uzb». Gazeta qog'ozi.

Bahosi kelishilgan narxda.

«Yangi asr avlodi» NMMda tayyorlandi.

«SPECIAL PRINTING SERVICE» bosmaxonasida bosildi.

«Yoshlar matuboti» bosmaxonasida muqovalandi.

100113. Toshkent, Chilonzor-8, Qatortol ko'chasi, 60.

Murojaat uchun telefonlar:

Nashr bo'limi – 278-30-52; Marketing bo'limi – 128-78-43

faks — 273-00-14; e-mail: yangiasr@inbox.ru

**“YANGI ASR AVLODI” NMM “KAMOLOT KUTUBXONASI”
RUKNIDA QUYIDAGI KITOBLARNI NASHRGA TAYYORLADI:**

Mark Tven

“TOM SOYERNING BOSHIDAN KECHIRGANLARI”

Bichimi 84x108 1/32

288 bet

Yumshoq muqova

Kirill va lotin yozuvlarida.

Adib mazkur asarida yosh, o'ta qiziqqon va sho'x, chigal to'siqlardan ham qiynalmay o'ta oladigan, og'ir va murakkab sharoitlarda ham o'zini tuta biladigan, uddaburon bola Tom Soyer haqida hikoya qiladi.

Paulo Koelo

“ALKIMYOGAR”

Bichimi 84X108 1/32, 184 bet.

Yumshoq muqova.

O'z taqdirimiz o'z qo'limizdami? Misni oltinga aylantiradigan Alkimyogar, umumbashar tili, taqdir toshlari aslida mavjudmi? Orzular, muhabbat bu yo'lda bizga yordam beradimi yoki aksincha... Asar mana shular haqida ramziy bir shaklda hikoya qiladi.

Rashod Nuri Guntekin.

“ChOLIQUShI”

Bichimi 84X108 1/32, 458 bet.

Qattiq muqova.

Muhabbat mavzusiga bag'ishlangan asarlarni millati va dinidan, yoshidan qat'i nazar, barcha birdek sevib, ko'ziga yosh olib, qahramoni taqdiriga o'zini hamdard qilib o'qiydi. Rashod Nuri Guntekinning mashhur “Choliqushi” asarini ham xuddi shunday hissiyot bilan qo'lga olasiz. Unda bu tuyg'u o'zining butun qudratini birgina ojiza – Choliqushi timsolida yaqqol gavdalantirib beradi.

Rabindranat Tagor.

“NUR VA SOYaLAR”

84x108 1/32, 256 bet.

Yumshoq muqova.

Dunyoda har bir xalqning adabiyot cho'qqisini zabt etgan, el ardoqlagan ulug' siymolari bor. Hind millatining shunday farzandlaridan biri Rabindranat Tagordir. U o'zining o'tkir qalami

bilan millatini uyg'otish, yurtini hur va ozod ko'rish uchun kurashdi.

Stendal

«QIZIL VA QORA»

Bichimi 84x108 1/32, 708 bet.

Qattiq muqova.

Mashhur frantsuz yozuvchisi Stendalning «Qizil va qora» romani haqli ravishda dunyo adabiyoti durdonalari qatoridan o'rin olgan.

Roman qahramoni bo'lmish Jyulen bilan de Renal xonim o'rtasidagi muhabbat shu qadar tabiiy hamda tiniq tasvirlanadiki, kitobxon beixtiyor ularning musaffo tuyg'ulariga maftun bo'lib qoladi.

Romanda yaxshilik va yomonlik, ezgulik va razillik o'rtasidagi kurash zo'r kuch bilan tasvirlab berilgan. Asarning «Qizil va qora» deb nomlanishining boisi ham shunda.

Ernest Xeminguey

«ChOL VA DENGIZ»

Bichimi 84x108 1/32 444 bet.

Qalin muqova

Ushbu kitobga dunyo miqosida mashhur adib, «Nobel» mukofoti sovrindori E.Xemingueyning eng sara asarlari kiritilgan. «Chol va dengiz» qissasida insonning ulug'ligi, undagi iroda va matonat, oqillik va azmu qaroridan og'ishmaslik o'zgacha talqinda aks etgan.

«Alvido, qurol» romani esa qahramonlarning fikr-xayollari, kechmishiari, urushning insoniyat boshiga solgan mudhish kulfatlari haqida o'ylashga, tinchlikning qadriga yetishga chorlaydi.

Serqirra ijodkorning millionlab nusxalarda chop etilgan asarlarini mutolaa qilishga shoshiling, aziz kitobxon.

Jaloliddin Rumi

«IchINDAGI IchINDADUR»

Bichimi 84x108 1/32, 240 bet.

Yumsboq muqova.

«Ichindagi ichindadur» Mavlono Jaloliddin Rumiyning turli majlislarda bildirgan o'tlug' fikrlaridan tarkib topgan. Siz ushbu risolani o'qib, inson va olam, ong va borliq, inkor va isbot, xayol va amal singari falsafiy tushunchalarning asl mohiyatini anglaysiz. Va hamma narsa O'zingizda, hamma narsa O'zingizdan ekanligiga yana bir bor iymon keltirasiz.

Abdulla Qodiriy
“O‘TKAN KUNLAR”

Bichimi 84x108 1/32, 442 bet.

Qattiq muqova.

Kirill va lotin yozuvlarida.

Sevgi kimlarni yig‘latib, kimlarni kuldirmagan deysiz. Sharq adabiyotining nodir asarlaridan biri hisoblanmish mazkur asarda muhabbat o‘zgacha, takrorlanmas badiiy talqin qilinadi. Shuningdek, vatanparvarlik, chaqimchilik, andisha, xotinbozlik, muomala, behayolik singari mavzular ham qalamga olinadi. Mutolaaga shoshiling.

Alisher Navoiy

«XAMSA»

84x108 1/32. 432 bet.

Qalin muqova.

Mazkur kitobda Alisher Navoiy «Xamsa»sidagi barcha dostonlarning mazmuni bayon qilingan. Ularda shoir tomonidan tasvirlangan turli voqea-hodisalar aks ettirilgan, faqat kirish qismlari, me‘yoridan cho‘zilib ketgan manzaralar, monologlar bir oz qisqartirilgan. Ushbu Navoiy dostonlarining nasriy talqinini o‘qib chiqib alloma shoirimizning turkiy she‘riyatning gultoji hisoblanmish «Xamsa» she‘riy dostonlarini anglab olishingizga yordam beradi, deb o‘ylaymiz.

Cho‘lpon

“KECHA VA KUNDUZ”

Bichimi 84x108 1/32, 332 bet.

Qattiq muqova.

Kirill va lotin yozuvlarida.

Abdulhamid Sulaymon Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romani yaratilganiga qariyb 80 yil bo‘lsa-da, u hamon qo‘ldan-qo‘lga o‘tib kelmoqda. Mazkur asar ikki qismdan iborat bo‘lib, dastlabkisi – “Kecha” deb nomlangani qo‘lingizdagi kitobda aks etadi. “Bugun” deb atalgan ikkinchi qismi haqida esa ma‘lumotlar yo‘q.

Kitobda o‘zbeklarga xos andisha, himmat, iffat va soddalik kabi fazilatlar bilan birga xotinbozlik, xudbinlik va mol-mulk orttirish yo‘lidagi illatlar ham o‘z in‘ikosini topgan. Bu kabi sifatlar va illatlar kitobxonni chuqur mushohada yuritishga undaydi.

Cho‘lpon dunyosi, uning olami, ijodidagi nafislik va serjilolik siz, azizlarga manzur bo‘ladi, degan umiddamiz.

Mirzakalon Ismoiliy.
“QIZLAR DAFTARIGA”
84x108 1/32, 172 bet.
Yumshoq muqova.

Ushbu kitob o‘z davrida qo‘lma-qo‘l bo‘lib ketgan. Unda buvining nabira-qiziga, shu orqali uning dugonalariga hayot saboqlari – muhabbat, vafo, burch va sadoqat, halollik, to‘g‘rilik xususidagi o‘g‘tlari o‘z aksini topgan. Shu bilan birga egrilikning oqibatlarini, oiladagi kelinlik vazifalari, farzand tarbiyasidagi nozik jihatlar bayon etiladi. Kitob mutolaasi balog‘at yoshidagi har qanday qiz qalbidagi yashirin so‘roqlarga, yurak tubida asragan, kimdandir so‘rashga iymamayotgan savollariga javob bo‘ladi.

Mazkur tuhfa turmush qurish arafasida turgan qizlarimizga, yosh kelinlarimizga mustahkam oila bekasi bo‘lishlarida hissa qo‘shadi, degan umiddamiz.

Mirkarim Osim
«TO‘MARIS»
Bichimi 84x108 1/32 140 bet.
Yumshoq muqova.

Ajdodlarimizning bosqinchilarga qarshi mardonavor kurashlari bir necha ming yillar oldin Mag‘rib va Mashriqda afsonalarga aylangan, ular haqida ko‘plab asarlar yozilgan. Ushbu kitobda Mirkarim Osimning mazkur mavzuga oid eng sara asarlari jamlandi.

Aziz kitobxon, Vatanni sevgan, forslardan uni himoya qilgan, tinchligiga posbon bo‘lgan massagetlar podsho-hokimasi To‘maris, cho‘pon Shiroq, mo‘g‘ullarga qarshi kurashgan yengilmas bahodir Temur Malik jasoratidan hikoya qiluvchi qissalar mutolaasiga shoshiling.

G‘afur G‘ulom
«SHUM BOLA»
Bichimi 84x108 1/32, 164 bet.
Kirill va lotin yozuvlarida.
Yumshoq muqova.

“Dandon sopli pichoq”dan boshlanib, chuvalashib ketgan gapni boyning qizi – Adolning “o‘g‘il tug‘ib bergani”ga borib ulab “innankeyin”chi, o‘lgudek injiq, ziqna, ezma Sariboyni mot qilgan Shum bolaning bir-biridan qiziq sarguzashtlaridan xabardor bo‘lishni xohlasangiz kitob mutolaasiga shoshiling.

Xudoyberdi To'xtaboyev

«SARIQ DEVNI MINIB»

Bichimi 84X108 1/32, 544 bet.

Qattiq muqova.

“Sariq devni minib” kitobi sevimli adibimizning ikki kitobining to‘plamidan iborat. “Sariq devni minib” va “Sariq devning o‘limi” sarguzasht romanlari bolalar hayotidan olib yozilgan bo‘lib, ularning sevimli kitoblaridandir. Bu asarda orzu-havasga eltadigan chinakam yo‘l halol mehnat, yaxshi xulq-odob va qunt bilan o‘qishda ekanligi ta’kidlanadi.

Shukur Xolmirzayev

«O‘N SAKKIZGA KIRMAGAN KIM BOR»

Bichimi 84x108 1/32, 284 bet.

Qattiq muqova.

Mazkur kitobga O‘zbekiston Xalq yozuvchisi, iqtidorli adib Shukur Xolmirzayevning eng sara qissalari va hikoyalari kiritildi. Ularda sevgi-muhabbatning o‘zgacha talqini, oshiqlik va ojizlik, matonat va razolat, inson ma’naviyati bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy va axloqiy masalalar bayon etiladi.

Alisher Navoiy

«G‘AZAL GULZORIDAN 100 OTASHIN GUL»

84x108 1/32 120 bet. Yumshoq muqova.

Qo‘lingizdagi kitobchada mutafakkir shoir Alisher Navoiyning «Xazoyin ul-maoniy» kitobidagi «G‘aroyib us-sig‘ar» devonidan o‘rin olgan dastlabki 100 g‘azalning nasriy bayoni o‘rin olgan. Garchi bu xil ifoda usuli bilan shoir qalamiga mansub badiiy durdonalarning g‘oyaviy-badiiy nafosatini aks ettirish imkoniyati bo‘lmasa ham, bu asar g‘azallar mazmunini chuqurroq anglab olishingizga ma’lum darajada yordam beradi, deb umid qilamiz.

Vilyam Shekspir

«DRAMALAR»

Ingliz tilidan Farrux ATAYEV tarjimasi

Bichimi 84x108 1/32, 84 bet.

Yumshoq muqova.

Har bir xalqning ma’naviyati o‘zga xalqlar adabiyoti, san’atidan bahramand bo‘lish orqali quvvatlanib boradi. Bu borada esa badiiy tarjimaning ahamiyati beqiyosdir.

O‘quvchi Shekspirning she’riy uslubdagi dramalarining nasriy uslubda sodda va lo‘nda ekanligiga guvoh bo‘ladi va qisqa fursat ichida Shekspir mahoratidan bahramand bo‘ladi.



Hind xalq oposi

«Kalila va Dimna» hind faylasuf olimlari tomonidan yozilgan. Asar Barzuya hakim tomonidan yashirincha Eronga keltirilib, pahlaviy tilga tarjima qilingan. Bu tarjima yo'qolib ketgan, lekin pahlaviy tilidan suriya tiliga qilingan tarjima (taxminan 570-yillar, muallifim Hud nomi shaxs) adabiyotga nodir yodgorlik sifatida qo'shildi. «Kalila va Dimna»ning Abbosiylar xalifaligi davrida o'sha zamanning eng donishmand olimlaridan bo'lmish kutubxona boshqaruvi (721 – 757) tomonidan arab tiliga qilingan tarjimasining butun dunyo bo'ylab tarqalishiga sabab bo'ldi.

X – XI asrlarda «Kalila va Dimna» Ibn al-Muqaffa tarjimasida yana suriya tiliga, XI asrning oxirlarida yunon tiliga, XII asrda yunonchadan slavyan tiliga, XIII asr o'rtalarida yahudiylar tiliga, bir necha o'n yillardan keyin esa lotin tiliga tarjima qilingan. Ana shu oxirgi tarjima fransuz, italyan, nemis va boshqa g'arb tillariga qilingan tarjimalarga asos bo'lib xizmat qilgan.

«Kalila va Dimna» ushbu yillardan beri o'zbek xalqiga ma'lum, uning ko'p hikmatli so'zlari, ajoyib hikoyatari har bir o'zbek bilan xalq orasiga keng yayilib, og'irdan og'irga o'tib kelmoqda. Asarning XIX asrda o'zbek tilida nashr etilishi adabiyot tarixida muhim hodisa bo'ldi hamda bu asar o'zbek xalqining kam muhim nashrlaridan biri bo'ldi.

